

nom. 65.01.
I-34.

11/25

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(O'QUV QO'LLANMASI)

QAYTA ISHLANGAN UCHINCHI NASHR

Farg'ona-2010

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**IQTISODIYOT
NAZARIYASI**

(O'QUV QO'LLANMASI)

QAYTA ISHLANGAN UCHINCHI NASHR



Farg'ona-2010

Hozirgi jadal o'zgarib borayotgan davrda, ayniqsa, ilm-fan, axborot-texnologiyasi taraqqiyoti, intellektual va innovatsion g'oyalarning yangidan vujudga kelib, fikrlar, qarashlar va ilmiy g'oyalar taraqqiyotida iqtisodiyot fanlari, ayniqsa, iqtisodiyot nazariyasi fanini, yanada rivojlantirish, g'oyaviy va nazariy jihatlarga chuquroq hamda har tomonlama yangicha yondashuv zaruriyati vujudga keldi. Shu tamoyillar asosida va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz siklining yangicha ro'y berayotgani, iqtisodiyot fanini yoshlarga, tatabalarga yangicha yondashuv va g'oyalar asosida o'qitish, o'rgatish va o'rganishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Davlatlar va hukumatlar tomonidan, jumladan, O'zbekistonda "Barkamol avlod yili" davlat dasturi ishlab chiqildi. Uzluksiz ta'lim tizimini va dasturlarni takomillashtirish, tarbiyalanayotgan yosh avlodni va kadrlarni jahon ta'lim standartlari darajasida yuksak, samarali hamda raqobatbardoshligini yanada yuksaltirishga e'tibor berimoqda. Shu munosabat bilan Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida 2010 yildan iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish va o'rgatishga doir zamon talabiga javob beradigan ma'ruza matnini va o'qitish uslubiyatini takomillashtirish darajada tayyorladi. U kafedraning 2010 yil 12 maydagi (Bayonnoma №10) yig'ilishda muhokama qilib, o'quv qo'llanmasi sifatida nashrga tayyorlandi. Universitet ilmiy kengashining 11-yig'ilishidagi (2010 yil 26 iyun) qarori bilan chop etishga tavsiya berilib tasdiqlandi.

O'quv qo'llanma bir-biri bilan mantiqiy va uzviy bog'langan 23 ta mavzudan iborat bo'lib, undan iqtisodiyotning umumiy asoslari, bozor iqtisodiyoti, makroiqtisodiyot va jahon xo'jaligiga oid mavzularni o'z ichiga olgan. Ayniqsa, hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotining qoidalariga, moliya, kredit, bank va pul tizimining roliga alohida e'tibor berilgan. Qo'llanma barcha yo'nalishlardagi bakalavrlar va kollejlar uchun mo'ljallangan.

Matn tayyorlovchi

mualliflar:

i.f.d., prof. A.G'ofurov., i.f.n. d.v.b D.Xakimov.,
i.f.n. d.v.b A.O'rinov.

Taqrizchilar:

Vahobov A. i.f.d.prof. Bank-moliya akademiyasi
rektori, G'oziev X. i.f.n.dots. FPI kafedra mudiri.

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I-Bo'LIM. IQTISODIY RIVOJLANISHNING UMUMIY ASOSLARI	
1-Mavzu: Iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari hamda yo'nalishlari.....	8
2-Mavzu: Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish jarayoni.....	13
3-Mavzu: Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkiy munosabatlar.....	18
4-Mavzu: Tovar -pul munosabatlari bozor iqtisodiyotini shakllanishi va rivojlanishi asosi.....	24
5-Mavzu: Bozor iqtisodiyotining tuzilishi, unga o'tish muammolari.....	27
6-Mavzu: O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning xususiyati.....	33
7-Mavzu: Talab va taklif. Makroiqtisodiy muvozanat.....	37
8-Mavzu: Raqobat va monopoliya. Bahoni tashkil topishi.....	42
9-Mavzu: Tadbirkorlik faoliyati.....	51
10-Mavzu: Korxona (firma) xarajatlari va foydasi: tarkibi, shakllanishi va taqsimlanishi.....	59
11-Mavzu: Agrar munosabatlar va agrobiznes.....	71
12-Mavzu: Taqsimotning amaliy va shaxsiy jihatlari.....	78
II-BO'LIM. MILLIY IQTISODIYOTNI AMAL QILISHI VA RIVOJLANISHI	
13-Mavzu: Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi milliy mahsulot.....	86
14-Mavzu: Milliy iqtisodiyot. Uning o'sishi va milliy foylik.....	95
15-mavzu: Milliy iqtisodiyotning muvozanatligi va nisbatlari.....	100
16-Mavzu: Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy barqarorlik.....	103
17-mavzu: Yalpi ish kuchi, uning bandligi va ishsizlik.....	112
18-Mavzu: Moliya tizimi va moliyaviy siyosat. Soliq tizimini takomillashtirish.....	115
19-Mavzu: Bank -kredit tizimi. Bank-kredit, ularning iqtisodiyotdagi roli.....	129
20-Mavzu: Qimmatli qog'ozlar, ularning o'rni va roli.....	136
21-Mavzu: Marketing va menejment asoslari.....	141
22-Mavzu: Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli. Aholi daromadlari va ijtimoiy himoya.....	151
III-Bo'LIM. JAHON XO'JALIGI, UNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI	
23-Mavzu: Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.....	154

KIRISH

Iqtisodiyot nazariyasi fanining mazkur lotin yozuvida yozilgan muammoli ma'ruza matni O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni asosida, «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi» mazmuni-mohiyatidan va Prezidentimiz I.Karimovning Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraga bag'ishlangan nutqidan kelib chiqqan talablar asosida, davlat standartlari bo'yicha bakalavriat darajasida, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida jahonda ro'y bergan iqtisodiyotdagi hodisa va jarayonlarning salbiy oqibatlari ta'sirini jahon mamlakatlari tomonidan pasaytirish va undan keyingi davrdagi istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida o'sish va rivojlantirish choralari dasturlari hamda O'zbekistonning bu boradagi ishlab chiqqan inqirozga qarshi choralar va "Barkamol avlod yili" davlat dasturlarini amaliyotga joriy etishni dunyo olimlari va ekspertylari e'tirof etgan qarashlar, xulosalar asosida tayyorlash maqsad qilib qo'yilgi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, berayotgan yuksak samaralar, yosh avlodning puxta bilim olishi, o'z kasbining va mutaxasssligining etuk raqobatbardosh bo'lib etishi, yoshlar va talabalar kamoloti uchun barcha zarur va qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish va uning oqibatlarini engillashtirishni o'rganish va o'rgatish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan "O'zbek modeli"ning ishlab chiqilgan besh tamoyilining nazariy va amaliy jihatdan to'g'riligini jahonning yuzlab davlat va jamoat arboblari, biznesmenlari, diplomatlari, olim va ekspertylar, nufuzli xalqaro moliya tashkilotlarining vakillari e'tirof etdilar. O'zbekistonda hayotga tatbiq etilgan inqirozga qarshi choralar dasturi yo'nalishida keng ko'lamli islohotlarni yuksak samara bilan olib borilayotgani, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini, budget, bank-moliya va kredit tizimlarini, agrar tarmoqlarini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, ishlab chiqarishning ichki va tashqi bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash hamda bu borada jahon hamjamiyati bilan hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish kabilar iqtisodiyot nazariyasini o'qitishda va o'rganishda hisobga olishni, nazariy-amaliy jihatlarini chuqurlashtirishni talab etadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fanni o'qitish, o'rgatish va o'rganish vazifalari har xilligidan kelib chiqib, noiqtisodchi mutaxasssliklar uchun Oliy Ta'lim Vazirligining namunaviy o'quv rejasida ko'zda tutilgan quyidagi ixtisosliklarga mo'ljallangan: matematika, amaliy matematika, fizika, ximiya, biologiya, sotsiologiya, rus, o'zbek, chet tillari, kasbiy ta'lim, chaqiriqqacha harbiy ta'lim, tarix, huquqshunoslik, va jismoniy madaniyat kabi yo'nalishlaridir.

Ularning hammasi uchun o'quv rejasida 56 soatdan dars mashg'ulotlari o'tkazish mo'ljallangan bo'lsada, ularning har biriga ma'ruza va seminar uchun ajratilgan soatlar bir-biridan farqlanadi. Shunga muvofiq ham seminar mashg'ulotlari (32 va 34 soatdan) har xil miqdorda belgilangandir.

Demak, Iqtisodiyot nazariyasi fani tabiiy va gumanitar mutaxassisliklari uchun ma'ruzalar 38 soatdan, seminarlar ham 38 soatdan belgilangan. Shuningdek iqtisodiyot mutaxassisliklari talabalari uchun bir muncha ko'proq bo'lib, hamma soat 106 soat, shundan ma'ruzalar uchun 52 soat va seminar uchun ham shuncha 54 soat belgilangan.

Yuqoridagi ma'ruza va seminarlarga ajratilgan soat miqdoridan qat'iy nazar hamma noiqtisodchi mutaxassisliklar uchun ajratilgan 95 soatli Iqtisodiyot nazariyasi faniga berilgan miqdor umumiylikni hisobga olib, 23ta mavzuda muammoli ma'ruza-matni yozilib tayyorlandi. Shun hisobga olish lozimki, 52 soatli ma'ruza uchun ayrim mavzularga 2 soat, ma'ruza-matni emas, 4 soat o'tish (masalan, birinchi mavzu: Iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishi va asosiy yo'nalishlari va bosqichlari» uchun) mo'ljallangan. Yana 3 - 18 mavzular uchun ham 4 soatlik dars mo'ljallangan. Qolgan mavzu soatlarga o'quv rejasidagi soatlarda o'qiydigan noiqtisodchi mutaxassisliklarning miqdorini ko'pligi ham hisobga olingan.

Yana bitta farqi shundaki, 2010 yildagi ma'ruza matniga 2006 yil oktabrida kafedra tomonidan chop etilgan "Iqtisodiyot nazariyasi" dasturida belgilangan ba'zi bir mavzularga ham o'zbek tilida tayyorlangan ma'ruza-matnlarning mavzulariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Umuman olganda, muammoli ma'ruza-matni tayyorlash jarayonida fanni o'qitishda quyidagi vazifalarni hal etish maqsadi qilib qo'yilgan:

- talabalarni iqtisodiyot bilimlarining nazariy asoslari va amaliyotda foydalanish uchun qo'llanilishi va o'rganishga ko'maklashish;
- talabalariga iqtisodiyotning umumiy qonuniylari, qoidalari, jamiyatning iqtisodiy hodisa va jarayonlarining mohiyati, xususiyatlarini yanada tayan, chuqur mushohada qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashishlarni o'rganishga hamda egallab olishga ko'maklashish;
- iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy, tashkiliy-xo'jalik va huquqiy omillarni ham bilib olishga yordamlashish;
- tashqi iqtisodiy munosabatlarning ta'sirini o'rganib borish lozimligi;
- iqtisodiyot fanining chuqur va har tomonlama nazariy va huquqiy amaliy bilib olish O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini siyosiy va iqtisodiy mustahkamlashga, Vatani va xalqi uchun fidoiy bo'lib, manfaatlarni himoya qiluvchi adolati, tashabbuskor, ishbilarmon, adbirkor, raqobatli va ijodkor bo'lib kamolotga erishgan mutaxassis bo'lishga qiziqtirish va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Bunday vazifalarni qo'yishdan maqsad shuki Iqtisodiyot nazariyasi fani noiqtisodchi mutaxassislar tayyorlash o'quv rejasiga kiritilgan barcha fanlar bilan yaqindan aloqada bo'lsada, ular o'qitilgan fanlarning iqtisodiy nazariya asosi va mantiqiy mohiyatini ochib berishda uslubiy asosini tashkil etadi va ularni bog'lovchi oraliq, bo'g'in sifatida xizmat qiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan tayyorlangan mazkur ma'ruza-matnlari umumiy talablar dasturiga kiritilgan har bir mavzudagi iqtisodiy muammolarni o'zlashtirish va ular bo'yicha mustaqil fikr va mulohaza yuritish darajasi bilan bog'langandir. Bu matnlar o'quv dastigi va

qo'llanmalar xarakteridagi adabiyotlarni qisqacha va soddalashtirilgan mohiyatini o'zlashtirish bilan birga Prezidentimiz I.Karimovning asarlari, ma'ruzalari, Farmonlari, Respublika Oliy Majlis tomonidan iqtisodiyotga tegishli qabul qilingan qonunlarni va Vazirlar Mahkamasi chiqargan qarorlar, me'yoriy hujjatlarni o'rganishni ham taqozo etadi.

Ayniqsa, «Milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar» dasturi talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan va to'ldirilgan.

Ma'ruza-matnida qayd etilganidek, har bir mavzu uchun alohida tayyorlab qo'yilgan o'quv ko'rsatma qurollardan, jadvallardan, diagrammalardan, pedagogik texnologiyalardan foydalanish va qo'llash ko'zda tutilgan. Kafedrada 60 xil turdagi jadvallar, diagrammalar, o'quv ko'rgazma qurollari va vositalari mavjud.

FDU Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida Iqtisodiyot nazariyasi fanini iqtisodchi va noiqtisodchi mutaxassislik fakultetlari talabalarini o'qitish va o'rgatish maqsadida ma'ruza mavzulari va ularning soatlarga taqsimlanishi o'quv rejasiga muvofiqlashgan.

Mazkur muammoli ma'ruza-matnini tayyorlash jarayonida muammoli savollarga, ularning mazmun-mohiyatiga, yangi materiallar va ma'lumotlar bilan boyitishga, ayniqsa, sifati va hajmiga yangicha talablar qo'yilib, qo'yilgan muammolarni, echimini topishga yo'llanmalar qisqacha izohlab o'tilgan. Bunda qaysi adabiyotdan, qaysi sahifasidan foydalanishlarning usulicari tavsiya etilgan. Muammolarni tashqi va ichki jihatlariga e'tibor berilib, misollar keltirilgan. Shu bilan birga hukumat va Prezident tomonidan qabul qilingan qonun, qaror va farmonlardan foydalanishlari tavsiya etilgan. Ayrim holda qo'shimcha ma'lumotlar ma'lum rangda va jadvalda keltirilgan. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlari va uni oldini olish hamda undan keyingi davrdagi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Professor A.G'ofurov

I-BO'LIM. IQTISODIY RIVOJLANISHNING UMUMIY ASOSLARI

1-Mavzu: Iqtisodiyot nazariyasi fanining vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari hamda yo'nalishlari

Reja:

1. Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi, rivojlanish bosqichlari va maqsadi;
2. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti, kategoriyalar va qonuniyatlari;
3. Iqtisodiyot nazariyasini bilishning uslubatlari va xususiyatlari;
4. Predmetning tabiiy, gumanitar va ijtimoiy fanlardan farqi va aloqadorlik muammolari.

Ma'ruzaning maqsadi:

Iqtisodiyot nazariyasining mohiyatini, bosh muammosini tahlil qilish va uning rivojlanish bosqichlarini bayon etish;

Qiyoslash va yo'nalishlarini ko'rsatib berish (neoliberalizm, keynschilik, monetarizm, sotsial-institutsionalizm);

Iqtisodiyot nazariyasi rivojiga ta'sir etuvchi ko'p tomonlama omillar va qarashlarni ko'rib chiqish.

Mazkur mavzuni o'rganib, Siz quyidagi yangi tushunchalarni o'rganib chiqasizlar:

Iqtisodiyot nazariyasi, ekononiks, ijtimoiy ishlab chiqarish, makroiqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy resurslar, neoliberalizm, keynschilar, marginalizm, marksizm, monetarizm, sotsial institutsionalizm, ijtimoiy ehtiyoj, tadbirkor, xarajat, ish haqi, moliya, bank, soliq, qimmatli qog'ozlar, jahon xo'jaligi kabilar.

1. Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi va rivojlanish bosqichlari
Iqtisodiyot nazariyasida cheklangan iqtisodiy resurslardan oqilona va umumiy foydalanib, kishilarning yashashi, kamol topishi va zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun tirikchilik vositalarini ishlab chiqish va iste'molchilarga ta'minlashga qaratilgan bir-biri bilan uzluksiz aloqadorlikda va bog'liqlikda har xil faoliyatlarni yaxlitlikda birlashtiruvchi iqtisodiy tizimni **iqtisodiyot** deb ataladi.

Iqtisodiyot nazariyasining bosh muammosi - insonlarning cheksiz o'sib borayotgan ehtiyojlarini cheklangan iqtisodiy resurslar bilan qondirish usullari, shakllari va vositalaridan faoliyatda samarali foydalanishdan iborat.

Iste'mol tovarlari va xizmat ko'rsatish sohalari har xil bo'lganligi uchun iqtisodiy faoliyat ham turlichadir, ularning turi va soni juda ko'pdir.

Qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida bo'lganligi uchun uni yuritish

Mazkur mavzuni o'rganib
Sizlar quyidagi kategoriya va
tushunchalarni bilasizlar:

Iqtisodiyot, ishlab chiqarish,
teqanot, ayrib chiqish,
iste'mol, xizmat ko'rsatish, pul,
tovar, qimmat, foyda, foy
daromad, xo'jalik.

qonunlari tushunilgan. Keyinchalik uy xo'jaligi qatori jamoa xo'jaligi, davlat xo'jaligi kabi shakllar doirasi kengayib, moliya, bank, fond birjalar, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiya, konsernlar, qo'shma korxonalar va davlatlar o'rtasida turli munosabatlardan iborat murakkab organizm vujudga keldi.

Bunday keng doiradagi iqtisodiy munosabatlarni faoliyatida cheklangan resurslardan oqilona va umumiy foydalanish yo'li bilan ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va xizmat ko'rsatish yo'llarini topish iqtisodiyot nazariyasining asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ular:

1. Tarixiy taraqqiyot darajasiga qarab, mamlakatlarda turli davrlarda iqtisodiyot turlicha bo'lishi mumkin: an'anaviy, ma'muriy buyruqbozlik va bozor iqtisodiyoti shakllarida bo'lib keldi;

2. Qamrov (miqyosi) darajasiga qarab: jahon iqtisodiyoti, mamlakat iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, tarmoq iqtisodiyoti, mintaqa iqtisodiyoti, korxona iqtisodiyoti, oila iqtisodiyoti. Ularni, ba'zan yaxlitlashtirib makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot ham deb ataladi.

Shundan ma'lumki, iqtisodiyot nazariyasi inson hayotining asosini, uning poydevorini, nazariy va amaliy jihatlarini tashkil etadi.

A) inson iqtisodiyotning harakatga keltiruvchi kuchi, barcha tovar va xizmatlarning iste'molchisi, ishlab chiqaruvchisi va yaratuvchisi;

B) inson tovar va xizmatlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi va vositachisi rolini bajaradi;

V) inson iqtisodiyotning barcha darajasida tashkilotchisi, boshqaruvchisi, ularni mosligini uyg'unligini va aloqalarining ta'minlovchisidir.

Boshqacha aytganda, inson boshqa mavjudodlardan farqli o'laroq iqtisodiyotdagi roli uning ongli va ijodiy mehnat qila olishida, o'z faoliyati uchun zaruriy mehnat qurolini yaratish qobiliyatiga egaligidadir.


3. Inson tomonidan yaratilgan noz-ne'matlarning harakati bo'yicha iqtisodiyot turli fazalardan iborat: tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish jarayonining harakati:

- Ishlab chiqarish;
- Taqsimlash;
- Ayirboshlash;
- Iste'mol qilish;
- Xizmat ko'rsatish.

Ulardan eng asosiysi ishlab chiqarish va iste'moldir.

MUAMMOLI SAVOL:
Mazkur harakatda qaysisi eng muhim rol o'ynaydi va qaysilari tezlashtiruvchi vositachi rolini bajaradi. Ularni diqqat bilan o'qib topishingiz mumkin.

Taqsimlash, ayirboshlash, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida tezlashtiruvchi omil sifatida tovar va xizmatlarning hajmi, daromad hajmi ko'paytiriladi. Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi, bu o'sib boradigan ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiyot resurslarning cheklanganligidir. Iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish va ehtiyojlarni qondirish darajasi o'rtasidagi doimiy va mustahkam aloqadorlik va bog'liq muammosini yechish usullarini quyidagicha ifodalash mumkin:



Iqtisodiyot nazariyasining rivojlanish bosqichlari:

	I	II	III	IV
1. Iqtisodiy resurslardan tabiiy holda foydalanish va qo'l mehnati	Sodda ishlab chiqarish, o'zi va oilasi uchun mahsulot yaratish	Iqtisodiyotdagi sub'yektlar manfaatiga qarab iqtisodiyotni tashkil etish	Rejali ra'umiy buyurtqibozlik iqtisodiyot nazariyasi	Aralash yoki bazor iqtisodiyoti yoki umuminsonty iqtisodiyot nazariyasi
2. Iqtisodiyotda oila, jamoa va davlat korxonalarini shakllanishi	1. Har bir oila o'zi uchun iste'mol mahsulotlarini yaratish; 2. o'zidan ortiq qismi zarur mahsulotga ayirib boshlash; 3. Asosan mahsulotlarni qo'l mehnatida ishlab chiqarish; 4. Ishlab chiqarish jarayonida hayvonot kuchidan foydalanish	* iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida sinfiy ekan tabiiy manfaatiga qarab iqtisodni tashkil etish, quldorlar, savdogarlar, dehqonlar, chorvadorlar kabi xususiy mulkni paydo bo'lishi	* iqtisodiyotda ishlab chiqarishning umumlashuvi va markazlashuvni boshqarishda markazlashgan rejali iqtisodiyotni paydo bo'lishi	* iqtisodiyotda umuminsonty iqtisodiyotni to'qash va rivojlantirish; * fuqarolar huquqlari ustuvorligini ta'minlash
3. Manufaktura mashinalashgan ishlab chiqarishni paydo bo'lishi	* ishlab chiqarish oddiy kooperatsiya shaklidan foydalanish yoki birgalikda ishlab chiqarish; * barcha mahsulotlarni xomashyodan tayyor mahsulotga bir joyda tayyorlash, tabiiy in'omlardan keng foydalanish	* iqtisodiyotda manufaktura paydo bo'lishi; * ishlab chiqarishning ixtisoslashuv va kooperativlashuvi; * iqtisodiyot faoliyatida texniklashuv mashinalashuvning paydo bo'lishi; * resurslarning cheklanganligi vujudga kelishi va undan foydalanish muammolari	* mulkni davlat mulkiyosida umumlashtirish; * xususiy mulkka qarshi choralar ko'rish	* industrial ishlab chiqarishga aylanish jarayonida xitma xitmu va ko'p qadlik shakllanishning paydo bo'lishi; * oile dehqon, mikrofirm, kichik, o'rt, yirik korxonalar aksiyadotlik va dav korxonalari, qo'lda korxonalar, konsent kooperatsiyalar, birlashmalar

Iqtisodiyot nazariyasining rivojlanish bosqichlarida juda ko'plab qarashlar, fikrlar, nazariy va yo'nalishlar vujudga kelgan.

1. Xitoy Konfutsiyasi, Xind «Manu», «Avesto»dagi hayot kechirish usullari, shakllari, vositalari, «mehnat hayot bilan» iqtisodiyotda yaxshilik, yomonlik o'rtasidagi qarashlar, «Ezgu amalo», «Ezgu mehnat» maqsadlarini ro'yobga chiqarish harakatlari.

2. Ksenofont («Iqtisodiyot» so'zni ilimga kiritish, Aristotel «siyosiy iqtisod» so'zini fanga aylantirish («politekonomiya») ekonomika («eykos» - xo'jalik, jamiyat, «nomos» - qonun va qoida») iborasini izohlab berishi.

3. «Myerkantilizm» (savdogarchilik manfaatli), «Fiziokratizm» (dehqonlar va chorvachilar manfaatiga xizmat qilish), mumtoz burjua iqtisodiyot nazariyasi (mehnat, renta, foyda) «Korinmas qo'lar» iqtisodiyotni boshqarish nazariyasi, proletar manfaatiga xizmat qiluvchi iqtisodiy nazariya.

4. Umuminsoniy qadriyatlar iqtisodiyot nazariyasi, Dj. Keyns, marginalizm nazariyalari, yangi liberalizm, monetarizm, sotsial -institutSIONalizm, nazariy yo'nalishlari bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitiga mos keladi.

a) Dj. Keyns nima uchun iqtisodiyotni boshqarishga davlat aralashuvi zarur deb atadi?

b) Nima uchun U. Petti «Iqtisodiyotni «ko'rinmas qo'llar» boshqaradi» -deb gapirdi?

v) Nima uchun M. Fridman «Iqtisodiyotni pul vositasida boshqarishni» tavsiya etdi?

g) Nima uchun iqtisodiyotni erkinlashtirish nazariyasi ilgari surildi?

d) sotsial-institutSIONalizm nazariyasining mohiyati nima o'zi va u nimani asosiy maqsad deb qaraydi?

e) Nima uchun iqtisodiyotga umuminsoniy qadriyatlar nazariyasi asos qilib olindi?

yo) Iqtisodiyotga o'rta Osiyo mutafakkirlarini qo'shgan qarashlarini, fikrlarini o'rganib chiqib o'z fikringizni bildiring?

XX asr o'rtalaridan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlanish va takomillashtirish jarayoni Yevropada, AQShda va Janubiy-SHarqiy Osiyoda paydo bo'ldi. (Dj. Keyns, «Soliq, foyda, budjet va ishsizlikni davlat tomonidan boshqarish», 1949y. London, P. Samuelson «Ekonomiks» M. 1992y. va boshqa.)

2. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti, kategoriyalari va qonuniyatlari.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti - iqtisodiy resurslar cheklagan sharoitda jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilish va xizmat ko'rsatish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy xo'jalikning samarasi va oqilona yuritish qonun-qoidalarini va xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiyot nazariyasi predmetiga berilgan quyidagi olimlar ta'rifini tahlil qiling.

A) Aristoteinning ta'rif - «uy xo'jaligini boshqarish qonunlari to'g'risidagi fan»;

B) Myerkanilizm, fiziokratlar, ingliz iqtisodchi mumtoz maktabi vakillarining «Boylik to'g'risidagi fan»;

V) Ijtimoiy xo'jalik yuritish to'g'risidagi fan deb hisoblanishi;

G) A. Marshallning «Siyosiy iqtisod» (iqtisodiyot nazariyasi) insoniyat va jamiyatning me'yoriy hayotiy faoliyatini tadqiq qiladigan fan» -degan ta'rif;

D) «Ekonomiks»da. (AQShda) Iqtisodiyot

Nima uchun iqtisodiyot nazariyalari Xitoy, hindiston, O'rta Osiyoda birinchi vujudga keldi va Yevropa u rivojlanib takomillashti?

Matndagi 7ta savobit o'qib va jadvaldan oida to'g'ri javobni topasiz va adabiyotga murojaat eting. «Konfutsiy», «Mano», «Avesto», Beruniy, Ibn Xoldun, Kacnofont, Aristotel va boshqalar.

MUAMMOLI SAVOL.

Iqtisodiyot nazariyasi fani nimani o'rganadi, o'rgatadi, predmeti nima, qanday kategoriyalari bor, qanday iqtisodiy qonunlar amal qiladi?

Siz predmetga berilgan ta'rifni o'qib diqqat bilan tahlil qiling kategoriyalarini ajratib va qonuniyatlarni ifodalay aytib bering!

nazariyasi predmeti «Moddiy na'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlarni o'rganadigan fan» -deb ko'rsatadi:

Y.) Rossiyalik iqtisodchilarni ta'riflarining turli-tumanligi va har xil qarashlari.

1) O'zbekistonlik iqtisodchilarning iqtisodiyot nazariyasiga bergan ta'riflarni o'rganish muhim muammodir.

Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiy munosabatlarning turli shart-sharoitlarda, zamon va makonda shakllan va mazmunan o'zgaruvchanligini, uni ifoda etuvchi ilmiy tushunchalar (kategoriyalar) qonun-qoidalarining ham o'zgarib turishini, ularning doimo harakatda, rivojlanishda bo'lishini o'rganadi.

Iqtisodiyot nazariyasini makon va zamondagi o'zgarishini hisobga olib, siz amaliy va nazariy jihatlarini diqqat bilan o'rganing va tahlil qilib bering. Maqsadini va vazifasini tushuntirib bering va yangicha ta'rif bering.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi va vazifalarini ikkiyoqlama, ya'ni ham amaliy, ham nazariy tushuntirish mumkin. Eng muhimi iqtisodiyot nazariyasini ilmiy bilishdan iborat va uni amaliyotda qo'llash uchun fikrlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyot va istiqbol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» Toshkent. 1997y. 188-210 betlar.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz jam'iyatni demokratishtirish, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir. IV-jild. 2006.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat mustaqilligining 19 yillik bayramiga tayyorgarligi haqida Qarori. 2010 yil 30 iyun. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 1 iyul.
5. Karimov I. «Ma'naviy boylik - engilmas kuch» T.: 2008.
6. Karimov I. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni yumshatishning choralari» T.: 2009.
7. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
8. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. 2002y. 1-bob. 8-33 bb.
9. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kiril va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
10. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2006.
11. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifcujaeva M., Abduraxmanova K. Tashkent. 1999g. Gl-1.
12. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1.

2-Mavzu. Iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish jarayoni

Reja:

1. Xo'jalik faoliyati va insonning hayot faoliyati muhiti to'g'risidagi ta'limot.
2. Ijtimoiy xo'jalik shakllari va modellari.
3. Jamiyatning iqtisodiy tizimi va uning hozirgi zamon iqtisodiy hayotida rivojlantirishning mezonlari.

1. Xo'jalik faoliyati va insonning hayot faoliyati muhiti to'g'risidagi ta'limot. Har qanday jamiyatda kishilar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadilar. Xo'jalik faoliyati o'zida maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni, ya'ni kishilarning xo'jalik jarayonida ma'lum hisob-kitobga asoslangan va ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan faoliyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Inson hayotining va faoliyatining muhim xususiyati moddiy dunyoga, eng avvalo, tabiatga bog'liqlik hisoblanadi. Ba'zi moddiy boylik masalan: havo, suv, quyosh yorug'ligi va hokazolar, shunday miqdorda mavjud bo'ladiki, ulardan foydalanish inson uchun yetarli darajada qulay bo'ladi.

Tayanch iboralar
Iqtisodiyot nazariyasi, toba, ob'ekt, iqtisodiyot nazariyasining predmeti, usuliyoti, usul, model, konseptsiya, iqtisodiy kategoriyalar, qonunlar, tahlil sintez, induksiya va deduktsiya, mantiqiy va tarixiy usullar, ob'ektiv va sub'ektiv, ilmiy abstraksiya, dialektika, sub'ektiv va neopozitivistik - elektrik, razionalistik va dialektik materialistik va neopozitiv-elektrik, riyoziyatistik va dialektik materialistik yondashuv, iqtisodiy-matematik modellash, iqtisodiy eksperimentlar

Boshqa moddiy boyliklar, masalan: non, oziq-ovqat, kiyim kechak va h.k.lar cheklangan miqdorda mavjud bo'ladi, ularga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarish va ehtiyojlarga moslashtirish uchun kuch sarflash zarur. Aynan shular xo'jalik ne'matlari deb ataladi va kishilar farovonligi ularga bog'liq bo'ladi.

Kishilarning xo'jalik faoliyatlari juda murakkab jarayonni o'zida mujassamlashtiradiki, unda iqtisodiyot nazariyasi to'rt bosqichni ajratib ko'rsatadi:

1. Ishlab chiqarish;
2. Taqsimlash;
3. Ayriboshlash;
4. Iste'mol.

Ishlab chiqarish - bu insonning yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish jarayonidir.

Taqsimlash - salmoqni, hissani (nisbat, miqdor) aniqlash jarayoni bo'lib, bunda har bir xo'jalik sub'yekti ishlab chiqarilgan mahsulotda ishtirok etadi.

Ayriboshlash - moddiy ne'matlar va xizmatlarning bir sub'yektidan boshqasiga harakatlanish, hamda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar ijtimoiy iqtisodiy jarayonidir.

Iste'mol - ishlab chiqarish natijalaridan ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanish jarayonidir. Bu barcha to'rt bo'g'inlar o'zaro aloqada va o'zaro ta'sirda bo'ladi. Alohida inson, kishilar guruhi va butun jamiyatning xo'jalik faoliyati ma'lum shartlarda, ma'lum vaziyatda, iqtisodiy muhitda amalga oshiriladi.

Insonning xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ta'limot ikki muhitga bo'linadi: tabiiy va ijtimoiy. Bunday ajratish birinchidan, tabiat va ijtimoiy sharoitlar bilan va ikkinchidan, ijtimoiy hayot va ijtimoiy tashkilotlar bilan belgilanadi.

1. Tabiiy muhit eng avvalo, xo'jalik yuritishning tabiiy sharoitlaridan kelib chiqadi. Bunga iqlim va tuproq sharoitlari, avlod qoldirish sharoitlari, aholi soni, ovqatlanish sifati, uy-joy, kiyim-kechak va boshqalar kiradi.

Inson doimo tabiat bilan bog'langan, bundan tashqarida yashashi va xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Tabiiy muhitda insonning kosmos bilan aloqasi ham muhim o'rin tutadi.

XX asrda insoniyat o'zining hayot faoliyati jarayonida yagona bir butun bo'lib qoladi. Chunki butun dunyoda inson yakka yo'lg'iz yashay va ishlay olmaydigan bironta burchak yo'q, uning radio, EHM va h.k.lar yordamidagi aloqasi takomillashmoqda. Bularning hammasi inson aql zakovati bilan yaratilgan texnika tufayli yo'z hermoqda.

Bunday sharoitlarda umuminsoniy qadriyatlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi, jahon iqtisodiyotining rivojlanishida esa umumbashariy, umuminsoniy muammolar (ekologiya, kosmosni o'zlashtirish, qurollantirish, energiya bilan ta'minlanganlik) asosiy bo'lib qoladi.

2. **Ijtimoiy xo'jalik shakllari va modellari.** Kishilar xo'jalik faoliyatining ijtimoiy muhiti mulkchilik munosabatlari tizimi orqali aniqlanadi. A.Smitning ko'rsatishicha, hech qanday mulkka ega bo'la olmaydigan inson hech qanday manfaatlarga ega bo'la olmaydi. Bu yerda mehnatga moslashuvchanlik yo'q haddan tashqari kuchsiz yoki mutlaqo mavjud emas. Bu nazariy holat yaqin vaqtgacha «hech kimniki bo'lmagan» ijtimoiy mulkka ega bo'lgan mamlakatning xo'jalik amaliyoti bilan tasdiqlanadi. Xususiy mulkchilik erkin raqobat uchun sharoit yaratadi va tashabbuskor, ijodiy va natijaviyroq bo'lgan mehnatga undaydi.

Xo'jalik faoliyatining ijtimoiy muhiti ham turlicha ta'sir ko'rsatadi:

Qonunlar belgilaydigan, xo'jalik yuritish qoidalarini ishlab chiqadigan, mehnat faoliyatini tartibga soladigan davlat tashkilotlari hamda, jamiyat, o'rtoqlik, kasaba uyushmalari, partiyalar va h.k.

Jamiyatning rivojlanish tarixi ijtimoiy xo'jalikning ikki asosiy shakllarini ishlab chiqdi:

1. Natural xo'jalik.

2. Tovar xo'jaligi.

Natural xo'jalik yuritish shakli - bu xo'jalik yuritishning shunday shaklidirki, unda moddiy ne'matlar va xarajatlarni ishlab chiqarish mazkur alohida xo'jalik birligi ichida, masalan, oilada, shaxsiy xo'jalikda o'z ehtiyojlar uchun amalga oshiriladi.

Uning moddiy asosini ijtimoiy mehnat taqsimotining kuchsiz rivojlanganligi tashkil etadi, ishlab chiqarishning past darajasini aks ettiradi, bu esa oqibat natijasida ijtimoiy xo'jalikning mo'rtligi, uni rivojlanishining primitiv sur'atlarini belgilaydi.

Bu bilan birga natural xo'jalik yuritish shakli yerga bo'lgan mulkchilik va hunarmandchilik faoliyati bilan har doim bog'langan.

Natural xo'jalik rivojlanishning tarixiy tajribasi iqtisodiy jamoa, Osiyocha jamoa, Gyermantiyacha jamoa (marka), slavyancha jamoa (do'stona) va boshqalar singari turli-tuman modellar haqida guvohlik beradi. Natural xo'jalik bag'ridan tovar xo'jaligi o'sib chiqqan.

Tovar xo'jaligi (bozor xo'jaligi) - bu ishlab chiqarishni tashkil etishning shunday ijtimoiy shaklidirki, unda ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sir bozor vositasida ayriboshlash orqali amalga oshiriladi.

Tovar ishlab chiqarish paydo bo'lishi uchun 2 shart bajarilishi kerak:

1. Ijtimoiy mehnat taqsimoti;
2. Turli mulkdorlar sifatida asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishi kerak.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojlanishi bilan ishlab chiqaruvchilarning qandaydir mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashuvi yo'z beradi. Bu ayriboshlash zaruratini belgilaydi.

Bir mahsulotni boshqasiga ayriboshlash orqali kishilar o'zlarining turli-tuman ehtiyojlarini to'liq qondiradilar. Bu ma'noda bozor kimningdir saxiyligi natijasi emas, balki u kishilar mehnati mahsulotlarini ayriboshlash jarayoni sifatida yuzaga keladi.

Bu ishlab chiqaruvchilarning tovarda mujassamlash, mehnat xarajatlarini taqqoslash arayonidir; uning miqdori va sifatini baholash, qoplangan va foydali, o'zaro foydali va ekvivalent xarajatlarning tan olinishi A.Smitning ifodalab ko'rsatishicha, bunday ayriboshlash printsipti (tamoyli) va mazmunini ta'minlash shunday ko'rinadi: «Menga kerak bo'lgan narsani ber va sen ham o'zingga kerakli narsani olasan» demak, turli mulkdorlar o'rtasidagi ayriboshlashgina tovar ayriboshlash bo'ladi. Iqtisodiy asoslash xususiy, jamoa, kooperativ mulkchligi sharoitlarida o'rinni bo'ladi. Ko'rsatilgan sharoitlar xarakteridan kelib chiqib, tovar ishlab chiqarish, butun bozor tizimining turli modellari ham shakllanadi.

Hozirgi zamon bozor xo'jaligi iqtisodiyotining xususiy va davlat sektorlari o'zaro ta'siriga asoslangan. Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish intensivligi darajasi va davlat tomonidan hal qilinadigan vazifalar ustuvorligiga bog'liq ravishda bozor xo'jaligining quyidagi modellarini farqlaydilar.

Bozor iqtisodiyoti o'zining rivojlanishida bir qancha bosqichlardan o'tgan: oddiy yoki rivojlanmagan tovar ishlab chiqarish - bu mustaqil xususiy ishlab chiqaruvchilar -dehqonlar va hunarmandlar tomonidan ayriboshlash uchun mahsulot ishlab chiqarish.

Uning muhim xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Ijtimoiy mehnat taqsimoti tovar ishlab chiqarish amal qilishning moddiy sharti sifatida.
2. Ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulotlariga xususiy mulkchilik.
3. Ishlab chiqarish vositalari mulkdorning shaxsiy mehnati.
4. Ijtimoiy ehtiyojlarining mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi qilish vositasida qondirish.
5. Kishilar o'rtasida bozor orqali iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, ya'ni ijtimoiy xarakteri.

Rivojlangan (kengaygan) tovar ishlab chiqarish. Bunda tovar ishlab chiqarish nafaqat mehnat natijasi bilan ishlab chiqarish omillarini (shu jumladan, ishchi kuchining) ham natijasi bo'lib qoladi. Bunday sharoitda bozor munosabatlari umumiy xarakter kasb etadi.

Rivojlangan tovar xo'jaligining muhim sharti kapitalning dastlabki jang'arilishi hisoblanadi, bu jarayonda ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan alohidalashuvi va yirik kapitalning tadbirkorlar qo'lida aylanish hamda davlatning va uning muassasalarining xo'jalik faoliyati jarayoniga faol aralashuvi yo'z beradi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari ma'muriy-buyruqbozlik, markazlashgan rejali iqtisodiyot xo'jaligining alohida shakli hisoblanadi.

Rivojlangan mashina ishlab chiqarish va rivojlangan ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimi, bu shakl, bozor iqtisodiyotining birinchi modeliga o'xshaydi, biroq u ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotining yuqoriroq darajasida paydo bo'ladi.

Demak, ma'muriy-buyruqbozlik markazlashgan rejali iqtisodiyot - bu ijtimoiy xo'jalikning shunday shakli, unda rivojlangan ijtimoiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqaruvchilarning ixtisoslashuvi, iqtisodiy tarkiblarni ixtilma-ixtiligi sharoitlarida iqtisodiy rivojlanishini yagona markazdan og'li ravishda qattiq tartibga solinadi. Ijtimoiy xo'jalik mazkur shaklni ikki asosiy modelga ajratish mumkin:

- rejali-direktiv,
- rejali-normativ.

Ijtimoiy xo'jalikning bu ikki modeli direktiv reja yoki reja i normativlar asosida qattiq tartibga solinadigan iqtisodiyot o'zida mujassamlashtiriladi. Bunda korxonalarning mustaqilligi u yoki bu darajada cheklanadi, ular faoliyatini baholash esa normativlarning bajarilishi asosida aniqlanadi (masalan, sobiq sotsializm mamlakatlarida).

Bu modellarning umumiy va farqlovchi xususiyatlari ham mavjud. Xo'jalik faoliyati jarayonidagi kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar har doim bu munosabatlarning ob'yektlari va sub'jektlarini, ular o'rtasidagi aloqalar turli shakllarni o'z ichiga oluvchi ma'lum tizim sifatida amal qiladi.

Iqtisodiy tizim - bu moddiy va nomoddiy ehtiyojlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi aloqalarning alohida tartiblangan tizimidir.

3. Jamiyatning iqtisodiy tizimi va uning hozirgi zamon iqtisodiy hayotida rivojlantirishning mezonlari.

Iqtisodiy tizimning quyidagi muhim holatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Istalgan iqtisodiy tizimning umumiy holatlari. Ishlab chiqaruvchi kuchlar (markscha nazariya tushunchasi) - bu ijtimoiy ishlab chiqarishning shaxslangan sub'yekti va moddiy-buyumlashgan, ob'yektiv omillar tizimi: Bu ishlab chiqarish vositalari va bilim, ishlab chiqarish tajribasi, mehnat to'rtikasiga ega bo'lgan va ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiradigan kishilar majmuastrin.

Iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish imkoniyatlari qo'llanilayotgan resurslar taqchilligi bilan cheklangan bo'lib, jamiyat rivojlanib borish bilan sanalibgina qolmay, balki o'sib boradi ham. Biroq resurslar cheklangan bo'lsa, u holda jamiyat tanlovini amalga oshirish kerak. Tanlash orqali jamiyat istalgan natijaga erishishi

uchun nimadandir voz kechishga, nimanidir yo'qotishga majbur. U holda biz voz kechadigan narsa jamiyat tomonidan tanlangan natijaga erishishning zimmaga yuklatilgan (yashirin) xarajatlari, deb ataladi.

Iqtisodiy tizim savarali amal qilishning asosiy muammosi - bu tanlov muammosidir. Tanlov muammosining mazmuni shundan iboratki, agar turli-tuman ehtiyojlarni qondirish uchun qo'llaniladigan har bir omil cheklangan bo'lsa, u yaxshi birikishi qidirish muammosi har doim mavjud bo'ladi. Iqtisodiyotda uch asosiy masalaning qo'yilishi mazkur muammoning ifodalanishidir.

Mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlardan qaysilari:

- mazkur iqtisodiy tizimda ma'lum davr davomida nima ishlab chiqariladi?

- ishlab chiqarish resurslarining qanday (nima ishlab chiqariladi?)

kombinatsiyasida (birikuvida);

- tanlangan tovarlar va xizmatlar qanday texnologiyadan foydalanib ishlab chiqarish kerak? Kim uchun? Tanlangan tovarlar va xizmatlarni kim sotib oladi? Kim undan foydalanib, haqini to'laydi?

- mazkur tovarlar va xizmatlarini ishlab chiqarishda jamiyat qurgan yalpi daromadni qanday taqsimlashi kerak?

Jahon iqtisodiy adabiyotida xo'jalik tizimini 2 belgisi bo'yicha turkumlash keng tarqalgan:

1. Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakli bo'yicha;

2. Iqtisodiy faoliyat yo'naltiriladigan va boshqariladigan usul, vosita bo'yicha.

U belgilar asosida quyidagilar farqlanadi:

A) buyruqbozlik yoki totalitar iqtisodiyot, bunda ko'plab korxonalar davlat mulkida bo'ladi va davlat ko'rsatmalari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi.

B) bozor iqtisodiyoti yoki erkin raqobatli kapitalizm davri, bu resurslarga xususiy mulkchilik bilan tavsiflanadi. Erkin bozor iqtisodiyotida davlat resurslar taqsimotida mustaqil, xatarli va tavakkalchiligi uchun qabul qilindi.

V) aralash iqtisodiyot, bunda davlat ham, xususiy sektor ham (korxona, uy xo'jaliklari) mamlakatda barcha resurslar va moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'molda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy adabiyotda xo'jalik tizmining bunday turkumlanishi muhim o'rin tutadi, bunda dunyoning sivilizatsiya turlarining tarixiy rivojlanish natijasi sifatida takomil ashgan ko'rinishda o'z ifodasini topadi.

«Sivilizatsiya» so'zi lotincha tarjimasida - fuqarolik ijtimoiy, degan mazmuni anglatadi.

Bu tushunchaning mazmunini aniqlash uchun hozirgi zamon ilmiy adabiy qator nizomlarni taqdim etadi. Masalan, bu tushuncha madaniyat darajasini baholash uchun, insoniyat jamiyat rivojlanishi bosqichini tavsiflash uchun madaniy-tarixiy davr sifatida qo'llaniladi.

Shu bilan bog'liq ravishda jamiyatning davriy rivojlanish nazariyasi, sivilizatsiyalar almashinuvi nazariyasi snubhasiz qiziqish uyg'otadi.

Bu nazariyaga ko'ra 7ta sivilizatsiyaga ajratish mumkin:

1. Neoli (30-35asr davom etgan);

2. Sharqiy quldorlik (bronza asri 20-23 asr);

3. Antik (Temir asri 12-13 asr);
4. Ilk feodal (7 asr);
5. Industrialdan oldingi (4-5 asr);
6. Industrial (2-5 asr);
7. Postindustrial (1-3 asr).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqbol yo'li» T.: 1992 y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 betlar.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat mustaqilligining bayramiga tayyorgarlik haqida Qarori. Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis-deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyung'. «Xalq so'zi» gazetasi. 2010 yil 1 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 betlar.
8. O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: T. 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona-2007.

3-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkiy munosabatlار.

Reja:

1. *Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ular to'g'risida nazariy qarashlar.*
2. *Mulkchilikning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati.*
3. *Bozor iqtisodiyotida mulk polimorfizmi va xilma-xilligi*

1. **Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ular to'g'risida nazariy qarashlar.** Marks ta'limotiga ko'ra, mulkchilik iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish vositalarini va ularning yordamida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonida yaratiladigan moddiy, ne'matlarni o'zlashtirish (bagonalashtirish) munosabatlarini ifodalaydi.

Bu yerda moddiy ne'matlarning sub'yektga tegishli ekanligi haqida dadil ularning o'zlari tomonidagina emas, balki boshqa sub'yektlar tomonidan ham tan olinishi kerakligi e'tibor qaratilayotganligi muhavo to'g'ri, shu sababli mulkchilik huquqi ijtimoiy munosabat sifatida yuzaga keladi. G'arb iqtisodchilari mulkchilikda insonning buyumlarga bo'lgan munosabatiningiga ko'radilar. Bu

yerda haqiqat shundaki, mulkchilik munosabati analogik o'rganiladi, ya'ni mulkdorlarning o'z mulki bilan real o'zaro ta'sirini aks ettirishi sifatida qaraladi.

MUAMMO: Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning har xil martaqalarda, hadudlarda, turli shaharlarda namoyon bo'lishi; hisobga olib, yaratilgan nazariya va qarashlari yagona tizimga solish. Ularda hukm surgan mulkiy munosabatlarni rivojlantirish muammolari.

Marks nazariyasiga ko'ra, mulkchilik iqtisodiy kategoriya sifatida kishilarning ongi va ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish yuqorida ko'rsatilgandek, davlatning iqtisodiy sohadan to'liq ketishini bildirmaydi, zamonaviy ishlab chiqarish ma'lum chegaralardagina samarali bo'lgan davlat tartibiga solishsiz muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. Agar bu chegaralar buzilsa, u holda ijtimoiy ishlab

chiqarish samaradorligi pasayadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish turli yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

1. O'zlashtirish jarayonlarini davlat tasarrufidan chiqarish, har bir ishchi va mehnat jamoasining o'zlashtirishdagi teng huquqli ishtirokini tan olish.
2. Xo'jalik yuritish turli-tuman shakllarini yaratish, korxonalar barcha shakllariga qonun doirasida xo'jalik faoliyati erkinligi huquqini berish.
3. Yangi tashkiliy tarkiblarni shakllantirish, tadbirkorlik faoliyatini yangi shakllarini yaratish o'rtasida gorizontaal aloqalar yetakchi rol o'ynaydi.

Shunday qilib, davlat tasarrufidan chiqarish monopoliyani tugatishga raqobat va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratiladi. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tishning markaziy muammosidir.

Davlat tasarrufidan chiqarish bilan uzviy aloqadorlikda xususiy lashtirish yuzaga chiqadi. Xususiy lashtirish fuqarolar, aksionyerlik jamiyatlari tomonidan davlat va mahalliy hokimiyat organlaridan korxonalar, ishlab chiqarishlar, uchastkalar xususiy mulkiga ega bo'lish sifatida talqin etiladi.

Bu yerda xususiy lashtirish natijasida paydo bo'lgan bevosita mulk shakli va davlat mulki xaridorlari sifatida huquqiga ega:

Butun ijtimoiy hayotni davlatlashtirish shuni bildiradiki, davlat monopoliya holatiga ega bo'ladi, ijtimoiy hayot tizimining o'zi esa ma'muriy-byurokratik davlat sifatida chiqadi.

Davlatlashtirish boshqaruvi turli soha va shakllarga ega.

1. Ishlab chiqarish sharoitlari omillari va natijalarini o'zgartirish jarayonlarini davlatlashtirish muqarrar ravishda bevosita ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari va natijalaridan begonalashuviga olib keladi, bu yerdan ishchilar va mehnat jam'armalari tomonidan ishlab chiqarish vositalari va natijalarini o'zlashtirishni shakllantirish, ob'yektiv zaruriyati yuzaga keladi, bunda ular begonalardak emas, balki o'zinkidek qaraydi.

2. Davlatning iqtisodiy jarayonlari ustidan monopoliyasi orqali paydo bo'ladigan ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishni davlatlashtirish, davlat

MUAMMOLI VAZIYAT:

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi turli xil mulk shakllarining o'zaro bog'liqligini, ularning har birida bir-biriga qarantigini hisobga olib, muammoni o'zlashtirish va qo'llab-quvvatlash mas'uliyatini va har xil mulk shakllarini mavjudga keltirish jarayoni.

rejalashtirishning direktiv xarakteri, butun iqtisodiyotni va ularing alohida bo'g'larini rivojlantirishning yaqin va uzoq muddatli maqsadlaridagina davlat tomonidan belgilash, moddiy texnika resurslari va xalq iste'mol tovarlarini taqsimlashiga monopoliya, narx belgilash ustidan monopoliya, tadbirkorlik faoliyatining tashqi savdo va h.k.larni aniqlash.

Monopolizmini bartaraf qilish, raqobatni rivojlantirish, iqtisodiyotda raqobatni sog'lomlashtirish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish asosida bo'lishi mumkin. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish korxonalarga vakolatlar berish, vyertikal xo'jalik aloqalarini gorizontali bilan almashtirish.

«Xususiy mulk» tarixiy tushuncha bo'lib, davlat mulkini boshqa barcha mulklardan ajratish zarurat paydo bo'lganda yuzaga kelgan. Shu sababli butun nodavlat sektorlariga tegishli narsalar xususiy deb hisoblanadi. Bugungi kunda mulk shakllarining xilma-xilligi sharoitida alohida fuqarolarninggina emas, balki kooperativ, assotsiatsiya, xalq korxonalarning ham mulki xo'jalik mulki hisoblanadi. Shunga muvofiq, g'arb iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida shunday tasavvur yuzaga keladiki, unga ko'ra xususiy mulkchilik deganda har qanday nodavlat mulk shakli tushunilgan.

Bugun ko'pchilik xususiy mulk - bu binimas, hech narsa bilan cheklanmagan mulk, deb o'ylaydi. Haqiqatda xususiy mulk o'ziga kerakli deb hisoblangan barcha operatsiyalar boshqa kishilarning xususiy mulki sohasida sotilmasa bas. Madaniylashgan jamiyatda mulkdorlarning xatti-harakati ma'lum qoidalari ishlab chiqilgan.

Xususiy mulkka quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Uy xo'jaliklari;
2. Qonun doirasida faoliyat ko'rsatadigan mahalliy xususiy korxonalar;
3. «Yashirin iqtisodiyot» tarkibidagi nolegal xususiy korxonalar;
4. Xususiy xo'jalik yoki shaxsiy jamg'armalardan foydalanishning kvartalarni ijaraga berishdan tortib xususiy shaxslar o'rtasidagi pul operatsiyalarigacha bo'lgan istalgan turda, shaxslarning mulki polimorfizmiga tayanadi. Raqobat bozor sub'yektlarining katta miqdorini talab qiladi.

Bozorning o'zi mulk shakllariga befarqdir. U bozor sub'yektlari qanchalik mustaqil va o'zlarining xo'jalik faoliyatlarida qanchalik erkin ekanligiga befarq emas, raqobat sharoitlariga befarq emas.

Insoniyat jamiyati tarixida turli -tuman mulk shakllari ma'lum, ulardan davlat va xususiy mulkchilik katta ahamiyat kasb etadi.

Davlat mulki. Hozirgi paytda dunyoda davlat xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanmagan birona mamlakat yo'q. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida soliqlar yordamida davlat tomonidan ortiqcha YaMMning 1/3 qismidan AQSh, Yaponiya 50%gacha, (Shveysiya) markazlashiriladi va qayta taqsimlanadi. G'arb mamlakatlarida davlat mulki asosiy fondlar 7%dan 30%gachani va undan ko'proqni tashkil etadi.

Davlat mulki shaklidan foydalanish iqtisodiyotining shunday shakllari hisoblanadiki, ularda bevosita markazlashgan boshqarishga davlat investitsiyalarini amalga oshirishga ehtiyoj ob'yektiv ravishda kattadir. Ularda foydalilikka yo'nalganlik ijtimoiy manfaatlar uchun amal qilishga yetarli mezon hisoblanmaydi.

Bunga ijtimoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi jarayonida paydo bo'lgan faoliyatning shunday turlari kiradi, ular faqat shunday umumiy holda amal qilishi mumkin, u tufayli boshqarishning davlat shakli yoki moddiy asosi ob'yektiv yuzaga keladi.

Xususiy mulk. Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, mukdorlik huquqi resurs emas, o'z-o'ziga mulk hisoblanadi, resursdan foydalanish bo'yicha huquqiy salmog'i hisoblanadi.

«Huquqlar to'la salmog'i» 11 unsurdan iborat:

1. egalik qilish huquqi, ya'ni ne'matlar ustidan jismoniy nazorat huquqi;
2. foydalanish huquqi, ya'ni ne'matlarning, foydali xususiyatlarini o'zi uchun qo'llash huquqi;
3. boshqarish huquqi, ya'ni ne'matlardan foydalanish kim tomondan qanday ta'minlanishi hal qilish huquqi;
4. daromad olish huquqi, ya'ni ne'matlardan foydalanish natijalariga ega bo'lish huquqi;
5. mustaqillik huquqi, ya'ni ne'matlardan begonalashish iste'mol qilish o'zgartirish yoki yo'q qilish huquqi;
6. xavfsizlik huquqi, ya'ni ne'matlarni tashqi muhitdan zararlanishidan himoya qilish huquqi;
7. ne'matlarni myeros qoldirish huquqi;
8. ne'matlarga egalik qilishning muddatsizlik huquqi;
9. tashqi muhitni zararlantiradigan usuldan foydalanishini ta'qiqlash huquqi;
10. izlash ko'rinishida mulkdorlik huquqi, ya'ni qarzni to'lashda ne'matni izlash huquqi;
11. qoldiq xarakteri huquqi, ya'ni buzilgan huquqlarni tiklashni ta'minlovchi muassasalarning amal qilish huquqi.

Bozor munosabatlarining asosiy huquqi mulkchilik bo'lishi mumkin, xolos, xususiy mulk, deganda alohida shaxs yoki yakka xususiy bo'ladi. Klisfen va Solon qonunlarida ko'rsatilishicha, qonunlar mulk munosabatlarini yaratmaydi, balki jamiyada haqiqatda yuzaga kelayotgan munosabatlarini mustahkamlaydi, holos. Shuning uchun ham mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy kategoriyasini farqlashga to'g'ri keladigan o'zlashuv munosabatlarining sub'yektiv turtkisi, amaliyotda mavjud bo'lgan ijtimoiy ongning tartibga soluvchi maxsus shaklini birlashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj natijasidir.

Mulkchilik munosabatlari ob'yektiv, sub'yektiv munosabatlardir. Bu yerda ob'yekt bo'lib, ishlab chiqarish va inson hayotining moddiy sharoitlari ishlab chiqarish natijalari (moddiy ne'matlar va xizmatlar), sub'yekt bo'lib esa – inson, o'rtoqlik, mehnat jamoalari, davlat vakillari, davlat apparati ishchilaridir: ishlab chiqarishning moddiy sharoitlariga mulkchilik va ishchi kuchiga mulkchilikning bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillarining tengligini ta'minlaydi, shu ma'noda ular ishlab chiqarish jarayonida bir-birisiz amal qila olmaydi.

Mulkchilik munosabatlar ishlab chiqarish omillarini va mehnat natijalarini o'zlashtirish, begonalashish, foydalanish, egalik va tasarruf etish jarayonlari vositalaridan foydalanishga qaratilgan ishlab chiqarishni tashkil etish, shaklini

tanlashni ham nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Mulkchilik iqtisodiy hokimiyat bilan uzviy bog'langan. Qat'iy qilib aytganda, ishlab chiqarishni boshqarish mulkchilik vazifasi, uning majburiy tomonlaridan biri hisoblanadi.

Odatda, ishlab chiqarish iqtisodiy hokimiyat unsurlaridan uning manbaalaridan biri hisoblanadi. lekin boshqa munosabatlarga aloqador kichik bir tizimni tashkil etadi, uning o'ziga xos unsurlari bor. Bozor unsurlarini o'zaro bog'liq bo'lishi va bir-birini taqozo etishi bozorning ichki tuzilishini tashkil etadi.

2. **Mulkchilikning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati.** Bozorning ichki tuzilishi izohlanganda, har xil mezonlar jihatdan bir-biri bilan yondashish mumkin. Bu mezonlar raqobat, bozor sub'yektlarining ahvoli, bozor ob'yektlarning xarakteri, bozor muomalasining miqyosi, bozor aloqalarining qonuniyligi kabilardir. Ularning orasida raqobat va sub'yektlarning sotsial iqtisodiy mavqei asosiy o'rinda turadi. Chunki ularga qarab, iqtisodiy munosabatlarni xarakterlash mumkin. Iqtisodiy aloqalar xarakteriga ko'ra, bozorning ikki katta turga ajratish mumkin: a) erkin, raqobatli bozor; b) monopollashgan, raqobat cheklangan yoki raqobat mutlaqo bo'lmagan bozor.

Erkin bozor - sotuvchilar va xaridorlar ko'pchilik bo'lib, ulardan hech biri bozorda hukmron mavqega ega bo'lmaydi, aksincha, ular doimo raqobatda bo'lishadi. Raqobat sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasida, shuningdek, ularning o'zlari ichida bo'ladi. Bu yerda narx-navoni hech kim nazorat qilmaydi, narx bozorda erkin shakllanadi. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi va kichik biznes korxonalari mahsulotlarining bozori erkin raqobatda bozorlarga kiradi. Masalan: paxta yoki g'alla bozorida minglab fermerlar sotuvchi bo'lsa, minglab firmalar xaridor bo'lishadi. Turli mamlakatlarda erkin, lekin tartibsiz bozor ham amal qiladi.

3. **Bozor iqtisodiyotida mulk polimorfizmi.** Foyda haqida gap ketganda, uni tijorat ahli faqat o'zlashtiradi, uni yaratishda muomala sohasining hech qanday hissasi yo'q deb o'ylash noto'g'ridir. Gap shundaki, muomala sohasida ishlab chiqarish jarayoni davom etib, qiymatning o'sishi yo'z beradi. Foydaning manbai haqida gapiradigan bo'lsak, uni faqat ishlab chiqarishda yaratilgan foyda bilan cheklab bo'lmaydi. Chunki xaridorning puli manba bo'lib xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy foydaga taalluqlidir.

Tovarning bozori chaqqon bo'lib, narx xarajatlardan ortib ketadi. Ortib ketgan narxdan xarajatlar chegirilgach, qolgan qismi iqtisodiy foydani tashkil etadiki, uning manbai xaridorning pul, daromadidir. Bu daromad ish haqi, pensiya, dividend kabilardan hosil bo'ladi.

Savdo-sotiqda olinadigan foyda normativ rentabellikni ta'minlashi darkor. Bu yerda sarflangan kapital birligiga tegadigan foyda boshqa yerdagidan kam bo'lmashligi shart, aks holda, kapital, binobarin, resurslar bu yerdan shoshilinch chiqib ketadi, tovar muomalasi qiyinchilikka yo'liqadi. Iqtisodiyot bu me'yorda rivojlanishi uchun resurslarning kerakli qismi savdo-sotiqda saqlanishi zarur, buni esa faqat normal foyda ta'minlaydi.

Tijoratchilar faoliyatiga qarab savdo foydasi turlicha taqsimlanadi. Savdo-sotiq bilan maxsus firmalar shug'ullanganda, foyda ularning ixtiyoriga tushadi, shu yerda taqsimlanadi. Bu ishni brokerlar, maklyerlar bajarganda, savdo foydasi

xaridor va sotuvchilarning komission to'lovi shaklida undiriladiki, ular odatda savdo-sotiq hajmi 5-10%ga teng bo'ladi. Bu to'lovlarning bir qismi brokerlar yadrosiga, qolganlari ularning o'zlariga tegadi. Bunda foyda ularning shaxsiy daromadiga aylanadi.

Mulk mazmunini belgilovchi asosiy narsa o'zlashtirish hisoblanadi.

O'zlashtirish - sub'yekt tomonidan iqtisodiy hamda majburlash va huquqiy usullar orqali boshqa sub'yektlardan mulk ob'yektning begonalashuvi.

Egalik qilish - bu to'liqsiz, qisman o'zlashtirishdir.

Mulk egasi - ishlab chiqarish vositalari namoyondasi. U mulkdorning insonlashgan namoyondasi hisoblanadi.

Egalik qilish - mulkdor tomonidan belgilanadigan sharoitda amal qiluvchi mulk, masalan, ijara hamda muddatlik, to'lovlik, qaytarishlik, hamda daromadning bir qismini o'zlashtirish bilan taqdim etiladigan kredit.

Foydalanish - belgilanishdan qat'iy nazar, haqiqatda buyumni qo'llashdir. Foydalanish egalik qilish va mulkni realizatsiya qilish shaklini o'zida mujassamlashtiradi.

Tasarruf etish - bu mulk egasi yoki boshqa shaxs tomonidan mulk taqdiri yuzasidan qarorlar qabul qilishdir. Mulk ob'yekti tadbirkorning mulkni mulkdor tomonidan belgilangan doirasi foydalanish huquqiga asoslangan.

Shuni ta'kidlash kerakki, tadbirkor bozor iqtisodiyotida mulkdor bo'lmashligi mumkin, biroq albatta, egalik qilish foydalanish va tasarruf etish, mulk vakolati huquqiga ega bo'lish kerak. Shunday qilib, xususiyashtirish mulk egasining almashtirishi, davlat mulki sohasidan chiqarish va davlat mulkini nodavlat mulkiga o'tkazishdir.

Shunday qilib, xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o'rtasida farq shundaki, birinchisi mulk munosabatlari chuqur transformatsiya jarayonini aks ettiradi, ikkinchisi esa xo'jalik tizimida mavjud bo'lgan o'zgarishlar butun kompleksini o'z ichiga oladigan tushuncha hisoblanadiki, bu xo'jalik tizimi davlat hukmronligini tugatish va iqtisodiyotning davlatdan mustaqil ijtimoiy faoliyat sohasi sifatida amal qilish uchun sharoit yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Tayanch iboralar

Mulk, mulkchilik, mulk ob'yektlari, mulk sub'yektlari, mulkiy munosabatlar, egalik qilish, tasarruf etish, foydalanish, ma'suliyat, o'zlashtirish, mulk shakllari, xususiyashtirish, davlat ixtiyoridan chiqarish, mulk polimorfizmi (ko'p mulkchilik), mulkiy ziddiyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqloq yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: hafsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 betlar.
3. Karimov I. «Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh qilishdir.

4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 16 yil mustaqillik yo'llari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2007 yil 30 avgust. «Xalq so'zi» gazetasi. 2007 yil 31 avgust.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida unibartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. 2002y. I-bob. 8-33 betlar.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007

4-Mavzu: Tovar pul munosabatlari bozor - iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi asosi

Reja:

1. *Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish jarayonlari.*
2. *Tovar va uning xususiyatlari. Qiymatning mehnat nazariyasi va qo'shilgan miqdor nafilligi nazariyalari.*
3. *Pulning kelib chiqishi, mohiyati, vazifalari, shakllari. Monetarizm nazariyasi.*

1. **Natural ishlab chiqarishdan tovar ishlab chiqarishga o'tish jarayonlari.** insoniyat jamiyati vujudga kelish bilan insonlarni yashash, rivojlanishining birlamchi omillaridan biri - natural ishlab chiqarish hisoblanadi. Bunda mehnat (tirikchilik) mahsulotlari ishlab chiqarishning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida ichki (uy) xo'jaligi uchun mo'ljallangan. Bunday munosabatlar barcha zarur narsalarni o'zi uchun tayyorlagan iqtisodiy jamoada hukm surgan. Natural mahsulot ishlab chiqarish qudorlik, feodal tizimlarida va qisman hozirgacha davom etadigan kichik xo'jaliklardir. Natural ishlab chiqarish ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanmaganligini bildiradi. Bunday sharoitda biqiy yoki faqat o'z ehtiyojini qondiradigan tizim paydo bo'lgan. Bu xo'jaliklarda mehnat vositalari mehnat predmetlari ham ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'zining xususiy mulki bo'lgan, ortiqcha mahsulotlarni boshqa xo'jaliklar bilan natural shaklda ayriboshlashganlar. Mehnat asosan qo'l mehnatiga va qisman hayvonlar kuchiga asoslangan. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va turi juda kam bo'lgan. Jamiyat tadrijiy rivojlangan.

Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanish, uning hajmini va turlarini ko'payishi natijasida paydo bo'ldi. Tovar xo'jaligida kishilar o'rtasida iqtisodiy, ayriboshlash munosabatlari buyumlar orqali, ular mehnati maxsullarini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulot - tovar yoki xizmat o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish, o'zlarining ehtiyoji uchun yaratiladi. Masalan, arava tayyorlab (xuddi shuningdek, eshik rom kabi) bozorda sotadi. Undan kelgan pul hisobiga tirikchilik qiladi. Tovar ishlab

chiqarishda mehnat predmeti va qurollari xususiy mulk bo'lib, ishlab chiqarilgan mehnatni mulk egasi va yollanma ishchi kuchi yordamida ishlab chiqariladi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojlanib, ixtisoslashuvi vujudga keladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'raligicha bozorda sotiladi va ayriboshlanadi. Tovarlar jamoalar, quldorlar, dehqon va hunarmandlar o'rtasida aloqa o'rnatilib, ayriboshlanadi.

Tovar xo'jaligi muayyan davrga kelib, hukmron darajaga ko'tariladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni kimga, qaerga sotishni, baholarni faqat ishlab chiqaruvchining o'zi hal qiladi. Mana shunday sharoitda ishlab chiqaruvchining mahsulotini sotib oluvchi – iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarda tovar-pul munosabatlari shakllanadi va bozor munosabatlari rivojlanadi.

2. Tovar va uning xususiyatlari. Qiymatining mehnat nazariyasi va qo'shilgan miqdor nafiligi nazariyalari. Tovar va uning xususiyatlari – tovarning mazmun-mohiyati, xususiyatini anglatadi. Tovar deb, biror – bir naflikka, qiymatga ega bo'lgan, ishlab chiqarilgan, ehtiyojni qondiradigan, bozorda sotiladigan mehnat mahsulidir.

Tovarning ikki xususiyati bor.

- Kishilarning biror – bir ehtiyojini qondiradi;

- Boshqa buyumga ayriboshlana oladigan mahsulotdir. Tovar qiymati va iste'mol qiymatiga ega bo'ladi.

Tovar qiymati –shu tovarni chiqarish uchun ketgan ijtimoiy-o'rtacha vaqt birligidagi mehnat miqdor bilan belgilanadi va uning nafiligi aniqlanadi. Tovarning iste'mol qiymati iste'molning shu tovarni sotib olishdagi qiziqish, uning chidamliligi, nafiligi, go'zalligi, sifatiga bog'liq bo'ladi. Tovarning iste'mol qiymatini aniq mehnat, ya'ni chevar, etikdo'z, hunarmand, dehqon mehnati, ixtisoslashgan mehnat yaratadi.

Tovarning qiymati va iste'mol qiymati uni ayriboshlashda, g'allani-boltaga, qo'yni – kiyim-kechakka ayriboshlashda namoyon bo'ladi. Bu uch bosqichda rivojlangan oddiy ayriboshlashlar; buyumni buyumga ayriboshlash va mahsulotni – pulga ayriboshlash bosqichlari orqali rivojlangan. Hozirgi davrda barcha mahsulotlar tovar sifatida pulga oldi-sotdida almashilib, tovar –pul munosabatlari vujudga kelgan.

Pul. Pul qanday paydo bo'lganligi va tarixiy yo'lni bosib o'tganligini borasida turli xil nazariyalar ta'kidlab o'tilgan. Tovarning qiymati boshqa tovarga ayriboshlanganda aniq ma'lum bo'ladi. (T-T). Bunda bir tovar o'z qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi. Ikkinchi tovar esa (uning qiymatini boshqa tovarga nisbatan ifodalaydi) ekvivalent rolda chiqadi va qiymatining ekvivalent (tenglik) shaklini tashkil etadi. Xuddi mana shu yerda (tenglikda) pulning kelib chiqish imkoniyati vujudga keladi. Ayriboshlashning 2 bosqichi bor:

Birinchi bosqichda oddiy yoki tasodifiy shakli bo'lib, 1 bolta bir qop donga teng. Bu tenglikda bolta o'z qiymatini 1 qop donda ifodalaydi, 1 qop don esa bolta qiymatini ifodalaydi.

Ikkinchi bosqichda ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish hajmini rivojlanishi natijasida ayriboshlash yanada taraqqiy etadi. Ko'proq miqdorda va turlarda mahsulotlar ayriboshlanadi. Bunda oldi-sotdi vositasiga layoqatli – bo'lgan

sifatli tovar-pul zarur bo'ladi. Pulning rolini turli tovarlar (mo'yna, tur, metall) bajarib, ishlab chiqarishning rivojlanishida bu rolni keyinchalik oltin bajaradi. XIX asrning oxirlarida ko'pchilik mamlakatlar oltinga o'ta boshladilar. Angliya 1790-yildan, Gyermaniya-1871, Gollandiya-1877, Avstriya -1892, Yaponiya-1897, Rossiya-1898 va AQSh-1900 yildan oltin valyutaga o'tganlar.

O'zbekiston hududida 15-16 asrlarda kumush va oltin, mis tangalar muomalada bo'lgan. Masalan Amir Temur va Ulug'beklar davrida.

Umumiy ekvivalent rolini nodir metallarga, jumladan, oltinga yuklatilganligining sababi quydagicha:

- sifat jihatidan bir xil o'lchamga keltirish mumkinligi;
- zanglamasdan uzoq muddat saqlanganligi;
- bo'linuvchanligi va bir butunligi;
- tabiatda nisbatan kamyoqligi;
- o'zgina miqdordaligi; va og'irlidagi nodir metalning ishlab chiqarish qiymati

yuqoriligi.

Shunday qilib, tovarlar dunyosi 2 ga bo'linadi: tovarlar va pullar. Pul-hamma tovarlarni va xizmatlarni sotish, sotib olish mumkin bo'lgan umumiy ekvivalentdir.

Pul ishlab chiqarish va muomala jarayonida bir qator vazifalarni bajaradi:

1. Qiymat o'lchovi, 2. Muomala vositasi, 3. Eoylik to'plash (jamg'arish) vositasi, 4. To'lov vositasi, 5. Jahon puli.

Pulning o'zini bosuvchi vositalardan veksel, kredit, banknot (qog'oz pullar), tanga (metal pullar), plastik kartchalar yoki elektron pullar mavjud bo'lib, pulni aylanishini ta'minlaydi. Hozirgi davrda pullar tushunchasining 2 xil yondashuvi mavjud: tez aylanadigan (qadri-qattiq) pul va deskret (qonun bilan belgilangan) pul sifatida.

Muomalada zarur bo'lgan pul miqdori qonuni bor, ya'ni bir yilda bir mamlakatda ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlar uchun zarur bo'lgan pul miqdorini (masalan, bir trillion desak, ularni olish va sotish uchun zarur bo'lgan aylanishi 5 martaga tengdir. Demak, bir trillion so'mlik tovar va xizmatlarni sotib olish uchun 200 mlrd so'm pul (1 trln, so'm: 5 = 200 mlrd, so'm) zarur bo'ladi.

Shunday qilib, tovar ayriboshlash, ishlab chiqarish va pulning kelib chiqishi va tovar-pul munosabatlarini rivojlanishi bozor va bozor iqtisodiyotining kelib chiqishiga sabab bo'ladi hamda uning rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

Tayanch iboralar

Tovar-pul munosabatlari, natural ishlab chiqarish, tovar ishlab chiqarish, tovar, tovar qiymati, iste'mol qiymati, umumiy mehnat, aniq mehnat, ayriboshlash, muomala, pul, pulning vazifalari, qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'plash va to'lov vositasi, muomalada zarur bo'lgan pul miqdori qonuni, qog'oz, metall va elektron pullar

Takrorlash uchun savollar.

1. Tovar-pul munosabatlari qachon vujudga keldi, mohiyatini aytib bering?
2. Natural va tovar ishlab chiqarishi nima?
3. Tovar va uning xossalari rivojlanishini tushuntiring?

4. Ayriboshlash bosqichlarini aytib bering.
5. Pulning mohiyatini, vazifalarini tushuntirib bering.
6. Muomalada zarur bo'lgan pul miqdori qonunini tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekistonni bozor munosabatlariga o'tish yo'li. T.: 1993.
2. Karimov I. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston" 2009 y.
3. Shodmonov Sh., Alimov R., Juraev T. Iqtisodiyot nazariyasi, darslik T.: 2002.
4. O'limasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik T.: 2006.

5- Mavzu. Bozor iqtisodiyotining tuzilishi, unga o'tish muammolari.

Reja:

1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va vazifalari.
2. Bozorning tuzilishi.
3. Tijorat sarf-xarajatlari va foyda.
4. Bozor iqtisodiyotining ob'ektlari. Tovar, qiymat, baho.

Tayanch iboralar

Bozor iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti belgilari, bozor iqtisodiyoti modellari, o'tish shakllari, o'tishga xos xususiyatlari va qonuniyatlari, nemis modeli, Xitoy modeli, amerikkacha modeli, Rossiya modeli, jozibali o'tish, tadriijiy o'tish, O'zbekiston modeli

1. Bozor iqtisodiyotining mohiyati va vazifalari. Sotuvchi va

xaridorlarning birgalikdagi xatti-harakatlari bozorni keltirib chiqaradi, bozor esa ularni birlashtiruvchi mexanizm bo'ladi. Bozordagi oldi-sotdi munosabatlarning ob'ekti xilma-xil tovarlar bo'lib, ular tarkibiga iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari bo'lgan tovarlar, har xil ishlab chiqarish uchun va iste'molchiga ko'rsatiladigan xizmatlari kiradi. Masalan: ishlab chiqarish vositalari bo'lgan tovarlar, ya'ni moddiy resurslar, ish kuchi, yer-suv,


MUAMMO
Jamiyatda shakllanib borayotgan har xil bozor iqtisodiyotining tuzilishi va tarkibini hisobga olib, aniqlash bozor iqtisodiyoti tarqalishini rivojlantirish muammolari.

bino-inshoot, pul kapitali, qimmatbaho qog'ozlar, aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar va shunga o'xshash xizmatlar kiradi. Ishlab chiqarish qanchalik rivojlangan bo'lsa, bozor ob'ektlari shunchalik ko'p va xilma-xil bo'ladi. Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda bozor muomalasiga deyarli 27 mln. xil tovar va xizmatlar kelib turadi. Bozorning sub'ektlari - ishtirokchilari ham bir xil emas. Ular ikki guruhga bo'lina: sotuvchilar va xaridorlar. Ular bozor munosabatlarida turli vazifani bajaradilar.

Bozorda talab va taklif uchrashadi. Agar talabgor xaridor tomonidan bo'lsa, taklif ishlab chiqaruvchi qo'lida bo'ladi. Bozorda tijorat faoliyati bilan birjalar, savdo uylari, tijorat firmalari, auksionlar, yakka savdogarlar, tovar ishlab chiqaruvchilarning o'zlari shug'ullanadi. Ishlab chiqaruvchilar uchun bozor hajmi muhim ko'rsatkich hisoblanadi, Chunki u bozorda tovarlarning sotilishi miqdori bo'lib, tovarlar va har bir tovarning narxiga bog'liq bo'ladi. Bozor hajmi nafaqat

ishlab chiqarish miqyosiga, balki uning ixtisoslashuviga ham bog'liq. Ixtisoslashuv qanchalik chuqurlashsa, mahsulotlarning tovarlik darajasi shunchalik oshadi, shunchalik ko'p tovarlarni bozorda ayirboshlash zarurati kuchayadi. Bozor faqat o'zining hajmi bilan emas, balki xilma-xil turlari va mukammal infrastrukturasiga bilan ajralib turadi.

Bozor o'z rivojida ikki bosqichdan o'tadi.



Birinchisi, **tartibsiz bozor bosqichi**. Bu bosqichda bozor aloqalari stixiyali tarzda o'rnatiladi, ishlab chiqaruvchi uchun bozor noma'lum bo'ladi. Bunga misol qilib hozirgi dehqon bozori va chayqov bozorlarini olish mumkin.

Ikkinchi bosqich - bu **tartiblanadigan bozor** ko'r-kona amal qilavermaydi. Bu shunday bozorki, unga xos bo'lgan qonunlar ko'r-kona amal qilavermaydi, bozor aloqalari shu qonunlarga oldindan moslashtirib boriladi, bozor va uning segmentlari oldindan tahlil

YODDA TUTING!
Bozor - bu sotuvchilar va xaridorlarning tovarlarni pul muqommada ayirboshlash vazmidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlari, ularning o'zaro aloqalardir.

ishlab chiqarish marketing xizmati orqali bozor bilan uzviy bog'lanadi. Mana shunday bozor rivojlangan mamlakatlarda mavjud.

Bozor xalqaro mehnat taqsimoti taqozo etgan iqtisodiy aloqalarni o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bozor mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, ishlab chiqarishning davlatlararo miqyosda aniq ixtisoslashuvni, xalqaro miqyosidagi talab-ehhtiyojga mo'ljallangan olib yuritilishini taqozo etadi. Xullas, bozor xalqaro integratsion aloqalarni o'rnatish va ularni kengaytirish vositasi ham bo'ladi.

Bozor funksiyalari xilma-xil bo'lgan holda, ular bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshadi. Bozorning ichki strukturasi bu

funksiyalarni ado etishni ta'minlab beradi.

Bozor munosabatlari iqtisodiy munosabatlar doirasida mustaqil harakat qiladi.

Bozor tizimi iqtisodiy liberalizmga xos, ya'ni yuqorida aytganimizdek, har qanday faoliyat turlari erkin amalga oshadi, ammo faoliyat turlari, albatta, bir-biri bilan bozor orqali bog'lanishi shart. Hamma o'z manfaati yo'lida harakat qiladi. Sotuvchi qimmat sotishga intilsa,

MUAMMOLI VAZİYAT:
Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida umumiy konumiyatlar asosida mahalliy o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, o'tish muammolarini shakl va usullarini ijobiy ishlab chiqish va amalga oshirish

xaridor arzon olishga intiladi. Tadbirkor ishtiyoqi foyda olish bo'lsa, ishchining maqsadi ko'proq ish haqi olish. Alohidalashgan manfaatlarning bo'lishi, ularni to'qnashuvga ham olib keladi. Shu boisdan bozor iqtisodiyotida raqobat kurashi amal qiladi. Ishning ko'zini bilgan bu kurashda g'olib chiqadi, uning mavqei mustahkamlanadi, o'quvsizlar esa bir chetga surilib qo'yiladi.

Bozor iqtisodiyotida faqat raqobat emas, manfaatlar uyg'unlashgan sharoitda hamkorlik ham yo'z beradi. Masalan, sotuvchi bilan xaridor savdolashtirib, har ikki

tomonga ma'qul narx kelishib olinganda, ularning manfaati mos tushadi, ya'ni ular bir-biridan rozi bo'ladilar. Shunday o'zaro bir-biriga naf keltirish hamkorlikni, shiyerikchilik va oldi-berdi aloqalarini keltirib chiqaradi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish mexanizmi bor, u iqtisodiy stimullarga, ya'ni kishilarni to'q va xotirjam yashash, obro'-e'tiborga ega bo'lish, hayotda o'z o'rnini topish kabi manfaatlarini yuzaga chiqarishga asoslanadi. Bozor mexanizmi iqtisodiy rag'batlashtirish mexanizmidir. Unda iqtisodiy faollikka undash va hatto zo'rlash ham bor, ammo bu ma'muriy zo'rlash emas, balki iqtisodiy jihatdan majburlashdir.

Bozor mexanizmi iqtisodiy bo'lganidan, bu tizimda foyda-zarar, sarf-xarajat, yutish-yutqazish, narx-navo, raqobat-kelishuv, soliq-subsidiya degan narsalar keng qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga xos belgilardan biri erkin, ya'ni liberallashtirilgan narxlarning bo'lishi va hamisha narxni hisobga olib, foyda-zararni nazarda tutgan holda ishlashdir. Iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqarishni tez va eng avvalo, resurslarni tejab-tyergab sarflangan holda rivojlantirishni ta'minlaydi. Natijada moddiy to'kinchilik yuzaga keladi. Binobarin, bozor iqtisodiyoti taqchilliksiz iqtisodiyot hisoblanadi. Uning ijtimoiy mo'ljall-maqsadi farovonlikni oshirish, farovonlikni kishilarning ishbilarmonligi, mehnatning natijasi, o'z mulkini samarali ishlata bilishi ta'minlaydi. Har bir kishi qo'lidan kelgan ish bilan shug'ullanib, ishlaganiga qarab daromad ko'rishni adolatli hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti kambag'al va qashshoqning tengligi emas, balki o'ziga to'q kishilarning tengsizligidir. Tengsizlikning bo'lishi ham adolatli hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan sharoitda eng kam daromad chegarasini davlat qonuni yo'li bilan belgilab qo'yadi. Masalan, AQShda 1996 yilda eng kam ish haqi 1 soat ishlaganlik uchun 5,15 dollar qilib belgilangan va uni bundan kamaytirib bo'lmaydi.

E'TIBOR BERING!

Bozor mexanizmi iqtisodiy bo'lganidan, bu tizimda foyda-zarar, sarf-xarajat, yutish-yutqazish, narx-navo, raqobat-kelishuv, soliq-subsidiya degan narsalar keng qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyotida daromadlarning yuqori chegarasi belgilab qo'yilmaydi. Bu esa kishilarda pul topish ishtiyoqini kuchaytirib, ishlab chiqarishga rag'bat beradi. Boy kishilar ibra bo'lib intilishni kuchaytiradi, iqtisodiy faollikni yuzaga chiqaradi. Boylik adolatli yo'l bilan topilganidan uni yashirmasdan oshkor e'lon qiladilar. Masalan, 1994 yil natijasiga ko'ra, dunyodagi eng katta boylar ro'yxatiga ita boy kiritilib, uning boyligi 6,9 milliard dollardan 12,9 milliard dollargacha bo'lganligi e'lon qilindi. 2008 yilda jahondagi eng boy kishining puli 19 milliard dollar bo'lgan.

2. Bozorning tuzilishi. 67 ming yil ilgari paydo bo'lgan bozor rivojlanib o'rmoqda va rivojlanishda davom etmoqda. U insoniyat sivilizatsiyasining natijasidir, ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai-nazardan bozor tovar ishlab chiqarishning iqtisodiy kategoriyasidir.

DIQQAT QILING

Bozor almashuviga 2 tomondan qarash mumkin:

A) tovarlar va xizmatlarning harakat jarayoni, ya'ni, bo'g'imlarning doimiy ijtimoiy almashuvi jarayoni sifatida, bunda individumlar (ko'p kishilar) buyumlarni ayirboshlashda chiqadilar.

Ayirboshlash iqtisodiy kategoriya sifatida 2 tomoni ifodalaydi, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlarini, o'z iste'moli uchun olingan mehnat natijalarining harakati yuzasidan kishilar o'rtasidagi ishlab chiqarish va iste'molchi sifatidagi iqtisodiy aloqalarni mujassamlashtiradi, boshqalar uchun esa bu jarayon ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun boradi. Aynan almashuv tufayli buzilgan, xo'jalik jihatdan asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar birgalikda yuzaga chiqadi.

Almashuvni keng ma'noda farqlash zarur, bu fioliyatlar bilan xizmatlar, tajriba qandaydir xatti-harakat natijasi bilan ayirboshlash va tor ma'nodagi almashuv - bu faqat natijalari va mahsulot bilan ayirboshlashdir. Keyingi ayirboshlash tovar ishlab chiqarish sharoitida tovar almashuv shaklini oladi. (T-T).

YODDA TUTING!

Tovar ayirboshlash - tovar alashuvining rivojlanganroq shaklidir, u pul vositasida o'zaro almashuvchanlik (vozmezdnost'), ekvivalentlik asosida, mazkur jarayon ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

Savdo - kishilarning tovar ayirboshlash va oldi-sotdi bitimlarini (P-T-P) amalga oshirishga qaratilgan faoliyatdir.

Tovar xizmatlari - tovarlar oldi-sotdisini amalga oshiradigan kishilarning vositachilik faoliyati munosabatidir. Vositachilik bilan shug'ullanuvchi kishilar xizmat ko'rsatishadi, tovar ishlab chiqaruvchidan ajralgan holda savdo fioliyati bilan band, ular tovarlarning tez sotilishi bo'yicha, bu tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari tez qoplash bo'yicha xizmat ko'rsatishadi. Xizmatlar asosiy va qo'shimcha bo'lishi mumkin.

Savdo kapitali - muomala sohasida amal qiluvchi kapital, u sanoat (tovar) kapitalning alohida qismini o'zida mujassamlashtiradi. Savdo kapitali tovar massasini sotilgandan keyin qo'shimcha qiymat keltiradi. (P-T-P-P).

Shunday qilib, bozor iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar hamda savdo vositachilari o'rtasidagi bozor munosabatlari sub'yektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradigan va mehnat mahsulotlari va xizmatlar bilan ayirboshlashni ta'minlaydigan tovar va pullar harakati yuzasidan aniq iqtisodiy munosabatlar va aloqalar yig'indisidir.

Bozor munosabatlarining mazmuni (mehiyati) sotuvchilar (tovar ishlab chiqaruvchilar va savdogarlar) xarajatlarni qoplash va foyda olish hamda xaridorlarning to'lovga qobil talabini erkin o'zaro kelishuv (vozmezdnost), ekvivalentlik va raqobatchilik asosida qondirishdan borat. Bozor munosabatlarining moddiy

Bozor - bu savdo kapitali va boshqa moddiy boyimlar amaliy etilgan tovar ayirboshlash va raqobatchilik aniq namoyon bo'lish shaklidir.

- a) bozor ishtirokchilarining cheklanmagan miqdori va ular o'rtasidagi erkin raqobat;
- b) barcha sub'yektlar har qanday xo'jalik faoliyatiga mutlaq erkin kirish;
- c) ishlab chiqarish omillari mutloq harakatchanligi, kapital harakatning cheklanmagan erkinligi;
- d) bir xil nomli tovarlarning mutloq bir turliigi;
- e) erkin raqobatning bironta ishtirokchisi ham beshqasining qabul qilgan qaroriga noiqtidosiy usullar bilan bevosita ta'sir ko'rsata olmaydi;
- f) Narxlar raqobat asosida erkin belgilanadi;
- g) Monopolizm (1 ta ishlab chiqaruvchi) maydoni (Ita xaridor)ning mavjudmasligi va davlatning bozorning amal qilishga aralashmasligi.

Erkin bozorning afzalligi shundaki, u o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizm asosida («Ko'rinnas qo'lb») amal qiladi, u taqchil bo'lmagan bozor hisoblanadi.

Tartibga solinadigan (madaniylashgan) bozor - bu sivilizatsiya va jamiyat, insonparvarlashuvi natijasidir, bunda davlat jamiyat manfaatini ko'zlab, kishilarni ijodiga, mehnat tashabbusiga va xo'jalik faoliyatini tavakkalchiligiga moslashuvchan bo'lish uchun bozor zarbalarini yumshatadi.

4. Pulning mohiyati va vazifalari. Bozorning tarkibi va tuzilishni tavsiflash uchun turli - tuman mezonlar mavjud:

1. Bozor ob'yektlari bo'yicha;
2. Bozor sub'yektlari bo'yicha;
3. Makon jihatdan bozor;
4. Birikish shakllari bo'yicha;
5. To'yinganlik darajasi bo'yicha bozor;
6. Taraqqiyot darajasiga ko'ra bozor;
7. Raqobatning cheklanganligi darajasi bo'yicha bozor;
8. Amal qilinayotgan qonunchilik bo'yicha bozor;
9. Tarmoqlar bo'yicha bozor;
10. Sotish xarakteri bo'yicha bozor;
11. Tovarlar assortimenti hisobiga olingan bozor.

Bozorga nisbatan mustaqil tizim tarkibi sifatida **infratuzilma** - bu tashkiliy-huquqiy shakllar yig'indisi bo'lib tovarlar va xizmatlar keyingi harakati to'g'risida oldi-sotdi bitimlar yoki bozorga xizmat qiladigan va me'yorida amal qilishni ta'minlash bo'yicha noma'lum vazifalarni bajaradigan muassasalar, tizimlar, xizmatlar korxonalar yig'indisidir. Hozirgi zamon bozori infratuzilmasining asosiy unsurlari quyidagilardir:

1. Birjalar;
2. Auktsionlar;
3. Kredit tizimi va tijorat banklari;
4. Emissiya tizimi va emissiya banklari;
5. Aholi bandligini tartibga solish;
6. Axborot texnologiyalari;
7. Soliq tizimi;
8. Tijorat;
9. Maxsus reklama agentligi;

DIQQAT QILING!

10. Savdo palatalari va boshqalar.

Infratuzilma tarkibida ko'p aksariyatlar mavjud bo'lgan birja muassasalari alohida ahamiyatga ega. Erkin iqtisodiy hududlar 1959 yilda Irlandiyada paydo bo'lgan. Hozirgi paytda yuzdan ortiq erkin iqtisodiy hududlar hisoblangan EXlardan Yaponiya, AQSh, G'arbiy Yevropa TIKlari hukmron mavqega ega.

Takrorlash uchun savollar.

1. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Bozor qachon vujudga kelgan?
3. Bozor qanday vazifalarni bajaradi?
4. Bozor tizimining qanday ijobiy tomonlarini bilasiz?
5. Bozor iqtisodiyotining salbiy tomonlari ham bormi?
6. Bozorning qanday turlarini bilasiz?
7. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi?
8. Qanday qonunlar bozor qonunlari deb yuritiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Buyuk kelajak sari. Toshkent 1998 y.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 bb.
3. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009.
4. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Farg'ona 1995, 2001, 2007yy.
5. Yo'ldoshev K. Iqtisodiy bilim asoslari.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005
7. Shodmonov Sh., Alirnov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 b.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: 2006.

6-mavzu. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning xususiyati

Reja:

1. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari.
2. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari.
3. Bozor munosabatlari o'tish jarayonida makroiqtisodiy harqarorlikka erishish vazifalari.

1. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillari va xususiyatlari.

Tayanch iboralar:

O'tish davri, bozor iqtisodiyoti, bozor islohotlari, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy uklad, ko'pukladli iqtisodiyot, iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlar kontsepsiyasi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish.

A) jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning 3 modeli mavjud.

1) rivojlagan mamlakatlar yo'li;

2) rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li;

3) sobiq sotsialistik mamlakatlar-rejali yo'li.

Ularning hammasi o'tishni maqsad qilib, iqtisodiyotning qonun-qoidalarini amal qilish mexanizmi umumiy bo'ldi, lekin shu bilan birga o'ziga xos xususiyatlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, milliy sharoitlaridan kelib chiqadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, bozor iqtisodiyoti munosabatlarga o'tishda revolyutsion ("tezkor palach holatida" (Argentina, Braziliya, Pol'sha, CHexoslovakiya, Rossiya kabi) va evolyutsion (asta-sekin) AQSh, Gvermaniya, Frantsiya, Xitoy, Turkiya kabi) o'tish yo'llari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqqan o'tishning evolyutsion (tdrijiy asta-sekin) o'tish yo'li tanlab olindi. Bu "o'zbek modeli" nomini olib, besh tamoyilga asoslanadi. Iqtisodiyotni siyosatdan va mafkuradan ustunligi; davlat islohotchi va tashkilotchi; qonunlarni hamma uchun ustuvorligi; kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati; bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Bu tamoyillarning har birini amalga oshirish uchun har xil ichki maqsadlar va vazifalar mavjud edi. Eng avvalo totalitar tizimni qiqbatlarini, qonun-qoidalarini tugatish va o'tish davrida tanglikka va inqirozga yo'l qo'ymaslik va milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish, mustaqillik qonunlarini ustuvorligini ta'minlash, kam ta'minlangan aholi toifalarini ijtimoiy va moddiy himoyalash, bozor islohotlarini bosqichma-bosqich o'tishda davlatning islohotchi va tashkilotchi rolini kuchaytirishdan iborat edi. O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari: xom ashyoga asoslangan mamlakatligi, tabiiy-minyeral va mehnat resurslariga boyligi, tarixiy, milliy urf-odatlar, jahon fani va madaniyatiga katta ulush qo'shgan allomalar yurti ekanligi, aholining 75 foizi muhtojlik darajasida turganligi kabi larni hisobga olish lozim edi.

Bu ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ra'naviy vazifalarni amalga oshirish eng dolzarb edi.

I-bosqich (1991-1996yy.). Bu davrda aholiga davlat yerlari bepul ajratil berildi. 2 mln. oila 586 ming gektar yerlar, uy-joy qurib olishga va zarur bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlari yyetishtirib, o'zini ta'minlashga berildi. Urush va mehnat taxriylari, o'qituvchi, vrach, madaniyat xodimlari va tarbiyachilari yashab turgan davlat uy-joylari bekorga berildi. Savdo, umumiy evqatlanish, xizmat ko'rsatish mahalliy sanoat ob'yektlari (magazin, oshxona, hammon, mehmonxona kabilarni uch yilga ijara ga berilib, balans bahosida sotib yuborildi.

Davlat korxonalarida ishlayotganlarga yashab turgan uy-joylar balans (davlat bahosida sotildi). Korxonalar, tashkilotlar va yirik savdo uylari aksionyerli jamiyatlariga aylantirildi. Sobiq kolxozlar va sovxozlar jamoa va shirka xo'jaliklariga aylantirildi. Tashqi savdo erkinlashtirilib "ochiq darvoza" siyosati belgilandi. Kichik xususiy lashtirish amalga oshirildi.

II-bosqichda (1997-2003yy.) aksionyerlik jamiyatlari korporativ korxonalarga aylantirildi. Moliya, bank va kreditning yangi milliy tizimi shakllantirildi, milliy valyuta (o'zbek so'mi) vujudga keldi, uni mustahkamlash usullari amalga oshirildi.

Qishloq xo'jaligida agrar islohotlar amalga oshirilib, dehqon, fermer va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar vujudga keldi. Sobiq jamoa va shirkat xo'jaliklari o'rinda mustaqil fermer xo'jaliklari shakllanishiga e'tibor berildi. Birinchi bosqichda shakllangan kichik biznes, kichik korxona, xususiy tadbirkorlik va mikrofirmalarni rivojlanishga ustuvorlik siyosati berildi. Tashqi savdo munosabatlariga yana erkinlik berildi. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, yangi avtomobilsezlik, mikrobiologiya, elektronika, qayta ishlov berish tarmoqlari rivojlanib bordi. Davlat mulkini xususiylashtirish asosida kichik korxona va xususiy tadbirkorlik qo'llab-quvvatlash uchun mikrobanklar, minibanklar, ipoteka banklari va ko'plab xorijiy banklar tashkil etildi. Bankrotga uchragan korxonalar, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar kim oshdi savdosida sotib yuborildi.

III-bosqichda (2003-2009yy.) milliy valyutamizni erkin almashtirishga ruxsat berildi. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va uni yanada jozibadorligini ta'minlashga erkinlik berildi. Bankrotga uchragan, ishlamay turgan ishlab chiqarish korxonalari, madaniyat ob'ektlarni xorijiy davlat va firmalarga hamda O'zbekistonlik tadbirkorlarga sotib yuborishga ruxsat berildi. Moliya, bank-kredit tizim yanada erkinlashtirildi. 2009 yilda davlatning umumiy mulkining ulushi 23 foizni, nodavlat mulki 77 foizni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligida xususiylashtirish -98,2 foizni, qurilishda-84 foizni, ichki savdo aylanmasida -98 foizni, avtomobil transportida -86 foizni, tashqi savdoda -26 foizni tashkil etadi. Fermer xo'jaliklari yalpi paxta hosilini- 99,1 foizni, g'allani -79,8 foizini, dehqon xo'jaliklari go'shtini -76 foizni, sutni -96 foizni, kartoshkani-84 foizini, sabzavot va poliz maxsulotlarini -89 foizni, mevalarni -93 foizini egalladilar. O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki maxsulotining -52,2 foiz ulushini kichik korxona, xususiy tadbirkorlik va mikrofirmalar tomonidan yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli"ni to'g'riligini jahon siyosatchilari, ekspertlari va jamoatchiligi tan oldi.

2. Respublikada bozor iqtisodiyotini amalga oshirish va uning asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiy islohotlar - bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu uzoq muddatga mo'ljallangan strategik yo'nalishlardan iboratdir. Bu mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat ko'rsatishning eng yaxshi sharoitini yaratish, aholini ma'naviy yetuklikka erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdir. Islohotlarning asosiy yo'nalishlari:

1. Mulkiy munosabatlarni isloh qilish.
2. Agrar islohotlar.
3. Moliya-kredit va narx-navo islohoti.
4. Boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish.

5. Tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti.
6. Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy islohotlar.

Muammo:
O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti murosabatlarni shakllantirish muammolari, uning asosiy oshirishdagi muamvay, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy, axloqiy asoslarini vujudga keltirish, uning tamoyillarini amalga oshirishdagi murakkablik, ziddiyatini hal qilish yo'llari

3. Bozor munosabatlari o'tish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish vazifalari. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, iqtisodiyotni rivojlantirish borasida bir qator vazifalar turadi. Bular: 1) xususiy lashtirishni chuqurlashtirib borish; 2) raqobatchilik muhitini shakllantirish; 3) monopoliyani cheklash; 4) iqtisodiyotni erkinlashtirish; 5) barqarorlikni ta'minlash; 6) milliy valyutani mustahkamlash va erkin ayirboshlashga erishish; 7) iqtisodiy tarkibiy o'zgarishlarni tubdan yaxshilash; 8) adolatli demokratik davlatni shakllantirish; 9) fuqarolar jamiyatiga o'tishga sharoit yaratish; 10) ijtimoiy sohalarida o'zgarishlarni ta'minlash.

Buning uchun ikkita vazifani hal qilish.

1. Mulkni davlat ixtiyoridan chiqarish va haqiqiy mulk egasi - xo'jayin qo'liga topshirish.
2. Ko'p ukladli iqtisodiyot va rag'batlantiruvchi raqobatchilik muhitini vujudga keltirish;
3. Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish.

Mulkni haqiqiy xo'jayinlari (egalari) qo'liga topshirish O'zbekiston Respublikasining - «Mulkni davlat ixtiyoridan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida»gi qonunga muvofiq kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlikning faoliyatini olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratishini ta'minlaydi.

Raqobatchilik muhitini vujudga keltirish esa, eng avvalo, mulkni davlat monopoliyasi ekanligiga barham berish va bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi (xizmat ko'rsatuvchi), ammo mulkchilikni turli shakllariga: davlat, jamoa, xususiy va boshqa shakllariga asoslangan ko'pdar-ko'p korxonalar va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni tashkil etadi. Bu korxonalar ilgari yirik ixtisoslashgan korxonalar yangi texnologiya bilan jihozlangan tashkiliy xo'jalik jihatidan qayta o'zgartirish loyihalarini ishlab chiqishi zarur bo'ladi.

Demak, davlat korxonalari bilan birga mayda, o'rta, xususiy mikrofirmalar bir vaqtning o'zida iqtisodiyotda sezilarli rol o'ynab, bozor sharoitiga meslashib boradi, ular tijoratlashtiriladi, ya'ni foydalanadigan bo'ladi. Bundan barqarorlashtirishning barcha yo'nalishlarni ta'minlash va rivojlantirish lozim bo'ladi (muvozanatni, mutanosiblikni, sifatni, talabni, taklifni ta'minlash).

Jahon tajribasida barqarorlashtirishning bir qancha yondashuvlari mavjud:

A) monetar siyosat bo'lib, pul qadri pasaymasligiga, pulning to'lovga qadriligi saqlash lozim. Ammo uning kamchiligi shundaki, ishlab chiqarishning jismoniy hajmi kamayadi va investitsiya faoliyatini to'xtat qolishiga olib keladi.

B) ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, iqtisodiyotni nomutanosiblikka barham berishga asoslangan yondashuv. Bunda mo'lya-kredit siyosati tovar bilan to'ldirishga qaratilgan bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligida ishlab chiqarishga ustuvorlik beriladi. Ustuvor tarmoqlarda (neft, gaz, rangli metall, energiya, g'alla, paxta) ishlab chiqarishni o'stirishga e'tibor beriladi;

V) ishlab chiqarishda muvozanatga keltiriladigan monetar siyosat asosiy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni tarkiban qayta tashkil qilish siyosati bilan birga olib borilishi lozim.

Barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyidagilar:

1. Ishlab chiqarish hajmini kamayishiga yo'l qo'ymaslik.
2. Ustavor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash.
3. Davlat budjeti va korxonalar moliyaviy ahvolidning barqarorligini ta'minlash.
4. Pulning qadrsizlanishini to'xtatish.
5. To'lov balansini va davlat valyuta rezervlarining holatini yaxshilash;
6. Muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turmush darajasini yaxshilash.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida milliy valyutani mustahkamlash umummilliy vazifa hisoblanadi. Buning uchun bir qator dasturlarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Buyuk kelajak sari. T.: 1998.
2. Karimov I. Bizdan obod va ozod, erkin va farovon hayot qolsin. T.: 2000.
3. Karimov I. Qishloq xo'jalik taraqqiyot mo'l-ko'pchilik manbai. T.: 1998.
4. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh qilish. T.: 2005.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari. T.: 2009.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2006.
7. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi T.: 2006.
8. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona-2005.

7- Mavzu: Talab va taklif. Makroiqtisodiy muvozanat.

Reja:

1. Talab va taklif, ularni belgilovchi muvozanat.
2. Talab va taklif qonuni.
3. Makroiqtisodiy muvozanat.
4. Jami talab va jami taklif

Tayanch iboralar

Talab, taklif, talab funktsiyasi, muvazabat, muvozanatli baho, muvozanat, hajm, egrilavchanlik, tarmoq, uning o'rni, buyuvchi tovarlar teng holati, barqaror tenglik holat, raqobatlilik, raqobat kuchlari.

1. **Talab va taklif, ularni belgilovchi muvozanat.** Bozorda ehtiyojlar talab shaklida maydonga chiqishining sababi tovar ishlab chiqarish xususiyatining o'z zaminidadir. Har qanday tovar faqat biron-bir boshqa tovar yoki pulga almashuv natijasida olish mumkin. Qondirilgan ehtiyoj uchun haq to'lab bo'lmaydigan ehtiyojni bozor hisobga olmaydi. Masalan, kimdir avtomobil sotib olmoqchi bo'lsa-yu, ammo puli bo'lmasa, bunday ehtiyoj talab emas, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: talab shunchaki ehtiyoj emas, balki to'lovga qobil, pul bilan

Talab – bu eng avvalo biron-bir noma'nat yoki xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning bozorda namoyon bo'lishidir

ta'minlangan ehtiyojdir.

Talab darajasiga uch guruh omillar: tovarlar narxi, xaridorlar (aromadlari, iste'molchilarning didi va ehtiyoji ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ayrim xaridorlarning ham, iste'molchilar katta guruhining ham talabiga ta'sir ko'rsatadi.

Talabning yuqorida tilga olingan omillardan har biriga bog'liqligini aniq misollarda ko'rib chiqaylik.

Talab bilan narxlarning o'zaro ta'sirini har bir tovar misolida bozorida kuzatish mumkin. Misol, uchun mol go'shtini olaylik.

Bundan hamma sotuvchilar sifati bir xil go'shtni sotadilar va aholining daromadlari, an'analari va didlari o'zgarmay qotavayeradi, deb faraz qilaylik, faqat mol go'shtini narxi o'zgaradi, bizning vazifamiz buni bali talab darajasiga qanday ta'sir qilishini kuzatishdir.

Dastavval, ayrim iste'molchi talabning o'zgarishini ko'rib chiqamiz. U go'shtning bir kilogrammi 7500 so'm bo'lsa, hech qancha olmaydi. Agar narx 6000 so'mgacha tushsa, 3 kg, 5000 so'mgacha tushsa, 4 kg, 4000 so'mgacha tushsa, 6 kg sotib oladi va hokazo. Narx qancha past bo'lsa, go'sht shuncha ko'p sotiladi. Albatta, boshqa har qanday ehtiyojdek, go'shtga bo'lgan ehtiyoj ham qoniqlashning muayyan jismoniy chorasiga ega.

Shaxsiy talab o'zgarishining shakli tasodifiy emas. U iqtisodiy nazariyada talabning kamayish qonuni deb ataladigan qonuniyatni ifodalaydi. Mazkur qonunda aytilishicha: agar biron birlamchi tovarning narxi oshsa, unga bo'lgan talab kamayadi va aksincha, tovar narxi kamaysa, unga talab ortadi.

Har bir iste'molchining o'z shaxsiy talab o'zgarishi bor. Ular shakli jihatidan bir-birini takrorlamaydi. Jami bozor talabi yoki muayyan darajasida barcha iste'molchilar sotib oladigan tovar miqdorining ifodasi sifatida shakllanadi.

Talabning o'zgarishiga o'rinbosar tovarlarning bo'lish yoki bo'lmashligi muhim ta'sir ko'rsatadi. Agar tovarning o'rinbosarlari ko'p bo'lsa, narx bo'yicha unga talab o'zgaruvchan va aksincha, kerakli o'rinbosar tovarlarga ega bo'lmasa, narx bo'yicha talab nco'zgaruvchan bo'ladi. Agar o'rinbosar tovarlar narxi oshsa, unda shu tovarning o'ziga bo'lgan talab ortadi. Masa'an, sariyog' va margarin bir-birining o'rnini bosadigan tovarlar hisoblanadi. Sariyog'ning narxi oshsa istemolchilar uni kam miqdorda xarid qilishadi va bu o'z navbatida margaringa bo'lgan talabning ortishini keltirib chiqaradi. Aksincha, sariyog' narxi tushsa iste'molchilar uni ko'plab xarid qiladilar. Bu esa margaringa bo'lgan talabning qisqarishini keltirib chiqaradi.

2. Talab va taklif qonuni. Taklif muayyan paytda bozorda bo'lgan yoki unga etkazib borilishi mumkin bo'lgan tovarlar massasi sifatida belgilanadi. Biron-bir sababga ko'ra sotish uchun etkazib berilmaydigan mahsulotni bozor hisobga olmaydi va u taklifga kirmaydi. Misol uchun, biron kishi besh tonna olma hosili olsa-yu, uni sotish uchun taklif qilolmasa, bu olma bozor uchun yo'q, taklif tarkibiga kirmaydi.

Shunga e'tiborni qaratmoq zarurki, bozorda tovarlar taklif qilish va ne'matlar ishlab chiqarish hajmlari bir xil emas. Uning bir nechta sababi bor. Birinchidan, mahsulotning bir qismi sotish uchun emas, balki o'z iste'moli uchun ishlab chiqariladi. Ikkinchidan aytilganidek, almashish uchun ishlab

MUAMMO:

Bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklifning darajasini belgilovchi omillar, sharoitlari asosida mulohazasiz muayyan tovarlar bozorga keltirish muammolari.

MUAMMOLI VAZIIYAT

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'rtinchi jarayon bo'lib, unda muayyan talab va taklif qonunini muayyan kelib chiqib, iqtisodiy vaziyatni aniqlash va belgilash.

chiqilgan mahsulotning hammasi ham darhol sotish uchun taklif qilinishi mumkin emas. Uchinchidan, bozorda ishlab chiqarishning natijasi bo'lgan tovarlar (masalan, yer va ish kuchi) ham taklif qilinadi.

Sotuvchilarning narxlar o'zgarishiga qanday qarashini aniqlash uchun aniq misolni ko'rib chiqamiz: go'shtning narxi juda past bo'lgan xarajatlarni qilib, qoplashni hisoblaydi va bunday holda umuman hech narsa taklif qilmaydilar. Go'shtni arzon narxga sotadiganlar ham katta daromad olmaydilar. Aynan daromad sotuvchilar uchun asosiy intilish, qiziqish bo'lgaligi sababli bozorda go'sht kam bo'ladi. Xuddi talab kabi takliflarni ham shaxsiy va umumiy takliflarga ajratish mumkin.

Tovar narxiga ko'ra, taklifning o'zgarish darajasini aniqlash uchun narxga yarasha taklifning o'zgaruvchanligi taklif bilan narx nisbiy o'zgarishlarning bir qismiga tengdir. Ammo amalda ba'zan narx bilan taklifning o'zgarishi qarama-qarshi yo'nalishda sodir bo'ladi. Sotuvchining mutloq ko'pchiligi bozorda tovarlarning yoki bitta yoki bir necha, lekin uncha ko'p bo'lmagan turlarni taklif qiladi. Agar u tovarlar narxi pasayib borsa, tadbirkorning sof daromadi kamayadi. Daromadning kamayishi sotuvchining tovar taklif qilishni ko'paytirishga undashi pasayadi. Unda taklifning o'zgaruvchanligi nolga teng bo'ladi.

3. Makroiqtisodiy muvozanat. Biz sotuvchilar bilan xaridorlar qanday ish tutishni ko'rib chiqar ekanmiz, bir-bir mahsulotga oid talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga bozorda qanday erishilishni aniqladik.

E'TIBOR BERING!

Tovar xo'jaligi ko'p sonli ishlab chiqarish omillari va natijalari bozorning o'zaro bog'liq tizimidan iboratdir. Butun shu tizim muvozanatdami yoki yo'qmi ekanligi turli tovarlar va narxlarning nisbati o'zgarishi yoki o'zgarmasligi bilan belgilanadi.

Butun bozor xo'jaligining muvozanat yoki muvozanatsiz holati murakkab o'zaro aloqadorlikka bog'liqdir: iste'molchilar ularning tovarlarga bo'lgan shaxsiy talablari va ishlab chiqarish omillarini taklif etishlari vositasida tovarlar yaratish uchun ishlab chiqarish omillaridan foydalanadigan firmalar bilan o'zaro aloqada bo'ladilar, firmalar ishlab chiqargan mahsulot iste'molchilarga sotiladi, kishilarning ehtiyojlari ham kengayib, ham so'nib turadi; texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qilish muttasil takomillashib boravayeradi.

Ishlab chiqarish va iste'molning aloqasi bozor orqali amalga oshiriladigan o'zgarishlar, bu yerda aytib o'tilmagan boshqa ko'p o'zgarishlar ham tovarlar narxi, daromadlar, tovar oboroti, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining darajasi va hokazolar kabi hajmlarning tebranib turishida o'zini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar va ular aks ettiradigan hodisalar alohida ishlab chiqaruvchi uchun qandaydir tashqi, unga bog'liq bo'lmagan bozor sharoitlari sifatida mavjuddir. Bu sharoitlar alohida shaxslarning, firmalar, tarmoqlar, mintaqalarning bozordagi qulay yoki noqulay ahvolini va butun ijtimoiy xo'jalik holatini belgilab beradi.

Bozorning ishlashi va rivojlanishining talab va taklif, narxlar va boshqa miqdoriy vosita bilan o'lchanishi mumkin emas. Ubi bozor muvozanati, bozor tangligi nazariyasi belgilaydi.

4. Jami talab va jami taklif. Talab va taklif bozorning ikki tomoni sifatida har xil omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Ularning bog'lanishi narx orqali bo'ladi. Talab va taklifning mos kelishi bozor iqtisodiyotining eng muhim talabidir. Chunki faqat shunday sharoitda iqtisodiy o'sish yo'z beradi.

Har bir xaridor muayyan pul summasi evaziga ko'proq va sifatli tovarlar olishga, ya'ni mumkin qadar arzon sotib olishga intiladi.

Sotuvchi esa bunga teskari maqsad qo'yadi: u o'z tovarini mumkin qadar qimmatga sotishga intiladi. Shu sababli bozorda sotuvchi narxi va xaridor narxi mavjud bo'ladi. Biroq sotib olish va sotishdan iborat har qanday amq faoliyat sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi bitim natijasi bitta narx bo'yicha amalga oshiriladi.

Talab va taklif o'zgarishining to'rt qoildasi bor:

1. Talabni ortishi muvozanatlashgan narx va muvozanatlashgan tovar miqdorining o'sishiga olib keladi.
2. Talabni kamayishi muvozanatlashgan narx va muvozanatlashgan tovar miqdorining pasayishiga olib keladi.
3. Taklifning ko'payishi muvozanatlashgan narxlarning pasayishini va muvozanatlashgan tovar miqdorini ortishini keltirib chiqaradi.
4. Taklifning qisqarishi muvozanatlashgan narxning o'sishini va muvozanatlashgan tovar miqdorining kamayishini keltirib chiqaradi.

Bozor qatnashchilari har birining maqsad-muddaosi o'z xususiy manfaatlar bilan quvvatlanadi va umuman, iqtisodiyotning bir butun holda muvafaqiyatli ishlab turishga qaratilmaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lmagan yoki bir biridan bexata qabul qilinadigan barcha qarorlarni o'zaro muvofiq ashuvini bozorning yuragi bozor mexanizmi amalga oshiradi. U alohida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining xatti-harakatlarini bir-biriga yetkazish hamda ularni muvofiqlashtirishni narxlar tizimi va raqobat kurashi orqali ta'minlaydi.

Narx iste'molchilar uchun ham, ishlab chiqaruvchilar uchun ham bozordagi sharoit haqida axborot beruvchi signal bo'lib xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Talab qonuni tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi?
2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi? B omillardan har biri o'zgarsa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarishlar yo'z beradi?
3. Don birjasida bug'doyga bo'lgan talab va taklifning umumiy hajmi quyida ma'lumotlar bilan xarakterlanadi, deb faraz qilamiz.

Talab, ming tsentnyer hisobida	Bir tsentnyer narxi (so'm) hisobida	Taklif, ming sentnyer hisobida	O'rtiqcha (+) Yoki kam (-)
85	3400	72	
80	3700	73	

75	4000	75	
70	4300	77	
65	4600	79	
60	4900	81	

A) bozor narxi yoki muvozanatli narx qanday bo'ladi. Bug'doyning muvozanatli miqdori qancha (3 ustunni to'ldiring va natijalarini tushuntirib bering;

B) shu ma'lumotlardan foydalanib bug'doyga bo'lgan talab va taklifni grafik shaklidagi tasvirini bering. Muvozanatli narx va muvozanatli miqdorni aniqlang;

V) nima uchun 3400 so'm bozorda muvozanatli narx bo'la olmaydi? 3900 so'mchi?

G) endi davlat bug'doyning eng yuqori narxini 3700 so'm qilib belgiladi, deb faraz qilamiz. Bunday narx qanday oqibatlarga olib kelishni batafsil tushuntiring. o'z javoblaringizni grafikda tasvirlang.

Quyidagi mulohazalarni tushuntirib bering.

A) taklif qisqaradi, talab esa o'zgarishsiz qoladi,

B) talab qisqaradi, taklif esa o'zgarishsiz qoladi,

V) talab ortadi va taklif ham ko'payadi,

G) talab ortadi, taklif esa o'zgarishsiz qoladi,

D) taklif ko'payadi, talab esa qisqaradi,

E) talab ortadi, taklif esa qisqaradi,

J) talab qisqaradi va taklif ham qisqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent. 1995y.
2. Karimov I. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. Toshkent 1999y.
3. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009.
4. Makkonell K., Bryu S. Ekonomiks. M. «Respublika» 1992y.
5. O'limasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darshik. T.: «Mehnat» 1995y. 213-244 bb.
6. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: «Moliya» 2002y.
7. Tojiboeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: 2002y.
8. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi F. 1995y. 83-104 bb.
9. Ekonomicheskaya teoriya. Izd. pod red. Gulyamova S.S. i dr. T.: 1999y.
10. Sajina M.A. CHibrikova G.G. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik dlya vuzov M. 1998g.
11. Samuelson P. Ekonomiks. Moskva 1996g.

8- Mavzu. Raqobat va monopoliya. Bahori tashkil topishi.

Reja:

1. Iqtisodiy raqobatning mohiyati va shakllari.
2. Raqobat turlari, usullari va shakllari.
3. Mukammal va nomukammal raqobat, monopoliya va usning oqibatlari

Mavzuning maqsadi:

Raqobat, monopoliya va bahoning mohiyati, ularning vazifalarini o'rganish

Tayanch iboralar

iqtsodiy tavallochilik, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy tavallochilik, eksport va import usullari, korxonaning tavallochilik siyosati, marketing, tadbirkorlik faoliyati, biznes, tijorat, menejment, ishlab chiqarish omillari, mehnat, er kapitali, tadbirkorlik qobiliyati, jamiyat xarajati, tannox, mahlag, ansoy va ayilqama fondlar, investitsiya, raqobat, raqobat turlari, usullari, shakllari, mukammal va nomukammal raqobat, monopoliya, oligopoliya, tabiiy monopoliya, antimonopoliya

1. Iqtisodiy raqobatning mohiyati va shakllari. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda va tabiatda shunday hodisa va voqealar ro'y beradi, ularning mohiyatiga amaliy nazar bilan qaralsa, yashash va rivojlanish uchun to'xtovsiz ichki kurash bo'radi.

Tovuqxonalarda donni berilishi bilan tovuqlarning donni iste'mol qilishi uchun o'zaro tortishuvi, ko'proq donni yeb qolish uchun kurashuvi kabi iqtisodiy hayotda ham iqtisodiy sub'yektlar o'rtasida ham ayniqsa, insonlar orasida o'zlarining aql-idroklari, tafakkuri va imkoniyatlarini ishga solib, yaxshiroq yashash, farovon hayot kechirish, jamiytda obro'liroq bo'lish uchun, ular o'z imkoniyatlaridan va qobiliyatlaridan to'laroq foydalanishga harakat qiladilar va intiladilar. Buni iqtisodiy faoliyatda bevosita harakat qiluvchi ichki kuch sifatida namoyon bo'ladi. Raqobat kurashi odamlar faoliyatining asosini tashkil qilgan uchun inson jamiyati hayotida iqtisodiy raqobat muhim rol o'ynaydi.

Jamiyatning iqtisodiy faoliyati sohasida ishtirok etuvchi ishlab chiqaruvchilar

(tovar ishlab chiqaruvchilar, yollanma ishchilar, tadbirkorlar, iste'molchilar, sohibkorlar, mulk egalari, sotuvchi-vositachilar va h.k.), xizmat ko'rsatuvchilar (savdogarlar, transportchilar, maishiy xizmat ko'rsatuvchilar va boshqalar) ishlab chiqarish xizmat munosabatlarining sub'yektlari o'rtasida eng qulay ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sharoitiga (arzon resurslarga, ishchi kuchiga, kattaroq sarflashga) ega bo'lishi uchun, serunum texnologiya va texnika, ish joyi, xaridorlar pozorni qo'lga olish, sifatli va ko'p

V8

MUAMMOLI VAZIYAT:

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot bir me'yorda rivojlanishini xarakatga keltiruvchi kuch va rivojlantirish vositasi sifatida raqobatning mavjudligi. Bunday sharoitda xilma-xil raqobat usullari, vositalarini ilmiy asoslash, o'rganish va bu vaziyatdan chiqish muammolari

hajmda mahsulot ishlab chiqarish, yuqoriroq baholarda sotish, umuman o'z faoliyatidan yuqoriroq daromad olish imkoniyati uchun harakat qilish iqtisodiy raqobatdir.

Yodda tuting!

Raqobat – tozoz sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va quproq nafatlikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi.

Raqobat, umuman ijtimoiy-iqtisodiy hayot qurishning harakatlantiruvchi kuchi, rivojlantirish vositasi sifatida mavjuddir. Shuning uchun ham raqobat umumijtimoiy va umumiqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar (yashash uchun kurash) ishtirokchilari o'rtasida shiddatli, barqaror kurashni anglatadi.

Iqtisodiy sohadagi raqobat serqirrali hodisa va jarayon qobiliyatini unumli ishga solish o'z tasarrufidagi

imkoniyatlarni va ularni rivojlantirish, o'ziga tegishli resurslarni to'laroq ishga solish uchun iqtisodiy kurashni bildiradi.

Iqtisodiy raqobatning negizini odamlarning mulk egasi sifatidagi har xil mulkchilik shakllari vujudga keltiradi. Demak, har xil mulk egasi o'z manfaatini va harakatini ko'zlab inuladi. Mulkdorning hamma faoliyatidagi harakati mana shu shaxsiy va xususiy manfaatdorlikka bo'ysundirilgan bo'ladi. Mana shu shaxsiy yoki xususiy manfaatdorlik ishlab chiqarish

va xizmat ko'rsatish munosabatlari sub'yektlari o'rtasida iqtisodiy manfaatdorning to'qnashuvi iqtisodiy raqobat asosini vujudga keltiradi. Raqobat, eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatiga xos bo'lganligi uchun Adam Smit uni harakatlantiruvchi «ko'rinmas kuch» deb atagan edi.

Iqtisodiy raqobatning amal qilishi uchun har xil iqtisodiy sub'yektlar (jismaniy shaxs, huquqiy shaxs va boshqalar)ning mustaqil bo'lishi, har xil mulkchilik shaklida alohida-alohida erkin ish yuritish bilan jamiyatda keng rivojlagan tovar-pul munosabatlari ham hukm surish lozim.

Tovar - pul munosabatlari hukm surgan natural xo'jalik sharoitida iqtisodiy raqobat bo'lmagan edi. Chunki har xil xo'jalik o'zi uchun ishlab chiqarib, mahsulotini bozorda sotmas edi. Natural xo'jalik bag'rida vujudga kelgan bozor iqtisodiyotining dastlabki belgilari vujudga kelish bilan shu sharoitga mos raqobat ko'rinishining unsurlari ham shakllana boshlagan edi. Qachonki tovar-pul munosabatlari rivojlanib, hukmron kuchga aylanganidan so'ng, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos holatda raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib keldi.

Bozor iqtisodiyotiga mos bo'lgan raqobat kurashi o'z taraqqiyotida to'rt bosqichni bosib o'tdi.

Birinchisi - natural xo'jalik doirasidan chiqib, bozor iqtisodiyotining dastlabki davrlarida raqobat mayda tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida, ularning o'z mehnati va mulkiga tayangan holda yashashi uchun kurash shaklida namoyon bo'ladi. Bu davrdagi raqobat miqyosi mahalliy bozorlar doirasida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'rtasida, tajriba o'rtirishi asosida vujudga kelgan edi.

Ikkinchisi - kapitalistik tovar-pul munosabatlari shakllana boshlash bilan erkin raqobatchilik bosqichi boshlanadi, tovar xo'jaligini hukmronlik qilishi, mayda tovar ishlab chiqaruvchilarning o'rniga, yirik tadbirkorlik faoliyatini

MUAMMO:

Jahon iqtisodiyoti
bajnalmillashuvi sharoitida
iqtisodiy raqobat jarayoni
murakkablashib, qator
muam-molarni vujudga
keltiradi, ular
monopoliyalar, oligo-
poliyalar, tabiiy
monopoliya-lar va ularni
cheklash, saqlab qolish
muammolari.

vujudga kelishi, ular ishlab chiqarish tizimiga va keng ravishda yollanma mehnatga suyangán tovar ishlab chiqarishni namoyon qiladi.

Uchinchisi - ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va ishlab chiqarishning to'planuvchi taraqqiyoti asosida ayrim yakka hokimlik shaklida tovar ishlab chiqarish jarayonida iqtisodiy raqobatning yangi bosqichi vujudga keladi. Bu bosqichda yakka hokimlik qiluvchi yirik korxonalar, firma, konsernlar o'rtasida, o'rta va mayda korxonalar o'rtasida shidcatli raqobat bo'lib, uning miqyosi juda kengayib, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sohalarida faol namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishning kengayishi va rivojlanishi bilan yakka hokimlashgan va yakka hokimlashmagan korxonalar o'rtasida raqobat olib boriladi. Bu bosqichning xarakterli xususiyatlari shundaki, raqobatda yutib chiqish uchun tashqi bozorni egallash va buning uchun siyosiy davlat hokimiyatining kuchidan foydalanish keng joriy etiladi. Bu bosqichda erkin raqobat bilan yakka hokimlik raqobatlari iqtisodiyotca mavjud bo'sada, tobora yakka hokimlik shaklidagi raqobat taraqqiy etib boradi.

To'rtinchidan - XX asrning ikkinchi yarmidan shakllanib kelayotgan boshqariladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida moddiy ishlab chiqarish va nornoddiy ishlab chiqarish sohalarida keng qo'llanilayotgan ilmiy texnika inqilobining natijasida raqobat takomillashib boradi va umumjahon baynalminallashgan xalqaro jahon bozori doirasi kengaygan sharoitda yangicha raqobat bosqichi vujudga keladi. Bu bosqichda yangicha raqobat iqtisodiy sohaning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, noishlab chiqarish sohalarida (bank, kredit, moliya, qimmatli qog'ozlar bozori, tashqi investitsiya, tashqi bozor sohalarida) va ijtimoiy-ommaviy sohalarini (sayoxat, sport, harbiy biznes kabilarni ham) o'z ichiga olgan xalqaro xo'jalikda raqobat baynalminal darajasida yuzaga keladi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan raqobatda g'olib chiqish uchun ilmiy texnikaning eng so'nggi natijalarini kompyuterlashtirish, avtomatlashtirish, robotlashtirish usullarini qo'llash bilan tovarlar tarkibini tezlik bilan yangilash, yuqori malakali va mahoratli bilimdon ish kuchini tayyorlab, uni ishlatish, zamonaviy axborotlardan foydalanish, menejyer va marketing xizmatini keng tashkil etish asosida raqobatlash darajasi takomillashib ketdi.

E'TIBOR BERING !

Raqobat o'z xarakteriga ko'ra qaysi bosqichda yo'z berishidan qat'iy nazar ikki tipda bo'ladi:


1. Tartibsiz - yovvoyi raqobat.
2. Qonun- qoidalar bilan tartibga solinuvchi sivilizatsiyalashgan raqobat.

Bu bosqichlarning rivojlanib borishi bilan raqobat kurashi bir me'yorda boravayerar ekan, degan fikr vujudga kelmasligi kerak. Chunki raqobat, o'z taraqqiyotida har xil usullar va shakllar qo'llanib kelingandir. Raqobat vujudga kelgan davrdan boshlab tartibsiz yovvoyilashgan o'zboshimchalik usullari bilan sof erkin va halol raqobatlar ham mavjud bo'lgan. Mana shu o'zboshimcha, tartibsiz raqobat boshqariladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha madaniylashgan, umumiy me'yorlashgan raqobat darajasigacha rivojlanadi. Madaniylashgan me'yoriy raqobat darajasiga ijtimoiy yo'naltirilgan bozor

iqtisodiyoti sharoitiga xos va mos raqobat usuli bo'lib, bu bosqichma-bosqich sekinlik bilan tarkib topadi. Bu raqobat mahalliy bozor iqtisodiyotidan umumjahon bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mevasi natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yangi zamonaviy raqobat bilan birgalikda partnyorlik aloqalari ham jahon iqtisodiy hamkorligi integratsiyasida va iqtisodiy koopyeratsiyasida keng ravishda amal qiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot doimiy bo'lganligi tufayli, uning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan tadbirkorlik maqsadining har xilligi sababli raqobat ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy maqomlari ham bir xil emasdir.

Raqobatda qatnashuvchi har xil iqtisodiy sub'yektlar asl maqsadi foyda olishni ko'paytirish, ishlayotgan yollanma ishchining maqsadi ko'proq ish haqi olishni ko'paytirish, sotuvchi yuqoriroq bahoda sotish, puldor pulidan ko'proq pulni vujudga keltirish, xullas, har bir iqtisodiy faoliyat yurituvchi boyib, o'z foydasini (daromadini) oshirishdan iborat intilishdir.



Madaniylashgan raqobat sharoitida raqobat faqat shaxsiy va xususiy manfaatgina emas, balki jamoaning, jamoa va davlatning birgalikdagi umumlashgan manfaatlarini ham xarakterlaydi. Shaxsiy alohidalashgan manfaat jamoaga birlashganlarning manfaati orqali yuzaga chiqsa, unda alohida ishlovchilarning har biri yaxshi ish joyi uchun, malakali va mahoratli bo'lish uchun kurashadi, ular bir jamoada

birlashgan mehnat doirasida o'zining manfaatdorlik darajasini bilib olib, boshqa jamoalar bilan sof-dil raqobatlasha boradi.

Bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan madaniylashgan raqobat sharoitida, uning ishtirokchilari iqtisodiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejab-tyergab ishlatishga, tovar va xizmat ko'rsatishlarini sifatli va ko'proq hajmda ishlab chiqarishga, xo'jalik yuritishning yangicha tashkiliy-iqtisodiy shakllaridan samarali foydalanishga va takomillashtirishga intilish moyiliga ega bo'ladilar. Shu bilan raqobat mahalliy, mintaqaviy va jahon iqtisodiy aloqalarini eng unumli usullarini izlab topishga mas'uliyatli bo'ladi.

Raqobat ishlab chiqarishni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan bozorlardagi iste'mol tovarlarini va ishlab chiqarish vositalarini hajmini ko'paytirib iqtisodiy o'sishni doimiy ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari to'laqonli shakllangan sharoitdagi raqobat kurashida ishlab chiqarish sohasida va xizmat ko'rsatish sohaslarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va yangi turdagi tovarlar tarkibini yangilashda innovatsiya (tovar etkazib berishning eski shartnomalarini yangisi bilan almashtirib turish) alohida ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida yangi tovar turlarini ishlab chiqarish uchun sarmoya miqdorini oshirib borish va mavjud tovarlarning modellarini, sifatlarini, o'xshashlarini yangilab, ishlab chiqarish va tijorat xarajatlarni kamaytirish yuzaga keladi. Ma'lumki, ular yangi texnika va texnologiyani yangilash, izlab topish, joriy qilishni, ularga mos malakali ishchi

kuchini tayyorlashni talab qiladi. Bu jarayonni raqobat kurashida qo'llashda marketing vositasi muhim o'rin egallab, bozor iqtisodiyoti bo'g'inlarini sinchiklab o'rganish, tadqiqot etishni, ayniqsa, xom-ashyo, yoqilg'i bozorini, ishlab chiqarishni joylashtirish, tovar hamda xizmatlarga talab va taklif miqdorini, tarkibini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Ulardagi tebranib turishni o'rganib ishlab chiqarishga joriy etadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan sharoitda yirik firmalar va korxonalar raqobatni hisobga olib, ilmiy tadqiqot va innovatsiya ishlari bilan doimo shug'ullanib, ilm-ma'rifatga va band bo'lgan ishchi-xizmatchilarning yangi sharoitda tayyorlash va o'ta yuksak melakali ishchilar hamda mutaxassislarni tarbiyalashga katta ahamiyat beradilar.

Ishchi kuchi bozorida sog'lom va aqlli ishchilarni yo'llab olish, ularni yangi kasbga o'rgatishga ham anchagina mablag' sarflaydilar. Bu jarayonda firmalar va korxonalar inson kapitaliga sarflangan mablag'ni qulay joylashtirish uchun insoniy omillarga ustuvor yo'nalish deb, katta ahamiyat berishi hozirgi raqobatda ommaviy tus olayotganini, ayniqsa, Yaponiya va sharqiy - janubiy Osiyo mamlakatlari misolida yaqqol ko'rish mumkin. Raqobatda yutib chiqish uchun ular raqobatbop tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan firma xodimlari o'rtasida hamjihatlik, ijtimoiy nizolarga yo'l qo'ydimaslik kabi «o'z uyim va o'z korxonam» tarzida ish me'yorlarini ta'minlashga katta ahamiyat beradilar. Bunday sharoitda tarbiyalangan va tayyorlangan xodimlar xalqaro bozor xo'jaliklaridagi raqobatda ham yutib chiquvchi kuch bo'lib maydonga chiqmoqda. Shu tufayli iqtisodiyot sohasidagi raqobat iqtisodiy sub'yektlarni tabaqalashuviga olib kelishiga ta'sir ko'rsatib, foyda olish miqdorini, kapital sarmoyasi miqdorini, kredit to'lashning darajasini yerdan daromad olishni va ish haqini har xil bo'lishda aniq namoyon bo'ladi. Tabaqalashuv oqibatida ba'zilar iqtisodiy baquvvatlashadi, raqobatda yutib chiqadilar, ba'zilar zaiflashadi, hatto xonavayron bo'lib sinadi. Sinishning sababi, bu o'zini o'zi moliyalashtira olmaydigan, to'lovlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lmaslik va o'z majburiyatlarini bajara olmaslikdir. Singan firma va korxonalar yopiladi, ular sotib yuboriladi yoki iqtisodiy baquvvat korxonalarga qo'shilib ketadi.

Raqobatda sinmaslik uchun tadbirkor, ishbilardon, tashabbuskor, chaqqon, serg'ayrat, tez fikrlovchi, ishini ko'zini biladigan bo'lishi kerak, aks holda, u sinishga moyil bo'ladi. Raqobatlashuvning muvozanatini saqlash uchun yakka hokimlikka qarshi kurash olib borish, raqobatchilar o'rtasida davlatning iqtisodiy siyosati bilan tartibga solish chora-tadbirlarini ishga solish lozim bo'ladi.

2. Raqobat turlari, usullari va shakllari. Tarixiy tajribalarning ko'rsatishicha, makroiqtisodiyotda raqobat muvozanatiga e'tibor berilgan bo'lsa u yerda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, ularga mos ravishda ishlab chiqarish munosabatlari takomillashadi, aholi farovonligi darajasi yuqori bo'ladi. Shuni nazarda tutib, bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanib borayotgan va iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borilayotgan hozirgi sharoitda

Yodda tuting!
Erkin raqobat xukm surgan davrda raqobatni ko'rinishi ikki shaklda amal qilgan: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat.

O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida monopoliyani (yakkahokimlikni) chegaralash to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi 1-chi Farmonlarining qabul qilinishi, O'zbekiston iqtisodiyotini mustaqillik sharoitida taraqqiy ettirishga qaratilgan o'z davrida ko'rilgan chora-tadbirdir.

Tarmoq ichidagi raqobat bir tarmoq ichidagi bir xil tovar ishlab chiqaruvchi firma va korxonalar o'rtasida tovarlarni ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, sifatini oshirish va sotishning qulay sharoitlarini egallash va foydani ko'paytirish uchun kurashni bildiradi. Tarmoqdagi har bir korxonaning texnikaviy darajasi va umumdorlik darajalari har xil bo'lganligi sababli, ularda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning individual qiymati va tannaxlari ham turlicha bo'ladi. Lekin qiymat qonunining talabiga binoan har xil individual qiymatlar o'rtacha ijtimoiy bozor qiymatidan farq qilib har xil bo'ladi. Buning asosiy sababi, tarmoq ichidagi raqobatda g'olib chiqishda yagona yo'l - bu fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga doimiy joriy qilib, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannaxsini pasaytirish orqali xarajalarini kamaytirish yo'lidir. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlashda tarmoq ichidagi raqobat fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish vazifasini bajarib boradi. Iqtisodiy o'stirishni ta'minlashga faol ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida raqobat namoyon bo'ladi.

Tarmoqlararo raqobat tushunchasi shundan iboratki, bunda turli tarmoqlardagi firmalar va korxonalar turli-tuman tovar ishlab chiqarish jarayonida o'zaro eng yuqori foyda olish uchun shiddatli kurash olib borishni bildiradi. Sarflanayotgan mablag'ning xususiyati shundaki, u o'z sohiblariga to'xtovsiz foyda keltirib turishidir. Sarmoya mablag'lar egasi ularni eng foydali sohalarga, tarmoqlarga joylashtirishga intiladilar. Bozor nimani talab qilsa, u chaqqon bo'lsa, ular shu mahsulotni ishlab chiqarib ko'proq foyda olishga harakat qiladilar. Demak, tarmoqlararo raqobat kurashi sarmoyani eng foydali va daromad keltiradigan tarmoqlarga va sohalarga joylashtirish uchun kurashdir. Yuqori foyda olish uchun kurash tadbirkorlarni o'z sarmoyalarni foydasi kam tarmoqdan ko'chirishga mas'uliyatini oshiradi. Foydasi yuqori bo'lgan tarmoqlarga kam foydali tarmoqlardan sarmoyalarning oqib kelishi oqibatida, bu foydali tarmoqda ishlab chiqarish kengayadi, taklif ko'payadi, bozorlar mo'l-ko'lligi ta'minlanadi va tovarlarning me'yoriylashtirilgan naffi pasayib, talab darajasi pasayadi. Dastlabki davrda foyda oshib, so'ng u kamayganda, sarmoyalarni bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa ko'chirish uchun firma o'z ixtisosini o'zgartiradi. Yangicha tovar tarkibini o'zgartirib, ishlab chiqarish tizimini yangilab oladi, eski ishlab chiqarish tarkibini qisqartirilib, shug'ullanadi yoki o'z sarmoyasini boshqa foydali firmalar sarmoyasiga qo'shib boradi. Masalan, to'qimachilik firmasi o'zini stanoklar, kerakli metallar va

Raqobatning turlari

1. Tarmoq ichidagi yakkahokimliklar o'rtasidagi raqobat;
2. Har xil tarmoqlardagi yakkahokimliklar;
3. Mamlakatlardagi yakkahokimliklar o'rtasidagi;
4. Yakkahokimlik va og'ir korxonalar o'rtasidagi;
5. Mayda va o'rta korxonalar o'rtasidagi raqobat.

energiya bilan ta'minlashga, avtomobil firmasi esa o'zini kerakli moddiy resurslarni o'zlari ishlab chiqara boshlaydi. Moddiy va mehnat resurslari raqobat ta'sirida tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlanadi. Buning natijasida ishlab chiqarish tarkibi va tuzilmasi yangilanadi, iqtisodiy taraqqiyot vujudga keladi. Bu to'xtovsiz jarayon rivojlanishi bilan mintaqaviy, so'ngra jahon miqyosidagi bozor shakllanishiga tarmoqlararo raqobat turki relini o'ynaydi. Alohida ta'kidlash lozimki, mintaqaviy va umumjahon bozori shakllanishida yakka hokimlik korxonalari paydo bo'ladi. Ular biror tarmoqda yoki muayyan bozorda o'zining iqtisodiy qudrati sababli narxlarni o'zicha o'rnatib olish, iqtisodiy hukmini kuchaytirishga harakat qiladi. Ular narx-pavoni hohlaganicha ko'tarib, erkin raqobatni cheklab qo'yish va texnikani yangilashga intilishini susaytiradi. Yakka hokimlik korxonalari raqobatni cheklasalarda, uni tamoman yo'qota olmaydilar, ularga kirmagan mayda va o'rta korxonalar o'rtasida raqobatni amal qilishini davom ettiravayeradi.

Masalan, Amerikaning avtomobil, elektronika va boshqa konsernlari qanchalik qarshilik ko'rsatmasinlar, shu sohadaagi yapon tovarlarning o'z bazoriga kirib borishiga to'sqinlik qila olmadilar, o'z navbatida AQSh kompaniyalari jahonning boshqa mintaqalarida va rivojlanayotgan mamlakatlarida, hozirgi kunda O'zbekistonda ham o'z mavqelarini mustahkamlashga harakat qilmqdalar.

Erkin iqtisodiy raqobat sharoitida raqobatning bosh usuli ishlab chiqargan tovarni raqobatlashuvchilikidan

pastroq narxlarda sotish bu usulni qo'llagan korxonalar serunom texnikani kiritishga, malakaliroq xodimlarni yollashga va mehnatni samarali tashkil etishga harakat qiladi. Ushbu usul bilan individual qiymatni pasaytirib, bozor qiymatidan pastroq narxda tovarni sotish yo'li bilan raqobatda g'olib chiqadilar. Yakka hukmronlik sharoitida raqobat usullarini raqobatchilar o'zgartirib, yangi sharoitga moslashadilar. Bunday yangi o'zgargan sharoitda narx bilan bog'liq bo'lmagan yangi usullar egallaydi.

Bu raqobat kurashida tovar sifati, uni sotish shart-sharoitlarini yaxshilash va reklama va axborotlar ahamiyati oshib boradi. Raqobatlashuvchi firmalar xilma-xil tovarlarini sotishda reklama orqali o'z belgilari va muhrlarini ko'rsatishga harakat qiladilar. Bunday sharoitda g'irrom raqobatga xos usullar ham uchrab turadi, ya'ni o'zgalar belgisi va muhrlari niqobida tovar sotish ham bor. Ammo reklama orqali jahon bozorida avtomobil sotuvchi firmalar mijozlariga har bir avtomobilni mos keltrish uchun minglab texnika operatsiyalarini bepul bajarib beradilar. Bu esa tovar sotishda xaridorga qulaylik yaratib, raqobatda g'olib chiqishga imkoniyat yaratadi. Iste'molchilarning mahsulot sifatiga talabi oshib borish bilan, bu yangi sharoitdagi raqobatda tovar sifatini oshirish, kafolatli va qo'shimcha xizmat ko'rsatish keng reklamalangan bo'lishi, fan-texnika taraqqiyotini ob'ektiv tayotilgiga bog'liqdir. Bunday holat, ayniqsa, bugungi kunda yirik konsermlarda ilmiy-konstruktorlik ishlarini va tadqiqot bilan tahlil qilish uchun ularda ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ilmiy

Eslab qoling!
Iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'ektlar raqobatning ilk usulidan: narx vo'sitasida va narxdan foydalanmay raqobatlashuvdan keng foydalanib xo'jalik yuritadilar.

laboratoriyalar, kashfiyot patentlari to'planganki, ular raqobat qobiliyatini oshiruvchi muhim omil bo'lib kelmoqda.

Narxdan foydalanmaydigan raqobatdagilar ko'proq yashirin tus oladi. Aslida undan sir saqlagan holda foydalaniladi. Narx vositasidagi raqobat jahon bozoriga ham kirib kelgan. U yerda narx bilan raqobat qilish po'lat, gazlama, elektronika, kimyoviy va qishloq xo'jalik mahsulotlari sotish bozorida yaqqol ko'rinadi.

Madaniylashgan raqobat usullari qo'llangan hozirgi zamon sharoitida g'irrom raqobatga (josuslik, yangilikni o'g'irlash, iqtisodiy tanglikka olib keltirish kabilarga) qonun-qoidalar orqali tadbirlar belgilanadi. Xaridorlar huquqi kengaytirilgan bo'lib, ularga keng qulayliklar berish bilan raqobat avj oldirilgandir. O'zbekistonda ham iste'molchilar huquqini himoya qiluvchi qonun qabul qilinib, raqobatga imkoniyat yaratilgan.

3. Mukammal va nomukammal raqobat, monopoliya va uning oqibatlari.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan tizim sharoitida va turli xil iqtisodiy sharoitlarda raqobat jarayoni yo'z beradi. Bunday sharoitlar firmalar va korxonalar sonining ko'pligi, mahsulotlar sohalarda yakka hokimlik darajasi, axborot olish imkoniyatlarining

turlari, narx-navo ustidan nazorat, har xil narxsiz raqobatning borligi yoki yo'qligi, har xillik darajasi bilan xarakterlanadi.

Mavjud iqtisodiy hayotda bozor tizimi xilma-xil bo'lib, raqobatga ta'sir etishni yuzaga chiqaradi.

Mukammal raqobatda bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan ko'plab bo'lib, ularning kurash doirasi keng, boshqasiga kirish hamda axborot olish Mukammal raqobatga sof raqobat tizimi

YOdda tuting!
Bozor iqtisodiyoti tizimlari mukammal va nomukammal deb ataluvchi ikki tur raqobatga bo'linadi va shular asosida raqobatlari farqlanadi.

mayda va o'rta korxonalar mavjud ular bir tarmoqdan chiqish va erkinligi kafolatlangan bo'ladi.

kiradi va bu tizimning asosiy xususiyati shundaki, bozorda ular o'z mahsulotini ishlab chiqarib, mutlaqo mustaqil holda ish yuritayotgan ko'p sonli sotuvchilar mavjud bo'ladi. Yana bir xususiyati, ular bir xil mahsulot ishlab chiqarishadi. Har xil korxonalarning bir xil mahsulotlarini xaridorlar bir xilda tan oladilar. Tovarlar bir xil bo'lgani uchun mahsulot sifatida farq bo'lib, mahsulotni sotish shart-sharoitlarini yaxshilash va reklama qilishning ahamiyati oshib boradi. Ular sotishdagi imtiyozlarni qo'llab, narxsiz raqobat usulidan bora olmaydi. Chunki mukammal raqobatli bozorda narx talab va taklif asosida shakllanib, barcha sotuvchilar bu bilan hisoblashishga majburdirlar. Sotuvchilar mavjud narxlarda sotishga majbur bo'lib, narxni oshirishga ta'sir eta olmaydilar.

Nomukammal raqobat - bu ma'lum darajada cheklangan raqobatni anglatadi. Monopolistik (yakka hukmronlik) raqobat, oligopoliya va sof yakka hukmronlik raqobatlaridir. Ularni oldinroq bozor turlari sifatida ko'rib chiqilgan, endi esa ularni raqobat kurashi jihatida xarakterlaymiz. Ularni amaliy mashg'ulotda chuqurroq tahlil qilib chiqamiz.

A) Yakka hukmronlik - monopolistik ko'p sonli uncha yirik bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar bo'lib, bir xil bo'lmagan, lekin o'xshash tovarlarni iste'molchilarga taklif etadi. Bu bozor tizimining farqi shundaki, unda tovar ishlab chiqaruvchilar ko'p sonli bo'lgani uchun til biriktira olmaydilar. Nomukammal raqobatda

qatnashuvchi har biri bozorning ma'lum bir qismini nazorat qilgani uchun uning bozor narxiga ta'siri cheklangan bo'ladi. Firmalar narxlarini oshirishiga mahfiy harakat qiladi va bozorga ta'sir o'tkazolmaydi.

B) Oligopoliya raqobati sharoitida raqobat kurashida oz sonli ishtirokchilar bo'ladi. Tovar va xizmatlar bozorida kam sonli firmalar hukmronlik qiladi va oligopoliya raqobati mavjud bo'ladi. Oligopoliya (ozginadan sotish) raqobati hukmron tarmoqlarda ham standartlashgan, ham tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqaradi. Standartlashgan mahsulotlarga po'lat, rux, mis, alyuminiy, qalay, tsement, texnik spirt kabi moddiy shakidagi aniq mahsulotlar kiradi. Tabaqalashgan mahsulotlarga har turli ism-mol buyumlari (turli rusmdagi avtomobillar, kir yuvish mashinalari, sigaretlar, maishiy-elektr asboblari) kiradi.

Oligopoliyaga xos tarmoqlarda yirik 3-4 firma mahsulot ishlab chiqarishning asosiy qismini nazorat qiladi. Masalan, AQSh avtomobil sanoatda yirik uchlik - «General motorz», «Ford», «Krayslyer», hissasiga sotilgan avtomobillarning 90 %, Yaponiyadagi «Toyota», «Xonda», «Nisan» kabi avtomobil kompaniyalari tashkil etadi.

Oligopoliya tarmoqlarga yangi firmalarning kirib kelishi qiyin. Chunki ular bilan raqobatlashuv uchun g'oyat katta mablag' zarur bo'ladi, u ko'pchilikda bo'lavermaydi. Zo'r bellasha olgani uchun oligopoliya bor joyga faqat kuchli firmalar kelishi mumkin. Chunki ular raqibi ko'nyan to'siqlarni engib o'ta oladi. Ammo bundaylar esa kam sonli bo'ladi. Bunga misol bo'lib, jahonda 26 o'rinda ega bo'lgan, Markaziy Osiyoda yagona «UzDEL» Asaka avtomobil zavodi kirib keldi. Demak oligopoliya raqobati cheklangan bo'ladi. Sof yakka hukmronlik sharoitidagi raqobatli tarmoqda faqat bitta mahsulot ishlab chiqaruvchi firmaning yagona faoliyat ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. Bu yerda butun bir tarmoq faqat bitta firmadan iborat bo'ladi, uning ishlab chiqaradigan mahsuloti g'oyat noyob bo'lib, uning yaqin o'xshashi va o'rini bosadigani bo'lmaydi. Masalan, Amerika qanotli raketa, Rossiya M-8 vyertolyoti va boshqalar.

O'zlashtirish uchun nazorat savollari.

1. Raqobatning mohiyati va maqsadi nima?
2. Raqobatchilik munosabatlarining rivojlanishi qanday bosqichlardan iborat?
3. Raqobat shakllarini ayting va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.
4. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatning farqi nimada?
5. Mukammal va nomukammal raqobat deganica nimani tushunasiz?
6. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntiring.
7. Narxning asosiy turlarini ayting.
8. O'zbekistonda antimonopol va narx siyosati qanday amalga oshirilmoqda?

Adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqlol yo'li» T.: 1992y. 1-b'lim.

2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 bb.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat mustaqilligining 19 yillik bayramiga tayyorgarligi haqida Qarori. 2010 yil 30 iyul». «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 1 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 bb.
8. O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: T. 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Sharifxo'jaev M., O'limasov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 1995y. 1-bob.
11. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. Tashkent. 1999g. Gl-1.
12. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1.

9- Mavzu: Tadbirkorlik faoliyati.

REJA:

1. Tadbirkorlik tushunchasi, mohiyati va belgilari.
2. Tadbirkorlik shakllari
3. Tadbirkorlikning huquqiy va sarmoyaviy asoslari.
4. Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari
5. Tadbirkorlik faoliyatida biznes reja

Mavzuning maqsadi:

Tadbirkorlik tushunchasi va mohiyatini tahlil qilish hamda uni tashkillash, tadbirkorlik g'oyasini tanlash va asoslashni o'rganish.

«Tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish - davr talabi»

TAYANCH IBORALAR

Tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik sub'ekti, tadbirkorlik ob'ekti, tadbirkorlik belgilari, tadbirkorlik erkinligi, foyda ko'rish, daromad olish, tadbirkorlikning asosiy omillari, tadbirkor sarmoyasi.

1. Tadbirkorlik tushunchasi, mohiyati va belgilari. Bozor munosabatlarini rivojlantirishning asosiy elementi mumtoz tadbirkorlik tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida keng ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

MUAMMO:

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va tadbirkorlik sifatini saqlantirish

“O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun”ga muvofiq “Tadbirkorlik, mulkchilik sub'yektlarining foyda olish maqsadida tavakkal

qilib va mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir”.

Tadbirkorlikni iqtisodiy ob'yekt va sur'yektlaridan boshlab o'rganish kerak. Tadbirkorlik sub'yektlari bu davlat jamoa va xususiy korxonalar, tashkilotlar shu bilan birga xususiy yoki yakka shaxslaridir.

Tadbirkorlik ob'yekti avvalo ma'lum iste'dodli faoliyatdir. Chunki tadbirkorlik ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar va shunga yarasha daromadda moddiylashadi. Daromad faoliyatining tashkiliyligi, uning omillari yig'indisidan uddaburonlik bilan foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Tadbirkorlikdagi mustaqillik, avvalo, erkin holda mustaqil ravishda bir qarorga kelish imkoniyatini beradi, bu qaror bozor mexanizmini harakatini ta'minlaydi. Ma'lum sarfchilikka ega va istagi bor shaxs o'zining tijorat ishini yoki ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin. Chunki ishlab chiqarish resurslari ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ish kuchini bozorda sotib olish mumkin. Nima ishlab chiqarish, kimga sotish, qaysi bahoni belgilash kabilar erkin tarzda bozor holatini e'tiborga olgan holda tadbirkor tomonidan hal etiladi. Lekin tadbirkorlikni soddalashtirib bo'lmaydi, ya'ni hamma narsa mumkin deb ish tutib bo'lmaydi. Har bir tadbirkor butunlay yakka emas. Bozor iqtisodiyoti ko'pchilik faoliyati yakunidir. Shuning uchun tadbirkorlik bozorning qattiq talablaridan, mexanizmlari ta'siridan holi bo'la olmaydi. Tadbirkorlikda mustaqillik bilan iqtisodiy manfaatdorlik ajralmas holda bog'langandir. Daromadni, foydani yuqori darajaga yetkazish tadbirkorlik faoliyatining belgilovchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Boshlangan ish uning kengayib o'zgarib borishi dastavval shunga bog'liqdir, zamonaviy tadbirkorlikda ijtimoiy masalalarga aralashish, jamiyatlardagi ijtimoiy muammolarni hal etishda ishtirok etish ham kuzatiladi.

2. Tadbirkorlik shakllari. Tadbirkorlik shakllarining o'ziga xos xususiyati bo'lib, iqtisodiy faoliyat yurgizishda, mehnatni tashkil qilishda yakka tartibda.

E'TIBOR BERING!

Tadbirkorlik xo'jaliq yuritish usuli sifatida bir qancha umumiy belgilarga ega. Bularga asosan quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) mulkiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lib ishlab chiqarish omillarining barchasiga yoki ba'zi biringa yaratilgan tovarlarga egalik qilish;
- b) iqtisodiy erkinlik xo'jaliq faoliyatini turini tanlash, uni resurslar bilan ta'minlash, oldi-sotdi ishlarini yuritish, ishlab chiqarishni boshqarish erkinligi;
- v) iqtisodiy xatir haraqatlar uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishish natijangacha javob berish, tavaqqal qilib ish yuritish, iqtisodiy xatirlar ishga qo'yilishi;
- g) foyda olishga intilish, foydaga erishish chora tadbirlarini ko'rish, olingan foydani o'z bilganicha ishlatish, tijorat siriga ega bo'lish, hali rasmiyda qamrab olinmagan.

yollanma mehnatni jalb etish asosida, harakorlikdagi tadbirkorlik shakllarini o'ziga qamrab oldi.

Tadbirkorlik shaklini yakka tartibdagi faoliyat asosida amalga oshirish deganda mulkchilik sub'yektlarining o'zi mustaqil tarzda iqtisodiy faoliyatining yoki bu turi bo'yicha tadbirkorlik bilan shug'ullanish tushuniladi.

Bu shakldagi tadbirkorlikni amalga oshirishda sub'yekt sifatida faqat fuqarolar qatnashadi. Fuqarolarning yakka tartibdagi mehnatiga asoslangan tadbirkorlik shakli ham eng ko'p qo'llanishi tufayli ularga har tomonlama yordam ko'rsatish ayniqsa muhimdir.

Yakka tartibdagi mehnat faoliyati xususiy tadbirkorlik shakllaridan biri bo'lib, fuqarolar bunday faoliyat bilan yuridik shaxs (o'z mulkiga ega muhtoj, birlashtirib qo'yilgan mol mulkiga nisbatan to'la xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqiga ega muhtoj, o'z huquqlariga ega bo'ladigan, sudda davogar va javobgar bo'lib qatnasha oladigan tashkilot) maqomini olmasdan shug'ullanadilar. Bunday tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun tuman, shahar hokimiyatlari tomonidan ruxsatnoma beriladi.

YODDA TUTING!

Tadbirkorlik kishilar (mulkchilik sub'yektlari)ning moddiy va pul mablag'lari (kapitalni) amalda harakarga keltirib, daromad topish mo'ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlikda yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olinadi, lekin mavhum narsa emas, balki aniq maqsadga qaratilgan faoliyat bo'lib aniq shaxslar xatti harakatida namoyon bo'ladi.

Xususiy tadbirkorlik bu amaldagi qonunlar doirasidagi tashabbuskorlik xo'jalik faoliyati bo'lib, bu faoliyatni fuqarolar shaxsiy daromad olish maqsadida, tavakkal qilib, mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga olib, ishlatish uchun odam yollab amalga oshiradi.

E'tibor bering!

Xususiy korxonalar xodimlarining yozma ravjida o'zaro tozadigan hamda tomonlarning huquq majburiyatlar bayon etilgan mehnat shartnomasi asosida ishga yollaydi va yollanib ishlovchilar soni quyidagi ko'rsatkichlardan oshinmasligi kerak:

- sanoat va qurilishda 200 kishigacha;
- ishlab chiqarish sohalarining boshqa tarmoqlarida 50 kishigacha;
- noishlab chiqarish tarmoqlarida 25 kishigacha;
- chakana savdoda 15 kishigacha;

Xususiy tadbirkorlik yuridik shaxs maqomini olmasdan shug'ullanadigan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Xususiy tadbirkorlikning mulki davlat, jamoa yoki korxona mulkining hammasi yoki bir qismi fuqaroga

o'tkazilayotganda yoki u o'z shaxsiy jamg'armalari va bankdan olingan qarzlari hisobiga bu mulkni sotib olgan holda tadbirkorni o'z mulki asosida vujudga keladi.

Hamkorlikdagi tadbirkorlik shaklida mulkchilikning turli sub'yektlari qatnashishi mumkin. Hamkorlikdagi tadbirkorlik asosida birinchidan yuridik va jismoniy shaxslar o'z mulklarini, ikkinchidan esa mulkiy huquqlarini birlashtirish kerak. Bunda mulkchilik sub'yektlarining turli xil bo'lishiga qaramasdan bitta iqtisodiy tadbirkorlik faoliyatini maqsad qilib qo'ygan holda mol-mulki nisbatan egallash, foydalanish, tasarruf qilish huquqlarini amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish yo'nalishidagi tadbirkorlar tovar yaratish, xizmatini bajarish, axborot to'plab berish, xaridorning ma'naviy qadriyatlarga muhtoj ehtiyojini ta'minlash kabi faoliyat bilan shug'ullanadilar. Bunday ishlab chiqarish yoki xizmat turi bevosita amalga oshiriladi.

Tijorat faoliyatini yurituvchi tadbirkorlar tovar-pul munosabatlariga oid savdo-sotiq va bitimlar tuzish bilan shug'ullanadilar. Asosiy vazifalar tovarni sotish, iste'molchiga xizmatlar ko'rsatishdir.

Moliyaviy va tadbirkorlikda tadbirkorning o'zi qimmatbaho qog'ozlarni tashkil qilish mumkin. Moliyaviy tadbirkorlik valyuta va qimmat baho qog'ozlarning iste'molchiga to'la sotish bilan yakunlanadi.

3. Tadbirkorlikning huquqiy va sarmoyaviy asoslari. Tadbirkorlikning huquqiy va sarmoyaviy asoslari, omillarning ahamiyati kattadir.

Avvalo tadbirkor bo'lishi uchun huquqiy muhit zarur. Tadbirkorlik uchun erkin iqtisodiy faoliyat yuritish, tijorat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lish, tadbirkorlik kafolati kerak. Shuning uchun ham bozor munosabatlariga o'tishda tadbirkor huquqiy himoyaga muhtoj. "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi" qonun bu borada eng ahamiyatli bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati uchun yo'l ochadigan huquqiy asosdir. Tadbirkorlikka sharoit yaratib beradigan qonun yana "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"; "Xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to'g'risida"; "Xususiy mulk to'g'risida"; "O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida" kabi qonunlar tufayli yuzaga kelmoqda.

Huquqiy muhit tadbirkorlikka oid qonunlar ijrosiga qaratilgan qaror, farmonlar tufayli mustahkamlanmoqda.

Birinchisi uning erkin faoliyati, jamiyat va jamiyat a'zolari bilan muhtoj erkin munosabatlarini ta'minlash bilan bog'liqdir. Daromad olishning chegaralanmasligi, resurslardan foydalanish, ish kuchini yollash erkinliklarini ta'minlash tadbirkor uchun juda ahamiyatlidir. Eng

muhimi huquqiy masala tadbirkorlikning mulk munosabatlaridagi mulk va sarmoyalar hajmining chegaralanmasligidagi erkinliklardan iboratdir.

Tadbirkor huquqiy muhitining ikkinchi tomoni uning jamiyat oldidagi va inson huquqlari, turmush sharoitlari bilan bog'langan majburiyatlardan iboratdir (soliq to'lash, ekologiyani saqlash).

Shunday qilib, tadbirkorlikning huquqiy muhiti deganda unga taalluqli huquqlar va majburiyatlar yig'indisini tushunamiz.

Tadbirkorlikda huquqiy muhitning yuzaga kelishida davlatning roli asosiy bo'lib, zaruriy qonunlar chiqarish, ularning ijrosini ta'minlashdir.

Tadbirkorlikdagi ikkinchi muhim omil sarmoyadir, ya'ni u sarmoyador bo'lmasa, o'zi mustacil ish tashkil eta olmaydi.

Har bir tadbirkor ish bajarish uchun avvalo ma'lum miqdorda zarur xususiy sarmoyaga ega bo'lishi kerak. Busiz uning xo'jalik yuritish javobgarligi, shaxsiy jonkuyarligi haqiqiy va bozor sharoitida ish yurituvchi tadbirkor-sahibkor

ESLAB QOLING!

Tadbirkorlik ishlarini tijorat, ishlab chiqarish yoki moliyaviy yo'nalishlarda omiga oshirish mumkin.

E'tibor bering!

Tadbirkorlik faoliyati uchun zaruriy huquqiy muhitning ikki tomoni muhtoj erkinlik va majburiyatlik

YODDA TUTING!

Sarmoya o'z marhamasi bilan uch xil bo'lishi mumkin: xususiy, qarz-kredit, yig'ma va qo'shma sarmoyalar

darajasida bo'lmaydi. Shuning uchun avvalo boshlang'ich sarmoya jamg'ariladi, so'ngra uni qarz mablag'i bilan to'ldirib kichik bo'lsa ham korxona ochib ish boshlanadi. Tadbirkorning ishlatadigan sarmoyasida qarz katta o'rin egallaydi va odatda uning hissasi xususiydan katta bo'ladi. Bu ayniqsa olingan sarmoya va investitsiyaga taalluqlidir. Shuning uchun ham muvaffaqiyatli ish yuritish uchun keng tarmoqli va katta mablag'ga ega muhtoj banklar tizimi bo'lishi zarur.

Uchinchi xil sarmoya ya'ni yig'ma yoki qo'shma sarmoya xususiy sarmoyalar asosida paydo bo'ladi. Bu asosan kooperativ korxonalar, hissadorlik jamiyatlariga taalluqlidir. Chunki bular o'z sarmoyalarini birlashgan holda qo'shma kapital paydo qiladilar va birgalikda ish ko'radilar.

Bu sarmoya xilining shakllari ko'p va miqdoran asosan mayda va o'rta kapitallarni tashkil etsa, aksiyali kapitallar, korporatsiya kapitallari juda yirik bo'lishi mumkin. Yakka holda bu sarmoyalar mustaqil ish boshlash imkonini bermasa, yig'ilganda zaruriy kapital miqdori yuzaga kelib, kapital muhtojligi muammosini hal qilib beradi.

Tadbirkorlik sarmoyasini shakllanishida davlatning ahamiyati, uning bu jarayonga e'tibori kattadir. Chunki agar mulki bo'lsa, inson o'zini mustaqil va erkin sezib, kelajakka ishonch bilan qaraydi, mulki bor hududni Vatan deb biladi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, bozor iqtisodiyotini qurishda, kelajakda buyuk davlatni yuzaga keltirishda mulkdorlar sinfi muhim rol o'ynashi va bu sohadagi muvaffaqiyatlarga erishishda etakchi bo'lishi kerak.

4. Tadbirkorning shaxsiy xususiyatlari. Tadbirkorlikdagi muhim omil bu tadbirkorning shaxsiy xususiyatlaridir. Tadbirkor bo'lish uchun tashqi holatdan tashqari faqat shaxsan o'ziga bog'liqlik tomonlari borki, sarmoya va huquqiy muhit to'la mavjud multojda ham busiz u haqiqiy tadbirkor bo'la olmaydi. Bu uning ishbilarmonlik, tijorat qobiliyatidir.

Ishbilarmonlik juda keng tushunchaga ega. Bu avvalo, nazariy va amaliy bilimlar yig'indisi bo'lib, bunda birinchi navbatda, iqtisodiyot asosini, aynan bozor iqtisodiyotini bilish zarur. Ma'lumki, iqtisodiyotni tushunmay, bozorning farqiga bormay turib tadbirkor bo'lish mumkin emas. Tadbirkorlar bozor iqtisodiyotining ijodkorlaridir. Chunki ular oddiy ijrochi emas, balki bozor iqtisodiyoti, uning munosabatlari, mexanizmlariga ijobiy yondashuvchilar, rivojlantiruvchilardir, bozor to'g'risidagi tushunchani kengaytiruvchi, uning turiligin ta'minlovchi real holatini boyituvchi shaxslardir.

E'TIBOR BERING!

Bozorni o'z vaqtida sezib borish, uning holatini oldindan ko'ra bilish, bozorning yertangi talab darajasida ish ko'rish har tomonlama bilimdon, sezgir, o'tkir bo'lishni talab etadi. Bu aholi turmush darajasi, daromadlar harakati, turli tabaqadagi aholi talabining o'zgarib borishini oldindan bilish va barcha ishlab tijorat faoliyatini shu holatga moslashgan holda o'zgarib

Tadbirkor
shakllanishiga bir
qator omillar ta'sir
etadi:

Ma'lumoti, xarakteri,
qilaviy ta'sir, oldingi ish
va hayotiy tajribasi, o'z
ishiga munosabati,
rejalari.

chiqarish,
borish uchun

intilish demakdir.

Buning uchun tadbirkor har tomonlama bilimdon bo'lmog'i zarur. Shundagina u mazmunan ishbilarmon bo'lishi mumkin. U zamonaviy texnika, texnologiya, tashkilotchilik, bilimdonlik darajasida bo'lmasa, orqada qoladi, Raqobarga bardosh bera olmaydi va bozor ishtirokchisi sifatida yuqori darajaga erisha olmaydi.

Tadbirkor ish yuritish sohasida barcha civil, chora-tadbir, voqelikka bir xil munosabatda bo'lib, hammasini o'z diqqat markazida tuta bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Bulardan tashqari, tadbirkor haqiqiy insoniy qobiliyatlar va xususiyatlarga ega bo'lishi kerakki, u haqiqatdan ham ish boshi, tashkilotchi, boshqaruvchi, ko'pchilikni birlashtira olish qobiliyatiga ega shaxs bo'lishi zarur. Amaliyotda o'z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan bog'lovchi, xalq uchun zarur ishlarni o'z hisobiga bajaruvchi, homiylik qiluvchi tadbirkorlar juda ko'p. Har tomonlama ilg'or, yuqori madaniyatli, xalqparvar va xalq oldida katta obro'ga ega badavlat tadbirkor-sohibkorlar, ayniqsa rivojlangan iqtisodiyoti yuqori darajadagi mamlakatlarda oddiy holatdir.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida yuqori malakali tadbirkorlarga ega bo'lish uchun ma'lum ishlarni amalga oshirish kerak. Bu avvalo mutaxassislar tayyorlash, o'qitish va o'qish jarayonlarni shunga qaratish demakdir.

Mamlakatlarda bu sohada juda katta ishlar olib borilmoqda va mutaxassislar tayyorlashda muhim o'zgarishlar yo'z bermoqda. Tadbirkor-biznesmenlar tayyorlash kengaytirilmokda, etakchi mamlakatlarda o'qishga minglab yoshlar yuborilmoqda. O'qish, o'qitish, mutaxassislar tayyorlash bozor talabi asosida qayta ko'rilmokda.

5. Tadbirkorlik faoliyatida biznes reja. Tadbirkorlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri biznes-rejadir. Har qanday ish reja asosida bo'lsa muvaffaqiyat keltiradi. Oldindan zarur hisob-kitoblar qilinib, imkoniyatlar to'la o'z boriga olinsa, o'ylangan ish ustida to'la tasavvur hosil qilinsa, uni amalga oshishiga ishonch hosil qilinadi va uni bajarish uchun dadil kirishiladi. Bunday tomonlar biznes-rejada o'z ifodasini topishi kerak.

E'tibor bering:

Biznes-rejaning ikki tomonlama ahamiyati bo'lib, bir tohki va tashqi zaruriyatlardan kelib chiqadi. Chunki u birinchidan, tadbirkorning o'z ichki imkoniyatlarini baholay bilishga, faoliyatining malikul uxllarini belgilashga yordam beradi va shu bilan birga, faqat tadbirkor uchunгина emas, balki korxonadagi barcha xizmatkorlarda to'la ishonch hosil qilishga, ikkinchidan, tashqi aloqalar o'rnatishga xam yordam beradi. Materiallar, energiya va xam ashyo yetkazib beruvchilar, banklar bilan iqtisodiy aloqada bo'lishi uchun u avvalo real haqiqatdan kelib chiqadigan biznes-reja bo'lishi kerak.

Biznes-reja tadbirkorlik uchun shu tufayli zaruriyat bo'lib hisoblanadi. Har qanday korxonani tashkil etish sohasidagi faoliyat real, amaliyotni o'zida aks ettiradigan, barcha ish turlarini bajarishni ta'minlay oladigan biznes reja tuzishdan boshlanishi kerak va u ish jarayonida o'zgartirib borilishi mumkin.

Yangi korxonaning hayotiligi belgilovchi uch garh moliyaviy ko'rsatkichlar mavjud:

- birinchi uch yillik uchun daromad va xarajat istiqboli,
- shu muddat ichidagi naq pul istiqboli,
- joriy vaqtidagi korxona balans hisoboti va korxonaning kelajakdagi bir yilga mo'ljallangan aktiv va passiv holati balans.

Biznes-reja bo'lajak korxonaning faoliyat hajmi va ish ko'radigan soha xususiyatlariga to'la bog'liq holda tuziladi. Shunga ko'ra korxonaning kattakichikligi, kengayishi muhimligi va qaysi tarmoqqa taalluqliligi bu rejada o'z aksini topishi kerak. Chunki faoliyatdagi barcha tomonlar ish hajmi va ish sohasiga bog'liqdir. Faoliyat asosi muhtoj mahsulot xili, turi belgilovchi omil sifatida yuzaga chiqadi.

Ishlab chiqarishda yoki savdoda ish qurish boshqa-boshqa texnologiya va tashkilotchilikni talab etadi, shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarining talab va xususiyatlar turlichadir. Shuning uchun ham ularning biznes-rejalari ham bir xil bo'lmaydi.

Mahsulot murakkabligi ham biznes-rejaga ta'sir etadi. Uning darajasi yuqori bo'lsa, korxonaning ichki va tashqi aloqalarining murakkabligi oshadi va ancha keng bo'ladi, ish turlari hajmi ham yuqori bo'ladi. Bularning barchasi albatta biznes-rejada o'z aksini topadi.

Biznes-rejani tuzishda axborotning ta'siri juda kattadir. Bu avvalo talab, taklif, moliya kabilarga taalluqlidir. Mavjud talab hajmi va korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy ehtiyojlarini aniqlash axborotisiz biznes-reja mazmunsiz bo'ladi. Ishni umuman korxona ochishdan oldin maqsadni aniqlashdan boshlash talab etiladi. Chunki biznes-reja va faoliyat shu maqsadni amalga oshuviga qaratilgan bo'ladi. Masalan, tikuv korxonasi ochilishi ko'zda tutilgan bo'lsin deylik. Bunga aniqlik kiritish zarur. Chunki tadbirkorlikka uyda tikilgan kiyimga talab mavjudligi va ishni kengaytirishga turtki bo'lishi mumkin. Lekin yakka buyurtma yoki ommaviy buyurtma asosida ish tashkil qilinadimi bu oldindan aniqlangan bo'lishi kerak. Chunki bularning mijozlari va ish texnologiyasi bir xil emas. Yakka buyurtma faqat individual mijoz uchun va yakka kiyim tikish texnologiyasi asosida tashkil etiladi. Ommaviy buyurtma ham magazinlar buyurtmasiga asoslanadi. Lekin buning mijozlari aniq bir shaxs deb bo'lmaydi, balki umumiy xaridor qatoridagi shaxslar bo'ladi. Shuning uchun oldindan donalab yoki ommaviy kiyim tikish korxonasi bo'lishini belgilab ish boshlash talab etiladi va axborot yig'ish shu maqsadga erishish yo'nalishida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Talab holatiga bog'liq axborot tadbirkorlikning ishlab chiqarmoqchi muhtoj tovar yoki xizmat sohasini tanlash uchun kerak bo'ladi. Bunday axborotni tadbirkor o'zi yig'ishi yoki maxsus tashkilot, maxsus jurnallarga murojaat qilish orqali olish mumkin. Tarmoq birlashmalari, hukumat hisob oylari, ilmiy jurnal maqolalari kabilardan qimmatli axborotlar olish mumkin. Bozorning potensial hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar marketingga taalluqli biznes-reja qismini asoslashga yordam beradi.

Shu bilan bunday axborotlar raqobatga firmalar, savdoning qo'shimcha bahosi darajasi, bozor harakati va o'sish istiqbol kabi ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak.

Ishlab chiqarishga oid axborotni olsak korxonaning ishlab chiqarishini belgilash uchun kerak bo'ladi. Bunday axborotni xuddi shunday mahsulot yetishtirayotgan korxonalarga bevosita murojaat etish yo'li bilan olinsa bo'ladi. Bunda albatta, quyidagilarga e'tibor berish zarur:

Korxonaning o'ziga yoki subpudratchilarga topshiriladigan ish xili, material va xom-ashyo miqdori va bahosi, ularni ta'minlovchi firmalarning nomi, manzili, jihozlar va ular bilan ta'minlovchilar to'g'risidagi to'la ma'lumotlar, mehnat resurslariga oid ma'lumotlar (ish joyi, hunarlar xili, miqdori, ularni tayyorlash imkoniyati) bino va inshootga taalluqli to'la ma'lumotlar, ustami xarajatlar-mahsulot, boshqaruv xarajatlari, elektr va suv xarajatlar. Bunday ma'lumotlar tadbirkor va investor uchun albatta kerak bo'ladi.

Moliyaviy axborot bo'lajak korxona faoliyatining moliyaviy tomonlarini baholash uchun zarurdir. Bo'lajak korxonani qurish, ishga solish, boshlang'ich davrda moliyaviy qo'llash va umuman sarflangan sarmoyalarni qaytarish bilan birga loyihaning rentabellik darajasi aniqlanadi.

Biznes-rejani tuzish tadbirkorning ma'um vaqtini, tajribasini va bunday ishga tayyorgarlik raqobathardoshlik darajasini talab etadi.

O'zlashtirish uchun nazorat savollari.

1. Nima uchun bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesga katta e'tibor berilyapti?
2. Prezident I.A.Karimovning shu masala yuzasidan qaysi asarlarini, nutqlarini keltira olasiz?
3. I.A.Karimovning «Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish - taraqqiyot garovi» degan iborasini qanday tushunasiz?
4. Tadbirkorlik tushunchasini ta'riflang.
5. Tadbirkorlikning belgilari va shakllari nimalardan iborat?
6. Tadbirkorlikning huquqiy va sarmoyaviy asoslarini ayting.
7. Kichik va o'rta biznes korxonalari qanday ustavor ustunliklarga ega?
8. Kichik va o'rta korxonalar mezonlarini ayting.
9. Tadbirkorlik g'oyasi deganda nimani tushunasiz?
10. Biznes reja nima?

Adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqbol yo'li» T.: 1992y. I-jild bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'isida: xavfsizlikka tahdid hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 bb.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalash, yengillashtirish va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.

4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 16 yil mustaqillik yo'llari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2007 yil 30 avgust. «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 31 avgust.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 y.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 bb.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. Tashkent. 1999g. Gl-1.
11. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1.
12. G'ofurov A., Abdurahmonova M. Kichik xo'jalik tadbirkorlik sub'yektlari rivojlanish xususiyatlari. Farg'ona -2008.

10- Mayzu. Korxona (firma) xarajatlari va foydasi: tarkibi, shakllanishi va taqsimlanishi.

Reja:

1. *Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi*
2. *Ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar.*
3. *Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorlik.*
4. *Zarar qurish va bankrotlik*
5. *Foydaning mazmuni, me'yori, massasi va taqsimlanishi, ishlatilishi.*

1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning tarkibi. Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxona) o'z faoliyati natijalaridan ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Har qanday korxona nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori baholarda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi.

Tovarlarni sotish baholari asosan korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish sarf-xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin har qanday tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum sarf-xarajatlar talab etiladi.

Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar

ASOSIY TAYANCH TUSHUNCHALAR:

Firma, foyda, rentabellik, bankrotlik (sinish), tadbirkorlik, taklif, inflyatsiya, ishlab chiqarish xarajatlari, ichki xarajatlar, tashqi xarajatlar, doimiy xarajat, o'zgaruvchi xarajat, o'rtacha xarajalar, qo'shimcha xarajalar, to'g'ri xarajalar, egril xarajalar, iqtisodiy yoki sof foyda, foyda massasi.

tushuniladi. Ishlab chiqarish sarf -xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarni puldagi ifodasi mahsulot tannaxsini tashkil qiladi.

MUAMMO

Bezor aptodiyotiga o'tish sharoitida korxona (firm) faoliyatini tashkil etish, xarajatlari va erishish yo'llarini tahlil etish, hammadlarning yashavechanligini ta'minlash.

Ishlab chiqarish xarajatlarini ikkiga bo'rganish mumkin: bevosita ishlab chiqar xarajatlari va muomala xarajatlari. Ishlab chiqar xarajatlari deganda mahsulotni bevosita ishlab chiqarish uchun qilinadigan barcha sarflar (ish haqi, xom-ashyo va mineral sarflari, amortizatsiya va h.k) tushuniladi. Tovar birligining qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari faqat uning bir qismini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidagi

foйда miqdoriga kam bo'ladi. Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan olib iste'molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi. Ular ikki guruh bo'linadi: qo'shimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlari. Tovarlar o'rash, qadoqlash, saralash, transportga o'tish, tashish va saqlash xarajatlari qo'shimcha muomala xarajatlari hisoblanadi. Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlariga yaqin turib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushum summasidan qoplanadi.

XARAJATLAR TURLARI

Ishlab chiqarish xarajatlari			
Ish haqi	Xom-ashyo xarajatlari	Yonilg'i va moylash materiallariga xarajatlar	Amortizatsiya va h.k.

Muomala xarajatlari	
Qo'shimcha muomala xarajatlari	Sof muomala xarajatlari

Ishlab chiqarish xarajatlari

Tashki xarajatlar
Ishchi kuchiga sarflar
Xom-ashyo xarajatlari
Yonilg'i-energiyaga xarajatlar
Transport-loqa xizmatlariga xarajatlar
Bank tijorat xizmatlari uchun sarf xarajatlari

Ishki xarajatlar
Bino-insoat amortizatsiyasi
Mashina-uskuna amortizatsiyasi
Ijara haqi
Qarz pul mablag'lari va uning foizlari
Me'yordagi foyda

UMUMIY XARAJATLAR

Doimiy xarajatlari
Korxona to'lov majburiyatlari
Soliqlar
Amortizatsiya ajratmalari
Ijara haqi
Qo'riqlash xizmati xarajatlari
Boshqaruv xodimlar maoshi va h.k.

o'zgaruvchi xarajatlari
Xom-ashyo
Material
YOnilg'i
Transport xizmati
Ishchilar ish haqi va shu kabilar uchun xarajatlari

Sof muomala xarajatlari (sotuvchi maoshi va boshqalar) marketing (iste'molchilik talabini o'rganish) reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Hozirgi zamon sarf-xarajatlari g'oyasi bo'yicha korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, xarajatlari ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlari korxona o'zi uchun zarur resurs va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xomashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijara olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlari to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalyeriya xarajatlari deb ham ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan muhtoj resurslardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlari ichki xarajatlari deyiladi. Bunday xarajatlari pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlari darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozor baholariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Mazkur korxona doirasida tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo'lgan to'lov-normal (me'yorida) foyda ham, renta va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sarf-xarajatlari ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liqlik darajasiga qarab doimiy va o'zgaruvchi xarajatlari ham farqlanadi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqarish yoki ortishi) bog'liq bo'lmagan tovarlarning hajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlari doimiy xarajatlari deyiladi.

Doimiy xarajatlari ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchijamida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqalar), soliqlari, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalarga xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

UMUMIY XARAJATLAR

Doimiy xarajatlar
Korxona to'lov majburiyatlari
Soliqlar
Amortizatsiya ajratmalari
Ijara haqi
Qo'riqlash xizmati xarajatlari
Boshqaruv xodimlar maoshi va h.k.

o'zgartiruvchi xarajatlar
Xom-ashyo
Material
Yonilg'i
Transport xizmati
Ishchilar ish haqi va shu kabilar uchun xarajatlar

Sof muomala xarajatlari (sotuvchi maoshi va boshqalar) marketing (iste'molchilik talabini o'rganish) reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Hozirgi zamon sarf-xarajatlar g'oyasi bo'yicha korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlar korxona o'zi uchun zarur resurs va xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xomashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, ijara olingan yer uchun rent, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgaltseriya xarajatlari deb ham ataladi.

Korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan muhtoj resurslardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bunday xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurslarning bozor baholariga taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Mazkur korxona doirasida tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish uchun zarur bo'lgan to'lov-normal (me'yoriy) foyda ham, rent va ish haqi bilan birga xarajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sarf-xarajatlar ichki va tashqi xarajatlarga ajratish, korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bog'liqlik darajasiga qarab doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar ham farqlanadi.

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqarish yoki ortishi) bog'liq bo'lmagan tovarlarning hajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi.

Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi, uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinci hajmida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqalar), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov, uskunalar xizmat ko'rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar ishlab chiqariladigan tovar miqdorini oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qiladi va ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liqlikda o'zgaradi. Unga xom ashyo, material, yonilg'i-transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilarga qilinadigan sarflar kiradi.

Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar yig'indisi umumiy yoki yalpi xarajatlarni tashkil qiladi.

Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalanadi.

O'rtacha umumiy xarajatlar yalpi (umumiy) xarajatlarning ishlab chiqarilgan tovar miqdoriga nisbatan teng. O'rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. O'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar o'zgaruvchi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Eng yuqori darajada foyda olishga erishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash zarur. Bunda iqtisodiy tahlil vositasi bo'lib qo'shimcha xarajat tushunchasi xizmat qiladi. Ayyalo qo'shimcha xarajat deb, keyingi qo'shilgan mahsulotlarning har bitta birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarga aytiladi. Qo'shimcha xarajatlarni har bir navbatdagi chiqarilgan qo'shimcha mahsulot birligi uchun aniqlash mumkin.

Korxona foydalanadigan ko'plab resurslar miqdori, ya'ni jonli mehnat, xom ashyo, yonilg'i va energiya sarflari tovar hajmining o'zgarishiga tez va oson ta'sir qiladi. Boshqa resurslar sarfi ta'sirida tovar hajmi o'zgarishi uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Masalan, ogir sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish quvvatlari ancha uzoq vaqt oralig'ida mahsulot miqdorini o'zgartirishiga ta'sir qilishi mumkin. Demak, ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olishga vaqt omili, ya'ni xarajat qilingan pirovard natijasi olinguncha o'tgan davr sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli vaqt omilidan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarni qisqa va uzoq muddatli davrda alohida tahlil qilinadi.

Korxona ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish uchun qisqa muddatli davrda faqat o'zining o'zgaruvchi xarajatlari miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bu qisqa muddatli xarajatlardir.

Ishlab chiqarish quvvatlari esa (ishlab chiqarish inshootlari, maydoni, mashina va uskunalar miqdori) doimiy bo'lib qoladi, hamda bu davr faqat ulardan foydalanish darajasini o'zgartirish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatli davr- bu korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini ham o'z ichiga olgan, bugun band bo'lgan resurslari miqdorini o'zgartirish uchun yetarli bo'lgan davrdir. Bu davr davomida boshqa tarmoqlar faoliyat qilib turgan korxonalar mazkur tarmoqqa kirib kelishi mumkin.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish quvvatlarining o'zgarishi taqozo qilingan qisqa va uzoq muddatli davr davomiyligi ayrim tarmoq va korxona xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Masalan, yengil sanoat tarmog'ida kiyim kechak ishlab chiqaradigan kichikna firma, bir necha qo'shimcha tikuv mashina o'rnatish bilan o'zining ishlab chiqarish quvvatlarini qisqa vaqtda (bir necha kunda) oshirish mumkin. Og'ir sanoat tarmoqlarida yangi quvvatlarni ishga

tushirish uchun bir necha yil talab qilinadi. Oqibat natijasida bir necha xarajat turlari o'zgaradi va o'zgaruvchi miqdorlar bo'lib qoladi.

2. **Ishlab chiqarish xarajatlari ta'sir etuvchi omillar.** Ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirish chuqur tanglikka, yo'qlikni cheklab o'tishga intilishga, fan va texnikaning ilg'or texnologiyaning eng yangi yutuqlarini izlash va joriy etishga undaydi.

Bularning barchasi pirovard natijada keskin raqobatchilik sharoitida ishlab chiqarishning barqarorligiga erishishga inqirozning oldini olishga yo'naltirilgan. Bu holat kengroq ko'rilganda, bozorda talab bilan taklif o'rtasida qulay muvozanatning ta'minlanishiga olib keladi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirib borish va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib borish juda muhim hisoblanmoqda. Chunki ishlab chiqarishning rivojlanib borishi va yuksalishi xarajatlarni qisqartirib borish, unga ta'sir etuvchi omillari tahlil qilish, aniqlash kabi xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bu sohada dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari o'zlarining taraqqiyot darajasiga erishgandir. Ma'lumki, sobiq totalitar tizim davrida barcha ishlab chiqarish markazlashgan, rejalashtirilgan tartibda edi. Shuning uchun - ham isrofgarchilik juda ko'p miqdorda edi. Ishlab chiqarish xarajatlarning ortib ketishi mahsulot sifatining buzilishiga, shuningdek uning "o'tmay" qolishiga sabab bo'ldi. Natijada o'sha davrda mamlakat ishlab chiqarishi inqirozga uchradi. Bu mamlakat uchun fojiali hol edi. Chunki egasiz mulkning qadri bo'lmaydi, tekin narsani esa samarasi bo'lmaydi. Bu barchamizga ma'lumdur.

Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan keyin, Prezidentimizning oqilona fikrlari, ularning tashabbuslari bilan eng asosiy e'tibor shu sohaga qaratiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarga quyidagicha omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Mehnat unumdorligini oshirib borish.
2. Mehnatni ilmiy tashkil qilish.
3. Ishni kuchlarini to'g'ri joylashtirish va ishlab chiqarishga to'g'ri jalb etish.
4. Fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirib borish, tadbiq qilish.
5. Kadrlar malakasini oshirib borish.
6. Xom-ashyo resurslaridan samarali va unumli foydalanish.
7. Ishlab chiqarishni boshqarishni to'g'ri tashkil etish.
8. Mahsulot tannarxini pasaytirish.

Umuman olganda esa bu omillarni quyidagicha birlashtirish mumkin: yangi fan-texnikani qo'llash, mehnat unumdorligini oshirib borish, xom-ashyo sarflarini qisqartirib borish. Har qanday jamiyatning muhim bo'g'inlaridan asosiysi ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirib borishdir. Har bir faoliyat ko'rsatayotgan korxona ham o'z oldiga ana shuni vazifa qilib qo'yadi, ya'ni korxonaning asosiy maqsadi, ishlab chiqarish xarajatlari minimallashtirib, maksimal foyda olishdir, ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlari yuqorida sanab o'tilgan muhim omillar ta'sir etar ekan, ularning barchasini birgalikda amalga oshirish juda qiyin. Masalan: xom-ashyo zaxiralarining eng arzon kanallarini qidirib topish va samarali ishlatishni ta'minlash, ishchilarni ijtimoiy muhofazalashni kuchaytirish, fan-

texnika taraqqiyotini yuksaltirib, uni ishlab chiqarishga tadbiq qilish, umuman bo'larni birvarakayiga amalga oshirish murakkab jarayondir. Lekin, shu omillarni barchasini birgalikda olib borilishi iqtisodiy samaradorlikka erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Respublikamizda bunday ishlarni rivojlantirish maqsadida ilgari davlat markazlashgan korxonalar tizimi o'zgartirilib, xususiy lashtirish ishlari yo'lga qo'yiladi. Bugungi kunda umumiy ishlab chiqarishning 84% asosan, xususiy va qo'shma korxonalarga to'g'ri kelmocda. Bu degan so'z, har bir korxona o'zining ishlab chiqarish jarayonlariga va xarajatlarni kamaytirib borish omillariga jiddiy ta'sir qilmoqda, deganidir.

Albatta, bunday munosabatlar ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish, ishsizlikka yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi. Ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirib borish esa unga tamol toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish xarajatlari asosan, fan-texnika yutuqlari, yuqori malakali ishchi kuchi, xom-ashyo resurslari asosiy ta'sir ko'rsatadi. Mehnatni ilmiy tashkil qilgan holda ishlab chiqarishni yuksaltirib borish ham muhimdir. Har bir ishchi o'zining kasbini, qilayotgan shini sevishi kerak. Bu esa kadrlar malakasizligiga barham beradi, natijada ishlab chiqarish yuksaladi. Ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, ishchilarning u ishdan bu ishga ko'chib yurishlari natijasida ish samaradorligi 30-40 foizgacha kamayar ekan. Bu degan so'z, ishlab chiqarishning asosiy qismi yo'qoldi, deganidir. Shu sababli eng asosiy e'tibor

ishchi o'rintarini to'g'ri tashkil etishga qaratilishi zarur.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab korxonalar ishlab chiqarish xarajatlari ta'sir qiluvchi omillarini har tomonlama o'rganib, shu asosda ish yuritmokdalar.

Yangi bozor tizimi iqtisodiyotida islohotlarni amal qilishi juda muhim saralmoqda

va ahamiyati ortib bormoqda. Har bir korxona o'z oldiga xarajatlarni pasaytirish, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishni ustuvor vazifa qilib qo'yish kerak, ana shundagina iqtisodiyot yuksaladi, ishlab chiqarish taraqqiy etadi.

3. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning asosiy yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorlik. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarning uzluksiz pasayishi bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish usulining qonuniyandir. U mehnat unumdorligining to'xtovsiz o'sishi, mehnatkashlar madaniy, texnikaviy darajasining yuksalishi, moddiy va mehnat resurslaridan ratsional foydalanish, tannarxini pasaytirish xo'jalik yuritish usullarining takomillashtirishi bilan ta'minlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun kurashning ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Chunki uni pasaytirishning har bir foizi-ning absolyut hajmi

MUAMMOLI VAZIYAT:

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida kichik va o'rta korxonalarni tashkil etishga, iqtisodiy va huquqiy imkoniyatlar yaratib berildi, lekin korxonalarni tashkil etishda, xarajatlarni tushuntirishda xanda foydaga erishishda va raqobit kor'ushida engib chiqishda ayrim korxonalar qator kamchiliklariga yo'l qo'ymoqdalar. Oqibarda, ular o'z faoliyatlarini tugallashga yoki boshiga faoliyat tuzi bilan almashitirishga majbur bo'lmoqdalar. Bu O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

o'sib bormoqda. Umuman, respublika bo'yicha sanoat mahsuloti tannarxini faqat 1% ga pasaytirilsa, 3 mlrd. so'm miqdorida iqtisod qilinadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining pasaytirishning yo'llarini keltiramiz. Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini oshirish katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnikani joriy qilish, modernizatsiyalash va mahsulot tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish jarayonlarining kamayishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ular moddiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish, buyumlarni tayyorlashga ketadigan mehnat sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Amaldagi jihozlarni zamonaviylashtirish hamda qo'llanilayotgan texnikadan foydalanish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini anchagina kamaytirishga erishish mumkin. Yangi texnika va progressiv texnologiya asosida o'tgan va jonli mehnatni tejashga erishiladi. Moddiy resurslarda buyumlashgan mehnatni tejash xuddi shu miqdordagi xom-ashyo va materiallardan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi; jonli mehnat sarfini tejash mahsulot unumdorligini oshirish imkonini beradi, ya'ni har bir ishchiga hisoblanaganda ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Bunga fan - texnika taraqqiyoti yordam beradi. Yangi texnika va ilg'or texnologiya ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish asosida mehnat unumdorligi oshib boradi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Moddiy va pul mablag'larini sarflashda qat'iy iqtisodiy tejashga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Asbob-uskunalarni asrashga doir sarflarni kamaytirish, materiali, shuningdek, ishlab chiqarish chiqindilaridan maksimal foydalanish. Brak natijasida ro'y beradigan nobudgarchiliklarni kamaytirish fondlarining samaradorlik darajasini oshirish, ish haqi fondini ratsional sarflash tsex va umumzavod xarajatlarini kamaytirish- bularning barchasi u yoki bu darajasida mahsulotning arzonlashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy texnika ta'minotini yaxshilash ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishiga olib keladi. Korxonaning xom-ashyo material, yoqilg'i va energiya yetkazib berishning uzilib qolishi ishlab chiqarish ritmini buzishga, bekor turib qolishlariga, oy oxirida haybarakallachilikka va oqibat natijada unumsiz xarajatlarga olib keladi. Korxona iqtisodiyotida haddan tashqari normativdan ortiqcha zapaslarni bo'lishi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zapas ko'payib ketganda oborot mablag'lari oshib ketadi, moliyaviy ahvol yomonlashadi, ishlab chiqarishning rentabelligi pasayib ketadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga mehnatni tashkil etishda takomillashtirish ta'sir ko'rsatadi. Har qanday texnikadan hatto yangisidan ham ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilmay turib, maksimal ravishda foydalanish mumkin emas. Shuning uchun texnologik proseslarni mexanizatsiya va avtomatlashtirish bilan bir qatorda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishga katta e'tibor berish kerak.

Mahsulot tannarxini pasaytirishda hisobotning roli kattadir. Hisob olib borish yoqilg'i va energiyadan, xom-ashyo va materiallardan rasional foydalanishga yordam beradi, xarajatlarni kamaytirish va korxona jamg'armasini oshirish imkonini beradi. Kollektivning kuchini yetishtirilladigan mahsulotning tannarxini

pasaytirishga qaratish uchun ishlab chiqarishga qilinadigan xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish va hisobga olish zarur. Iqtisod qilish yo'llarni aniqlash ortiqcha harajatlarning sababini ochib tashlash uchun bu harajatlarni doimiy analiz qilib turish kerak. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish rejasining bajarilishini analiz qilish ishlab chiqarish rentabelligining oshishi uchun korxonadagi barcha ishlarning takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Mahsulot ishlab chiqarishini analiz qilishda ishchilarning aktiv ishtirok etishlari uni pasaytirishning muhim yo'lidir.

Xarajatlar korxonaga bog'liq bo'lmagan omillarga qarab o'zgaradi. Masalan, resurs narxi har xil xizmat-haqqining tebranishi korxona xohishidan qat'iy nazar xarajatlarni o'zgartiradi. Korxonada ishlab chiqarish ko'lami kengaysa, resurslar sarfi qisqaradi. Chunki ular kamroq isrof etiladi. Resurslarni tejovchi texnologiya joriy etilganda xarajatlar keskin qisqaradi. O'rtacha xarajatlar mehnat anumi-ga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi.

Xarajatlarni doimiy ravishda pasaytirib borish korxona foydasini oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ziyero mahsulot bahosi tarkibining asosiy elementlari bu xarajat va foydadir. Binobarin xarajatlar qanchalik qisqarib borsa, shunga mos foyda oshib boradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu fan texnika taraqqiyotining (FTT) yutuqlaridan oqilona foydalanishga erishishdir. FTT yutuqlaridan foydalanish mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan, xom-ashyo materiallaridan yoqilg'i resurslaridan yanada to'laroq foydalanishga imkon beradi. Shuningdek, yangi unumdorligi yuqori bo'lgan samarador mashina, dastgoxda yangi texnologik jarayonlar yaratish, uni ishlab chiqarish joriy etish pirovard natijada korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga sharoit yaratadi. FTT ning XX-asr ikkinchi yarmidagi o'ziga xos jihati prinsipial yangi texnologik usulga o'tilishi bilan xarakterlanadi. Uning mavjud texnologik ishlab chiqarish usullaridan ustunligi faqat nisbatan yuqori iqtisodiy samaradorligida emas, balki sifat nuqtai nazaridan moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatidir. Xarajatlarni pasaytirish asosiy yo'nalishlardan biri bu ishlab chiqarib va mehnatni tashkil etishning takomillashtirishidir. Ushbu yo'nalish ishlab chiqarishda yo'qotishlarni kamaytirish yo'li bilan harajatlarni pasaytirish bu esa o'z navbatida jonli mehnatni iqtisod qilishga, ya'ni ishlab chiqarish unumdorligini oshishiga olib keladi.

Samaradorlik iqtisodiy kategoriya sifatida, odamlarning ayrim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan mahsulotlar qobiliyatlarini anglatadi. Samaradorlik miqdoriy o'lchov darajasiga ega bo'ladi. Iqtisodiyotda eng avvalo yuqori samaradorlik ko'pincha imkoniyatlari bilan birgalikda iste'mol qilishdan hosil bo'lgan samaradorlikning yuksalishini izohlaydi. Barcha samaradorliklar majmuasi eng yuqori maksimal samaradorliklardan iborat ekanini izohlash qiyin emas. Har bir iste'mol qilinayotgan yangi tovar o'zining eng yuqori samaradorlik darajasiga teng samaradorlik darajasini kengaytiradi.

Maksimal samaradorlikni pasaytiruvchi qonunga ko'ra navbatdagi har bir iste'mol qilinayotgan ne'matni yuqori samaradorlik darajasi oldingi bosqichga nisbatan past bo'ladi.

Demak, bir o'lanovga to'g'ri keluvchi qo'shimcha ne'matlar hosil qilish samarasi oldingi bosqichda olingan natijalardan pastroq bo'ladi.

Iqtisodiy samaradorlik bir necha iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi bir qancha juz'iy ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi. Samaradorlikning umumiy ko'rsatkichi mehnat unumdorligidir. U umummahsulot miqdori (MM)ning jonli mehnat (JM) sarfiga nisbatan ifodalanadi. Jonli mehnat sarfi kunlarda sotlarda hisoblanadi. Mehnat unumdorligi bilan birga mehnat sig'imi degan samaradorlik ko'rsatkichi ham qo'llanadi. Mehnat sig'imi jonli mehnatni mahsulot miqdoriga nisbatan orqali aniqlanadi. Mahsulotning material degan iqtisodiy ko'rsatkich ham bizning davrimizda katta ahamiyat kasb etmokda.

Material sig'imi moddiy ashyolar sarfini (BM) mahsulot miqdori (MM)ga nisbati orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarish fondlarini samaradorligi mahsulotning fond sig'imi yoki fondlar qaytimi ko'rsatkichlari orqali o'lanadi. Ko'rinib turibdiki, juz'iy ko'rsatkichlar samaradorlik umumiy ifodasini aniqlashtirilgan shaklida bu nisbatlarda mahsulotlar miqdori ko'rsatkichlari o'rinda jami mahsulot, yalpi milliy mahsulot, jami ichki mahsulot, sof mahsulot, qo'shimcha mahsulot, uning pul shakllaridan biri foyda milliy daromad kabi kategoriyalar qo'llaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ayniqsa, respublikamizning hozirgi sharoitida samaradorlikni oshirish juda jiddiy masaladir. Gap shundaki, hozirgi davrda ko'pgina resurslar chegaralangan, ularning aksariyat qismi xorijdan keltiriladi, zamonaviy texnologiya yetishmaydi, kadrlar malakasi yuqori emas. Shuning uchun resurslardan tejimli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish milliy va xorijiy sarmoyalarni eng zarur sohalarga joylashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarlicha e'tibor berish talab qilinadi.

4. Foydaning mazmuni. Foyda me'yori va massasi. Jamiyat nuqtai nazaridan takror ishlab chiqarish samaradorligi cheklangan resurslardan samarali foydalanishga bog'liq. Bu samaradorlik o'zida resurslarni taqsimlash samaradorligi va ishlab chiqarish samaradorligini ifodalaydi. Resurslarni taqsimlashning samaradorligiga erishish uchun resurslar korxona va tarmoqlar o'rtasida shunday taqsimlanishi kerakki, natijada jamiyatga eng zarur bo'lgan mahsulotlarning ma'lum tur'lari olinishi kerak. Ishlab chiqarish samaradorligi jamiyat uchun zarur bo'lgan har bir tovar eng kam sarf xarajatlar (resurs sarflari) bilan ishlab chiqarilishini taqozo qiladi. Aniqroq aytganda, u ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan resurslar miqdori bilan olingan mahsulot miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni karakterlaydi. Sarf xarajatlarning mavjud hajmida olingan mahsulotlarning ko'proq miqdori ishlab chiqarish samaradorligi oshganligini bildiradi.

Korxona faoliyatining samaradorligi darajasiga baho berishda ham uning erishgan natijasi (iqtisodiy yoki sof foyda) ishlab chiqarish sarf-xarajatlari yoki qo'llanilgan resurslar miqdori bilan taqqoslanadi.

Foyda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning o'zgargan shaklidir. Demak, foydaning asl manbai qo'shimcha mahsulot bo'lib, u mahsulot sotilgandan keyin pul shaklida namoyon bo'ladi.

Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi pul tushumidan shu mahsulotlarni ishlab

chiqarishga qilingan barcha xarajatlar (tannax) chiqarib tashlansa korxonaning balans foydasi yoki brutto foydasi qoladi. Bu iqtisodiy foyda deb ham ataladi. Korxonaning umumiy foydasidan budjetga (asosan soliq to'lovlari) banklarga (olingan ssuda uchun foiz) to'lovlar va boshqa majburiyatlar chiqarib tashlansa korxona sof foydasi qoladi.

Buxgalyeriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlari chiqarib tashlanishi natijasida hosil qilinadi. Shu sababli buxgalyeriya foydasi iqtisodiy foydadan ichki xarajatlar miqdoriga nisbatan ko'p. Bunda ichki xarajatlar har doim o'ziga normal foydani ham oladi.

Amaliyotda foyda normasini hisoblashning ikki variantidan foydalaniladi. Bular foydaning joriy sarflarga korxona xarajatlari yoki avanslangan mablag'larga (asosiy va aylanma fondlar) nisbatidir. Bu hisob usullarning ikkalasi avanslangan mablag'larning aylanish tezligi ko'rsatkichi orqali o'zaro bog'langandir. Bu bog'lanish quyidagi tarzda ko'rinadi $R = (P/W) \times 100$

Bu yerda: R-foyda normasi; R-foyda massasi; W-ishlab chiqarish xarajatlari;

$$R' = (P/K_{\text{avans}}) = 100\%$$

Bu yerda R-foyda normasi; R-foyda massasi; K-avans (asosiy kapital + aylanma kapital) - korxona avanslangan mablag'lari yoki asosiy va aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati

Foyda normasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga to'g'ri mutanosib hamda foydalanilgan avanslangan mablag'lar qiymatiga teskari mutanosibdir. Shu tufayli foyda normasi korxona ish samaradorligini integral ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foydaning o'sishiga, chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarmagan holda ikki yo'l bilan: yoki ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirish yoki bahoni oshirish hisobiga erishish mumkin. Bahoning o'sishi ta'zi iqtisodchilarning foyda normasi ko'rsatkichini bartaraf etib bo'lmaydigan qusurga ega bo'lgan va shu sababli samaradorlikni o'lchash uchun mullaqo yaroqsiz ko'rsatkich sifatida tanqid qiliblariga sabab bo'ldi.

5. Zarar ko'rish va bankrotlik. Bozor iqtisodiyoti tasodiflardan holi emas. Bozorda faoliyat ko'rsatayotgan firmalar har xil vaziyatga tushib qolishi mumkin. Firmaning ishi yurishib tezda boy firmaga aylanishi yoki zararga yo'lliqib bor budidan ajralib qolishi ham hech gap emas. Tadbirkorlik xatari ham mana shunda. Bu xatarni bartaraf qilib bo'lmaydi, ammo uni kamaytirish mumkin. Buning uchun biror ishga qo'l urishdan avval uning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olish talab qilinadi.

Firmani o'z foydasi va hatto kapitalidan ajralib qolish ehtimoli **tadbirkorlik xatari** deyiladi.

Xatar - birinchidan firmaning ishini o'quvsiz yuritishdan, - ikkinchidan firmada bo'lmagan holda vaziyatning o'zgarishidan, ya'ni bozorda narainqlik bo'lishidan kelib chiqadi. Bozordagi resurslar va tovarlar narxining kufonlaganda o'zgarib qolishi mijozlar va shyeriklarni aynib ketishi, soliqlar va boj pulining

YODDA TUTING!

Korxona foydasining muqog miqdori uning massasini tashkil qiladi. Foyda massasini ishlab chiqarish xarajatlari (tannax) bilan taqqoslash foyda normasi yoki rentabellikni ko'rsatadi.

o'zgarishi, xalqaro vaziyatning keskinlashuvi kabilar xatarni yuzaga chiqaradi. Xatarning oldini ola bilish va uni engib o'tish hamma firmaning ham qo'lidan kelmayvermaydi. Firmalar yo'liqadigan xatarni uch turga bo'lish mumkin.

1. Ishlab chiqarish xatari. Bu mujallangan hajmda va kerakli turdagi tovarlarni yaratishga rahna soluvchi xavf-xatar.

2. Tijorat xatari. Bu mujallangan resurslarni bozordan ola bilmaslik xavf-xatari.

3. Moliyaviy xatar. Bu firma moliya bozorida va soliq to'lash sohasida yo'liqadigan xavf-xatardir. Aytaylik, firma mo'ljallangan kreditni ola bilmaydi va foizi ortib ketadi, firma aksiyasini narxi tushadi, davlatdan moliyaviy yordam tegmay qoladi, natijada firma xatar girdobiga tushib qoladi va hokazo.

Yuqorida aytilgandek, bozorda faoliyat ko'rsatayotgan har qanday firmaga xatar soya tashlab turadi.

Undan tamoman qutilish mumkin bo'lmasa uning ta'sirini kamaytirish imkoni bor va bu firmani o'ziga bog'liq. Xatarning eng halokatlisi bankrot bo'lish, sinish xavf-xatardir.

Biror bir ishga pul sarflashdan zarar ehtimolini imkoni bericha kamaytirishning har xil yo'l-yo'riqlari ishlab chiqiladi. Eng avval firma xatarni cheklab o'tish yo'llarini axtaradi. Qaerga qancha pul qo'yish, qaysi sohada ish boshlashdan oldin qaerlarda ish qanday ketayotganligini o'rganiladi, axborot to'planadi. Axborot tovar narxi, savdo hajmi raqobatchilik vaziyati xarajatlar darajasi, bozorning kengayishi imkoniyati, resurslar narxi, reklama holati va boshqa sohalarni qamraydi. Shularni tahlil etib, pul qo'yish yoki qo'ymaslikka ahd qilinadi. Bunda sinalgan yo'llardan biri pul foyda bo'lmasada, risk bilan xatari eng kam ishga qo'yiladi. Boshqa yo'l tadbirkorlik xatarini sug'urtalash hisoblanadi. Bu yo'l tanlanganda, sug'urta puli kutiladigan foydadan ma'lum darajada kamroq bo'lishi lozim, aks holda, zarar qilish mumkin.

Xatarga yo'liqmaslik kafolati yuk, ammo uni kamaytirish qaysi birini afzal ko'rish firmaning ishi hisoblanadi.

E'TIBOR BERING!

Qayd qilingan (renta) to'lovlar yoodamda davlat tomonidan qamam o'rtiqcha foyda olinadi. Bu turli tabiiy sharoitlar, turli xil texnikaviy darajalar, resurslar taqarri va xokazolar bilan ifodalandi. Bunday tafvotlar natijasida ha'zi bir korxonalarda qo'zshiricha qaymar, o'rtiqcha foyda vujudga keladi. Buni esa davlat undirib oladi. Qayd qilingan to'lovlarni undirish korxonani ishini yaxshilashga he'lgan moddiy manfaatdorlikni pasaytirilgan holda tashkil qilinadi.

6.Foydaning taqsimlanishi va ishlatilishi. Korxonada foydani taqsimlash tartibi. Korxona foydasini bir qismi ishlab chiqarish fondlariga to'plash uchun sarflanadi, to'lovlar ulardan yaxshi foydalanishni rag'batlantirish uchun joriy qilingan. Sanoatning turli tarmoqlarida to'lovlar asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtiriladigan oborot mablag'lar qiymatining uch foizidan besh foizigachasini tashkil etadi.

Fondlar uchun to'lovlar va qayd qilingan (renta) to'lovlari birinchi holda budjerga qo'shiladi. Bank kreditlari uchun foizlar ham to'lanadi. Foydaning qolgan qismi iqtisodiy rag'batlantirish fondini tashkil qilish, markazlashgan kapital qo'yilmalarini mablag' bilan ta'minlash, bank kreditlarini to'lash, o'z oborot mablag'larini ko'paytirish, turar joy kommunal xo'jaliklaridan foydalanish

natijasida ko'rilgan zararni madaniy-maishiy muassasalarni saqlash, harjatlarni qoplash, rezervlar tashkil etishga sarflanadi. Foydaning bundan keyingi qoigan qismi, ya'ni foydaning erkin qoldig'i davlat budjetiga topshiriladi.

Korxonada foyda hisobida uch xil iqtisodiy rag'batlantirish fondi tashkil etiladi: moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy- madaniy tadbirlar va uy-joy qu'rilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Foydaning hajmi butun korxona ishining samaradorligini to'la tarzda ifodalamaydi. Buning uchun yana bir ko'rsatkich-rentabellik darajasidan ham foydalaniladi. Rentabellik-xo'jalik faoliyatining foydasi va uyoki bu mahsulotni ishlab chiqarishning daromadligini ifodalaydi. Rentabellik korxona yillik foydasining uning foizda ifodalangan asosiy ishlab chiqarish fondlari va oborot mablag'larining o'rtacha yillik qiymatiga nisbatidan iborat. Rentabellik darajasi quyidagi formula bilan hisoblanib chiqiladi:

$$Rf = F/Ank + Nok * 100$$

Bu yerda F - foyda so'm hisobida

Ank - asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati, so'm hisobida;

Nok - normalashtirilgan oborot mablag'lari qiymati, so'm hisobida.

O'zlashtirish uchun savollar.

1. Ishlab chiqarish sarf - xarajatlarning mohiyatini va tarkibini tushuntiring.
2. Ichki va tashqi xarajatlarni misol orqali tushuntiring.
3. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o'zgarishlardan qaysilari uzoq muddatli xarajatlarga kiradi:
 - a) kompaniya yangi neftni qayta ishlovchi uskunani o'rnatadi,
 - b) korxona yana 200 kishini yollaydi, fermer o'z uchastkasida qo'llaniladigan o'g'it miqdorini ko'paytiradi,
 - v) fabrikada uchinchi smena joriy qilinadi.
4. Foydaning mazmunini va manbasini tushuntiring
5. Quyidagi keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib foyda normasini har ikkala usulda hisoblang:

Umumiy foyda -250 ming so'm.
Ishlab chiqarish xarajatlari -1250 ming so'm.
Bo'naklangan mablag'lar (asosiy va aylanma kapital) -250 ming so'm.
Natijalarni taqqoslab, izohlab bering.
6. Bankrotlik va sanatsiya nima? Tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va isloq yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 bb.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini mudernizatsiyalash va isloh qilishdir.

4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 16 yil mustaqillik yo'llari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2007 yil 30 avgust. «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 31 avgust.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 bb.
8. O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Sharifxo'jaev M., O'limasov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 1995y. 1-bob.
11. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujaeva M., Abduraxmanova K. Tashkent. 1999g. Gl-1.
12. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1.

11-Mavzu: Agrar munosabatlar va agrobiznes.

Reja:

1. Agrar munosabatlarning mohiyati va xususiyati.

2. Yer rentasi. Yerdan foydalanishning usullari va samaradorligi muammolari.

3. Agrobiznes. Fermer xo'jaliklari. Ijara pudrati.

1. Agrar munosabatlarning mohiyati va xususiyati. Bozor munosabatlari iqtisodiyotning hamma

jahhatarini jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga oladi. Mazkur tizimda bozor munosabatlar alohida o'rin tutadi. Yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi. Agrar munosabatlarning ob'yekti yer bo'lsa, uning sub'yekti xo'jalik yurituvchilar, nihoyat, yerga mehnat to'kuvchi iqtisodiy munosabatlarning eng qadimiy shakli. Chunki insonning iqtisodiy faoliyati yerni ishlashdan boshlangan.

Bozor tizimi agrar munosabatlarga yangicha mazmun beradi. Yerning tovarga aylanishi, yerga xilma-xil mulkchilikning paydo bo'lishi yerning tadbirkorlik ob'yekti bo'lishi, yerning ijaraga qo'yilishi, nihoyat yer uchun pul shaklida renta undirilishi, agrobiznesning maxsus faoliyatiga, turiga aylanishi bozor tizimi bilan bog'liq. Agrar munosabatlarning ob'yekti bo'lmish yer maxsus resurs bo'lganidan uning xususiyatida o'zgachaligiga xos bo'lgan iqtisodiy

TAYANCH IBORALAR.

Agrarsohni kompleks tizimlari, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi korxonalari, shirkatlari uyushmasi, ijara xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaligi, olin xo'jaligi, dehqon va fermer xo'jaliklari, sotish, texnika xizmati, qishloq infrastrukturasi (savdo, umumiy ovqatlanish, madaniy-mashiy xizmat, xo'jalik ombori), agrosotsial integratsiyasi, yer umumdorligi, iqtisodiy va tabiiy umumdorlik, yer rentasi, qishloq xo'jaligi iskor ishlab chiqarish xususiyati.

MUAMMO:

Intimiy tarqatqiyotning n. ahim, tarkibiy qamla o'zlashtir, agrar solnala chiqq. iqtisodiy hisobchilik imlaga ishlash muammolari.

aloqalar kelib chiqadi. Insoniyat hali koinat makonida ishlab chiqarishni uyushtirgani yo'q. Yerdan qishloq xo'jaligi yuritiladi, sanoat, qurilish korxonalari joylashadi, yer ustidan va ostidan yo'llar o'tadi, yer qasrida qazilma boyliklar joylashgan, yerdan o'rmon xo'jaligi yuritiladi, turar joy va madaniy maishiy binolar qad ko'taradi va hokazo. Shu sababli, har canday iqtisodiy faoliyat ma'lum darajada yer bilan bog'langan deb ataymiz.

Qishloq xo'jaligi uchun yer asosiy ishlab chiqarish vazifasini o'taydi. Ma'lumki, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish ikkiyoqlama xarakterga ega:

Birinchidan, iqtisodiy jarayon bo'lsa, ya'ni inson mehnati natijasida yo'z bersa, ikkinchidan, tabiiy - biologik jarayon bo'lib, mahsulot yetishtirish, tabiiy omillarga, masalan, o'simlik yoki hayvonlarda kechadigan biologik o'zgarishlarga, iqlim sharoitiga, ob-havoning qanday kelishiga, tuproqning tabiiy xossalriga bog'liq. Qishloq xo'jaligi insonning tabiatga bo'lgan munosabati bilan kishilarning o'zaro munosabatlari yaxlitlikda borishini talab qiladi va iqtisodning agrar sektorini tashkil etadi. Bu sohada asosiy resurs yer bo'lib, u hech bir tengi yo'q, tanho o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ammo, yer eng cheklangan resurs: uni mehnat bilan yaratib bo'lmaydi. Ko'pgina resurslar bir-birining o'rnini bosa oladi. Masalan, mehnat resursini mashina bilan almashtirish mumkin. Yerning o'rnini esa hech bir resurs bosa olmaydi, shu jihatdan u o'ta noyob va asosiy resurs hisoblanadi. Uning asosiyliigi shundaki, yer va boshqa resurslarga qo'shimcha sifatida komp'lyuter va uning dasturlari qo'llanadi.

Yerni boshqa resurslar bilan ham almashtirib bo'lmaydi, ammo uning muqobil ishlashi usullari g'oyat ko'p bo'ladi. Shu sababli yerga talab muttasil oshib boradi. Bu talab yer bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishning kengayishi va yerning unumdorligiga qarab o'zgaradi.

Yer cheklangan, uni ishlab chiqarib bo'lmaydi, foydalaniladigan yerlarni ularga investitsiya sarflab ko'paytirish mumkin. Masalan, quruq yerlarni sug'orish va botqoq hamda zax yerlarni quritish orqali ekin maydoni tabiatan cheklangan bo'lsada, shu doirada chiqmagan holda yaroqsiz yerlar hisobidan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni ko'paytirish mumkin. Yer resursi cheklanganligidan yerning taklifi, noelastik, ya'ni o'zgarmaydigan bo'ladi. Bu bilan yer boshqa resurslardan jiddiy farqlanadi. Ma'lumki, agrar talab oshsa, bunga javoban taklif ham ko'payadi, lekin yer bu qoidadan istisno etiladi, Chunki yer tabiat mevasi bo'lganidan uni mehnat bilan ko'paytirib bo'lmaydi.

Yer hammasbop resurs. Unda dehqonchilik qilish, undirma sanoat yurgizish, qurilish qilish mumkin. Yerga ikki xil monopoliya mavjud bo'ladi. Birinchidan, yer qadr-qiymati baland resurs sifatida mulk monopoliyasida turadi, ya'ni egasi yo'q yer bo'lmaydi. Yer cheklanmagan miqdorda bo'lganida uni mulk sifatida ko'paytirib ham bo'lmaydi. Yer cheklangan miqdorda bo'lganida uni mulk sifatida ko'paytirib ham bo'lmaydi. Bunday hodisa yerga mablag' sarflashni, uning egasiga bog'liq qilib qo'yadi. Yer egasining mulkdor sifatida manfaati bor, ya'ni u o'z yeridan naf ko'rishi kerak. Shu sababli yer ishlatish uchun tekinga berilmaydi,

YODDA TUTING!

Yer egasi ijara beryuchi, uni ishlatuvchi esa fira oluvchi bo'ladi. Ularning munosabati ijara bitimi bilan qonunlashtiriladi. Yerdan foydalanilglik uchun uning egasiga to'lanadigan xaq renti deyiladi.

egasiga undan foydalanish haqini to'lash zarur. Ikkinchidan, yer xo'jalik yurgizish ob'yekti sifatida egallab olinadi, ya'ni yerda turli xo'jaliklar tashkil topadi, yaroqli yer bo'sh turmaydi. Xullas, yaroqli yerlar doim band bo'ladi. Yer resurs sifatida egalari qo'lida bo'lar ekan, ular boshqa resurs egalari singari uy xo'jaliklari tarkibiga kiradi. Binobarin, uy xo'jaliklari tarkibiga kiradi va ular o'rtasida munosabat yer xususida ham bo'ladi. Yer mulk bo'lganidan mulkdorning roziligrisiz uni ishlatib bo'lmaydi. Unda foydalanish uchun egasiga haq to'lash kerak. Yer o'z egasining mulki bo'lib qolganida vaqtincha boshqa mulk sohibi, xususan tadbirkor tomonidan ishlatilishi mumkin.

1. Yer rentasi. Yerdan foydalanishning usullari va samaradorligi muammolari. Yerdan haq to'lash sharti bilan ma'lum muddatda foydalanish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy aloqalar **ijara munosabatlari** deyiladi.

Renta mohiyatan qishloq xo'jaligidagi qo'shimcha mahsulotning yer egasiga tekkan qismidir. Narx renta to'lash imkonini berar ekan, xarajat tarkibiga kiradigan yer rentasini xaridorlar ko'taradilar. Ular yer egalariiga yer mulki uchun haq to'laydilar. Shu ma'noda renta jamiyat zimmasiga tushgan yuk hisoblanadi. Yer tanqisligidan jamiyat renta to'lashdan iborat sarfni o'z zimmasiga oladi.

E'TIBOR BERING!

Renta turlari ko'p, jumladan, absolyut (matloq), differensial, monopol renta, qurilish uchastkalaridan, undirma sanoatda olinadigan renta kabilar uning ko'rinishlaridir. Ularning hammasi yerga kapital qo'yib, mehnat sarflinishi natijasida keladigan va egasiga tegadigan daromaddir.

Renta turlari. Renta yerga bo'lgan mulkning iqtisodiy realizatsiyasi, ya'ni amalga oshirishdir. Yer egasi manfaati yuzaga chiqishi uchun u o'z uchastkasini ishga solib, pul topish kerak bo'ladi. U o'z yerida dehqonchilik qiladi, korxona yoki har xil xo'jalik turar joy binolarini quradi, yerni ijaraga beradi, uni sotadi yoki garovga qo'yib pul oladi va shu pulni ishlatadi. Yerni ishlatishning bir-biridan farq qiladigan muqobil usullari ko'p. Bu usullardan qay birini tanlash yer egasining ishi. Albatta, mulkdor o'z manfaatidan kelib chiqqan holda, o'zi uchun eng qulay usulni tanlaydi. Bozor iqtisodiyoti tizimida yerni ishlatishdan keng tarqalgan usul uni ijaraga berib, renta olishdir.

Absolyut renta - yer uchastkalarining sifatidan qat'iy nazar yer mulk bo'lgani uchun uning egalari oladigan renta. Mazkur renta hamma yerlardan olinadi, lekin miqdoran yomon va eng yomon yerlardan olingan rentaga teng bo'ladi. Masalan, har biri o'n gektardan keladigan uchta yer uchastkasi bor, ularni shartli ravishda A, V, S uchastkalari bor deb belgilaymiz. Eng yomon «S» uchastkasi bo'lib, u yerdan 500 ming dollarga renta olinadi. «A» uchastkasidan esa 800 ming dollar renta olinadi, shundan 300 ming dollar bu yerning sifati uchun qolgan 500 ming dollari umuman yer uchun, «V» uchastkasidan 700 ming dollar renta olinadi. Shundan 200 ming dollar yer sifati uchun 500 ming dollari umuman yer uchun. Hamma uchastkalardan 500 ming dollar miqdorida olinadigan renta absolyut renta hisoblanadi va u yomon yerdan olinadigan jami rentaga teng bo'ladi. Sifatizs yerlar ekilisni uchun ulardan olingan mahsulot narxi qilingan xarajetni qoplashi kerakki, uning tarkibida tadbirkorning normal foydasi va renta ham bo'ladi.

Differensial (tabaqalangan) renta - yerning sifatiga qarab olinadigan va rentaning absolyut rentadan ortiqcha bo'lgan qismidir. Yer sifatining har xil bo'lishi, ya'ni tuproqning unumdorligidagi farqlar uni yaratadigan omildir. Tuproq hosildorligi ikki xil bo'ladi: tabiiy va iqtisodiy. Tabiiy hosildorlik-tuproqning kimyaviy va fizikaviy xossalari bo'lib, uni tabiat in'om etgan. Xalq tilida oriq yer, semiz yer degan tushuncha qo'llanishi bejiz emas, albatta. Yerning hosildorligi tabiatan har xil bo'lganidan, yerga sarflangan bir miqdordagi resurslar turlicha natija beradi. Yerning sifatiga qarab, muayyan miqdordagi moddiy ne'mat resurslari sarflangan holda, turlicha yalpi hosil olinadi. Hosildorlikdagi farqqa qarab renta ham tafovutlashadi.

MU'AMMOLI VAZIVAT

Bozor qimmatiyati sharoitida agrar sohami sanoatlashirish va uning mahsulotlarini zamonaviy eksportib mahsulotiga aylantirish, jayayonida yangi texnologiyani qo'llash va undan xotimlarning malakasini mahoratini oshirib borish.

Differensial rentaning o'zi differensial renta I va differensial renta II dan iborat bo'ladi. Differensial renta I tuproqning tabiiy hosildorligiga va yer uchastkasining joylashuviga qarab olinadigan rentadir. Ma'lumki, yer uchastkalari tabiiy hosildorlik jihatidan farqlanadilar. Aytganimizdek, sifati o'ta yaxshi, yaxshi, o'rtacha, yomon va o'ta yomon yerlar bor, o'ta yomon yoki yomon yerlardan foydalanilganda, ulardan olinadigan mahsulotlarga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari narx uchun asos bo'ladi, ya'ni bozor narxi orqali ular qoplanadi. Bundan tashqari narxga renta ham kiradi, Chunki eng yomon yer ham tekinga berilmaydi, o'ta yomon yerdan yaxshi yer sari borilganda individual xarajatlarning kamayishi yo'z beradi. Gap shundaki, yomon yerlarda sarfga nisbatan hosil kam olinsa, yaxshi yerlarda olingan yalpi hosildagi farq mahsulot birligiga ketgan sarflarni ham farqlantiradi. Binobarin, o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlari har xil bo'ladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining bozor narxi bir xil, ammo o'rtacha xarajatlar esa yerga qarab, har xil bo'lganligi sababli, bozor narxiga asos bo'lgan yomon yerdagi xarajatlar bilan boshqa sifatliroq yerdagi xarajatlar o'rtasidagi farq differensial renta I-ni paydo qiladi. Bu mazmunan iqtisodiy foydaning bir turi, lekin u yer egalari tekkan uchun rentaga aylanadi.

Sanoat mahsulotidan farqliroq, qishloq xo'jaligi mahsulot xarajatlariga moddiy va mehnat sarfi hamda normal foydadan tashqari renta ham kiradi. Mahsulot shu xarajatlar negizidagi narxlarda sotilganda, o'ta yomon yerlarda differensial renta I bo'lmagan holda, boshqa sifatli yerlarda shunday renta vujudga keladi (Jadval - 1). Jadvalda yerlar miqdoran teng, ularga teng miqdorda yalpi sarflar qilingan, narxni o'ta yomon yer xarajati belgilaydi, u xarajat tarkibida absolyut renta mavjud deb oldik. Jadvalga qarang.

Differensial renta I-ning hosil bo'lishi

Jadval-1

Yer sifati	yer mikdo riga	yalpi hosil ts.	jami xarajat ning so'm	o'rtacha xarajat I ts dan ming so'm	I ts o'n hisoblangan dif Renta ming so'm	I ts mahsulot ming bozor narxi ming so'm	Iga yerga hisoblangan dif renta ming so'm
------------	----------------------	-----------------------	---------------------------------	---	---	--	--

1. o'ta yomon	1,0	15,0	120,0	8,0	0	8,0	0
2 yomon	1,0	18,0	120,0	6,67	1,33	8,0	23,94
3. o'rtacha							
4. yaxshi	1,0	20,0	120,0	6,0	2,0	8,0	40,0
5. o'ta yaxshi	1,0	22,0	120,0	5,45	2,55	8,0	56,1
	1,0	25,0	120,0	4,8	3,2	8,0	80,0

Jadvaldan ko'rinadiki, yerlarning tabiiy hosildorligi turlicha bo'lganidan yerga xarajatlar teng bo'lsada, turlicha hosil qilingan, unga ko'ra, o'rtacha xarajatlar ham turlicha bo'ladi. Shunday sharoitda o'ta yomon yerda differensial renta I hosil bo'lmagan. Ayni vaqtda yerning sifati oshgan sari renta ham ko'payib borishi yo'z beradi. Bozorda talab qisqarib, o'ta yomon yerni ishlatish ehtiyoji qolmasa, endi narxni yomon yer sharoiti belgilay boshlaydi va shunday yerda differensial renta I bo'lmay qo'yadi. Differensial renta I bo'lmaganda edi, hamma joyda ijara haqi bir xil bo'lishi mumkin edi.

Differensial renta II tuproqning iqtisodiy hosildorligi natijasidir. Yerga qo'shimcha mablag' sarflab, unga ishlov berish orqali hosildorlikni oshirish natijasida olingan renta differensial renta II bo'ladi. Tuproqning tabiiy imkoniyatlari doirasida yerga mablag' sarflash hosildorlikni ma'lum me'yor darajasida oshiradi, o'rtacha xarajatlar bir xil bo'lishi yerga yaxshi ishlov bergan xo'jaliklarda differensial renta II ni hosil etadi. Bunda tuproqning tabiiy emas, balki iqtisodiy yuritish amaliyotida renta turlari birgalikda yuradi. Shuning uchun renta II ni ko'rib chiqamiz. Bunda yer sifati bir xil, dastlabki mablag'lar teng, ammo yerga qo'shimcha sarflangan mablag' teng miqdori turlicha, bu mablag'lar to'la ishlatilib, xarajatlar tarkibiga o'tadi deb faraz qilamiz (Jadval 2).

Jadvaldan ko'rinadiki, «A» uchastkasida differensial renta II yuzaga kelmadi, Chunki yerga qo'shimcha mablag' sarflanmadi. Aksincha V va S uchastkalariga qo'shimcha mablag' sarflanganidan hosildorlik yuqori bo'ladi, o'rtacha xarajatlar pasayadi, natijada differensial renta II paydo bo'ladi. Ammo «S» uchastkasida mablag'lar samaraliroq ishlatilgani uchun bu yerda differensial renta II ko'p bo'ladi.

Differensial renta II ning hosil bo'lishi.

Jadval -2.

sifati bir xil yer uchast kalar	yer miq dori ga	yerga qilingan dastlabki i sarf ming.so m	yerga qiling an qo'shi mcha sarf ming. so'm	hosi ldorl ik ga'us	yalpi hosil ts	jami xarajat ming.s o'm	1ts. mahsu lot narxi ming.s o'm	jami dif.ren ta 2 ming.s o'm	1ts. xos xarajat 1 ming.s o'm	birga uni hisobg an dif renta ming so'm
A	8,0	800,0	-	20,0	160,0	800,0	5,0	0	5,0	0
V	6,0	600,0	200,0	30,0	180,0	800,0	5,0	108,0	4,7	28,0
S	5,0	500,0	300,0	40,0	200,0	800,0	5,0	200,0	4,0	40,0

Qurilish uchastkalari uchun ham renta to'lanadi. Bino-inshootlar mutloq turmaydi, yer ustida qad ko'taradilar. Qurilish dehqonchilik va sanoatga nisbatan

yerni ishlatishning muqobil usulidir. Qurilish uchun to'lanadigan rentani yerni boshqa usulda ishlatishdan keladigan rentadan ko'p bo'lgan taqdirdagina yer qurilish uchastkasidan undiriladigan renta miqdori faqat tuproq sifatida emas, balki yerning joylashuv o'rni ham bog'liq. Agar yer qanchalik shahar markazida, ekologik sharoiti yaxshi bo'lsa, renta shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki bular qurilish xarajatlari qurilgan binolarni ishlatib o'rish sarfini qisqartiradi.

3. Agrobiznes. Fermer xo'jaliklari. Ijara pudrati, Keng ma'noda, bunga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan biznes turlari kiradi. Agrobiznes rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xos. Tarkiban unga qishloq xo'jaligining o'zidagi, shu soha mahsulotini qayta ishlash va iste'molga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatlari kiradi. Agrobiznesning maqsadi bezonni kerakli mahsulotlar bilan kanda qilmay va to'la to'kis ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznes ishtirokchilari - bu tadbirkor, fermerlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi sanoat tadbirkorlari va nihoyat, shu mahsulotlarni sotish bilan shug'ullanuvchi tijoratчиларdir. Bulardan tashqari agrobiznes doirasiga banklar, sug'urta va moliya kompaniyalari ham tortiladi. Agrobiznes ilgari qishloq xo'jaligi bilan cheklansa, keyinchalik u agrosanoat integratsiyasi natijasida agrosanoat kompleksini qamrab oladi. Agar differentsiatsiya sanoatni qishloq xo'jaligidan ajratish bo'lsa, integratsiya ularni bir-biriga chirmashib ketishi yoki ularning sintezidir. Bunday hodisa qishloq xo'jaligi hamda mashinalashgan ishlab chiqarish asosiga ko'chgan qishloqda ham texnika revolyutsiyasi quloq yozgan sharoitda yo'z beradi.

Yuksak mashinalashgan ishlab chiqarishda vertikal integratsiya yo'z beradi, ya'ni qishloq xo'jaligi o'zidan yuqoridagi sanoat tarmoqlaridan buni boshlaydi. Qishloq xo'jaligi o'zining mahsulotini qayta ishlovchi va sotuvchi sohalar bilan, shuningdek o'ziga kerakli moddiy resurslarni etkazib beruvchi sohalar bilan integratsiyalashadi.

Aytilgan sohalar yaxlitlikda amal qila boshlaydi, qishloq xo'jaligi ham sanoat asosiga, ya'ni eng mukammal texnologiya zahiriga ko'chiriladi. Agrobiznes faoliyati birinchidan, aholini yetarli miqdorda sifatli oziq-ovqat bilan, sanoatni esa kafolatlangan tarzda xom-ashyo bilan ta'minlaydi. Mana bu shart bajarilganda foyda ko'riladi. Agrobiznes gullab-yashnashi uchun u amal qiluvchi sohalariga katta investitsiya sarflanadi, yangi texnika yutuqlari joriy etiladi.

Agrobiznesning birlamchi bo'g'ini fertyer xo'jaligi hisoblanadi. Chunki u qishloq xo'jaligi mahsulotini yaratadi. Bu xo'jalik o'z yerida yoki ijara olgan o'zga yerda yuritiladi, ammo yerga fermer mulki keng rivojlangan bo'ladi. Bu xo'jalikda mulk sohibi va ishlab chiqaruvchi ayni bir shaxs hisoblanadi. Mulki mehnatdan ajralmay u bilan bevosita bog'langan bo'ladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida oilaviy fermer xo'jaliklari keng taraqqiy etadi. Ular yuksak darajada ixtisoslashgan va zamonaviy fan-texnika yutuqlariga tayangan xo'jalik hisoblanadi, ular yuksak mehnat unumi va sifatli

DIQQAT QILING!

Agrobiznes deganda qishloq xo'jaligi sohasidagi biznes tushuniladi va u bozor tizimining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi.

mahsulotni ta'minlashga qodir bo'ladi. Fermer xo'jaligidan tashqari agrobiznes turlari ham bor, ulardan biri agrofirma.

Agrofirma-muayyan turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat usulida qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir. Bu korxona iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi. Masalan, chorvachilikda sutni yetishtirish, uni qayta ishlab, iste'molga tayyor holga keltirish bilan shug'ullanadi. Agrofimalarda investitsiya ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga taalluqli bo'ladi, har ikki sohaga xos resurslar ishlatiladi, xodimlar malakasi keng bo'lib, ular sanoat mehnati bilan ham shug'ullanadilar. Agrofimalar kichik oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topadi. Bu yerda xo'jalik zavod bilan birikadi.

Agrobiznesning yiriklashgan turi - bu agrosanoat birlashmalaridir. Bunday birlashma bir necha xo'jalik va korxonalar faoliyatini integratsiyalashtiradi. Bu yerda ishlab chiqarishning bir necha o'zaro bog'langan turlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi va tijorat ishi bilan shug'ullanuvchi korxonalar birlashadi.

Agrobiznesning yana bir turi dehqon xo'jaliklaridir. Bu xo'jalikda dehqonchilik, issiqxona tashkil qiladi.

Agrobiznes ishiga fermerlar assotsiatsiyasi va ittifoqchilari ham xizmat qiladi. Ular ko'ngilli va paychilik mablag'iga asoslangan uyushma bo'lib, o'z a'zolariga xizmat ko'rsatadi, ularning manfaatini himoya qiladi.

Agrobiznes turlari muayyan mamlakatning sharoitiga qarab har xil darajada rivojlanadi, tadbirkorlikning nufuzli turiga aylanadi. Agrobiznes yuqori mehnat unumdorligiga asoslanadi.

Xullas, davlatning chora-tadbirlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida talab-taklif muvozanatini ta'minlashga va fermer xarajatlarini qisqartirishga qaratiladi. Bu rivojlangan bozor iqtisodiyotidagi agrar munosabatlarda davlat o'zining iqtisodiyotini tarkiblash choralari bilan faol qatnashishidan darak beradi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Agrobiznesni mohiyatini tushuntirib bering?
2. Fermer xo'jaligini dehqon xo'jaligidan farqi va ish yuritishdagi faoliyatini qiyosiy tushuntiring!
3. Qishloq xo'jaligidagi ijara pudratini, boshqa ijara munosabatlaridan farqi nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqbol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tabdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 16 yil mustaqillik yo'llari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2007 yil 30 avgust. «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 31 avgust.

5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz., O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.

6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.

7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 b.

8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kiril va lotin yozuvlarida). T.: 2006.

9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.

10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademik Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. T.: 1999g. Gl-1.

12. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1.

12-mavzu. Taqsimotning amaliy va shaxsiy jihatlari.

Reja:

1. Taqsimot jarayonining umumiy tavsifi. Taqsimot to'g'risidagi nazariyalarning evolyutsiyasi. Ish haqi tushunchasi.

2. Daromadlar, ularning manbalari va taqsimot jihatlari.

3. Individual taqsimot va daromadlarni qayta taqsimlash.

1. Taqsimot jarayonining umumiy tavsifi.
Taqsimot to'g'risidagi nazariyalarning evolyutsiyasi. Ish haqi tushunchasi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda ishlab chiqarish va iste'mol hal qiluvchi bosqichlar bo'lsa, taqsimot va ayirboshlash asosiy bosqichlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi bosqichlardir.

Har qanday jamiyatda ishlab chiqarilgan mahsulot harakatining pirovard natijasi iste'mol belgilanadi. Biroq mahsulot iste'molga bog'uncha taqsimot jarayonidan o'tadi. Shu bois ham bu jarayon ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini bog'lovchi sifatida iqtisodiy munosabatlar tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Taqsimot faqatgina iqtisodiy jarayon bo'lib qolmay, balki u o'z mohiyati bilan

Taqsimot asosan chiqarishning omil-mehnat, er va kapital baharavar qamashganligi uchun barcha daromadlar ular o'rtasida teng taqsimlanishiga e'tiladi.

ijtimoiy va ma'naviy xarakterga ham ega. CHunonchi, kishilar qadimdan adolatli jamiyatni barpo etishni orzu qilib kelganlar va bunday jamiyatning asosini moddiy ne'matlarni taqsimlashning adolatli tamoyillarini amal qilishi bilan bog'laganlar. Shu bois ham jamiyatda

taqsimotning qanday hal etilishi va uni ahvoli manfaatlariga mos kelishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, ma'muriy - buyruqbozlik tizimi sharoitida moddiy ne'matlarni taqsimlash yagona markazdan turib boshqarilar va u manfaatdorlikni chegaralab hamda ijtimoiy boqimandalikni kuchaytiruvchi tamoyillarga asoslangan edi.

Tayanch iboralar:

Taqsimot, davlat byudjeti taqsimoti, ish haqi, ishbay ish haqi, yaqibay, ish haqi, real ish haqi, ish haqi stavkasi, turmush darajasi, oyachashbo savatchasi, qamag'alik darajasi.

bilan

Xo'jalik yuritishning bozor tizimi esa taqsimot xarakterini butunlay o'zgartirib yubercadi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy manfaatdorligi bozor qonunlari bilan mushtarak bog'langan tamoyillarga asolanadi.

Xo'sh, taqsimot qanday iqtisodiy kategoriya sifatidagi jarayon, u qanday iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi?

Hozirgi vaqtda jahonda 30 mln.gacha yaqin mahsulot va xizmat turlari ishlab chiqariladi. Ularning bir qismi jamiyat ehtiyoji va rivojlanishiga, boshqa qismi esa jamiyat a'zolarining shaxsiy iste'moliga kelib tushadi. Bu mahsulotlar moddiy-ashyoviy jihatdan ishlab chiqarish vositalaridan va xalq iste'moli buyumlaridan iborat.

Shunga mos holda tadbirkorlar keng ma'noda ishlab chiqarishga va iqtisodiyotga qo'shgan hissasiga qarab daromad oladilar: ya'ni ish kuchi sohibi - ish haqi, kapital egasi foyda, yer egasi - renta, pul egasi - foiz yoki dividend, menejyer ham foyda, ham ish haqi oladi, o'tmishdagi mehnati va xizmatlari uchun nafaqa to'lanadi. Taqsimotning bozor tamoyillari hukmron bo'ladi, lekin jamiyatda uning nobozor qoidalari ham amal qiladiki, biz keyingi savollarni yoritganda to'xtaymiz.

Muammo:
Bozor qitadidyoti
sharoitida umumiy
daromadda ish haqi
hissasini kumayib borish,
tadbirkorlik daromadini
oshib borishi real ish
saqining pasayib borish
muammolari

Taqsimot munosabatlarni xarakterlashda uning iqtisodiy va ijtimoiy funktsiyalarini (vazifalarini) farqlash zarur. Taqsimotning iqtisodiy funktsiyasi uni milliy iqtisodiyotga ehtiyojlar, manfaatlar va rag'batlantirish orqali ta'sir etishini, ijtimoiy funktsiyasi esa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga va rivojlantirishga ta'sir etishni ko'rsatmoq kerak.

Yuqorida ta'kidlaganidek, moddiy ne'matlarni taqsimlash to'g'risidagi iqtisodiyotdagi iqtisodiy qarashlar, fikrlar, ta'limotlar qadimdan ma'lum. Taqsimot nazariyasi fandagi ta'limot sifatida XVI asda paydo bo'lgan. Bu davrda taqsimot asosan, daromadlarni miqdoriy tahlil qilish asosida o'rganilgan. Masalan U.Pettining «Siyosiy arifmetika», K.Kenening «Iqtisodiy jadvali»si, A.Tyurqoning «Boylarning paydo bo'lishi va taqsimlanishi to'g'risidagi mulohazalar», B.Sey, B.Klark va boshqalarning taqsimot to'g'risidagi qarashlarida yaratilgan boyluk va moddiy ne'matlarni tarmoqlar va aholi o'rtasida taqsimlash masalalari yoritilgan.

Ingliz mumtoz iqtisodiy maktabining (A.Smit va D.Rikkardo) ta'limotiga ko'ra, taqsimot munosabatlari qiymat nazariyasi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Har qanday mahsulotning qiymati ish haqi, yer rentasi va foydadan iborat bo'lib, ular har qanday daromadning birligi uch manbaani tashkil etadi. CHunonchi, A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqotlar» asarida har bir mamlakatda bir yillik mehnat mahsuloti sifatida, yo sarflangan kapital uchun foyda sifatida, yoki yerdan olinadigan renta tariqasida taqsimlanishi zarur.

K.Marksning taqsimot to'g'risidagi qarashlari mehnat qiymat nazariyasiga ko'ra va qo'shimcha qiymat hamda ekspluatatsiya to'g'risidagi ta'limotlarga asoqlangan. Uning fikricha, ishchilar tomonidan (haq to'lanmagan mehnat bilan) yaratilgan qo'shimcha qiymat kapitalistlarning turli guruhilari o'rtasida foyda,

savdo foydasi, yer rentasi kabi shakllarda taqsimlanadi, ishchilar esa o'z ish kuchini sotib, uning ekvivalenti sifatida ish haqi oladilar.

Marjinalistik ta'limot esa («marjinalizm») frantsuzcha «eng yuqori», «o'ta yuqori»), taqsimot jarayonini eng yuqori foydaliлик nazariyasi bilan bog'laydi, ya'ni eng yuqori unumdorlikka erishgan firma to'la raqobat sharoitida yuqori daromadga ega bo'ladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan hozirgi zamon taqsimot nazariyasida «daromadlarning ijtimoiylashuvi» kontseptsiyasiga asoslangan bo'lib, unda davlat o'zining bir qator iqtisodiy dastaklari orqali, birinchi galda soliq tizimi yordamida ishlab chiqaruvchilar daromadining bir qismini budjetga jalb etib, uni ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun qayta taqsimlashga qaratilmoqda.

2. Daromadlar, ularning manbaalari va taqsimot jihatlari. Yuqorida ta'kidlanganidek, moddiy ne'matlarni taqqoslash iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh moddiy ne'matlarni taqsimlash qanday shakllarda amalga oshirilishi mumkin?

Nazariy jihatdan qaraganda moddiy ne'matlarni:

- a) teng taqsimlash mumkin;
- b) ehtiyojga qarab taqsimlash mumkin;
- v) mehnatga qarab taqsimlash mumkin.

Moddiy ne'matlarni teng taqsimlashda, o'z-o'zidan ma'lum, ishlab chiqaruvchi kuchlarni past darajasi, iqtisodiy biqiq sharoitlardan kelib chiqadi. Tarixan sivilizatsiya o'ta past bo'lgan ibtidoiy (jamoa) tuzumida, shuningdek, urushlar, tabiiy ofatlar ro'y bergan sharoitlarda teng taqsimlash amalga oshirilgan.

Lekin teng taqsimot normal iqtisodiyotning hosilasi emas. Hammaga bir xil taqsimot doimo manfaatdorlikni susaytiradi, boqimandalikni kuchaytiradi.

Ehtiyojga qarab taqsimlash, bir jihatdan qaraganda maqbuldek ko'rinadi. Lekin uning ham o'ziga xos muammolari bor. Birinchidan, ehtiyoj - cheksiz jarayon, u doim o'sishda, rivojlanishda, ikkinchidan, resurslarning etishmasligi. Hammaning barcha ehtiyojlarini qondirish murkin emas.

Mehnatga qarab taqsimlash - o'zining sotsial-iqtisodiy mohiyati bilan taqsimot munosabatlari tizimida muhim o'rinni, aytish mumkinki, u asosiy o'rinni egallaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jami moddiy ne'matlarni taqsimlash asosiy yo'nalishlari:

- umumjamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat ixtiyorida qisimga;
- tabiiy ofat, tasodifiy hodisalar ta'sirini bartaraf qilishga;
- davlatni boshqarish, mudofaaga va mehnatni qo'riqlashga;
- ish haqi;
- ijtimoiy himoya foydiga.

Mehnat doimo boylikning substaasiyasi bo'lib kelgan. U.Petti «mehnat boylikning otasi» deganda o'ta haq edi. Taqsimot jarayonida mehnat ma'lum bir o'lchov vazifasini o'taydi.

Lekin sof holdagi mehnatning o'zi pirovard maqsadni ifodalaydi, ya'ni mehnat bevosita o'zining natijasi bilan belgilanadi. Mehnatning natijasi u yoki bu darajadagi daromaddir. Bu, ayniqsa, bozor sharoitida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ishchi qanchalik umumli ishlamasin, u yaratgan tovar bozorda o'tmay qolsa, yaxshi daromad ololmaydi.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga qarab taqsimlash, daromadiga qarab iste'mol qilish mazmunini oladi. Yoki «har kimdan qobiliyatiga yarasha, har kimga daromadiga yarasha» iste'mol tamoyili amal qiladi.

Boshqacha aytganda, bozor iqtisodiyotida amal qiladigan taqsimot qonuniga ko'ra iqtisodiyot sub'yektlari (kishilar) jamiyatda yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar tarkibidagi o'z ulushini va resurslarni naqadar samarali ishlatishlariga qarab daromad shaklida oladilar.

Odatda, daromad deganda, ma'lum bir vaqt orasida amalga oshirilgan faoliyat natijasida olingan pul miqdori tushuniladi.

Daromadlar o'ziga xos mezonlarga asoslangan holda turli shakl va turlarga bo'linadi. Daromadni kim olishiga qarab:

- a) aholi daromadlariga;
- b) korxona (firma) daromadlariga;
- v) davlat daromadlariga;
- g) jamiyat daromadlariga (milliy daromad) bo'lishi mumkin.

Daromadlarni miqyosiga qarab: makroiqtisodiyot darajasidagi daromadlar (mehnat daromadlari, tadbirkorlik daromadlari, mulkdan kelgan daromadlar, ya'ni foyda, renta, foiz, dividend)

Ko'pchilik aholi daromadining asosiy qismi ish haqidan iborat.

Ish haqi, tor ma'noda, ma'lum vaqt ichida (soat, kun, hafta, oy) sarflangan mehnat miqdori birligining bahosidir. K.Marks, "Ish kuchi tovar qiymati va bahosining o'zgarish shakli", -deb ta'riflagan.

Keng ma'noda, ish haqi turli sohalarida ishlovchilarning mehnat haqi bo'lib, unga mukofot, gonorar va shunga o'xshash mehnat uchun to'lovlar ham kiradi.

Bajarilgan ishni o'lchash mezoniga qarab ish haqi vaqtbay (ma'lum malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan xodimning ishlagan vaqtiga qarab) va ishbay (yaratilgan sifatli tovar yoki bajarilgan ish hajmiga qarab) ish haqlariga bo'linadi.

Ish haqining 2 shakli:
- ishbay ish haqi;
- vaqtbay ish haqi;
Ish haqining 2 turi:
- nominal ish haqi;
- real ish haqi.
Ish haqining mukofotlash va rag'batlantirish tizimlari:
- tejab-tejizni rag'batlantirish;
- tarif atav kaoning ko'rsatishini oshirish;
- akkord va tjara munosabatlari keng qo'llash

Ish haqining miqdoriga qarab qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ulardan eng muhimi ish kuchiga talab oshganda ish haqi ortadi. Mehnat taklifi ortganda esa ish haqi kamayadi. Mehnat taklifiga quyidagi ko'rsatkichlar: aholining umumiy soni, uning tarkibidagi mehnatga layoqatli kishilarning miqdori, ish vaqtining miqdori, ish vaqtining o'rtacha miqdori, aholining ixtisoslik va malaka darajasi va mutaxassisligi va boshqalar.

Bundan tashqari ish haqining miqdoriga mehnat unumdorligi ham ta'sir ko'rsatadi. Mehnat unumdorligi oshsa, ish haqi ko'payadi yoki aksincha.

Aholining turmush darajasiga ta'sir ko'rsatishiga qarab ish haqi nominal va real ish haqiga bo'linadi. Nominal ish haqi xodimni sarflagan mehnati evaziga olingan umumiy pul miqdoridir. Real ish haqi yalpi ish haqidan har xil to'lovlar, jumladan, soliqlar uchun to'lovlar chegirib tashlagandan so'ng qoladigan ish haqidir va har xil to'lovlardir.

Real ish haqi xodimlarni haqiqiy harid qobiliyati bo'lib, aholining turmush darajasini bildiradi.

Aholi daromadlari tarkibiga ish haqidan tashqari pensiya, nafaqa, stipendiya kabi maxsus transfert to'lovlar ham kiradi. Bundan tashqari aholining ayrim qatlamlariga jumladan, nomoddiy xizmat turlari to'lovlariga berilgan imtiyozlar ham daromad tarkibiga kiradi. Masalan, O'zbekiston maorif va tibbiyot xodimlari uchun gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi, issiqlik marbai kabi kommunal xizmatlar uchun 50% to'lov joriy etilganki, ular ana shu sohalar xodimlarning daromadlari tarkibiga kiritilgan.

Daromadlar tizimida korxona (firma) daromadlari muhim o'rinni egallaydi. Korxona daromadlarining tarkibiy qismini foydadir.

Foyda to'g'risida turlicha qarashlar mavjud. Ayrim nazoratchi - iqtisodchilar foyda tushunchasiga foiz, renta, tadbirkorlik daromadi va firmaning iqtisodiy (sof) foydasini kiritadilar. Boshqa mualliflar esa foyda tushunchasiga faqat kapital uchun foizni kiritadilar. Ko'pchilik iqtisodchilar foydaning asosiy manbai kapitaldir, deb tushunadilar.

Korxona (firma)ning daromadi deganda uning pul tushumlari anglanadi. Firmaning iqtisodiy foydasi miqdoriy tushuncha bo'lib, uning pul tushumlaridan qilingan barcha sarf-xarajatlarga katgan mablag' chegirib tashlangandan keyin qolgan qismidan iborat.

Iqtisodiy foyda = pul tushumi + xarajatlar

Daromad foydadan ko'p bo'ladi. Firmaning daromadini uch turga bo'lish mumkin:

A) Yalpi (umumiy) daromad (YaD) - barcha tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan pul. Uning miqdori realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar soniga (a) va ularning bozor narxlariga (v) bog'liq.

YaD = a · v

B) o'rtacha daromad (o'D) - tovar birligini sotishdan tushgan pul.

Uni aniqlash uchun yalpi daromad (YaD) ning sotilgan tovarlar miqdoriga (Q) nisbatiga tarzida ifodalaydilar.

$$o'D = \frac{YaD}{Q}$$

V) Me'yoriy daromad (DM) - qo'shimcha ravishda sotilgan tovarlardan tushgan pul.

$$YaD = \frac{DM}{Q}$$

Me'yoriy daromad tovarlarning qo'shimcha ishlab chiqarish natijasida xarajalar va narxlarini o'zgarimganda yoki nisbatan sekin o'sgan sharoitda umumiy daromadni oshishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, foyda miqdori narxga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda, xarajatlarga nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgaradi.

Ish haqini oshirish va muhofaza qilish usullari: - iste'molchilik xavfi qiyomatini tartibga solib turish; - ishchi xizmatdohlarini daromad olishi pensiyasi natijasini oshirib borish; - iqtisodiydan him oy olish; - mehnat usudorligi ni oshirib borish tadbirlari; - kasaba uyushmalarini jamoat shartnomalarini bajarish.
--

Daromadning yana bir shakli rentadir. Renta-bu asosan, ko'chmas mulkdan (yer, binolar va boshqalar) olinadigan daromad bo'lib, ulardan foydalangan sub'yektlar mulk egalariга to'laydigan maxsus to'lov shakli (ijara haqi)dir. Renta munosabatlari alohida mavzuda talqin etiladi.

Foiz ham daromadlarning bir shaklidir. Foiz pul egasi o'z pulini boshqa sub'yektlarga qarzga bergani uchun oladigan daromaddir. Firmalar yoki boshqa sub'yektlar o'zlarining bo'sh turgan (ma'lum iqtisodiy sharoitlarda) pul mablag'larini ham ishlatib (oborotga qo'yib), ya'ni qarz kreditga berib daromad oladilar va u foizda hisoblanadi. Masalan, bankka bir yilga 100.000 so'm qo'yilsa va foiz stavkasi 15% bo'lsa, 15000 so'm daromad olinadi.

Qimmatbaho qog'ozlardan ham, masalan, aksiyalardan ham daromad olinadi. Aksiyadan olinadigan daromad dividend deyiladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan sari dividendning darajadagi hissasi ortib boradi, Chunki aholining tobora ko'proq qismi aksiyadorlarga aylanadi.

1. Individual taqsimot va daromadlarni qayta taqsimlash. Biz yuqorida taqsimot jarayonining funktsional (amaliy) jihatlarini, ya'ni uni iqtisodiy omillar nuqtai nazardan ko'rib chiqdik.

Taqsimotning yana individual jihatlarini ham bor.

Individual (xususiy yoki shaxsiy) taqsimot deganda, alohida shaxslar, oila, uy xo'jaligi daromadlarini hamda ularning darajasini belgilaydigan omillar tushuniladi.

Har bir alohida shaxsning daromadi manbai jihatidan uning ishlab chiqarishdagi hissasiga qarab taqdirlanishiga, ish haqi, foiz, dividend, foyda va boshqalar hamda uni ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan daromadlar, pensiya, ishsizlik nafaqasi, vorislik, homiylik mablag'lari va b. tashkil topadi. Uy xo'jaligining yuqoridagilardan tashqari oila daromadlari, chunonchi, shaxsiy yordamchi xo'jalik daromadlari, tadbirkorlik daromadlari, ijara daromadlari, ijtimoiy sug'urta, pensiya, stipendiya va boshqalar kiradi.

Individual taqsimot jarayonini tahlil etganda aholi daromadlaridagi ijtimoiy tengsizlik masalasi muhim o'rin tutadi.

Tengsizlik yuzaki qaraganda, adolatsizlikni bildiradi, lekin adolatti va adolatsiz tengsizlik mavjudligini e'tirof etish kerak. Bozor qonunlariga mos ravishda, huquq - tartib va qonunlarga xos usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar adolatti tengsizlikdir. G'ayriqonuniy, ya'ni man etilgan usullar bilan topilgan daromadlardagi farqlar adolatsiz tengsizlikni bildiradi, asosan, xufyona iqtisodiy faoliyat bor joyda (masalan, narkobiznes, poraxo'rlik, o'g'rilik, mafiya ko'rinishlari) yuzaga keladi.

Daromadlardagi tengsizlik qator omillarga bog'liq:

1. Kishilarning jismoniy va aqliy intellektual qobiliyatlari bir xil emasligi;
2. Oila tarkibining har xil bo'lishi, ya'ni ishlovchilar sonining miqdori ko'pligi yoki ozligi;
3. Kishilarning bilimi va kasb tayyorgarligidagi farqlar;
4. Mulkka egalik qilishdagi farqlar;
5. Mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyati va boshqalar.

Daromadning tarkibiy tuzilishi turi daromadlarning salmog'i bilan tavsiflanadi. U esa iqtisodiy taraqqiyot darajasiga aholining tarkibiga, davlatning daromadlar borasidagi siyosatiga bog'liq. Aholining ko'proq qismi tadbirkor bo'lsa, daromad ham ko'p bo'ladi. Shuningdek, aholi tarkibida kelsalar ko'p bo'lgan mamlakatlarda pensiyaning, o'qiydigan, yoshlar ko'p bo'lsa, stipendiyaning daromaddagi salmog'i katta bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda pensionerlar aholining 8%dan ko'prog'ini, mehnat qilish yoshiga etmagan 44%ni, bolali onalar 3%ni tashkil qiladi. Shunga ko'ra, pensiya, nafaqa va stipendiyaning daromad strukturasiida tutgan o'rni har xil.

Taqsimot jarayonining muhim jihatlardan biri, bu daromadlarni qayta taqsimlash bilan bog'liq. Hozirgi zamonda bozor iqtisodiyoti tobora ijtimoiylashib bormoqda, ya'ni u inson farovonligini ta'minlash, unga munosib turmush sharoitlari yaratib berish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ana shunday sharoitda daromadlarni qayta taqsimlash bilan bog'liq masalalar rivojlangan mamlakatlarda ham shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ham amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning markazini tashkil qiladi. Bunga misol qilib, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy himoyalash siyosatini olish mumkin. o'tish davrining dastlabki bosqichlaridanoq o'tkazilgan tadbirlar: ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni miqdorini muntazam oshirilishi, aholining turli qatlamlarini, ya'ni maktab o'quvchilari, ko'p bolali oilalar, ijtimoiy nochor qatlamlarga turli imtiyozlar va to'lovlar berishga, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohalarini isloh qilish va boshqa tadbirlar aholini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida yo'z berishi mumkin bo'lgan ijtimoiy larzalarsiz, uning kambag'allashuvini oldini olishga erishildi. Buning uchun davlat budjeti orqali daromadlarni qayta taqsimlash evaziga milliy daromadning asosiy qismini iste'molga yo'naltirish bilan amalga oshiradi.

Ayniqsa, aholining daromadlarida va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor berilmoqda. I. Karimovning «O'zbekiston buyuk kelajak sari» asarida ko'rsatganidek, aholini ijtimoiy himoyalash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar, aholining daromadlar darajasi bo'yicha keskin tabaqlanishi mumkinligining oldi olindi. Bugungi kunda eng yaxshi ta'minlangan qismi olayotgan daromadlar o'rtasidagi farq yuqori hisoblanuvchi 6 baravardan 5,5 baravarga tushdi. Bu farqning 8 baravardan yuqori bo'lishi jamiyat ijtimoiy jihatdan keskin tabaqlanganligidan darak beradi.

Ma'lumki, aholini turmush darajasi jihatdan tabaqlanishini aniqlash maqsadida tirikchilik minimumi degan tushuncha qo'llaniladi. Iste'mol savatiga esa eng zarur oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar guruhi belgilanadi. Iste'mol savatini tashkil qilgan eng zarur iste'mol mahsulotlar va xizmatlar me'yori miqdorining joriy bozor baholariga ko'rsatmasining yig'indisi tirikchilik minimumi tashkil etadi.

Iqtisodiy islohotlarni izchi amalga oshirish, mamlakatimizda vujudga kelayotgan makroiqtisodiy vaziyatga hamda iqtisodiyotning amalda yuksalishini hisobga olib, yaqin besh yil ichida ish haqining eng kam miqdorini 3,5 baravarga ko'paytirish, shuningdek, iqtisodiy yuksalishning boshqa omillari bilan qo'shilib,

aholi jon boshiga to'g'ri ketadigan o'rtacha daromadni 1,8-2,0 baravar oshirish, shu bilan birga daromadlarni xarid quvvatini kuchaytirish maqsadida pulning qadrsizlanishi darajasini yiliga 2-3% kamaytirishga erishish kabi vazifalarni qo'yilishi aholini turmush darajasini ta'minlashga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqlol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamfakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyul. 2010 yil 30 iyul. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 1 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob, 8-33 b.
8. O'Imasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. T.: 1999g. GI-1.

II-BO'LIM. MILLIY IQTISODIY OTNING AMAL QILISHI VA RIVOJLANISHI

13-Mavzu: Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi milliy mahsulot

Reja:

1. Milliy iqtisodiyotning "qaror" topishi va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.
2. Yalpi milliy mahsulot, tarkibiy qismlari va harakat shakllari.
3. Yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari.

Mavzuning maqsadi

Milliy iqtisodiyot va uning iqtisodiy ko'rsatkichlariga tavsif berish. YaMM uning harakat shakllari va tarkibiy qismlarning iqtisodiy mazmunini yoritish va hisoblash usullarini ko'rsatib berish.

Tayanch iboralar:
Makroiqtisodiyot, milliy hisoblar tizimi, yalpi milliy mahsulot (YaMM), Qo'shilgan qiymat, Yalpi ichki mahsulot (YalIM), Sol milliy mahsulot (SMM), Milliy daromad (MD), Shaxsiy daromad, Nominal YaMM, Real YaMM, O'rtaq mahsulot, Pirovard mahsulot

1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy

MUAMMO

Iqtisodiy munosabatlarning makroiqtisodiy darajadagi tahlili. Milliy ishlab chiqarishning natijasi YaMM mazmunini yoritish.

ko'rsatkichlari. Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng O'zbekistonda yangi energetika, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi, ko'plab yirik inshootlar, korxonalar, zavod va fabrikalar qurilganligi, yonilg'i va g'alla mustaqilligiga erishilganligi iqtisodiyotdagi tarkibiy

o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari milliy mustaqil iqtisodiyotni mustahkamlash sari harakat natijalaridir.

O'zbekistonda bozor munosabatlarga asoslangan yangi, o'z xalqi, millati manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllanib bormoqda.

Milliy iqtisodiyot, barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makroiqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

Milliy xo'jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi.

E'TIBOR BERING!

Makroiqtisodiyot — bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarni bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir. Makroiqtisodiyot o'z ichiga xalq xo'jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish bo'limi tarkibini ko'rsatish sohalarni oladi.

O'zbekistonda 2001 yilda 4863,4 mlrd. so'mlik yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarildi. Uning 2009 yilga nisbatan real o'sishi 8,5 barobarni tashkil etdi. 2000 yilda bu o'sish 3,8 % tashkil etgan edi. YalMning o'sishi 2009 yilda 8,1 %ni, xizmat ko'rsatish sohasi o'sish sur'ati 12,9 %ni tashkil etdi. Nomoddiy sohasi o'sish sur'atlarining moddiy soha sur'atlaridan yuqoriligi savdo (o'sish sur'ati

8,5%) va pullik xizmat ko'rsatish (16,6%) sohalarining o'sish sur'atlari yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Makroiqtisodiyot me'yorida faoliyat qilish va barqaror o'sishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro bog'liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi.

E'TIBOR BERUNG!

Makroiqtisodiy tahlil – umumiy miqdorlarni o'rganishdir. Bular ishlab chiqarilgan umumiy hajmi, ular bilan bardak darajasi va h.k.

Makroiqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hajmi va ularning o'sishi bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali, mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o'sishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o'z iqtisodiy siyosatini belgilaydi.

Bu tizimga kiruvchi turli xil ko'rsatkichlar, birinchidan, bizga ma'lum vaqt oralig'ida ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi, YaMM harakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash, foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi.

Butun milliy iqtisodiyotning holatini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: yalpi milliy mahsulot (YaMM), milliy daromad (MD), aholi daromadlari, ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflatsiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

2 Yalpi milliy mahsulot, tarkibiy qismlari va harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot (YaMM) - milliy xo'jaliklarda bir yil ichida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga etib borishi mumkin bo'lgan tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymatidan iborat bo'ladi.

ESLATMA! YaMM milliy iqtisodiyotda yil davomida ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)larning bozor baholaridagi summasi.

YaMM hajmini hisoblaganda zahiralarining har qanday o'sishi hisobga olinishi zarur, Chunki YaMM yordamida joriy yildagi barcha mahsulotlar (sotilgan va sotilmagan) hisobga olinadi.

Ma'lumot uchun!

2001 yil ma'lumotlari:
YaMM (YaMM) - 4368,4 mlrd. so'm,
aholi daromadlari - 3614,1 mlrd.
so'm, aholi xarajatlari va jang'arishi
- 3507,7 mlrd. so'm, iqtisodiy aktiv
(tad) aholi soni - 9173,5 ming kishi,
mehnat resurslar soni - 12718 ming
kishi. Narxlar indeksi (ishlab
chiqarishda) - 142,2 %.

Milliy ishlab chiqarishning ya'ni hajmini to'g'ri hisoblab chiqish uchun mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YaMM hajmini topishda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yaratilgan, qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi.

Eslatma! YaMM yordamida milliy iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish yillik hajmini hisoblashga harakat qilinadi.

YaMM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi summasi bo'lganligi uchun tovarning o'zi, uning nafilligi ko'paymagan holda baholar oshishi evaziga uning hajmi oshib ketishi mumkin. Shuning uchun YaMMga baho berishda nominal va real mahsulot hisobga olinadi. Joriy baholarda hisoblangan milliy mahsulot nominal milliy mahsulot, o'zgarmas baholarda hisoblangan milliy mahsulot esa real milliy mahsulot deb yuritiladi. Har xil yillarda ishlab chiqarilgan YaMM qiymatini faqat narx o'zgarmagan taqdirda o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Narx darajasi bizga

iqtisodiyotda inflyatsiya (narx darajasining o'sishi) yoki deflyatsiya (narx darajasining kamayishi) o'rin to'ganligi va uning miqyosini bilish imkonini beradi.

E'TIBOR BERING!

Qo'shilgan qiymat – bu korxona ishlab chiqargan mahsulot qiymatidan etkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xom ashe va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

DIQQAT QILING!

Narx darajasi indeks shaklida ifodalanadi. Narx indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlar summasini, xuddi shunday tovarlar va xizmatlarning miqdorining bazis davrdagi narxlar summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi.

Narxlar indeksi formula shaklida:

$$\text{Narx indeksi} = \frac{\text{Joriy yildagi istemolchilik tovarlari narxi}}{\text{Bazis yildagi istemolchilik tovarlari narxi}} \times 100 \%$$

Ma'lumot uchun! Narxlar indeksi turi: iste'mol tovarlari narxi indeksi; ulgurji savdo narxi indeksi, eksport tovarlari narxi indeksi va h.k.

Amaliyotda qator har xil tovar va xizmatlar to'plami yoki iste'mol savatining narx indeksi hisoblanadi. Iste'molchilik tovarlari savati narxlar indeksi keng qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Uning yordamida tipik shahar aholisi sotib oladigan, iste'molchilik tovar va xizmatlarning 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor savatining qayd qilingan narxlar hisoblanadi.

MUAMMOLI VAZIYAT!

Ma'lum yil uchun YaMM (IMM) narx indeksini qanday qilib hisoblash mumkinligini ko'rsatish

YaMM narx indeksi, nominal YaMMni real YaMMga aylantirib hisoblash imkoniyatini beradi. Nominal YaMM shu mahsulot

ishlab chiqarilgan davrda amal qilib turgan baholarda ifodalangan ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

Misol keltiramiz: 2001 yil Respublikamiz xalq xo'jaligida 4868,4 mlrd.so'mlik YaIM ishlab chiqarilgan. 2009 yil YaIM 41,8 trln. so'mni tashkil qilgan. Berilgan raqamlarni formulaga qo'yamiz:

$\text{Narx indeksi} = (4868,46 - 41800) \times 100\% = 850\%$ yaqin

Joriy yildagi nominal YaMMni real YaMMga aylantirishning ancha oddiy usuli nominal YaMMni narx indeksiga bo'lishdir, ya'ni:

real YaMM=nominal YaMM/NI:

2001 yilda Real YaMM=4868,4:1,57=3100,89. 2001 yilda Respublikamizda real YaMM(IMM) 3100,9 mlrd.so'mga teng bo'lgan.

YaMM bilan birga, uning tarkibiy qismlari sifatida bir qator o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar mavjud, ular milliy iqtisodiyotning turli tomonlarini tavsiflab beradi.

YaMM ko'rsatkichiga sof eksport (eksport va import o'rtasidagi farq) kiradi. Ammo turli mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatining salmog'i keskin farqlanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun ichki milliy mahsulot (YaIM) ko'rsatkichidan foydalaniladi.

YaMM va YaIM ishlab chiqarish yalpi hajmining ko'rsatkichi sifatida

ETIBOR BERING!

YaIM mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidir. U barcha ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida chiqadi.

muhim kamchilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan, asosiy kapitalning o'rini qoplash uchun zarur bo'lgan qiymatni ham o'z ichiga oladi.

YaMMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa, sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkichi kelib chiqadi.

ESLATMA!

SMM amortizatsiya ajratilgan summasiga kamaytirilgan YaMM sifatida chiqadi.

YaMM - amortizatsiya yillik summasi = SMM.

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi.

Bu soliqlar og'irligi iste'molchi zimmasiga tushadi va uning daromadini kamaytiradi. Shuning uchun SMMdan egri soliqlar chiqarib tashlansa, milliy daromad (MD) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

MD = SMM - biznesga egri soliq.

Amaliyotda ishlab chiqarilgan MD va foydalanilgan MD farqlanadi. Ishlab chiqarilgan MD bu yangidan yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining hajmi. Foydalanilgan MD - bu ishlab chiqarilgan MDdan yo'qotishlar (tabiiy ofatlar, saqlashdagi yo'qotishlar va h.k.) va tashqi savdo qoldig'i chiqarib tashlangan miqdorga teng.

Bizning amaliyotda MD iste'mol va jamg'arish fondiga ajratiladi. Iste'mol fondi - bu milliy daromadning jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini hamda butun jamiyat ehtiyojlarini (Ta'lim, mudofaa) qondirishni ta'minlashga ketadigan qismi. Jamg'arish fondi - bu MDning ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'minlaydigan qismi.

Shaxsiy daromad ko'rsatkichini topish uchun milliy daromaddan ijtimoiy sug'urta ajratmalari, korxona foydasiga soliqlar, korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi chiqarib tashlashimiz hamda ijtimoiy to'lovlarni unga qo'shishimiz zarur.

Shaxsiy daromaddan soliqlar to'langandan keyin uy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi. Soliqlar to'langandan keyingi daromad uy xo'jaliklari eng oxirida ega bo'ladigan daromad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o'z tasarrufida bu daromadlarning bir qismini iste'mol uchun sarflaydi va boshqa qismini jamg'armaga yo'naltiradi.

3. Yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari. Milliy mahsulotni hisoblashda milliy hisob tizimidan foydalaniladi. Milliy hisoblar asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yoridagi - muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Birinchi usul - bu YaMMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondoshuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymatlar qo'shib chiqiladi.

E'TIBOR DIERING!

Milliy hisoblar - bu YaMM va milliy daromad hisoblab chiqarish, taqsimlash hamda alingan foydalarini taqsimlaydigan o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi dir.

MUAMMOLIVAZIYATI

YaMM (IMT) hisoblash usullarini ko'rsatib berish va tahlil etish.

O'zbekiston milliy iqtisodiyoti tarmoqlari bo'yicha YaIM ulushining o'zgarishi (joriy baholarda YaIMga nisbatan % hisobida).

Jadval №1

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1998	2001	2004	2007	2009
Jami iqtisodiyot tarmoqlari shu jumladan:	100	100	100	100	100
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati shundan:					
Sanoat	14,9	14,1	17,5	21,0	23,1
Qishloq xo'jaligi	26,8	30,0	26,4	23,2	18,0
Qurilish	7,5	5,3	4,8	5,9	6,0
Transport va aloqa	6,8	7,5	10,2	11,3	11,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	10,0	11,7	9,6	9,4	9,2

Tayyorlov	0,3	0,3	0,2	0,1	0,1
Ko'chmas mulk operatsiyalari va tijorat faoliyati	0,4	0,6	0,5	0,6	0,6
Boshqa hil faoliyatlar	19,9	10,0	16,7	18,7	20,7

1. O'zbekiston Respublikasi yillik statto'plami, T. 2008. 33-34 betlar.

Ikkinchi usul - bu YaMM (YalM)ni sarf-xarajatlar bo'yicha hisoblash usuli.

Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo'shib chiqiladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mamlakat ichida xo'jalikning uchta sub'yekti - uy xo'jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda tashqaridan chet ellik iste'molchilar sotib olishi mumkin.

Uy xo'jaliklarining iste'molchilik sarflari - bu kundalik tovarlarga, xizmatlarga, uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir. Davlat, tadbirkorlar va chet elliklar investitsiya sarflaydi.

Investitsion sarflar asosan uchta qismdan iborat: a) tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna va stanoklarning barcha xaridi; b) barcha qurilishlar; v) zahiralarning o'zgarishi.

Birinci va ikkinchi guruh unsurlarining «investitsion sarflar» tarkibiga kiritilishi sababi aniq.

YalM tarkibiga zahiralarning ko'payishi, ya'ni ishlab chiqarilgan, lekin mazkur yilda sotilmagan barcha mahsulotlar kiritiladi.

Zahiralar kamayganda, u YalM hajmidan chiqarilishi zarur. Zahiralarning kamayishi yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgandan ko'proq mahsulot sotilganligini bildiradi.

YalMni sarflar bo'yicha hisoblashda yalpi, xususiy va ichki investitsiyalar tushunchasidan foydalaniladi. Xususiy va ichki investitsiyalar mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi. Yalpi investitsiyalar o'z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o'rni qoplash uchun mo'ljallangan barcha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni hamda iqtisodiyotda kapital qo'yimlar hajmiga har qanday sof qo'shimchalarni oladi. Yalpi investitsiyalar mohiyatiga ko'ra iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplash so'masini va investitsiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan sof xususiy ichki investitsiyalar tushunchasi joriy yil davomida qo'shilgan investitsion tovarlar summasini xarakterlash uchun ishlatiladi. Ularning farqini oddiy misolda tushuntirish mumkin.

MA'LUMOT UCHUN!

2007 yilda uy
xo'jaliklarining
iste'molchilik sarflari
(tovar va xizmatlarga)
476,6 ming so'mni
tashkil etdi; bir
kishiga ega 159,6
ming so'm, bu
ko'rsatkichlar 2000
yilga nisbatan 29,9%
va 181,9% tashkil
etdi.

DIQQAT BILAN TINGLANG!

Misol uchun, respublikamiz iqtisodiyotida 2009 yil 900 mlrd. so'mlik investitsion tovarlar (ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarilgan bo'lsin. Lekin YalMni ishlab chiqarish jarayonida shu yili 600 mlrd so'mlik mashina, uskuna va boshqa investitsion tovarlar iste'mol qilingan. Natijada iqtisodiyotimizda 400 mlrd. so'mlik jam'arilgan kapital qiymati qo'shiladi. Shu yili yalpi investitsiyalar 700 mlrd. so'mni, sof investitsiyalar faqat 200 mlrd. so'mni tashkil qiladi.

Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya (shu yili ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital hajmi) o'rtasidagi nisbat, iqtisodiyot yuksalish, turg'unlik yoki tanazzul holatida ekanligini tavsiflab beruvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq bo'lsa, iqtisodiyot yuksalish bosqichida bo'ladi, uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi (yuqoridagi misol).

Turg'un iqtisodiyot yalpi investitsiyalar va amortizatsiya teng bo'lgan vaziyatni aks ettiradi. Boshqacha aytganda, sof investitsiyalar taxminan nolga teng bo'ladi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaymaydi.

Yalpi investitsiyalar amortizatsiyaga qaraganda kam bo'lsa, ya'ni iqtisodiyotda ishlab chiqarilganga qaraganda kapital ko'proq iste'mol qilingan iqtisodiyotda investitsiyalarning qisqarishi ro'y beradi.

Davlat sarflari-bu mahsulotlarni va xizmatlarni sotib olishga davlatning qilgan barcha sarflarini o'z ichiga oladi.

CHet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari xuddi mamlakat ichidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Shu sababli YalMni sarflar bo'yicha hisoblashlari tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni eksport qiymati ham qo'shiladi. Boshqa tomondan, iste'molchilik va investitsion sarflar hamda davlat mablag'larining bir qismi import qilingan. Milliy ishlab chiqarish umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YalMdan chiqariladi. Buning uchun eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bu farq sof eksport deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. YalMni hisoblashda yuqoridagi barcha xarajatlarga sof eksport hajmi qo'shiladi.

2001 yil O'zbekistonda sarflar (foydalanishi) bo'yicha YalM 4868,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, u tarkiban quyidagicha bo'lgan: Pirovard iste'molga sarflar - 3899,6 mlrd. so'm (80,1%); yalpi jam'arish - 968,8 mlrd. so'm (19,9%).

2007 yilda sarflar 1997 yilga nisbatan 130,7%ga ko'paygan. YalM shu davrda 29,0 barobarga o'tib, 28 trln. 190,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Uchinchi usul - bu YalMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Mazkur yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo'jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Bu usulda YaMM (YalM) pirovard mahsulot hisobidan olingan ana shu barcha daromadlarni qo'shib chiqish orqali aniqlanadi.

YaMMni daromadlar bo'yicha hisoblashda uy xo'jaliklari, korxona va davlat muassasalarining dastlabki, ya'ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi) ajratish mumkin.

YaMM (YaIM)ni bu usul bo'yicha hisoblashda, daromadlarning barcha summasiga iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar summasi ham qo'shiladi. Agar YaMMni hisoblashning oxirgi ikki usulini oddiy tenglama shaklida tasvirlasak:

Mazkur yilda ishlab chiqarilgan YaMMni sotib olishga sarflar hajmi = Mazkur yilda ishlab chiqarilgan YaMMdan olingan pul daromadlari summasi.

YaMM (YaIM)ni hisoblashga sarflar va daromadlar bo'yicha yondoshuv

Jadval №2

Milliy mahsulot hajmini sarflar summasi bo'yicha hisoblash	Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi bo'yicha hisoblash
1. Uy xo'jaliklarining iste'molchilik sarflar	1. Daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarf va to'lovlar
+	a) amortizatsiya; b) egri soliqlar
+	+
1. Tadbirkorlarning investitsion sarflari	2. Ish haqi
+	+
3. Tovar va xizmatlarni davlat xarid qilish	3. Renta to'lovlari
+	+
4. CHet elliklar sarfi	4. Foiz
+	+
5. Notijorat muassasalari sarfi	5. Foyda
+	
6. Moddiy aylanma vositalar zahirasiidagi o'zgarishlar	
YaMM (YaIM)	YaMM (YaIM)

Asosiy kapitalning ko'pchilik turlarining foydali xizmat muddati uzoq davrni tashkil qiladi. Investitsion tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar va ularning umumli xizmat muddati amalda bir davrga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli korxonalar investitsion tovarlarning foydali xizmat muddatini hisoblaydi va ularning umumiy qiymatini butun xizmat muddatiga teng taqsimlaydi. Asosiy kapitalning yil davomida ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan va yaratilayotgan mahsulotga ko'chgan qiymati amortizatsiya ajratmasi deyiladi. Amortizatsiya ajratmasi asosiy kapital turlari bo'yicha har yili ajratib boriladi. Masalan, to'quv dastgohining qiymati 5 mln. so'm, xizmat muddati yilga teng. Yillik amortizatsiya ajratmasi 0,5 mln. so'mni (5:10) tashkil qiladi.

Amortizatsiya ajratmasi shu yil ishlab chiqarilgan mahsulot (YaMM) qiymati tarkibiga ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kirib, mahsulot sotilishi natijasida pul shaklida qaytib keladi va

MA'LUMOT
UCHUN!

2001 yilda nominal
o'rtacha bir oylik ish
haqi 16641,7 so'mni
tashkil etgan

10

amortizatsiya fondi hisobida to'planib boradi. Bu fond mablag'laridan iste'mol qilingan asosiy kapitalni qayta tiklash, ya'ni yangi investitsion tovarlar sotib olish va amal qilib turganlarini kapital sozlash va ta'mirlash uchun foydalaniladi. U ishlab chiqarishni kengaytirish va kredit resurslarining manbai ham hisblanadi.

Daromad to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarning boshqa turi egri soliqlar korxonalar uchun ishlab chiqarish xarajatlari sifatida chiqadi va shu sababli mahsulot narxiga qo'shiladi. Bunday soliqlar o'z ichiga aksiz to'lovlari, sotishdan olinadigan soliqlar, mulk solig'i, litsenziya va bojxona to'lovlari oladi.

Daromadlarning eng muhim turi ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlarga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimchalar, ijtimoiy sug'urta to'lovlari va nafaqa ta'minotining har xil xususiy fondlari, ishsizlik nafaqalari va boshqa har xil mukofot hamda intiyozlarni o'z ichiga oladi. Ish haqiga bu qo'shimchalar ish kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning bir qismi sifatida chiqadi va shu sababli korxonaning ish haqi to'lashga umumiy sarflarining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Renta to'lovlari - iqtisodiyotni resurslar (kapital, yer) bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining oladigan daromadi hisoblanib, korxona xarajatlari tarkibiga kiradi.

Foiz - pul kapitali egalari pul daromadi to'lovlaridan iborat. Bunga davlat tomonidan amalga oshiriladigan foizli to'lovlar, foizni daromadlar tarkibidan chiqariladi.

Mulkdan olinadigan daromadlar ikki turga bo'linadi: bir qismi mulkga daromad va boshqa qismi esa korporatsiyalar foydasi deyiladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Milliy iqtisodiyot deganda nima tushunasiz?
2. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
3. YaMM va YaIM bir-biridan nima bilan farqlanadi?
4. YaMM qanday usullar bilan hisoblanadi?
5. Nominal va real YaMM tushunchalarini izohlang.
6. Amortizatsiya ajratmasi nima?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqbol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 avgust. «Xalq so'zi» gazetasi.

5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralar. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 betlar.
8. O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: T. 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. Tashkent. 1999g. Gl-1.

14-Mavzu. Milliy iqtisodiyot. Uning o'sishi va milliy boylik.

Reja:

1. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish. Milliy iqtisodiyot faoliyatining asosi sifatida.
2. Milliy hisobot tizimi va uning asosiy ko'rsatkichlari, o'zaro bog'liqligi.
3. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik ulardan foydalanish muammolari.

TAYANCH IBORALAR:

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jami ijtimoiy mahsulot, pirovard mahsulot, sof milliy mahsulot (SMM), yalpi milliy mahsulot (YaMM), yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad, taqsimlangan daromad, milliy boylik, samaradorlik, sof, eskport, qo'shilgan qiymat, ishlab chiqarish to'liqligi, qisqa o'rta va uzoq muddatli.

1. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish. Milliy iqtisodiyot faoliyatining asosi sifatida.

Har qanday jamiyatning yashashi uchun ishlab chiqarish uzluksiz yo'z berishi shart. Unda uzilish yo'z bersa, kishilarning hayotiy ehtiyojlari qondirila olinmaydi. Ishlab chiqarish jarayoni bir vaqtda yo'z bermasdan u doimo takrorlanib, yangilanib, qaytarilib turishi **takror ishlab chiqarish** deyiladi.

MUAMMO:

Bozor iqtisodiyosidagi raqobatli sharoitda makroiqtisodiy o'lchamlarni (onehnat umumdorligi, tannah, ruxsatis melinat, sifati mahsulot) rivojlantirish muammolari.

Kengaytirilgan takror ishlab

chiqarishda miqyosi kengayadi, yalpi milliy mahsulot hajmi ortadi, shu tahlitda ishlab chiqarish jarayoni yangilanib boradi. Qisqargan **takror ishlab chiqarish** ham bo'lishi mumkin. Bunda ishlab chiqarishning yangilanish yalpi milliy mahsulot hajmi qisqargan holda yo'z beradi. Bu iqtisodiyot uchun kutilmagan, tasodifiy va istisno tarzida yo'z beradigan hodisa. U inqirozlar odatda urushlar, katta tabiiy ofatlar yo'z berganda bo'lishi mumkin.

Rivojlangan iqtisodiyot uchun kengaytirilgan takror ishlab chiqarish xosdir. Farovon yashash uchun yalpi milliy mahsulot samarali ishlatilishi ham shart. Yalpi milliy mahsulot, birinchidan jamiyat a'zolarining shaxsiy ehtiyojini qondirishda asos bo'ladi, ikkinchidan ishlab chiqarish ehtiyojlarini uzluksiz qondirishi lozim. Iqtisodiyotda makrodarajada xususiy sektor, davlat sektori, uy-ro'zg'or xo'jaligi va

boshqalar ajralib turadi,

MUAMMOLI VAZIYAT:

Har xil makroiqtisodiyot darajasida YAMM ishlab chiqarishini uni ko'paytirishni usul va vositalarini izlab topish muammolari.

ya'ni turli xil majmualarda takror ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, muayyan belgilarga ega bo'lgan iqtisodiy birliklarning birlashmalari ushbu turkumga xos bo'lgan faoliyat ko'rsatishi va rivojlanish qonun-yatlari bilan birgalikda iqtisodiyotning umumiy tuzilishi bitta turkum sifatida qaraladi. Bu makroiqtisodiy

ko'rsatkichlarning tavsifini kengaygan takror ishlab chiqarish to'xtovsiz jarayondir. Unda ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi kengaygan holda ishtirok etadi.

Makroiqtisodiy tahlil doirasida ishlab chiqarishning umumiy darajasi singari miqdorlar tadqiq qilinadi. Binobarin, makroiqtisodiy tahlil - umumiy miqdorlarni, iqtisodiy ko'rsatkichlarni chuqur o'rganish demakdir.

Shuni ta'kidlash joizki, makroiqtisodiyot xo'jalik yuritish tamoyillari va iqtisodiyot nazariyasining bir-biriga bog'langan sohalaridir. Zyero, u yoki bu mamlakatning iqtisodiyotini, u qanchalik keng miqyosda bo'lmasin, pirovardida ayrim kishilar, oilalar, korxonalar mehnati tashkil etadi.

DIQQAT QILING!

Takror ishlab chiqarishning ikki asosiy turi bo'ladi: oddiy va kengaytirilgan. Takror ishlab chiqarish.

YODDA TUTING!

Ashini olganda tutunish sharoiti, umumiy jamiyatning ham, ayrim oilangar har bir kashining ham qanday faoliyati va faovonligi makroiqtisodiy tahlilning predmeti hisoblanadi. Bular shunchak pul qadriyatlarini, sotilgan davlat xarajatlari, turmush kechirish darajasi, tashqi savdo, vaziyatlar kuni, ya'ni kashlar amalda har kuni to'qashib keladigan iqtisodiy voqea va hodisalaridir.

2. Milliy hisobot tizimi va uning asosiy ko'rsatkichlari, o'zaro bog'liqligi.

Har bir jamiyat o'z oldiga iqtisodiyot sohasida iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlariga, yil davomida ishlab chiqarishining muayyan hajmga erishish, ishsizlikni kamaytirish, narxlar darajasini, savdo balansini barqarorlashtirish singari maqsadlarni qo'yadi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun iqtisodiyotga tegishli ta'sir ko'rsatish kerak, unda yo'z berayotgan jarayonlarni bilmadan turib, bunga erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiy faoliyatning xilma-xil sifat va miqdor tavsiflari iqtisodiy ko'rsatkichlar shaklida ifodalanadi. Ular ichida eng to'lig'i, yalpi ichki mahsulot faqat mamlakat ichida bir yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yig'indisidir. Ularni pulda ifodalagan qiymatidir. Ulardan tashqari milliy daromad, sof daromad kabilar mavjud. Unga qarab jamiyatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning jami qiymati haqida fikr yuritish mumkin.

Iqtisodiy o'sish jarayonlarini belgilash uchun ishlab chiqarishning potensial hajmi ko'rsatkichidan foydalaniladi, uning muayyan bo'lgan ko'p miqdori

YODDA TUTING!

Keng qamrovli ko'rsatkich - yalpi milliy mahsulot ya'ni bir yilda mamlakat ichida va tashqarida ishlab chiqilgan jami yalpi mahsulotlar miqdoridir.

shunday ko'rsatkichi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning potentsial hajmiga erishishda ish bilan bandlik ko'payadi va narxlar oshadi. Ishsizlik yuqori darajada bo'lganida narxlar yo oshmaydi yoki bunday sur'at past bo'ladi.

Narxlar darajasining o'zgarishi ham makroiqtisodiy tahlil uchun katta ahamiyatga ega. Birinchidan, iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish uchun narxlar darajasi vaqtning muayyan davri mobaynida qay tarzda o'zgarishining, uning oshayotgan yoki pasayayotganligini va qanday miqyoslarda borayotganini bilish zarur. Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida jamiyatda barcha ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymat ifodasini oladi va statistika tomonidan ayni shu ko'rinishda qayd etiladi; pul ko'rsatkichlarini ko'proq ishlab chiqarishning umumiy hajmi, turli xil komponentlarini yagona o'zacka keltirishda foydalaniladi.

Iqtisodiyotda foyda va yalpi daromadning miqdorini aniq hisoblash uchun tadbirkorlik sho'basining yalpi daromadlarida amortizatsiya chegirmalarini hisobga olish zarur. Aslini olganda, ular kapitalning iste'moli uchun chegirmalaridir, ya'ni ular ushbu yil yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan investitsion tovarni xarid qilishga ketadi.

Tadbirkorlarni daromad qilish va resurslarni yetkazuvchilar bilan hisob-kitob qilish ishlatib bo'lmazligi ana shu turdagi xarajatlarning ahamiyati katta ekanligini belgilangan. Bu xarajatlarning bir qismi ayni mahsulot qiymatining bir qismi ishlab chiqarishning foydani kamaytiradigan chiqimlaridir.

Iste'mol qilingan kapitalni to'ldirish uchun soliqlar, daromadni to'lash bilan bog'lanmagan, yalpi milliy mahsulotni taqsimlash turlarini tashkil etadi. Qolgan summa ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foydani tashkil etadi.

Daromadlar bo'yicha hisoblanganda yalpi milliy mahsulot tarkibiga qanday qiymatlar kirishini qarab chiqaylik

chegirmalar va egr

DIQQAT QILING!

Ish haqi - miqdoriy jihatdan olingan eng salmoqli daromad turidir; Renta to'lovlari - o'z mulkidan daromad olish uchun foydalanadigan qo'shimcha mulk sohiblarning daromadlari.

Foiz - pul kapitali sohiblari oladigan daromadlarni birlashtiradi. Bu kategoriyalar kelgusi mavzularda keng izohlab berilgan.

Ehtiyojlarning yuksalish qonuniga binoan, jamiyat a'zolarining sotsial-iqtisodiy ehtiyojlari uzluksiz yuksalib boradi. Mazkur ehtiyojlar esa o'z navbatida kishilarning mehnat qilishi va iqtisodiy mavqega ega bo'lishi uchun iste'mol etilishi zarur bo'lgan tovar va xizmatlar majmuidan iborat. Yuksalib borayotgan ehtiyojlarning qondirishning yagona vositasi esa iqtisodiy o'sish hisoblanadi. Har bir davlat o'sib borayotgan ehtiyojlarni hisobga olib, aholi farovonligini oshirishga, ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor beradi.

LUG'ATDAN FOYDALANING!

ish haqi, renta, foiz, sof foyda

3. Iqtisodiy o'sish va milliy boylik, ulardan foydalanish muammolari. Iqtisodiy o'sish deb aholi ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqarishning, uzluksiz o'sishga aytiladi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan maqsad;



Iqtisodiy o'sishning ikki turi mavjud:

- 1) ekstensiv (kengaytirilgan),
- 2) intensiv (kuchayish, tezlashtirish)

Ekstensiv rivojlanishida iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy darajasi asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorini o'sish hisobiga mahsulot hajmi oshadi.

Iqtisodiy o'sishning bu turi ishlab chiqarish samaradorligiga olib kelmaydi, lekin mahsulot hajmi ko'payishiga olib keladi. Bu yo'l ishlab chiqarish natijalarining xarajatlari nisbati bilan aniqlanadi.

Makroiqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligi yalpi milliy mahsulot - pirovard natija bilan o'lchansa, mikroiktisodiyot miqyosida esa yaratilgan sof mahsulotning yoki fondning mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi. Amaliyotda esa u ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatilishida o'z ifodasini topadi.

Garchi iqtisodiy o'sish samaradorligining intensiv usullari zaminida amalga oshirilganda barqarorlik doimiy tus ololmaydi. Chunki iqtisodiy o'sishda uzilishlar ham, har xil holatga o'tishlar ham bo'lib turadi. Bunday holat iqtisodiy o'sishning goh tez-tez suratda o'sishi, goh inqiroz va baholar darajasining ko'tarilib borishi, ya'ni beqarorlik va barqarorlik holatlarining yo'z berib turishi iqtisodiy o'sishning sikli deb ataladi. Sikl iqtisodning tadrijiy ko'tarilish va pasayish hodisalarini o'z ichiga oladigan, iqtisodning tebranib turishi bilan tavsiflanadigan tebranma davrdir.

Iqtisodiy siklning almashinib turishi tashqi va ichki omillar bilan bog'liq. Tashqi omillar iqtisodiy tuzumdan tashqarida unga bog'liq bo'lmagan holda yo'z beradigan xalqaro hodisalaridir. Masalan, tashqi omillarga, jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi urushlar, ilmiy kashfiyotlar kirsa, iste'mol, investitsiya va hukumatning ishlab chiqarish faoliyati ichki omilni tashkil etadi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy o'sishni barqaror ta'minlaydigan omillar mavjud. Shunday mamlakatlardan biri O'zbekiston hisoblanadi. Mamlakatimiz tabiiy minyerall resurslarga va mehnat resurslariga boydir. O'zbekiston jahonning 230 mamlakati o'rtasida oltin va uran zahirasi bo'yicha to'rtinchi o'rinda ishlab

chiqarishi bo'yicha ettinchi va sakkizinchi o'rinda, mis va gaz ishlab chiqarishda o'ninchi o'rinda turadi. Jahonda paxta yetishtirishda beshinchi o'rinni egallaydi. Mehnat resurslari va ishchi kuchi salohiyati yuqoridir.

Demak, milliy boylikka yana ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan qadimgi arxitektura va noyob tarixiy binolar, ma'naviy myeroslar (asarlar, nasihatnomalar va boshqalar) hamda mavjud ko'rilgan korxonalarning binolari, asbob-uskunalari, temir va avto yo'llar, ko'priklar, mustaqillik yillarida bunyod etilgan qurilishlar, saroylar, bahaybat binolar, moliya-bank binolari, yirik va suv inshootlari, aholi uy-joylari, yirik suv inshootlari, aholining jamg'armalari va xokazolar kiradi. Yana har yili yaratiladigan yalpi milliy mahsulot, yer osti va usti boyliklar, o'rmonlar, suvlar, xayvonot va o'simlik dunyosi tashkil etadi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish, oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ekstensiv va intensiv takror ishlab chiqarish, jami ijtimoiy mahsulot, pirovard mahsulot, sof mahsulot, yalpi milliy mahsulot (YaMM), yalpi ichki mahsulot (YalM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad, shaxsiy daromad, taqsimlangan daromad, milliy boylik, samaradorlik, iste'mol, investitsiya, (mablag'lar sarfi). Tovarlar va xizmatlarning, davlat tomonidan sotib olinishi, sof eksport qo'shilgan qiymat solig'i, yalpi milliy mahsulotning kamayishi, yalpi milliy mahsulotning nominal va realligi, iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning to'liqliligi kabilar iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Takrorlash uchun muammoli savollar.

1. Takror ishlab chiqarish to'liqlinli, inqirozli, turg'un bo'lishi mumkin-mi, nima uchun?
2. YaMM va YalMning ko'paytirishga qanday omillar ta'sir etadi?
3. O'zbekistonda sof daromadni va sof eksportni ko'paytirish nimalarga bog'liq?
4. Kengaygan takror ishlab chiqarishni rivojlantirishga investitsiyalarning hajmi va ta'siri bormi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqbol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratizatsiya qilish, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2007 yil 30 avgust. «Xalq so'zi» gazetasi.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.

7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 b.
8. O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kiril va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. Tashkent. 1999g. GI-1.

15-mavzu. Milliy iqtisodiyotning muvozanatligi va nisbatlari.

Reja:

1. *Iqtisodiy muvozanatlik, uni ta'minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari*
2. *Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari*
3. *O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdagi vazifalar*

Muvozanatli tahlil iqtisodiyot nazariyasining muhim tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Bu usuldan yaxlit xalq xo'jaligi ko'rsatkichlari: milliy daromad, investitsiyalar, jamg'arma, bandliklik kabilar tahlil qilinadi.

Milliy iqtisodiyotdagi jamiyatning daromadlar va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatlik asosiy o'rin tutadi, bu yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlikning o'ziga xosligini namoyon etadi.

Demak, bu mavzuda iqtisodiy muvozanatlik tushunchasini va ishlab chiqarish muvozanatlik darajasini aniqlashda turlicha yondashuvlar qarab chiqiladi. Takror ishlab chiqarish mutanosibliklari tizimi, uning darajasi va tarmoqlararo balansi (tengligi) bayon qilinadi. Tahlil oxirida makroiqtisodiy muvozanatlikka erishishning bozor mexanizmi izohlanadi.

1. Iqtisodiy muvozanatlik, uni ta'minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari. Iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun, uning tomonlari, tarmoqlari va sohalari o'rtasida ma'lum muvozanat bo'lishni taqozo etadi.

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatlikning shakllanish jarayoni va uning ta'minlash ancha murakkab va ziddiyatli. Chunki u o'z ichiga xususiy va umumiy tavsifiagi bir qator muvozanatlar tizimini oladi.

A) xususiy muvozanatlik - bu 2ta o'zaro

Karimov I. «Ichki bozorda talab va taklif o'rtasida mutanosiblikka erishish; ya'ni pul miqdori bilan unga sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasida to'g'ri nisbatni ta'minlash» g'oyat katta rol o'ynaydi. «O'zbekiston kelajak tashvishi» 384-b.

Iqtisodiy muvozanat deb, iqtisodiy jarayonlar, xodimalar ni ikki yoki bir nechta tomonlarning bir-biriga teng kelgan holatiga aytiladi. Masalan, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik.

bo'g'liq bo'lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdori teng kelishi:

U: 1) ishlab chiqarish va iste'mol;
2) aholining sotib olish qaymoqi va tovarlar taklifi;

3) budjet daromadi va xarajatlar,

4) alohida tovarlarga talab va taklif o'rtasida

muvozanat bo'lishi.

B) umumiy iqtisodiy muvozanatlik-jamiat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o'zaro teng kelishini bildiradi. Bu yalpi talab va yalpi taklif o'rtasida bozor sharoitida ko'rinadi, ya'ni iste'molchilik ne'matlari, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchiga va iqtisodiy faoliyati natijalariga umumiy talab va taklif.

Umumiy iqtisodiy muvozanatlik bir qator shart-sharoitlarni taqozo etadi.

- 1) Ijtimoiy maqsad va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishi.
- 2) Mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalaniladigan xo'jalik mexanizmini taqozo etadi.
- 3) Ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi lozimligini bildiradi.
- 4) Iqtisodiyotda muvozanatlikning umumiy shart-sharoitlari bo'lib, bozor muvozanati, ya'ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi kabilarda) talab va taklif muvozanatiga erishishda xizmat qiladi.

Iqtisodiy muvozanatlik erkin raqobat bozorida barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqozo etadi.

Real hayotda iqtisodiyot doimiy harakatda va to'xtovsiz rivojlanish holatida bo'lar ekan, muvozanatlar ham o'zgarishda, buzilishda bo'ladi.

Shunday qilib, makroiqtisodiyot darajasida umumiy iqtisodiy muvozanatlik - bu mamlakat butun iqtisodiyotining mutanosibligidir.

Multiplikator-bir-
ketin o'zgarishlar
o'rtal. natijaga
erishish

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda asosan 2ta o'zaro bog'liq usuldan foydalaniladi:

A) yalpi sarf va yalpi ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli;

B) jamg'arma va investitsiyani taqqoslash usuli.

Yalpi sarf - bu ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini sotib olish uchun yetarli umumiy sarflarni ta'minlaydi yoki sof milliy mahsulot muvozanatli darajada ishlab chiqilgan tovarlarning umumiy miqdori xarid qilingan tovarlar umumiy miqdoriga teng bo'ladi. Bu - retsession (xarajatning kamligi) va inflyatsion (SMM sarfini ortiqligini) bildiradi.

Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli bu jamg'armaga qo'yilgan mablag' investitsiyalar bilan to'liq qoplanga, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi.

Investitsiya sarfining ko'payishi - ishlab chiqarish va daromad hajmini ortishga olib keladi. Uni mulg'tiplikator samarasi deyiladi. Mulg'tiplikator samarasi 2ta holatga asoslanadi: A) iqtisodiyot bir sub'yekti tomonidan qilingan sarf, boshqasi tomonidan daromad shaklida olinadi. B) daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'arishda huddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Muvozanatni aniqlashda balans usulidan foydalaniladi. Bu tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalaniladi, hamda xarajat va natijalarni taqqoslashda foydalaniladi.

2. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. Iqtisodiy mutanosiblik - iqtisodiyotning turli tomonlari va sohaları o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir. Bunda tenglik bo'lish shart emas.

Bu - 2:3, 5:3, 3:1 nisbatda bo'ladi.
Mutanosiblik ko'p qirrali va murakkab jarayon, uning turlari va xilma-xilligi bor.

- A) Umumiqtsodiy xususiyatdagi mutanosiblik:
 - 1) Milliy daromaddagi tarkibiy qismlar o'rtasidagi;
 - 2) Iste'mol va jam'arish fondi o'rtasidagi;
 - 3) Tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasida;
 - 4) Aholi daromadi va xarajati o'rtasidagi mutanosiblik
- B) Tarmoqlararo mutanosiblik.
- V) Tarmoq ichidagi mutanosiblik.
- G) Hududiy (territorial) mutanosiblik.
- D) Davlatlararo mutanosiblik.

3. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishdagi vazifalar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni butunlay yangi tartiblar asosida isloh qilish, uni rivojida nomutanosibliklar bo'lishi va tanglik (inqirozni) kelib chiqishini muqarrar qilib qo'yadi.

Shuning uchun barqarorlashtirish, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida uni jonlashtirish va bir tekis rivojlantirish yo'lida qonuniy bosqichdir.

Bu qonuniy yo'llar quyidagilardan iborat:

- A) iqtisodiy rivojlantirishni inqirozga uchrashini oldini oladi,
- B) ishlab chiqarish va chiqarilayotgan mahsulot tarkibini o'zgartiradi, diversifikatsiyalashtiradi.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida eng avvalo, barqarorlashtirish siyosati ishlab chiqildi. Uning maqsadi:

1. Makroiqtisodiyotda muvozanatlikni saqlash.
2. Ishlab chiqarishni keskin pasayishini to'xtatish.
3. Ommaviy ishsizlikning kamayishini oldini olish.
4. Pul emissiyasini boshqarib turadi va qadrsizlanishini oldini olish.
5. Mamlakatda to'lov balansini bir me'yorda saqlash.

Bu barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinovdan o'tgan yondashuvlar hisobga olingan.

Bu yondashuvda moddiy ishlab chiqarish sohaslarini tarkibini qayta qurish tamoyili asosida istiqbolda eng ustuvor tarmoqlarga etakchi yo'nalish berildi.

Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirguncha O'zbekiston iqtisodiyoti xom ashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilgan edi. 90-yilarning birinchi yarmida iqtisodiyot pasayib kelgan bo'lsa, II yarmidan pasayish to'xtab o'ziga erishildi.

- 1) Sanoatda yangi texnologiya va texnikalar qo'llanib, yangilar qurildi, eskilari jihozlandi, qayta ta'mirlandi.
- 2) Qishloq xo'jaligida eski kolxozlar va sovxozlar o'rnida shirkatlar, fermerlar, dehqon xo'jaliklari, oila ijara pudrati tashkil etildi.
- 3) Ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlash maqsadida nonoddiy sohalarda, ta'lim, fan va boshqa sohalarda ham o'zgarishlar bo'ldi.

Natijada Respublikada yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish sur'ati 1991 yildagi 100% 1995 yilda 87% tushib qolgan bo'lsa, 1997 yilda 101,8%ga va 2007 yilda 9,5 %ga o'sdi. Har yili yalpi ichki mahsulotning o'sishi o'rtacha 8,5dan, sanoat ishlab chiqarish hajmi -12,1%, qishloq xo'jaligi mahsulotlari -6,1%. Pulning qadrsizlanishi va inflasiya darajasi pasayib 1997 yildagi 25-30%dan 2009 yilda 7,4%.

Bu ijobiy natijalarga erishishda tarkibiy qayta qurish asos bo'ldi. Bu qishloq xo'jaligi majmuasini yangidan bunyod etishga asos bo'ldi.

1. Mulk va xo'jalik yuritish shakllari mutloq o'zgartirildi.
2. Makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarini davlat tomonidan tartibga solishning natijasi bo'ldi.
3. Iqtisodiy tarmoqlar tuzilishi va hududlar tarkibiy tuzilishini takomillashtirdi.
4. Qayta qurish natijasida tarkibiy siyosatning hududiy jihatini ta'minlash odamlar turmush darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etdi.
5. Iqtisodiy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishda samaradorlikka olib keldi.
6. Tarkibiy o'zgarishlar natijasida yangi turdagi mahsulotlar hajmini, sifatini yaxshilash, tannarxini pasayishiga erishildi.
7. Import hajmi kamaytirilib, eksport hajmi oshib bordi.
8. Xom ashyo yo'nalishi bartaraf etilib, eksportbop tovarlar va import o'rni hosuvchi tovar ishlab chiqarish rivojlantirildi.
9. Energetika va oziq-ovqat mustaqilligi ta'minlandi. Eng muhimi avtomobil, energetika, rangli metall, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va agrosanoat qayta ishlash sanoati tarkib topdi.
10. Iste'mol va jamg'arma fondlari o'rtasida muqobil mutanosiblik ta'minlandi.
11. Albga, transport sohalari yangilandi.
12. Investitsiyaga qayta mablag' ajratish imkoniyati vujudga keldi.
13. Iqtisodiyotni tarkibiy siljishini yanada takomillashtirish imkon yaratildi.

16-Mavzu: Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy barqarorlik.

Reja:

1. Sikllilikning umumiy harakat shakli.
2. Iqtisodiy sikl fazalari. "Uzun to'lqinlar" nazariyasi.
3. Makroiqtisodiy barqarorlik tushunchasi va unga erishishning klassik nazariyasi.
4. J. Keyns nazariyasida iqtisodiy barqarorlik masalalari.
5. O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini barqaror kontseptsiyasi.

Asosiy tushunchalar.

Iqtisodiy sikl, sikl fazalari, iqtisodiy tebranishlar, "uzun to'lqinlar", sanoat sikllari, makroiqtisodiy, klassik, D.J. M. Keyns nazariyasi, samarali talab.

1. Sikllilikning umumiy harakat shakli. Iqtisod bir maromida rivojlanmaydi, unga notekis taraqqiyot ham xos. Tarixda har doim iqtisodiy o'sish o'rniga turg'unlik va hatto tushkunlik kelgan. so'ngra yana iqtisodiy o'sish bo'lgan. Iqtisodidagi shunday tebranma harakat ma'lum davrlarda takrorlanib turgan. Iqtisodiy dinamikadagi ko'tarilish va pasayish hodisalarini o'z

ichiga oluvchi iqtisodning tebranib turishi bilan xarakterlanuvchi davr iqtisodiy o'sish sikli deyiladi. Iqtisodiy nazariyalarda sikllar har xil talqin etilgan va bu masalani o'rganish bilan XX-asrda N.D.Kondratyev, Y.Shumpettyer, K.Klark, K.Marks va boshqalar shug'ullanganlar. Vaqti-vaqti bilan ijtimoiy ishlab chiqarishning harakatida uzilishi paydo bo'ladi, bu uzilish iqtisodiyotda nomutanosibliklarni yuzaga keltirib turadi. Shu hol iqtisodiy inqiroz deb ataladi. Iqtisodiy inqiroz davrida ayrim tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishning qisqarishi, baholarni pasayishi yoki ko'tarilishi, ishsizlar sonining ortishi, ish haqining pasayishi pul-kredit tizimi buzilishi kabi holatlar namoyon bo'ladi. 2007-2008 yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz AQShdagi moliya-bank tizimidan boshlandi. Uning, xususan, ipoteka banklaridagi spekulyativ va nayranglarining natijasi bo'ldi. Bunda davlatning nazoratining bo'shligi va yo'qligi, tartibga solish mexanizmining salbiy ta'monlari ta'siri bo'ldi.

Bozor iqtisodiyotida tovar ishlab chiqaruvchilar o'z ishlab chiqarish kerajagini yyyetarlicha oldindan puxta aniqlay olmaydilar. Asosiy nomutanosiblikning yuzaga kelishi shu bilan bog'liq.

Hozirgi zamon nazariyalarida iqtisodiy sikllarning mavjudligi tan olinadi, sikl iqtisodiy o'sishga xos tebranma harakat deb talqin etiladi, ammo uning sabablari har xil izohlanadi.

MUAMMOLI VAZIYA: Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishlab chiqarish bilan sotib olinadigan o'rta, ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rta vaqti bilan nomutanosibliklar sezilar bo'lib turadi. Ularning har biri iqtisodiyotda muayyan davr nomutanosibliklari uchun xos bo'lgan jam'ianish natijasida yuzaga keladi, lekin pirovard natijada ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtaqidagi takror ishlab chiqarish mutanosibligining ishtiroki bilan bog'liq. Bu hol esa butun milliy iqtisodiyotdagi mutanosiblikni buzilishiga olib keladi.

Sikllar azaldan mavjud, ular iqtisodiyotning hamma turlariga xos muhtoj, ammo iqtisodidagi tebranma harakat turli davrda va turli shaklda namoyon muhtoj. Kadingi dunyo va o'rta asrlarda iqtisodiyotdagi omillari kuchsiz muhtojidan ulardagi sifat o'zgarishi sekin borgan va bu omillar iqtisodiyotga taol ta'sir eta olmagan. Iqtisodiyot qoloq bo'lganidan, uni rivojlantirish uchun investitsiya etishmagan, buning ustiga investitsiyalar yangi texnologiyani joriy etish bilan bog'liq bo'lmagan. Chunki uning o'zi asrlar davomida kamdan kam o'zgargan. Kishilar tabiiy kuchlardan foydalanishini o'rganishlari uchun ko'p asrlar kerak. Iqtisodiyotning ko'tarilishi va pasayishi, o'qin-o'qin bo'ladigan kashfiyotlar, tabiiy ofatlar va urushlar bilan bog'liq bo'lib kelgan. o'rta asrlardagi iqtisodiy jonlanishlarning elkanli kemalarni kashf etilishi va savdo yo'llarining ochilishi, Amerika qit'asini ochilishi kabi voqealar bilan izohlangan.

Iqtisodiy taraqqiyot sust joyda siklli rivojlanishi aniq namoyon bo'lmaydi. Mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish munosabati bilan iqtisodiy o'sishning intensiv usullari harakatga kelgan, iqtisodiyotdagi tebranma harakat ochiq-oydin namoyon bo'ladi va tez-tez takrorlanib turadi. Mashinalar tizimi paydo bo'lgandan so'ng siklli rivojlanish qonuniy hodisaga aylanadi. Ayniqsa, bu hozirgi fan-texnika revolyutsiyasi zamonida kuchayadi. Qoloq va rivojlangan jamiyatdagi iqtisodiy tebranishlar sababi aynan bir xil emas. Qoloqlik davrida u ko'pincha tabiiy omillar

va falokatlar natijasi bo'lgan, Chunki iqtisodiy faoliyatga tasodiflar kuchli ta'sir ko'rsata olgan. Iqtisodiy quvvati kuchli jamiyatda ishlab chiqarish tabiiy va tasodifiy hodisalar ta'sirini kuchsizlantira oladi. Shu sababli tebranishlar iqtisodiyotni o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ularni asosan, 2 narsa keltirib chiqaradi.

1. Fan texnika taraqqiyoti bilan bog'liq investitsiya.

2. Mehnat va xizmatlarga muhtoj talab va ehtiyojning o'zgarishi.

Ular birgalikda iqtisodiy o'sishga ta'sir etadi. Mehnatga talabning ortishi yoki kamayishi ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qisqartirishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida investitsiyalarni o'zgartiradi. Talab ketidan investitsiyaning ko'payishi ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyani yangilaydi. Ammo ishlab chiqarish haddan tashqari ko'paysa, mahsulot turib qoladi, uni ko'proq ishlab chiqarish zaruriyati bo'lmaydi, natijada uni qisqartirishga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarishning texnikaviy yangilanishi vaqti-vaqti bilan bo'lib turadi, shu sababli iqtisodiy o'sish notekis yo'z beradi. Iqtisodiy o'sish o'rni turg'unlik yoki tushkunlik keladi, so'ng ishlab chiqarish yanada o'nglanib ketadi.

Texnika taraqqiyotini shiddatiga qarab texnakaviy yangilanish muddati qisqaradi. Agar XX-asrning birinchi yarmida texnikaning yangilanishi, ya'ni mavjud texnikaning tugab bo'lishi natijasida uning yangi bilan almashtirishi 12-15 yilda amalga oshirilsa, hozirgi davrda bu 8-9 yilni tashkil qiladi. Buning ustiga talab ehtiyoji ham tez yangilanadi. Shu boisdan o'sish va pasayishdan iborat sikl ham qisqaradi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy siklga jamiyatlardagi iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi ham ta'sir etadi. Bir iqtisodiy tizim inqirozga yo'z o'girib, iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmagan holda, unga qodir bo'lgan yangi tizim shakllanib, ulgurmagan sharoitda ishlab chiqarishning o'sishi uning tushkunligi bilan o'rin almashadi. Natijada ishlab chiqarishning kamayib ketishi bilan iqtisodiy krizis kelib chiqadi. Tushkunlikning davomliligi, undan chiqish muddati yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga bog'liq. Iqtisodiy tizimlarning o'rin almashuvi bilan bog'liq muhtoj iqtisodiy o'sishdagi o'zgarishlar o'tkinchi, binobarin vaqtincha bo'ladi. Yangi tizimga o'tilgach, iqtisodiy sikl o'zining qonuniy holatiga qaytadi.

2. Iqtisodiy sikl fazalari. "Uzun to'lqinlar nazariyasi"

Iqtisodiy sikl hozirgi nazariyalarga ko'ra 4 fazadan iborat.

o'sish cho'qqisi;

1) Pasayish;

2) Turg'unlik;

3) Jonlanish;

4) o'sish, jadallanish.

Shu fazalar ketma-ket o'rin almashib turishi natijasida to'lqinsimon harakat yo'z beradi. To'lqinning kelib qaytishi, ko'tarilib turishi kabi harakat iqtisodiyotda yo'z beradi. Lekin bu iqtisodiyotning ilgarilab borishiga xos.

Iqtisodiyotning bir faza uzra harakati o'z xususiyatiga ega. o'sish cho'qqisidan iborat faza ishlab chiqarishning yuksalishdan dalolat beradi. Bu fazada iqtisodiy faollik kuchayadi, buni G'arbda "bun" deb atashadi. Ishlab chiqarish sur'atlari oshadi, to'la ish bilan band bo'lish paydo bo'ladi, ishlab



chiqarish quvvatlari to'la ishlaydi, mahsulot ko'payadi, sotilib ketadi, ammo investitsiya kuchli bo'lmaydi.

Shundan so'ng ishlab chiqarish pasaya boradi va quyi nuqtaga tushadi. Bu davrda ishlab chiqarish bilan iste'mol, ishlab chiqarish bilan muomala orasidagi keskin nomutanosibliklari, tayyor mahsulotni sotish qiyinchiliklarini kuchaytirib, realizatsiya qilinmagan mahsulot zaxiralari ko'payadi, uskunalar va qurilishga beriladigan buyurimlar kamayadi, ortiqcha ishlab chiqarish asta-sekin hamma tarmoqlarni qamrab oladi. Kredit sistemasi izdan chiqib ssuda kapitaliga muhtoj talab oshadi, uning taklifi esa keskin kamayadi, ssuda prosentining normasi o'sadi, mayda va o'rtacha banklar sinib omonatlarni berishni to'xtatadilar; savdo firmalari tovarlarini sotib olishni keskin kamaytirgani uchun sanoat ishlab chiqarish hajmi qisqaradi, ishsizlik ortib boradi. Ishlab chiqarish quvvatlari bo'shab qoladi, tovarlar ham turib qoladi, bozor kasodlashadi.

Mana shunday tushkunlikni iqtisodiy krizis (inqiroz) deb ham atashadi. Krizis paytida ishlab chiqarish va uzoq muddatga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar eng ko'p zarar ko'radi, ular ishlab chiqarish hajmini qisqarishi, bandlik darajasining kamayishi eng maksimal bo'ladi. Qisqa muddatga mo'ljallangan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda bu ta'sir ancha kam bo'ladi. Chunki, uzoq muddatga mo'ljallangan tovarlar sotib olishni ma'lum vaqtgacha kechiktirish mumkin. Lekin, kiyim kechak, oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishni kechiktirib bo'lmaydi (ovqatlanish va kiyinish hayotiy zarurat). Albatta, bu yerda iste'mol tarkibi o'zgaradi, ba'zi kategoriyadagi tovarlar, oziq ovqat, kiyim kechak miqdor va sifat jihatdan kamaytirilishi mumkin. Lekin umumiy talab nisbatan sezilarli kamayadi.

Bu fazada iqtisodiyot pasaymay va o'smay bir xil holatda qalqib turadi. Ishsizlik ham bir me'yorda turadi, narxlar o'zgarmaydi, ammo investitsion faollik boshlanadi. Investitsion faoliyat kuchayib, ishlab chiqarish yangilanadi, investitsiya kasal iqtisodiyotni davolash uchun muolaja vazafasini o'taydi. Bu davrda eng yirik raqobatga bardosh bera oladigan korxonalar samarali texnika va texnologiyadan samarali foydalanib baholarni past darajada bo'lishiga moslashadi. Natijada ishlab chiqarishni progressiv texnika-texnologiyaga muhtoj talabi oshadi. Bu o'z navbatida mashinalar, asbob uskunalar ishlab chiqaradigan va xorn-ashyo yetkazib beradigan tarmoqlarni rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Shu sohada ishchilar sonining ko'payishi jamiyatda umumiy mehnat haqi miqdorini ko'payishiga olib keladi. Ish haqqining umumiy miqdori ko'payishi iste'molchilarga bo'lgan talabni oshiradi va ularni ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni kengayishiga olib keladi. Ishlab chiqarish texnikasi, yangilanadi, yangi xaridorgir mahsulot ishlab chiqara boshlaydi, narx oshadi, ishlab chiqarish quvvatlari to'la ishlay boshlaydi, natijada ishlab chiqarish cho'qqigacha chiqib oladi. Shunday harakat qayta-qayta yo'z beradi va hodisalar zanjiri taraqqiyotini siklli rivojlanish orqali borishi, uni muammolari mavjudligidan dalolat beradi. Iqtisodiy o'sish muammolarini hal etish ijtimoiy taraqqiyotga yo'l ochadi.

Iqtisodiy sikllar nazariyotchilari ichida taniqli rus olimi N.D.Kendratev alohida o'rin tutadi, "uzun to'liqlar nazariyasi" nomini olgan uning bu g'oyasi "Kon'yunkturaning katta sikllari" (1925.y) maqolasida o'z aksini topgan.

Har bir davlat iqtisodiyotini rivojlanishi iqtisodiy ko'rsatkichlarini jami iqtisodiy mahsulot (milliy daromad, sanoat ishlab chiqarish hajmi, ish haqi, oltin zapaslari, xom - ashyo, materiallar bilan ta'minlanganlik darajasi va ularni qazib olish, yangi texnika salmog'i kabilar) bilan xarakterlanishini inobatga olib olim Yevropa mamlakatlari (Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSh) da 100-150 yillar davomidagi ish haqi, oltin, ko'mir qazib olish, cho'yan yeritish kabi yo'nalishlardagi erishilgan natijaviy ko'rsatkichlarni taqqoslab ko'rdi. Bu tadqiqot davomida har bir davlat iqtisodiyotining rivojlanishida o'rtacha 50 yil davom etadigan uzun to'liqlar mavjud degan fikrni ilgari surdi hamda iqtisodiy inqirozlarning kelib chiqish tabiatini chuqur tahlil qilishga erishdi.

Kondratg'ev kon'yunkturaning katta sikllari rivojlanishida quyidagi empirik qonuniyatlarni ko'rsatib berdi:

A) *Har bir katta siklning to'liqlarining ko'tarilishi paytida va undan oldinroq jamiyat iqtisodiy hayotida chuqur o'zgarishlar bo'ladi. Bu o'zgarishlar asosan texnika sohasidagi yirik ixtirolar va pul muomalasidagi o'zgarishlardir.*

B) *To'liqlarning ko'tarilish davriga sotsial chayqalishlar (urush, revolyutsiyalar) eng ko'p miqdori to'g'ri keladi;*

V) *Har bir katta sikl to'liqlari qaytishiga uzoq davom etadigan qishloq xo'jaligidagi depressiya to'g'ri keladi;*

G) *Ko'tarilish to'liqlariga sanoat sikllaridagi depressiyalarning qisqaligi va ko'tarilish intensivligi xos, to'liqlar qaytishida teskari bo'ladi.*

Kondratg'ev nazariyasi Sobiq SSSRda chuqur o'rganilmaganining sababi unda iqtisodiy sikllar orqali rivojlanish davlatning iqtisodiy tizimi bilan bog'lanmaganligidir. Lekin, G'arbda, 1929-33 yillardagi chuqur iqtisodiy inqiroz davrida katta qiziqish bilan o'rganildi. Chunki mohiyatan Kondratg'ev 20-yillar oxiri 30-yillar boshida chuqur jahon inqirozini oldindan aytib beribgina qolmay, undan chiqish muqarrarligini va yangi yuksalish bo'lishini bashorat qildi. Jahon iqtisodidagi 70-yillar oxiridagi uzoq muddatli iqtisodiyotning tarkibiy inqirozi Kondratg'ev tomonidan yaratilgan uzun to'liqlar nazariyasini yana bir karra hayotda tasdiqlanishi bo'ldi.

3. Makroiqtisodiy barqarorlik tushunchasi va unga erishishning klassik nazariyalari. Makroiqtisodiyot butun mamlakat iqtisodiyotini yagona bir butun tizim shaklida namoyon etadi. Makroiqtisodiy barqarorlik jamiyatidagi barcha cheklangan resurslardan foydalanib, hamma iste'molchilar uchun turli tovarlar yaratish hamda xizmatlar ko'rsatish va ularning taqsimoti turli insonlar o'rtasida barqarorlashganlikdir. Makroiqtisodiy barqarorlikda iste'mol bilan ishlab chiqarish o'rtasida, talab bilan taklif o'rtasida, moddiy ashyoviy resurslar bilan moliyaviy mablag'lar o'rtasida, ishlab chiqarish omillari bilan ulardan foydalanish natijalari o'rtasida umumiy mutanosiblik mavjud bo'ladi. Makroiqtisodiy barqarorlik jamiyat a'zolarining talablarni qondiradigan ishlab chiqarish resurslari bo'lmish kapital, yer, mehnatning unumli ishlatilishini ifodalaydi.

MUAMMO:

Makroiqtisodiy barqarorlik har bir davlatning va iqtisodiy tanning eng muhim muammasi bo'lib, iqtisodiyot turli talofatlansiz, ya'ni tabiiy ofatlar va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarisiz rivojlanishini ifodalaydi. Bu vaziyat iqtisodiyotdagi har bir bo'g'inning sog'lom rivojlanishini talab etadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikka iste'mol bilan ishlab chiqarish o'rtasida, talab bilan taklif o'rtasida moddiy-ashyoviy resurslar bilan moliyaviy mablag'lar o'rtasida, ishlab chiqarish omillari bilan ulardan foydalanish natijalari o'rtasida umumiy proporsionallik mavjud bo'ladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikda milliy mahsulot hajmi, ish bilan bandlik, baholar darajasi, inflatsiya darajalarida tebranishlar sodir bo'lib, ya'ni talab bilan taklif o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bu holat sikliklik xarakterda namoyon bo'ladi. Makroiqtisodiyot masalasi barcha milliy iqtisodiyotlar uchun umumiy bo'lib, univversal xarakterga ega. Amma bugungi sharoitda "rejali iqtisodiyotda" asoslangan "sotsialistik" jamiyatdan bozor iqtisodiyotiga muvofiq bo'lgan aralash iqtisodiyotga asoslangan yangi tipdagi demokratik adolat jamiyatga o'tayotgan mamlakatlarning "o'tish davri" makroiqtisodiy beqarorlik xususiyatlariga ega bo'ladi.

Avvalo, makroiqtisodiy barqarorlik rivojlangan mamlakatlardagi bozor iqtisodiyotining iqtisodiy siklining fazalarida to'y beruvchi inqirozlarni bartaraf etishga emas, balki o'tish davri bilan bog'liq holdagi turli sabablardan kelib chikuvchi iqtisodiy sotsial va ijtimoiy siyosiy vaziyatlarga bog'liq inqirozlar asosida buziladi. Albatta bunda o'z o'rnini o'tish davrida iqtisodiyot sohasidan tugatayotgan eski rejali iqtisodiyotning miyerosi bo'linish iqtisodiy so'xektlardan kelib chikuvchi sabablar bo'lishi mumkin. Bular ichida albatta so'ngi qayd etilgan sabab bo'proq bo'lib, ko'p hollarda makroiqtisodiy tanglikni yuzaga keltiradi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasidagi makroiqtisodiy barqarorlikni buzilishida o'tish davri hokimiyatining xatoliklari oqibatlarini asosiy omil bo'ladi.

Amaliyotda makroiqtisodiy barqarorlikga erishish muammo bo'lib, milliy iqtisodiyotning turli bo'g'inlarida har xil nomuvofiqliklar keltirib chiqaradi. Shu bois, iqtisodiyot nazariyasi ana shu nomuvofiqliklarni aniqlash va ularni barqarorlikka olib kelish uchun aniq tadbirlarni iqtisodiyot holatini hisoblashga qaratib olib chiqiladi.

XX asr boshlanguncha muhtoj davrda iqtisodiyot nazariyasida klassik ta'limot hukmronlik qilib, bozor iqtisodiyoti mustaqil holatda resurslarni samarali taqsimlab, ulardan samarali foydalanadi degan fikrni ilgari surilgan edi. Ta'limot D.Rikardo, Dj.Marshall, A.Pigular tomonidan yaratilib, bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini mustaqil boshqaruvi natijasida yetarli ishlab chiqarish darajasini ta'minlash va ish bilan bandlikka asoslanadi. Shu bois to'la ish bilan bandlikka erishish bozor iqtisodiyotining muhim belgisidir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning pasayib ketishidan holi, sabab o'z-o'zini boshqaruv mexanizmi mahsulot ishlab chiqarish hajmini yetarli darajada amalga oshiradi, natijada to'la ish bilan bandlikka erishiladi. Bozor iqtisodiyotning o'z-o'zini boshqaruv vositalari bano, ish haqi, foiz normasi hisoblanib, raqobat sharoitida talab bilan taklifni barcha bozorlarda muvofiqlashtiradi.

Barcha ishlovchilar o'z xohishlariga muvofiq ish haqi miqdoriga monand ish topadi. Ishsizlik yo'qotilgan. Shunday qilib, foizni baholarini va ish haqining tebranish xarajatlari bilan daromadlarni muvofiqlashtirib, kerakli ishlab chiqarish hajmi va to'la ish bilan bandlikni qo'llab quvvatlaydi.

Shunday qilib, yalpi talab muhim bo'lsada, pasayishi baholar va ish haqining o'zgarishiga olib kelsada, bozor mexanizmi faoliyatini ta'minlab, ishlab chiqarish hajmini hamda ishsizlikning tabiiy darajasini ushlab turadi. Demak, makroiqtisodiyotda davlat faoliyati kerak emas, deb kelingan.

4. Dj.M.Keyns nazariyasida iqtisodiy barqarorlik masalalari.

Dj.M.Keyns o'zining empirik ma'lumotlari jumladan, Buyuk Depressiya davridagi kuzatishlari asosida shunday xulosaga keldi, natijada o'z-o'zini boshqaruvchi bozor iqtisodiyotida to'la ish bilan bandlik tasodifiy hol bo'lib, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zarurdir. Dj.Keyns fikricha, talab va taklif barqarorligi odatda, resursning to'la bandligi bilan muvofiq bo'lmaydi, talab bilan taklif chiziqlari kesishgan nuqtada bozor bahosi vujudga keladi, ammo ishlab chiqarish hajmi barqaror bo'lmaydi.

Bu holat bo'lishining sababi investitsiya va jamg'armalar foizlari muvofiqligidir.

E'TIBOR BERING!

Jamg'armalar, uy xo'jaligida quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

1. Qimmatbaho tovarlar sotib olish uchun;
 2. Qarilik davrini ta'minlash uchun;
 3. Bolalar kelajagini ta'minlash uchun;
 4. Ko'zda tutilmagan vaziyatlarni sug'urtalash uchun.
- Firmalar quyidagi maqsadlarda investitsiya qiladilar:

1. Sof foyda normasini kamaytirish uchun;
2. Investitsiyaga pul kapitali olish maqsadida foiz stavkasi uchun.

Dj.Keyns fikricha, uy xo'jaligining daromadlari muhim bo'lib, iste'mol va jamg'arish nisbati dinamikasi katta rol o'ynaydi. Jamg'arish uchun iste'molga zarur muhtoj barcha tovarlar va xizmatlar safini ortgani ajratiladi. Foiz darajasi yuqoridagi nisbat ikkilamchidir. o'z navbatida, investitsiyalar dinamikasi foiz normalariga bog'liq bo'lib, iste'mol, jamg'arish va investitsiya vazifalarida namoyon bo'ladi.

Dj.Keyns fikricha, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hamda ish bilan bandlik darajalari yalpi xarajatlarga bog'liqdir. Yalpi xarajatlar - bu tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun sarf muhtoj mablag'lardir. Yalpi xarajatlarning bosh qismi iste'moldir. Daromad - bu soliqlardan qolgan miqdor bo'lib, iste'mol va qo'shilgan jamg'armadir. Aynan, daromad, iste'mol va investitsiyani belgilovchi ko'rsatkichdir. Yalpi xarajatning ikkinchi elementi investitsiya uning miqdori kutilayotgan sof foyda normasi, foizning haqiqiy normasiga bog'liqdir.

Iste'mol bilan investitsiya sarflari yalpi talab hajmini aniqlab, o'z vaqtida o'zgarib turadi. Demak, iqtisodiyotda yalpi talab muhim bo'lmaganligidan yalpi talab va yalpi taklif nomutanosibliги kelib chiqadi. Bu masala Dj.Keyns fikricha,

"samarali talab" asosida hal etiladi. "Samarali talab"- deb yozadi, Dj. Keyns, oddiy yalpi daromadni ifoda etib, tadbirkorlar muayyan vaziyatdagi ish bilan bandlik asosida erishmoqchi muhtoj (boshqa ishlab chiqarish omillariga egalariga daromadlar sifatida to'lamokchi muhtoj summa) daromadidir.

Samarali talabni ushlab turish uchun mulg'iptilik zarur bo'lib, u samarali talab o'sishi bilan investitsiya o'sishini muvofiqlashtirib turadi. Ma'lumki, yalpi daromadda iste'mol hajmi investitsiyaga nisbatan kamayib boradi. Demak, yalpi daromaddagi iste'mol kamayishi tabiiy va daimiy bo'lsa, yalpi daromadning ikkinchi qismi muhtoj investitsiyani ko'paytirish lozim. Bu masalani davlat amalga oshiradi. Davlat o'zining soliq, pul kredit siyosati va davlat sarflari bilan samarali talabni yuzaga keltirib, xususiy investitsiyalarni ko'paytiradi.

"Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish chorolari va yo'llari" kitobida, Prezidentimiz tomonidan inqirozning salbiy tomonlarini yumshatish va keyingi rivojlanishni ta'minlash maqsadida inqirozga qarshi choralar dasturini ishlab chiqdi. Bu dasturni butun dunyo siyosatchilari, olimlari va ekspertylari tomonidan e'tirof etildi. (2011 yil 1-5 apreldagi Toshkent xalqaro konflyerensiyasi).

Shunday qilib, davlat iqtisodiyotda barqarorligini amalga oshiradi.

5. O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotni yuzaga keltirishda barqarorlashtirishning o'рни.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirish, amalga oshirilayotgan islohotning tub mazmuni milliy iqtisodiyotni yuzaga keltirish va rivojlantirishdir. Chunki mamlakat busiz o'z suverenlik mazmunini yo'qotadi. Mustaqil iqtisodiyotsiz siyosiy mustaqillik mavqei e'tiborsiz bo'lib, jamiyat turzini xalq manfaatiga to'la xizmat qila olmaydi, avvalo tub mazmuni bilan iqtisodiyotni Respublika manfati uchun samarali foydalanib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotni shakllantirish uning barqarorligini ta'minlashdan boshlanadi. Sobiq SSSRda mavjud yagona xalq xo'jaligi kompleksi buzilishi bilan yangi tashkil topgan suveren davlatlar orasidagi iqtisodiy aloqalar barbod bo'ldi va inqiroz holatini yuzaga chiqishiga olib keldi. Barqarorlashtirish iqtisodiy aloqalarni tiklashga harakat qilish va yangilarini yuzaga keltirishni talab qiladi. Bu barcha tarmoq, soha, korxona, xo'jaliklar va ishlab chiqarish, infrastrukturaga taalluqlidir.

I.A.Karimov: "Iqtisodiyot barqaror mavjud muhtoj sharoitdagina bozorga muvaffaqiyatli o'tish mumkin... iqtisodiyotni barqarorlashtirish - bu bozorni shakllantirish yo'lidagi zaruriy va muqarrar hisqichdir" deb bejiz aytmagan. (O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li, "O'zbekiston", 1992 y.)

Iqtisodiy aloqalarni tiklash va yangilarini yuzaga keltirish iqtisodiyot rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bulardan tashqari respublika iqtisodiyotining tuzilishini o'zgartirish talab qilinadiki, bu mustaqil milliy iqtisodiyot talabiga mos kelishi kerak. Uni xomashyo yo'nalishidan ozod qilib, yuqori darajali ishlab chiqarishga va tayyor mahsulotlarni yaratuvchi ishlab chiqarishga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

Endilikda dastlabki vazifa yuzaga kelgar shaxsiy iste'mol bozori muammosidir. Bunda, avvalo, oziq-ovqatlar ishlab chiqarishni izga solib, bevosita og'ir ahvolning oldini olish eng zarur nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarishni hal

qilishdir. Bu sohada mamlakatimizda avj olayotgan kichik korxonalar va tadbirkorlik juda qo'l keladi. Bularning afzalliklari katta kapital xarajatlarini talab qilmaydi. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik mahsulotlariga birlamchi ishlov beruvchi tarmoqlarni yuzaga kelishi maqsadga muvofiq bo'ladi, bu fermer xo'jaliklari ijara asosidagi oilaviy pudrat kabilardir.

Shu bilan birgalikda katta inshootlar ham yuzaga kelmoqda, bular respublikamiz maanfatini bo'ysundirilayotgan yangi ishlab chiqarish tuzilishini yaratishda katta ishlar boshlanganidan dalolat beradi. Masalan: avtomobilsozlik sanoatini olaylik. Asakada yirik sanoat korxonasi barpo etilib, bu korxonada yengil avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Samarqandda avtobuslar ishlab chiqarish qo'yildi.

Radio-elektron tovarlar ishlab chiqarish, metallurgiya tarmog'ini kengaytirish, o'rmon xo'jaligini va yog'och sanoatiga, farmakologiyaga e'tiborni qaratildi.

MUAMMO:
Qishloq xo'jaligi
mahsulotlariga
ishlov berish
tarmoqlarini
kuchaytirish kerak.

Ishlab chiqarishning xom-ashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot qilishga yo'naltirish davr talabidir.

Bunga paxtachilikni misol keltirish mumkin.

Ma'lumki, uning respublikamiz uchun ahamiyati

katta va dehqonchilimiz unga moslashgan.

Paxtachilikdan oqilona foydalanilsa, u yuqori daromadli tarmoqdir. Bunday eng muhim narsa uning

to'la tayyor mahsulot darajasidagi kompleksligini ta'minlash hamda xom-ashyolik yo'nalishidan qutilishidir. Buning uchun avvalo, to'qimachilik sanoatini kengaytirish va rivojlantirish, tikuvchilikni avj oldirildi. Ma'lumki, jahon bozori talabi asosida tayyor kiyimlar ishlab chiqarishni keng ko'lamda avj oldirish zarur. Ma'lumki, jahon bozorida tabiiy tolali kiyim-kechaklarga talab juda katta va yuqori daromad manbai. Ipakchilik, qorako'chilik haqida ham shunday fikr aytish mumkin. Rangli metallurgiya, ayniqsa oltin va mis mahsulotlaridan foydalanishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Mevachilik, sabzavot va polizchilikda ham katta muvaffaqiyatlarga erishish imkoni mavjud edi. O'zbekiston energiya yoqilg'i va oziq-ovqat mustaqilligiga erishish uchun uzoq muddatli dastur ishlab chiqdi. Milliy iqtisodiyotni barqaror shakllantirish konseptsiya ishlab chiqildi.

Tushuntirish uchun savollar:

1. Iqtisodiy sikllilikni tushuntirib bering?
2. Makroiqtisodiy barqarorlik nima?
3. D.J. Keyns nazariyasining mohiyatini tushuntirib bering?
4. Inqirozning mohiyati, davri, vujudga kelish sabablari va oqibati nima?
5. 2008 yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tushuntiring?
6. O'zbekiston sharoitida inqirozga qarshi choralar dasturining mohiyatini va yo'llarini aytib bering?

7. Jahon mamlakatlarining va O'zbekistonning inqirozdan qutulish chora-tadbirlari va ularning natijasini tushuntiring?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqlol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratizatsiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkaması va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyung'. «Xalq so'zi» gazeti, 2010 yil 31 iyung'.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 b.
8. O'ltasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: T. 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. T.: 1999g. Gl-1.
11. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1

17-mavzu: Yalpi ish kuchi, uning bandligi va ishsizlik.

Reja:

1. Ish kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.
2. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash.
3. O'zbekistonda bandlik muammosi va ishsizlarni ijtimoii himoyalash.

Tayanch iboralar:

ishchi	kuchi	mehnat
resurslari	bandlik	iqasodiy
faol	ishchi kuchi	mabotati
tarbiyasi	bilimi	ahsizlik
ishsizlik	turlari	OLIKEN
qonuni		

1. **Ish kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.** Nafaqat ishlab chiqarishning ashyoviy omillarini, balki uning shaxsiy omili va jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchi - ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, hosil qilish, uning xususiyatlari bilan bog'liq muammolarini bayon qilishdan (boshayman) sifat jihatidan ancha yuqori darajada takror hosil qilinadi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab va ta'minlab turish, yangi ishchi avlodini

tayyorlash, uning mehnat malakasini, mahoratini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasining o'sishini ta'minlash demakdir.

Ishchi kuchini takror yaratish, xodimlarni ishlab chiqarishga jalb etishni, tarmoqlar, sohalar korxonalar va mintaqalar o'rtasida taqsimlanishni va qayta taqsimlashni, to'la bandlikni ta'minlashni ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratishdan iborat.

O'zbekistonda 16-55 yoshgacha xotinlar, 16- 60 yoshgacha yerkaklar ishchi kuchi hisoblanadi. Xorijda esa 14-60 yoshgacha xotinlar, 66 yoshgacha yerkaklar. O'zbekistonda ishchi kuchlari millatiga, jinsiga, irqiga, dinty e'tiqodiga va ijtimoiy mavqeiga ajratilmaydi.

Ishchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlarini va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklash va ta'minlab turish, ishchi kuchi avlodini tayyorlash, ularning mehnat ko'nikmasini, malakasini, mahoratini va bilimini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasining o'sishini ta'minlash demakdir. Ishchi kuchi resurslarining soni va sifati mamlakat aholisining soni bilan emas, shu bilan birga jinsi, irqi va yoshi jihatidan tarkibi bilan ham belgilanadi. Bular o'z navbatida, aholining tabiiy o'sishiga bog'liq. O'zbekiston mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni 2009 yilda 29,2 mln kishini tashkil etib, 1991 yildagi 20,4 mln kishidan 8,8 mlnga yoki 70 foizga yaqin ko'paydi. Iqtisodiyotda band bo'lgan yoki ishchi kuchi soni shu davrda 6,9 mindan 11,6 mln. kishiga yoki 60 %ga ko'paydi. 2010 yil boshida ishchi 76,0 %i ish bilan bandlikni tashkil etadi.

O'zbekiston aholisining tabiiy o'sishi

(Har 1000 kishi hisobiga)

Ko'rsatkich	1991	1997	2001	2005	2009	2009 yilda 1991 yilga nisbatan % da
Tug'ilish	34,5	26,0	20,4	20,4	22,6	65,5
O'lim	6,2	5,4	5,3	5,4	5,1	82,2
Tabiiy o'sish	28,3	19,7	15,1	14,9	17,5	61,8

Aholining tabiiy o'sishi ko'pgina holatlarda mamlakatning sanoat taraqqiyoti, urbanizatsiya darajasi, ijtimoiy-siyosiy sharoiti, madaniyati, maishiy turmush an'analari, tabiiy iqlimi, tarixiy omillar bilan belgilanadi. Shuningdek, turmush farovonligi, ijtimoiy himoyalash, oilaning mustahkamligi, ta'lim va salomatlikni ta'minlash, sport va san'at darajasini ham belgilaydi.

Aholini, ayniqsa, ishchi kuchini takror hosil qilish, uning to'la va samarali ish bilan band bo'lish muammosini hal qilishni ham o'z ichiga oladi.

Ishchi kuchi va undan foydalanishni belgilovchi ko'rsatkichlar 16 yoshgacha bo'lganlar soni, ishlashga layoqatlilar va ishlash layoqatini yo'qotganlar, ish bilan bandlikda 16 yoshlilarning va pensionerlarning bir qismi ham band bo'ladi.

Ishsizlik turlari o'z navbatida, bir qancha turga bo'linadi. Ammo hammasini ish bilan bandligini ta'minlash mumkin emas. Iqtisodchi Ouken qonuni bo'yicha ishsizlik tabiiy darajasi hozirgi kunda 5-6 foiz atrofida o'zgarib turadi. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 0,4-0,5 %dan oshmayapti. O'zbekistonda ishsizlarni ish bilan bandligini ta'minlash choralari ko'rilgan. Kasanachilik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, oilada chevarchilik, issiqxona tashkil qilish va ishsizlik nafaqasi berish kabilar.

Mutlaq ish bilan band tushunchasi nisbiydir.

- a) ishsizlikni ma'lum me'yorda bo'lishi mumkin;
- b) oila a'zolari uy ishi, xo'jalik, shaxsiy yordamni xo'jaligida mehnat qiladi;
- v) mehnat resurslaridan g'oyat samarali foydalanish bilan olib bordini;
- g) mehnat resurslarining miqdori va sifati nuvozanatlashi kerak;
- d) FTT davrida ishchi kuchi kam ishlatiladi;
- e) har xil-mulkchilik sharoitida ishchi kuchiga talab ortib boradi.

2. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelishi sababiga ko'ra:

- 1) Friksion ishsizlar (vaqtincha ish joyini yo'qotganlar);
- 2) Tarkibiy ishsizlik kasbi eskirgan, yangi kasbga moslashmagan;
- 3) Siklik ishsizlik - inqirozlar tufayli ishsizlik;
- 4) Ixtiyoriy ishsizlik - ishlashni xohlamaydiganlar;
- 5) Institutsional (muassasaviy) ishsizlik - ishchi kuchiga talab va taklifni

o'zgarishi, ko'payishi, pasayishi.

Jamiyada ishsizni aniq ko'rsatishlari quyidagicha

- 1) texnologik ishsizlik - avtomatlashtirish, robotlantirish oqibati.
- 2) hududiy ishsizlik - tarixiy, demografik, madaniy, milliy va ijtimoiy psixologik xususiyatdagi bir qator omillar bilan bog'liq.
- 3) yashirin ishsizlik - to'liq band bo'lmaslik.
- 4) turg'un ishsizlik - nafaqaxo'r, ish joyini yo'qotgan: gadoy, tilanchi, o'g'ri qarog'chi, tyerrorist.

Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining ishchi kuchi umumiy soniga foizdagi nisbatidir.

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizliksoni}}{\text{Ishchikuchisoni}} \times 100\% = \frac{40,3\text{min}}{9\,333,0\text{min}} \times 100\% = 0,5\%$$

Muammoni hal etish bozor iqtisodiyoti va tabiiy o'sishi O'zbekistonda quyidagicha:

- 1) keng faoliyat turlarini, tadbirkorlik turlarini kengaytirish, sharoit yaratib berish;
- 2) xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish;

3) qishloq xo'jaligida keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish;

4) ishdan bo'shaganlarni qayta tayyorlash va o'qitish;

5) ishsizlik nafaqasi berib borish.

Tushuntirish uchun savollar.

1. Ishchi kuchi nima va uni inson omilidan farqi nimada?
2. Bandlik nima, u o'z ichiga nimalarni oladi?
3. Ishsizlik nima va qanday turlari mavjud?
4. To'la bandlikni ta'minlash mumkin-mi?
5. OUKYeN qonunni mohiyatini aytib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. o'zbekiston buyuk kelajak sari. T.:1998.
2. Karimov I. Jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida ui bartaraf etish choralari va yo'llari. T.: 2009.
3. Karimov I. 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari va asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir. T.: 2010.
4. O'Imasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: 2006.

18-Mavzu: Moliya tizimi va moliyaviy siyosat.

Soliq tizimini takomillashtirish.

Reja:

1. *Moliyaning iqtisodiy mazmuni va uning vazifalari.*

2. *Moliya tizimi. Davlat budjeti, daromadlari va xarajatlari hamda budjet taqchilligi.*

Moliyaviy siyosat

3. *Soliq va soliq tizimining mohiyati va vazifalar.*

4. *Soliq tizimini barqarorlashtirish va davlatning fiskal siyosati*

Tayanch iboralar:

Moliya, moliya munosabatlari ob'ekti, davlat va nodavlat moliyasi, davlat budjeti daromadlari, davlat budjeti xarajatlari, byudjet taqchilligi, soliq sub'yekti, to'g'ri, egri soliqlar mahalliy soliqlar, davlat soliqlari

Mavzuning maqsadi: Moliya va soliq tizimini isloh qilish va takomillashtirib borish yo'llarini o'rnatish. Takomillashtirish.

1.Moliyaning iqtisodiy mazmuni va uning vazifalari. "Moliya" fransuzcha "finance" va lotincha "financia" so'zlaridan olingan bo'lib, "naqdina daromad" ma'nolarini anglatadi. Moliya uzoq davom etgan tovar-pul munosabatlarining mahsuli bo'lib, davlatning iqtisodiy vazifasi va ehtiyojlari asosida shakllandi.

XIII-XV asrlarda Italiyada "moliya" so'zi "pul to'lov" ma'nosida ishlatilgan. Keyinchalik xalqaro tus olib, "pul muomalasi tizimi" ma'nosida qabul qilina boshlandi.

Muammoli vaziyat: Moliya kategoriya sifatida qadimdan mavjud bo'lsada, u haqon takomillashib yangilanib kelmoqda. Chunki sivilizatsiya rivojlanib borgan sayin yangidan yangi moliyaviy munosabatlar iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelmoqdaki, buning natijasi o'laroq moliyaning funksiyalari ham takomillashib, kengayib bormog'i zarur.

Davlat va jamiyat to'la "moliya" so'zini o'zlari belgilagan iqtisodiy siyosiy yo'nalishda pul resurslari muomalasi tarzida ishlatib boradilar. Moliya o'z mohiyatiga ko'ra davlat hamda korxona ixtiyorida barcha pul mablag'larini tashkil topishi, taqsimoti va ularda foydalanishi tizimini aks ettiradi. Pul mablag'larining harakati o'z-o'zidan moliya mohiyatini to'la namoyon etolmaydi. Moliya o'z mohiyatiga ko'ra namoyon bo'ladi. Aynan shu ma'noda, moliya munosabatlari xarakterlanadi va ma'lum ma'noda o'z xususiyatlarini namoyon etadi.

Moliya munosabatlari, **avvalo**, pul shaklida harakatlanadi. Aynan shu pul munosabatlari moliya amal qilishining zarur shartidir. Moliya munosabatlari takror ishlab chiqarishning taqsimot bosqichida ijtimoiy mahsulot qiymatini belgilangan maqsadlar yo'lida taqsimlash va qayta taqsimlash borasida shakllanadi. Moliya munosabatlari mazkur yo'nalishda jamiyat a'zolarining moddiy rag'batlantirish, ijtimoiy va boshqa ehtiyojlarni ta'minlash hamda eng asosiysi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni uzulksiz amalga oshirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, moliya munosabatlarining muhim xususiyatlari bu ekvivalent ayirboshlash yo'z bermagan munosabatlardagi taqsimot xarakteridir. Kredit munosabatlarida vaqtinchalik qarz uchun berilgan mablag' qaytarilishi va moddiy boylik bilan boyitilishi shart bo'lsa, moliya munosabatlarining yuqorida qayd etilgan xususiyatiga binoan ko'rsatilayotgan moddiy yordam qaytarilmaydi. Bu mablag'lar makroiqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uchun tarmoqlar va ayrim ishlab chiqarish bo'g'inlaridagi nomutanosiblikning oldini olish, ijtimoiy sohani rivojlantirish ham boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Uchinchidan, moliya munosabatlari yalpi milliy mahsulot va milliy daromadni maxsus fondlar asosida taqsimlaydi. Yalpi milliy mahsulot va milliy daromad hududlararo, tarmoqlararo va tarmoq ichida hamda moddiy, nemoddiy soha ob'yektlarida moliya munosabatlari yordamida budjet rezervlari, sug'urta fondlari, budjetdan tashqari fondlar, subsidiya, subventsia, dotatsiya tarzida taqsimlanib, pul resurslaridan jamiyatning normal faoliyati uchun foydalaniladi.

2009 yilda respublikamiz iqtisodiyotida 3202,4 mlrd. so'm moliyaviy natijaga erishildi. Pul daromadlarini jon boshiga taqsimlaganda esa 2001 yilda 143,9 ming so'mdan, 2007 yilda 45503 ming so'mga to'g'ri keldi. Moliya munosabatlari ob'yekti pul mablag'lari, sub'yekti esa korxona, jamoat tashkilotlari, davlat idoralari, muassasalar, oila va yakka shaxslardir.

Moliyaning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

- taqsimlash;
- rag'batlantirish;
- ijtimoiy himoyalash;

- iqtisodiy axborot berish vazifasi.

Moliyaning vazifalari deganimizda, uning xo'jalik faoliyatida mazmunlashuvini, aniq ifodalanishini tushunamiz. Qiymatning taqsimlanishi yo'l fondi va resurslarning ishlatilishi tufayli moliya mahsulotlarini taqsimlash, shaxslar va jamoalarni rag'batlantirish, aholining ijtimoiy himoyalaniishini amalga oshirish, iqtisodiy axborot kabilarda o'z aksini topadi.

Taqsimlash vazifasi milliy daromadlarning pul fondlari shakllanishi asosida taqsimlanishidan iboratdir. Birlamchi va qayta taqsimlash mavjud. Bevosita ishlab chiqarishdagi taqsimlash birlamchidir, bundan keyingi taqsimlanish qayta taqsimlanishdan iboratdir. Masalan, ish haqi, foyda, ijtimoiy sug'urta, amortizatsiya kabi fondlarga bo'linishi birlamchi taqsimotga kiradi. Soliqlar, turli to'lovlar, maishiy xizmat haqi kabilar ikkilamchi yoki qayta taqsimlashga kiradi. Yalpi milliy mahsulotni 100 % deb olsak, shundan 60 % ishlab chiqarishni tiklash, 20 % ish haqi, 15 % foyda, 5 % ijtimoiy sug'urta fondlari uchun taqsimlanishi mumkin.

Iqtisodiy rag'batlantirish ham avvalo moliyadan boshlanadi, bu ham pulni taqsimlashdan boshlanadi. Soliq tizimidagi imtiyozlar to'lovlarda va subsidiyalarda rag'batlantirishda o'z aksini topadi. Boj haqini kamaytirish, mukofot fondlarini tashkil etish va ulardan foydalanish iqtisodiy faollikka undaydi. 2002 yil o'rtacha ish haqi yanvar oyida 23653,9 so'm, noyabr oyida 34166,8 so'm, 2009 yil dekabr oyida 476,4 ming so'mni tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki, aholi daromadlarida ish haqining ulushi ham ortib bormoqda.

Ijtimoiy himoyalash ham moliyadan boshlanadi va u orqali amalga oshiriladi. Chunki, u avvalo, pul orqali, pul foizlari vositasida bajariladi va u pul tufayli amalga oshiriladi. Ma'lumki, aholi qatlamida muhtoj qismlari ko'p, ya'ni etim bolalar, qariyalar, nogironlar, kam daromadli oilalar shular jumlasidan bo'lib, ular o'z tirikchiligini yuritishni minimal darajada ta'minlashda ham doimo muhtoj bo'ladilar. Ijtimoiy himoyalash esa shularni moliyaviy kafolatlashni talab etadi. Bu, asosan davlat yordamida amalga oshadi. Davlat maxsus fondlar tashkil etib, bunday himoyalashni amalga oshirib boradi. Respublikamizda iste'mol savatchasiga 119 xil mahsulot kiritilgan bo'lib, mana shu mahsulotlarning bozordagi o'rtacha qiymatlari yig'indisi yashash minimumini tashkil etadi. Respublikamizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning natijasi o'laroq 2009 yilda YalM dan 43.9 foiz ijtimoiy himoya uchun ajratildi.

Moliyaviy axborotlarni iqtisodiyotni boshqarishda, iqtisodiy faoliyatni baholashdagi o'rni katta. Bu moliyaviy yakunlar xususida o'z vaqtida xabarlar berib turish orqali amalga oshadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar orqali ishlab chiqarishni kuzatish, moliyaviy fondlar holati bo'yicha iqtisodiyot sohalarini muvozanati, bir-biriga monandligi kabilarni aniqlash imkoniyati tug'iladi.

Moliyaviy axborotda auditorlik xizmati ma'lum o'rin egallab, axborotdan foydalanishni yaxshilaydi va tezlashtiradi. Chunki auditorlik xizmati korxonalar, kompaniyalarning xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tahlil etadi, xolisona xulosalar chiqaradi va ularni vaqtida yetkazib beradi, bu moliyaviy boshqaruvda ahamiyatlidir.

Moliya vazifalaridan umumli foydalanish iqtisodiy o'sish uchun xizmat qiladi. Moddiy va mehnat resurslarining to'g'ri yo'nalishida bo'lishi va ularni samarali sarflash moliya faoliyatiga uning vazifalari realashuviga bog'liq. Moliya o'z vazifalarini bajarish bilan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarni tartibga soladi, samarali xo'jalik faoliyatini rag'batlantiradi. Bularni amalga oshirish moliyaviy vositalar tufayli yo'z beradi. Bular qatoriga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari amortizatsiyasi, foyda, aksiya kursi, dividend, soliqlar, sug'urta haqi, bank haqi, dotatsiya, subsidiya, kompensatsiya xabarlari kiritish mumkin.

Moliyaviy vositalar fondlarda shakllanib moliya resurslarini tashkil etadi. Ana shu resurslar orqali moliyaning ta'siri va harakati amalga oshadi. Masalan, amortizatsiya fondi va foydaning bir qismi investitsiya uchun xizmat qiladi, bularning ko'payishi resurslar ishlab chiqarish quvvat arini ko'paytirish rezervlari demakdir. Agarda bular yetarli bo'lmasin, texnika, texnologiya, sarf etish xamayadi va ishlab chiqarishning o'sishi susayadi yoki dividendlar haqida to'xtatsak, ular yuqori bo'lsa, aksiya chiqargan kompaniyalar ahvolining yaxshiligidan darak beradi, aksiya kursi oshadi, qo'shimcha kapital kelishi, iqtisodiy o'sish tezlashadi.

Moliyaviy resurslarda asosiy o'rinni foyda va milliy boylik tutadi. Bular iqtisodiy o'sish manbaini tashkil etadi. Foyda sof daromad sifatida investitsiya, turli rezervlar, sug'urta va ijtimoiy fondlarni uyushtirish uchun taqsimlanadi.

Moliyaviy resurslar ikki turga, ya'ni mikroresurslar va makroresurslarga bo'linadi. Mikroresurslar markazlashmagan bo'lib korxona, firma, tashkilot, kompaniya, jamoa uyushmalari, shaxslarning pul resurslaridan iboratdir. Bunga qarzga olingan pullar ham kiradi.

Makroresurslar asosan davlat ixtiyoridagi pul resurslaridan iborat bo'lib, umumdavlat miqyosida tashkil etiladi va budjeda jam'ariladi.

Bozor iqtisodiyotida mikroresurslar asosiy o'rinni egallaydi. Bozorda erkin iqtisodiy faoliyat sharoitida, albatta firma, konsern, korporatsiya, birlashma korxona kabilarni moliyasi asos bo'lib hisoblanadi. Lekin bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat moliyasi etakchi o'rinda bo'ladi.

2 Moliya tizimi. Davlat budjeti daromad va xarajatlari hamda budjet taqchilligi. Moliyaviy siyosat. Mavjud moliya munosabatlarining majmui- moliya tizimidir. Moliya tizimi quyidagi unsurlardan tarkib topadi:

- davlat moliyasi (davlat budjeti);
- korxonalar, firmalar kompaniya, konsern, tashkilotlar moliyasi;
- ijtimoiy- siyosiy, madaniy- ma'rifiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar (siyosiy partiyalar, kasaba va ijodiy uyushmalar, yoshlar, xotin qizlar tashkilotlari kabilar);
- maxsus maqsadli fondlar (masalan, "Umid", "Ustoz", "Mahalla" jamg'armalari, "Orolni qutqarish" kabilar) pensiya, xayriya fondlari

Mamlakatimizdagi moliya tizimini boshqarish moliya vazirligi va uning joylardagi organlari orqali amalga oshiriladi. Moliya vazirligi quyidagi vazifalarni bajarishga mutasaddi qilib tayinlangan:

Muammo: Davlat byudjeti darom adlari va xarajatlarning muvofiqligini ta'minlash

– davlatning moliya siyosatini amalga oshirish, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy manbaalarni muvofiqlashtirish, moliyaga oid qonunlarni ishlab chiqish, soliq siyosatini amalga oshirish, monopoliyaga qarshi kurash olib borish; tadbirkorlikni rivojlantirish;

– mamlakat budjetini tayyorlash va uni Oliy Majlis hukmiga taqdim etish;

– davlat budjetining ijrosini moliyalashtirish, xarajatlarni nazorat qilish;

– moliya tizimini takomillashtirish va uning mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirokini ta'minlash;

– barcha turdagi moliyaviy resurslarni davlat ehtiyoji uchun to'plash, mulk shaklidan qat'iy nazar moliyaviy intizom o'rnatish;

– qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etish va moliya bozorini muvofiqlashtirish, uni nazorat qilish;

– xorijiy sarmoyalarni jalb etish va ular harakatiga sharoit yaratib berish va boshq.

Moliyaviy resurslarni, jumladan budjet mablag'larini to'g'ri sarflanishi ustidan bevosita nazorat-taftish boshqarmalari tomonidan olib boriladi. Taftish materiallari asosida moliyaviy resurslarning ahvoli tahlil etiladi, mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy sog'lomligini ta'minlash chora-tadbirlari belgilanadi.

Muammoli vaziyat: davlat byudjeti defitsiti va uni kamaytirish yullari hamda uning aholini yashash sharoitiga ta'siri

Davlat budjetining asosiy vazifasi, moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqiyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdan iboratdir.

Davlat budjetining daromad manbaalari soliqlar, zayomlar, emissiyadan iboratdir.

Bu manbaalardan tashqari davlat moliyasiga uning iqtisodiy faoliyatidan keladigan tushumlar ham kirib, dividend, foiz, ijara haqlari, davlat mulkini sotish kabilardan kelgan daromadlar shular jumlasidandir.

Davlat budjetining xarajatlari quydagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ishlab chiqarishni taraqqiy ettirish (investitsiyalash).
2. Davlatga qarashli maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat tarmoqlarini pul bilan ta'minlash (ijtimoiy, madaniy sohaga sarflar);
3. Mavjud davlat idoralarning xarajatlari (boshqaruv xarajatlari).
4. Mamlakat mudofaasini ta'minlash (harbiy sohaga xarajatlar).
5. Tabiiy ofatlarni oldini olish va tiklashga sarflanadi.

Davlat budjetining daromad qismi, birinchi navbatda, ana shu to'rt xil xarajatlarni to'la qoplashi zurur.

Budjet kamomadi bu xarajatlarni koplay olmasligi bilan bog'langan bo'lib, budjet taqchilligini yuzaga keltiradi.

Taqchillik darajasi juda katta yoki budjet iste'mol yo'nalishida, bo'lsa bu iqtisodiy xavfni paydo qilish mumkin. Xalqaro tajribaga ko'ra defisit miqdori YalMga nisbatan 5% ortsa, u iqtisodiyot uchun xavf tug'dira boshlaydi. Respublikamiz budjeti 1998 yilda -7,2 mlrd. so'm, 1999 yilda esa -13,5 mlrd.so'm

defitsit bilan chiqqan bo'lsa, 2009 yil yakunlariga ko'ra u 0,2% profitsit bilan chiqqan, ya'ni 17,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Agar budget taqchilligi iqtisodiy taraqqiyot yo'ralishi bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish, investitsiyalash yuqori darajada bo'lsa, buning xavfi tomoni yo'q. Chunki iqtisodiyotni istiqbolli tuzilishini yaratish, samaradorligini oshirish va umuman iqtisodiy o'sishni ko'zlagan xarajatlar bo'lib, bu o'rinni tezda oqlashi mumkin.

Budjetdagi muvozanatni ta'minlash va undagi taqchillikni qoplash asosan iqtisodiy rivojlanish, budget daromadlarini oshirish tufayli amalga oshiriladi.

Nazariy jihatdan budget kamchilligi va davlat qarzi tushunchalari o'zaro farq qiladi. Davlat qarzi ma'lum vaqt davridagi budget taqchilliklari yig'indisidir. Davlat qarzi ikki guruhga bo'linadi: davlat tashqi qarzi (tashqi davlatlarga, tashkilotlar va alohida shaxslarga) va ichki qarzi (davlatning o'z xalqidan qarzi). Budget defitsiti bilan davlat qarzi bir-biriga bog'liq, Chunki u yoki bu miqdorda davlat budjeti kamchiligi miqdorini qanchalik iqtisodiyot uchun xavfliligini aniqlash uchun avvalo davlat qarzini miqdorini tahlil etish kerak. Hozirgi sharoitda deyarli hamma mamlakatlarda davlat qarzlarni ortishi kuzatilmokda. Shuning uchun hozirgi davrda budjetni tartibga solish masalasi har qanday hukumatning oldida turuvchi markaziy muammolardan biridir.

Davlat budjetini tartibga solishning quyidagi kontseptsiyalari mavjud:

Birinci kontseptsiyaga muvofiq, davlat budjeti har yili balanslashtirilishi lozim degan g'oyaga asoslanadi. Yaqin paytlargacha ushbu yondashuv mohiya siyosatining maqsadi hisoblanardi. Bu siyosatning iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan tadbirlari samaradorlik darajasini pasayishiga olib keldi. (Masalan, iqtisodiyotdagi surunkali ishsizlik aholi daromadlarini pasaytiradi va budjetga tushuvchi soliqlar kamayadi. Bu vaziyatda davlat budjetini balanslashtirish uchun soliq stavkasini oshirish yoki davlat xarajatlarni kamaytirish kerak bo'ladi. Ammo bularni amalga oshirish jami talabni yanada pasayishiga olib keladi).

Ikkinchi kontseptsiya - davlat budjeti har yili ikki emas, balki iqtisodiy sikl davrida balanslashtirilishi kerak degan g'oyaga asoslanadi. Bunda krizisga qarshi kurash chorasi deb hukumat soliqlarni pasaytiradi, xarajatlarni oshiradi va budjet kamchilligini yuzaga keltiradi. Ko'tarilish davrida esa hukumat soliqlarni ko'taradi va davlat xarajatlarni kamaytiradi. Natijada, yuzaga kelgan budjetni ijobiy saldosi, tanazzul vaqtidagi kamomadni qoplashga ishlatiladi. Bunda eng asosiy muammo shundan iboratki, iqtisodiy faoliyatning ko'tarilishi va krizis vaqt davomiyligi nuqtai nazaridan farq qiladi (masalan, krizis davri uch yil, ko'tarilish davri esa ikki yil bo'lishi mumkin. (Unda uch yilda yuzaga kelgan defitsit miqdori ikki yildagi budjetni ijobiy saldosi bilan qoplanmay qolishi mumkin).

Uchinchi kontseptsiya asosiga budjet emas, balki iqtisodiyot balanslashtirilishi kerak, degan qoida mohiyati asosiy vazifasi deb qabul qilingan. Bunda makroiqtisodiy barqarorlik davrida budjet ijobiy va barqaror saldoga ega bo'lishi mumkin degan fikr ilgari suriladi. Chunki iqtisodiy o'sish sharoitida budjetga soliqlar tushumi avtomatik ravishda ko'payadi, makroiqtisodiy

barqarorlik esa buni rag'batlantiradi va budget kamomadi avtomatik ravishda yo'qoladi.

Har qanday davlat o'z sharoitlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy siyosatni ishlab chiqadi. Bunday siyosat mamlakatni pul potentsiali doirasida hukumatni moliyaviy ishlarini aniq dasturiga ega bo'lishini, budget kamomadi ustidan nazorat o'rnatilishi va uni qoplash manbaalarini qidirishni, juda katta samara beradigan iqtisodiy dasturlarga budgetdan mablag' ajratishni talab etadi.

O'zbekiston sharoitida budget taqchilligini kamaytirish iqtisodiyotda mutanosiblikni ta'minlashni muhim omili bo'lib hisoblanadi va qattiq nazorat qilinadi. Buning uchun boshqaruv xarajatlarini qisqartirish, dotatsiyalarining har xil turlarini qoplash uchun mablag' ajratilishini tugatish, moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga markazlashtirilgan tarzda mablag' ajratishni cheklash, budget xarajatlarini keskin o'sishini chegaralab qo'yish siyosati olib borilmoqda va buning ijobiy natijalarini Respublikamiz davlat budjetining 2008 yildagi va 2009 yilning ijrosida ko'rish mumkin.

Muammanvo: Soliqqa tortishning zaruriyati va soliq tizimini takomillashtirish muammolari

3. Soliq va soliq tizimining mohiyati va vazifalari.

Bozor iqtisodiyoti mohiyatiga ko'ra iqtisodiy munosabatlar, odatda, ekvivalent

munosabat bo'lishi lozim. Shu bois davlat jamiyatdagi bajargan vazifalarining ma'lum bir iqtisodiy marbaini taqozo etadi. Masalan, ijtimoiy tadbirlar, mudofaa, davlatni boshqaruv tizimi va boshqalar ijtimoiy xizmatlar bo'lib, har bir muayyan jamiyat faoliyatining eng zarur ehtiyoji hisoblanadi.

Ammo jamiyatning bu ehtiyojini biror shaxs yoki korxona, konsern alohida tarzda ta'minlay olmaydi. Bu masala mamlakatning muayyan qonunlari asosida ishlab chiqilib, joriy etiladigan soliqlar bilan hal etiladi. Soliq milliy daromadni iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot

vazifalariga muvofiq taqsimlash va qayta taqsimlashni ta'minlovchi muhim vositadir. Soliqlar davlat budjetining asosiy daromad manbaidir. Soliqlar davlat (mahalliy tashkilotlar) bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi.

Soliq - bu mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'yekt daromadining bir qismini qonun asosida belgilangan shaklda va miqdorda davlat (mahalliy tashkilotlar) hisobiga olishdir. Soliqlar asosan, davlatning (mahalliy tashkilotlarning) firmalar, konsernlar, tashkilotlar hamda aholidan undirilgan pul mablag'laridir. A.Smit soliq to'lovchilar uchun qullik belgisi bo'lmay, balki ozodlik belgisidir, deb ta'riflagan edi. Soliq haqiqatda demokratik tarzda to'lov bo'lib, bozor munosabatlarga huquqiy asos bilan joriy etiladi.

Soliqlar soliq to'lovchilarning faqat daromadlaridan undirilishi lozim. Soliqlar tadbirkorlik faoliyati bilan hamda ishlab chiqaruvchining avanslashgan

Muammoli vaziyat: Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ngina xalqimiz soliq haqida, soliq tizimi haqida to'la ma'noda tushunchaga ega bo'ldi. Sobiq, sovet davrida esa soliq haqida tushuncha mavxumi edi. Lekin bundan buyon esa soliq tizimi borgan sayin takomillashib turli-tuman biz uchun yangilik bo'lgan qonun-qoidalar va voqeahodisalar kelib chiqmoqdaki, biz ularni doimiy ravishda o'rganib, tahlil qilib borishimiz zarur.

kapitali va normal tarzda takror ishlab chiqarishga uning ta'siri bo'lmastligi lozim. Demak, soliqlar ishlab chiqarishni normal rivojlantirishga ijobiy ta'sir etishi ko'zda tutiladi. Har bir mamlakat o'zining muayyan davrdagi vazifasidan kelib chiqqan soliq tizimiga ega. Soliq tizimi - bu, budjetga undiriladigan soliqlar majmui.

Respublikamiz sobiq SSSR tarkibida muhtoj davrida soliq va soliq tizimi haqida xalqimiz ongida, hattoki hukumat axbaratlarida ham yetarli bilimlar mavjud emas edi. Mustaqillik sharofati bilan respublikamizda o'zining soliq tizimiga asos solindi.

Yodda tuting! 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi tasdiqlangan va 2008 yil dekabrda yangi soliq kodeksi o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan tasdiqlandi.

Soliqlar iqtisodiyotda bir qator vazifalarni bajaradi. Bular ichida tubandagi uch vazifa alohida o'rin tutadi. Avvalo, soliqlar davlat xarajatlarini moliyalashni ta'minlaydi. Jamiyatdagi barcha ijtimoiy xizmatlar ("tovarlar") mamlakat aholisi tomonidan iste'mol qilinib, firmalar, korxonalar, korporatsiyalar bu xizmatlar uchun haq to'lashga qodir bo'lmaydi. Aynan shu maqsadlardagi faoliyatni soliqlar bajarib davlat xarajatlarini moliyalashni ta'minlaydi. Bu vazifa fiskal vazifa deb ham yuritiladi.

Ikkinchidan, soliqlar ijtimoiy vazifani, ya'ni ayrim ijtimoiy guruhlar daromadlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish uchun va teng sharoitlar yaratish kabi vazifani bajaradi. Ayrim tadbirkorlar hisob-kitoblarga ko'ra, boshqalarga nisbatan yuqori soliq stavkalari to'lashadi, o'zgalar esa ularga nisbatan kam soliq stavkalari to'laydilar.

Soliqlarning **uchinchi vazifasi**, davlatning iqtisodiyotini tartibga solishi, ya'ni tartiblashtirish vositasi bo'lishidir.

Soliqlar tizimini ma'lum bir tamoyillar asosida tashkil topadi. Bu tamoyillar ichida tubandagilar muhim hisoblanadi. Umumiylik, ya'ni huquqiy mulkiy shakllaridan qat'iy nazar barcha iqtisodiy sub'yektlar soliqqa tortiladilar. Muqimlik - barcha soliq turlari va ularning hajmlari qat'iy belgilangandir.

Majburlik - barcha soliqqa tortilgan sub'yektlar belgilangan soliqni o'z vaqtida to'lashlari darkor. Soliq to'lovining iqtisodiy mustaqilligi ko'zda tutilgan holda soliqni to'lashdan boshqa iloji yo'qlig' asosida, iqtisodiy choralar asosida majbur etiladi.

Teng ta'sir etish (yoki barchaga barobar ta'sir etish) - bu barcha soliqqa tortiluvchilardan ularning daromad va foydalarining salmog'iga monard soliq darajalari belgilanib undirilishidir. Buyuk ingliz iqtisodchisi U.Petti o'zining "Soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi traktat" asarida bu tamoyilni ifodalab shunday ta'kidlagan. "Soliqlar qanchalik ulkan (ko'p) bo'lmasin, agar u barchaga proporsional bo'lsa, bundan hech kim hayjini yo'qotmaydi."

Bizning Respublikamiz soliq tizimi ham progressiv xarakterga ega bo'lib, daromaddan soliq ushlashlar, daromad solig'i miqdorini va foizini o'rtib borishini kuzatish mumkin. 2009 yil 1 yanvardan boshlab daromad solig'i 13% qilib

belgilandi. (2002 yilda u 24% edi). Shuningdek, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qo'llanilayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliqning quyidagi stavkalari belgilandi:¹

- xarid ta'minlash-sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar, brokerlik firmalari yalpi daromadining 30% miqdorida;
- xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar yalpi tushgan mablag'ining 50% miqdorida;
- gastrol-konsert o'tkazishga litsenziyasi muhtoj yuridik va jismoniy shaxslar hamda norezidentlarni jalb qilish hisobiga ommaviy tamosha tadbirlarini uyushtirish orqali daromad oladigan korxonalar yalpi tushgan mablag'ining 35% miqdorida;
- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchisi bo'lmagan, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari umumiy tushumning 6% miqdorida;
- iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari yalpi tushumining 12% miqdorida. Lizing kompaniyalari esa lizing beruvchining foydasiga (marja) nisbatan foiz hisobida.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliq 2008 yil 1 yanvaridan boshlab ish haqi, muko'otlar va jismoniy shaxslar daromadi summasidan quyidagi miqdorda soliq olinadi:

2010 yil yanvar-mart oylari uchun ish haqining minimal hajmi (3 x 37680=113040) so'mni tashkil etadi.

	Soliq to'lash hajmi	Soliq summasi
1	$6 \times 113040 = 678240$ gacha so'm	11 foizdan daromad summasi.
2	678241 so'mdan (10×113040) 1130400 so'm	74606,4+17 foiz so'mdan 678240 so'mdan ziyod
3	113040 so'mdan va undan ortiqchasi bo'yicha	151473,6+22 foiz so'mdan ortig'idan

2003 yil 1 yanvardan reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotish solig'i bekor qilindi. Soliqqa tortiluvchi barcha aylanmalarga yagona qo'shimcha qiymat solig'i (KKS) 20% miqdorida saqlanib qolindi.

Ijtimoiy adolat yo'li soliqqa tortishda va soliq darajalarini belgilashda, imtiyozlar berishda barcha soliqqa tortuvchilarga teng sharoit yaratish, ayniqsa, kam daromadli sub'yektlarga, aholiga nisbatan alohida e'tibor berilishidir. Demak, soliq stavkalarining tabaqalashganligidir.

Soliq to'lov tizimi va uni amalga oshirish tartib qoidalari oddiy, tushunarli va soliq to'lovchilar uchun qulay hamda soliq yig'uvchilar uchun tejimli bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asarida islohotlarning soliqlar tizimida amalga oshiriladigan tamoyillari haqida alohida to'xtaladi. Bu sohadagi

¹ Adolat yo'li gazetasining 17 yanvar 2003 yil sonidan olindi.

islohotlarning asosiy maqsadi soliqlarni ixchamlashtirish ularni osonlashtirish va rag'batlantirish kuchini oshirishdan iborat.

Birinchi tamoyil-korxonalardan soliqlar yukini kamaytirish, ularga ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsiyalarga ega bo'lish, yangi texnologiyalar o'rnatish korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash, kadrlar malakasini oshirish imkoniyatlariga ega bo'lishlari uchun kerakli shart-sharoit yaratish.

Ikkinchi tamoyil-soliqlarning korxonalar va tashkilotlarning daromadidan emas, balki ularning foydalaridan olishga to'la o'tish. Islohotlarning birinchi bosqichida (1996 yilgacha) bunday soliq joriy etish uchun huquqiy va ijtimoiy sharoitlar yetishmas edi, ular hozir tayyorlangan. Shuningdek, hozir foydani soliqlardan yashirib olish kabi illatlarga qarshi alohida ma'muriy choralar ishlab chiqilganligi ham bunday tamoyilni qo'llashga sharoit tug'dirmoqda.

Uchinchi tamoyil - davlat va mahalliy soliqlar o'rtasida optimal (maqsadga muvofiq) mutanosiblik o'rnatish, mahalliy soliqlar ahamiyatini oshirish, davlat budjetidan mahalliy soliqlar tomon burilish qilish. Gap shundaki, Prezidentimiz ko'rsatishicha, islohotlar davomida makroiqtisodiyotni rivojlantirishga korxonalar, hududiy tarmoqlar iqtisodiyotini ko'tarishga ustuvorlik baxsh etish ko'zda tutilmoqda. Bunday sharoitda mahalliy soliqlar ahamiyatining ortishi o'z-o'zidan ma'lum.

Turtinchi tamoyil - korxonalarning iqtisodiy kuchaytirish, ularning daromadlaridan hududiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yechishda hissasini oshirib borish. Bunday tamoyil korxonalar, tadbirkorlar, ishbilarnonlar, barcha sohibkorlarning o'z qishlog'i, shahri, tumani, viloyati, sohasini rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Aholidan olinadigan soliqlar masalasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Zyero, daromad soliqlari odamlarni, ishlab chiqarishni, tadbirkorlikni, yaratuvchilikni rag'batlantiruvchi vositaga aylanmog'i darkor, soliq olishning ilg'or usullarini qo'llab olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Soliq tizimini barqarorlashtirish va davlatning fiskal siyosati.

Soliq tizimida soliq sub'yektlari va soliq ob'yektlari muhimdir. Soliq sub'yekti - bu soliq to'lovchilar, ya'ni soliq undiriladigan shaxs, firma, korxonalar va soliq undiruvchilardir. Ular quyidagicha tuzilishga egadir:

- *huquqiy shaxslardan undiriladigan soliqlar,*
- *jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar,*
- *huquqiy va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar.*

Ularning o'zlari, mol - mulki va daromadlari ham turlichadir. Iqtisodiyot qanchalik ko'p ukladli bo'lsa, soliq sub'yektlari ham shunga monand ko'payib boradi hamda ularning ijtimoiy mavqei o'zgaradi.

Soliq ob'yekti - bu soliq undiriladigan daromad yoki mol - mulkdir. Bular daromad, kapital, yer, xo'jalik, iqtisodiy faoliyat aylanishi, ayrim tovarlar va gonorar (ijod haqi) hamda qimmatli qog'ozlar va hokazo. *Ularni uch yo'nalishga ajratish mumkin.*

- *daromad (aholi, korxonalar, firmalar va boshqalar),*

- *mulk (harakatdagi mulk, ya'ni kapital sifatida daromad keltiruvchi) va harakatda bo'lmagan mulk,*

- *mulkni me'rosga qoldirishdan qimmatli qog'ozlar bo'yicha savdodan, bojxona to'lovlari va boshqalar.*

Soliq tizimi o'z ichiga soliq hududini, soliqni to'lov muddatlarini, soliq hujjatlarini oladi. Soliq hududi har bir mamlakat doirasida belgilanadi va aynan shu mamlakat hududiy bo'linishiga muvofiq shakllanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 12 - yanvardagi 14-sonli qaroriga muvofiq mamlakat soliq boshqaruv tizimi Respublika Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyatlar soliq boshqarmalari hamda tumanlar, shaharlar soliq inspeksiyalaridan tashkil topadi. Natijada uch pog'onali boshqaruv tizimi asosida tuman (shahar), viloyat va respublika miqyoslari aniqlanib, soliq hududlari belgilanadi.

Soliqlar o'zlarining tashkil topishi nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'linadi:

1) *to'g'ri soliqlar;* 2) *Egri soliqlar.*

To'g'ri soliqlar - daromad oluvchi shaxsning (mulk egasining) daromadidan (foydasidan) olinadi. Bunday soliqlarda haqiqiy va haqiqiy soliq to'lovchi bitta shaxs bo'ladi. Soliq avvaldan belgilangan bo'ladi. Soliq ob'yekti shaxslar daromadi va korxonalar, firmalar, tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasidir. Bu soliqlarni undirishda vositachi ishtirok etmaydi. To'g'ri soliqlar ob'yektlari foyda (daromad) solig'i, yer solig'i va daromad solig'idir.

To'g'ri soliqlar o'z navbatida ikkiga bo'linadi.

- *shaxsiy soliqlar;*

- *haqiqiy soliqlar.*

Shaxsiy soliqlar o'z ichiga quyidagilarni kiritadi:

- *aholidan undirilgan daromad solig'i;*

- *firmalar, korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar;*

- *mulkdan olinadigan soliq;*

- *kapital o'sishidan olinadigan soliq;*

- *myerosga qoldirish va mulkni sovg'a qilishdan undiriladigan soliq;*

- *foydani yoki kapitalni chet elga chiqarishdan olinadigan soliq.*

Haqiqiy (real) soliqlar o'z ichiga quyidagilarni kiritadi:

- *yer bo'yicha soliqlar;*

- *uy-joy bo'yicha soliqlar;*

- *qimmatli qog'ozlar, dividenddan olinadigan soliqlar.*

Egri soliqlar - tovarlar realizatsiyasi, qilingan xizmatlar amalga oshayotgan vaziyatning tugallangan sonidan iste'molchilar mahsulotga qo'yilib, undiriladi. Egri soliqlar korxona va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy yakunlariga bog'liq bo'lmaydi.

Ular sotilayotgan tovarlar va xizmatlar aylanishiga (bahosiga) ustama tarzda belgilanadi.

Egri soliqlar:

- *aktsizlar;*

- *bojxona to'lovlari;*

- *fiskal (monopol) soliqlar.*

- QOS.

Aktsiz solig'i xalq iste'moli tovarlariga va xizmatlarga qo'yiladigan soliq bo'lib, muayyan tovarning yoki xizmatning bahosiga kiritiladi. Aktsizlar mamlakatdagi ayrim import qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bojxona to'lovlari-egri soliqlarning muhim tarkibidir. Bojxona to'lovlari mamlakat chegarasi orqali o'tadigan tovarlardan undir ladi. Bojxona muassasalari bojxona to'lovlari asosida mamlakat tushqi savdo manfaatini ta'minlaydi. Bojxona to'lovlari fiskal, proteksion, antidemping, preferensial maqsadlarda qo'llaniladi.

Soliqlar quyidagi usullarda undiriladi:

Progressiv soliq usulida daromad o'sib borishi bilan o'tacha soliq stavkasining ko'payishidir. Soliq to'lovchilar daromadlari ko'payib borishi bilan to'lanayotgan soliq miqdorlari ham tez o'sib boradi. Natijada daromadlarning o'sishiga nisbatan soliq miqdori tez ortadi.

Regressiv soliq usulida, soliq miqdorlari tadbirkor daromadining o'sishiga nisbatan kamayib boradi. Ogibaida ayrim guruh to'lovchilariga imtiyozlar yaratiladi. Tadbirkorlar soni oshib boradi.

Proportional soliq usulida daromad miqdoridan qat'iy nazar o'tacha soliq stavkasi o'zgarmaydi. Amaliyotda uchala soliq undirish ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular asosida davlat ijtimoiy vazifani bajarishi ko'zda tutiladi.

Soliqlar nazariyasining eng muhim masalalaridan biri soliq miqdori masalasidir. Soliqlar miqdorining iqtisodiy faoliyatga ta'siri qandayligini Laffyer egri chizig'ida yaqqol ko'rish mumkin. Egri chiziq o'tacha soliq miqdori bilan budjetga soliqlar orqali tushadigan tushumlar o'rtasida o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi.


Bu yerda;

R - budjet soliqlari orqali tushadigan tushumlar;

N - soliq miqdori;

N* - qulay soliq miqdori, unda budjetga tushadigan tushumlar eng yuqori bo'ladi;

R max - budjetga tushadigan tushumlarning eng yuqori miqdori.



Bu borada bobokalonimiz Amir Temur ham o'tkazgan soliqlar to'g'risidagi islohotlarida dehqonlardan olinadigan tushumlarni tabaqalashtirish tamoyili ham atohida o'rin tutadi. Bu tushumlar miqdori yer va iqtisodiy sharoitlarga qarab belgilanishini talab qilingan. Masalan, yangi yer o'zlashtirib dehqonchilik qilayotgan kishilardan 1-2 yil soliq olmaslik keyingi yillarda esa u sarflagan sarmoyasining qoplashini e'tiborga olib soliq solish, yerning tabiiy unumdorligiga qarab hosilning 1/4, 1/3, 1/2 nisbatlarda tayinlanishi kabi tabaqalashtiruvchi soliqlar joriy etdi.

Davlat soliqlar siyosati asosida xo'jalik tuzilishini, baholarni, kapital qo'yilmalar, tashqi iqtisodiy faoliyat, atrof muhitni himoya qilish kabi bir qator yo'nalishlar bilan iqtisodiy yet rivojini tartibga soladi.

Soliq tizimi soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliq normasi, soliq undiriladigan daromadlarni aniqlash kabi ishlar iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Soliq tizimi muayyan mamlakat iqtisodiyoti xususiyatiga, taraqqiyotiga muvofiq tarzda shakllanadi. Soliq islohotlari o'tkazilishi natijasida soliq tizimining tuzilishlari o'zgaradi va muayyan davr talabiga muvofiq tarzda shakllanadi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bugungi davrida soliq tizimining barqarorlash yo'lida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tadbirlar belgilangan:

1. Soliqlar miqdorini kamaytirish.
2. Ishlab chiqarishni rag'batlantirishga ta'sir etish.
3. Daromadlar tarkibini aniqlashni takomillashtirish.
4. Moddiy, mehnat resurslaridan va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligiga soliqlar ta'sirini kuchaytirish.
5. Mahalliy budjetlar salmog'ini jiddiy oshirishda soliqlardan foydalanish.
6. Soliq to'plashda soliq faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'yektlar xarajatini kamaytirish hamda ular faoliyati samaradorligini oshirishga erishish va hokazolar.

Mana shu islohotlar natijasi o'laroq Respublikamizda 2009 yilning budjet daromadlari 103,2%ga bajarildi va u 105,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Budjet xarajatlari esa 105,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2007 yilda ta'lim muassasalarini rivojlanishi uchun 709 mlrd. so'm sarflandi. 2009 yilda sog'likni saqlash sohasiga esa 93,1 mlrd. so'm ajratildi. Aholining real daromadlarining salmog'i 2009 yilda 20,5 % ko'paydi. Shuningdek, davlat budjeti profitsiti rejadagi 10,3 mlrd. so'm o'rniga, amalda 17,3 mlrd. so'mga bajarildi. Budjet hisobidan investitsiyalar esa 28,2%dan 17,5%ga qisqartirildi. Budjetdan tashqari investitsiyalar 34,8%ga o'sdi. Eng quvonarlisi 2009 yilda inflasiya darajasi 8,7%ni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 7,4 %ni tashkil etdi.

Davlat, budjet, soliq va pul-kredit siyosati asosida iqtisodiy krizislarning oldini olishga ishlab chiqarish hajmini pasaytirmaslik, ishsizlikni o'stirmaslik, inflasiyani yo'qotish kabi iqtisodiy masalalarni hal qilishga harakat qiladi. Davlatning pul muomalasini tashkil etish bo'yicha tadbirlari, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida soliq tizimidan foydalanishi va aholini zarur ehtiyoj tovarlari bilan ta'minlash uchun qilgan xatti-harakati davlatning iqtisodiyotga aralashuvining eng yuqori darajasidir.

Jamiyatdagi barcha ijtimoiy xizmatlar mamlakat aholisi tomonidan iste'mol qilinib firmalar, korxonalar, korporatsiyalar bu sarflar uchun haq to'lashga qodir bo'lmaydi. Aynan shu maqsadlardagi faoliyatni soliqlar bajarib, davlat xarajatlarini moliyalashni ta'minlaydi. Xuddi shu vazifa davlatning fiskal siyosati ekanligini bildiradi.

Tayanch iboralar:

Moliya, davlat budjeti, daromad, xarajat, soliq, soliq yuki, soliq me'yori.

Takrorlash uchun savollar:

1. Moliya tizimining mohiyati nima, uning maqsadi va vazifasini tushuntiring?
2. Davlat budjeti, uning tarkibi, budjet taqchilligi nima?
3. Soliq yuki nimani anglatadi, soliq turlari va shakllarini tushuntiring?
4. Yangi soliq kodeksining mohiyatini va xususiyatini aytib bering?

ADABIYOTLAR

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va «stiqlol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni 'demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyul. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 31 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 y.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi, Toshkent 2002y. 1-bob. 8-33 betlar.
8. O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kiril va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma Farg'ona -2007.
10. Soliq kodeksi 2009 yil.
11. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1.

19-Mavzu. Bank -kredit tizimi. Bank-kredit, ularning iqtisodiyotdagi roli

Reja:

1. Banklarning asosiy vazifalari
2. Kredit. Kredit tamoyillari.
3. Foiz to'lovlari va darajasi
4. Bank turlari va ularni tartiblash siyosati.

Mavzuning maqsadi: Iqtisodiy istohotlar davrida bank-kredit tizimi va uning mohiyatini ochib berish.

Tayanch iboralar

Kredit, kredit mahlag'i, ssuda foizi, foiz normasi, tijorat krediti, ssuda'ning krediti, bank krediti, iste'mol krediti, davlat krediti, kulqan krediti, aksionerlik banklari, kooperativ banklar, bank operatsiyalari, emissiya banki, O'zbekistonda bank tizimi

1. **Banklarning asosiy vazifalari.** Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo'lgan aloqalariga xizmat qiluvchi muassasadir.

Pul bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar ko'p, ammo ularning markazida banklar turadi. Bank ishi bilan shug'ullanuvchilarni bankirlar deb atashadi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunida bank nima degan savolga quyidagicha javob topish mumkin.

MUAMMO-
Bavaz iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bank-kredit tizimini ishlatish va uning hozirgi kundagi muammolari.

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyati turlari majmuini amalga oshirishdagi yuridik shaxslardir.

O'zbekistondagi bank, tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki aksiyadorlik kommersiya (foйда topish

maqsadida o'z xizmati uchun pul olib ishlash) banklar, milliy va tarmoq, xususiy banklardan iborat.

Iqtisodiy jarayonlarning kengayishi va rivoji pul-kredit munosabatlarini to'xtovsiz takomillashib bank tizimida o'zgarishlar va yangi usullarni qo'llashni va inflasiyani oldini olishni talab qiladi.

Banklar pulni harakatcha keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo'ladigan jami hisob - kitoblarni bajaradilar. Hamma pul to'lovlari (transferti) banklar orqali o'tadi. Banklar quyidagi ishlarni bajaradi:

- pul, qimmatbaho buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo'ladigan hisob-kitob operatsiyalarini, pul to'lash ishlarini bajaradi;
- chet el valyutasini sotadi va sotib oladi;
- o'z qo'lidagi pulni qaytarishlik, foizlik va muddatlik shartlari bilan unga muhtojlarga qarz (ssuda)ga beradi, ya'ni kredit bilan shug'ullanadi.
- o'z puliga aksiya sotib olib uni boshqa sohaga joylashtiradi;
- biznes yuzasidan maslahat beradi va hokazo.

Bank ishi pul olishda bo'ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi. Pul olish naqd pullar va naqd bo'lmagan pullar harakatidan iborat. Odatda ularning nisbati 1:10 bo'ladi. Naqd pul bankka qo'yilib, naqd bo'lmagan pulga aylanishi va aksincha, bank hisobdagi naqd bo'lmagan pul naqd pulga aylantirishi mumkin. Naqd bo'lmagan pullar bank depozit shakliga ega, ya'ni firmalar, jamoa tashkilotlari, davlat muassasalari va ayrim fuqarolar o'z pullarini bankdagi depozit hisob varog'ida saqlaydilar.

Depozit ikki xilda:

A) joriy depozitga qo'yilgan pul uchun uning egasi bankdan haq (foiz) olmaydi, bank esa qo'yilgan omonatni egasining talabiga binoan darhol qaytarib berish majburiyatini oladi. Bunday pul hisob varag'i muhatsiz hisob varog'i deyiladi.

B) muhlatli depozitga qo'yilgan pul uchun bank uning egasiga foiz to'lovlarini to'laydi, ammo bu pul uning egasiga xohlagan vaqtda emas, ma'lum vaqtdan, masalan, bir yildan so'ng va buni barvaqtrog' oqohlantirilgandan so'ng qaytariladi.

Depozitdagi pulni naqd pulga aylantirib olish mumkin, lekin bunga har doim ham zarurat bo'lmaydi, Chunki depozitdagi mablag' hisobidan chek berish va chekka kerakli narsani xarid qilish mumkin.

Chek pulning o'rinbosari, u to'lov vositasi sifatida qabul qilinadi.

Faqat omonatni saqlashga moslashgan banklar seyf banklari deb yuriladi. Ammo seyf boshqa banklarda ham bo'lishi mumkin. (Seyf-bo'ylik saqlanadigan po'lat sandiq). Seyf bank mijozlarining naqd puli, o'zidan yasalgan buyumlar, qimmatbaho toshlari (olmos, dur, g'ayhar, yoqut va h.k.), har xil javohirlar, taqinchoqlari, asori-atiqalar (qadimiy buyumlar)ni saqlab bergani uchun haq oladi. Mazkur buyumlar seyflarning maxsus tokchalarida qulfi-kaliti qilib saqlanadi. Tokchani kaliti va uning ochilishi ish atiladigan maxfiy raqami (kod) omonat egasiga beriladi. Bank xizmatidan foydalanib o'z ishini bitiruvchilar bank menejerlari deb yuritiladi. Bank o'z mijozining topsirig'iga ko'ra, uning pulini kerakli joylarga to'lab turadi. Masalan, firmaning depozit varog'ida 10 million so'm bo'lsa, shundan 1 million so'mni firma nomidan ijara haqi, soliq, sug'urtasi puli sifatida to'lash mumkin.

E'TIBOR BERING!

Bank bir to'lovni ikki to'lov bilan qoplash ishini ham amal qiladi. Bunday ishni bajarish klining operatsiyasi deyiladi. Klining banklar bergan cheklar, xizmatlarga qabul mijozlarining o'ziga to'lovlarni bajarishni bildiradi. Cheklar bilan bo'ladigan o'zaro pul to'lash hisob-kitoblari banklar qoshinaga klining palatasi degan tashkilot bajaradi. Banklar o'z mijozlariga kredit kartochkalari beradi. Shu xarakterda naqd pul yoki chek o'rnatilgan.

Banklar o'z mijozlariga qulaylik yaratish uchun naqd pul beradigan avtomatlar orqali xizmat ko'rsatadi. Bank pul egasiga kod nomeri ko'rsatilgan kartochka beradi. Kartochka avtomatga qo'yib kod nomeri aytilgach, avtomat

darhol aytilgan naqd pulni chiqarib beradi. Bu usul juda qulay bo'lib, pulni qishin-yozin, kechayu-kunduz istalgan vaqtda olish mumkin.

Valyuta banklarining ayirboshlash idoralari bo'lib, ular bir valyutani boshqasiga belgilangan narxda sotadi. Banklar valyuta auktsionniga qatnashib, katta miqdorda valyuta sotib oladilar, shuningdek, aholidan ham valyutani xarid etadilar, so'ngra sotib bu ishdan daromad ko'radilar.

Banklarda valyuta hisob varaqada bo'ladi va pulni chet elga o'tkazish mumkin. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bergan «viza karta», Gyermaniyadagi «Doych bank» dan valyuta olinadi.

Pul bor joyda qarz olish va qarz berish yuzaga keladi. Bu ishini banklar bajaradi. Pulning o'z egasi qo'lga kelib tushishi va ishlatilish bir vaqtda bo'lmaydi. Masalan, tovar sotishdan tushgan pul korxonaga yanvar oyida kelsa, uni ishlatish avgust oyida yo'z beradi, demak pul yetti oy ishlamay bo'sh turadi. Ayni bir vaqtda boshqa korxonaning kutgan puli uch oy kechikib tushadi, shu sababli pulga muhtojlik paydo bo'ldi. Pulga muhtojlar qarzga pul axtaradilar. Natijada puli borlar bilan pulga muhtojlar o'rtasida kredit aloqalari yuzaga keladi.

Kredit pulni ma'lum shartlarga rioya etgan holda qarzga berish uni qarzga olib ishlatishini bildiradi.

Bank o'zgalar pulini jamlab, uni o'z nomidan kreditga beradi. Ammo banklar faqat depozitdagi o'zgalar pulini qarzga beradi deb o'ylash noto'g'ri, Chunki banklarning ham o'z puli bor. Bu pul bankni ta'sis etuvchilar unga dastlabki kapital sifatida ajratgan mablag'dan va foydaning kapitalga qo'shilgan qismidan tashkil topadi.

2. Kredit. Kredit tamoyilari.

1. Kreditning ma'lum muddat uchun berilishi qarz olinganda, albatta uning qanday muddatda berilishi kredit bitimida kelishilib olinadi. Kredit bitimi bank bilan qarz oluvchi o'rtasidagi bitim bo'lib, unda kreditning qanday muddatga berilganligi, kredit uchun qanday haq to'lanishi va kreditni qaytarishlik kafolatlari qayd etiladi.

2. Kredit uchun haq to'lash zarurligi. Bank qarzni tekinga bermaydi, buning uchun qarzdordan foiz undiriladi. Foiz bu qarz haqidir.

3. Qaytarishlik, ya'ni kreditni albatta qaytarib berish shart. Qarzni to'lashga qobillik - bu qarzdorning bankdan olgan pulni qaytara olishi va bankka foizni to'lay bilishi.

4. Kreditning kafolatlanishi. o'zgalar omonatiga xiyonat qilib bo'lmaydi, shu sababli kreditning qaytarilishi kafolatlash bankning ishi. Bu tamoyil yo'lida bank qarzdor mol-mulkini garovga qo'yishni talab qiladi.

Pulni haq to'lash sharti bilan qarzga berish mazmunan uni sotish hisoblanadi va bunday oldi-sotdi bozorida yo'z beradi.

Pul bozori vaqtincha ishlatilmay turgan pulni pulga muhtojlarga foiz to'lash sharti bilan qarzga berish, ya'ni uni ma'lum narxda sotish yuzasidan paydo bo'lgan iqtisodiy munosabatdir.

Firma, kompaniya, fermer, ishchi-xizmatchilar, nafaqaxo'rlar, davlat idoralari, mulk sohiblariga tekkan pul daromadining bir qismi sarflansa, ikkinchi qismi

yig'ilib, jamlanadi. Pulning jamlanishi esa bankda yo'z beradi. Jamlangan pul bank orqali pul bozoriga tushadi.

Pul bozori ikki turga bo'linadi:

1) Oddiy to'lov vositasi bo'lgan pul bozori. Bu bozorda pul qisqa muddat kreditga beriladi.

2) Kapital bozori. Bu bozorda pul kapital sifatida uzoq muddatga qarzg beriladi, ya'ni qurilishga, investitsiyaga beriladi.

3. Foiz to'lovlari va darajasi. Kredit iste'molni qondirish uchun tovarlar sotib olish maqsadlariga mo'ljallanganda iste'molchi krediti deb ataladi.

Kredit kapital hosil etib, undan foyda topish mo'ljallanganda faidbirkorlik krediti deb ataladi. Bank faqat pul bilan emas, balki veksellar orqali ham kredit beradi.

Veksel qarzdor tomonidan ma'lum miqdordagi pul qarzini qarz beruvchiga belgilangan muddatda qat'iy to'lash majburiyatlarini bildiruvchiga belgilangan muddatdan qat'iy to'lash majburiyatlarini bildiruvchi hujjat yoki qarzdorlik guvohnomasi, masalan, 100 000 so'mlik veksel bank tomonidan 98 000 so'mga olinadi, qaytarilganda esa unga 100 000 so'm to'lanadi. Oradagi 2000 so'm bank uchun vekselni diskontlashtirish haqiga o'tadi.

Bozor iqtisodiyotida kredit pul shaklida beriladi va u bank kreditidan iborat.

Ammo tovar krediti ham qo'llaniladi. Uning ikki ko'rinishi mavjud:

- 1) kommyertsiya krediti,
- 2) bunda tovarlar kreditga, ya'ni nasiyaga beriladi.

Xaridor sotuvchiga o'z qarzini tasdiqlovchi guvohnoma - vekselga beradi. Nasiyaga berilgan tovar necha so'm tursa, shu qarz miqdori hisoblanadi. Masalan, nasiyaga 100 ta palto har bir palto 1500 so'm (100×1500) 150000 so'mlik qarz hisoblanadi.

Lizing, bankda lizing shartnomalari bo'yicha qimmat turadigan mashina va uskunarlar qarzga olib ishlatiladi. Ularni naqdga sotib olish uchun kichik firmalarning puli etmaydi. Masalan, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi Gyermaniyaning «Lyuft Xanza» aviakompaniyasidan bir necha samolyotni lizingga olib foydalanilmoqda.

YODDA TUTING!
Mijoz kredit olish uchun xujjatlarini bankdagi maxsus kredit komissiyaga topshirgandan so'ng, besh bank ish kuni ichida unga kredit berishi va bema'slik to'g'risida javabi berilishi lozim.

YODDA TUTING!

Respublikamizda qashloq xo'jaligi mashinalari lizingga amalga oshirish 7 yil muddatidan iborat jarayon, uning tartibi quyidagidir:

Lizing oluvchi dastlab 15% bo'nak to'laydi. Shundan so'ng 7 yil davomida lizing shartnomasiga bo'yicha summalarni to'lab boradi. Ma'lum tugaganidan so'ng esa qashloq qiyimat bo'yicha lizingga olingan uskunar sotib oladi. Lizing kompaniyasini moliyalashtirish esa Moliya Vazirligi ma'muriyati orqali amalga oshirilishi o'z zimmasiga o'tadi.

Pul omonati bankda turadi, lekin pulni qo'yish va olish hech qachon bir vaqtda yo'z bermaydi. Shu sababli bank ixtiyorida pul miqdori pul egalari talabiga ko'ra bir yo'la olinadigan puldan ko'p bo'ladi. Masalan, bankka o'n yil davomida 100 million so'm pul qo'yilsa, undan 20 million so'm qaytarib olinadi. Qolgan 80 million so'm bank ixtiyorida turadi. Uni bank qarzga beradi.

Bank o'z mijozlariga chek bilan to'lash sharti asosida joriy (chekli) hisob-varoq ochadi. Natijada naqd bo'lmagan pul ko'paytiriladi, ya'ni kredit emissiyasi yo'z beradi.

Kredit emissiyasi qarz berish uchun mo'ljallangan va naqd bo'lmagan pulni qo'shimcha ravishda muomalaga chiqarishdir. Kredit emissiyasi kelajakda topiladigan pulni hozir qarz berishdir. Kredit emissiyasi hisobidan pul qarzga ikki turda: 1) qimmatbaho tovarlarni (uy, avtomashina, yaxta, dala hovli) sotib olish uchun. Qarzdor bu pulni kefaqakda ishlab topgan daromadi hisobidan o'rniga qo'yadi.

2) kelajakda yaxshi foyda beruvchi tadbirkorlik loyihalari (korxona qurish, sex, magazin yoki tomosha joyi ochish) uchun, pulni o'rniga qo'ymaslik xavfini oldini olish kredit zahira hisoblanadi.

Kredit zahiralari kredit uchun mo'ljallangan pulning bir qismi bo'lib, banklar tomonida bo'lib, banklar tomonidan pul zahirasi tariqasida markaziy bank ixtiyoriga o'tkaziladi. Buni odatda zahira talabi deyiladi. Emissiya kredit zahirasidan oshib ketishi mumkin emas. Foiz darajasi ko'p omillarga bog'liq, ular quyidagilar:

1) Pul bozorida kreditga bo'lgan talab va taklifning nisbati. Talab ko'p bo'lsa foiz ortadi, agar kredit taklifi ortsa foiz kamayadi.

2) Qarz puli keltiradigan naf. Agar bu pulni ishlatishda ko'proq foyda bersa, yuqori foiz ma'qul ko'riladi.

3) Qarzni to'lash muddati va sharti. Agar qarz uzoq muddatga olinib, uni qismlarga bo'lib va asta sekin to'lab boriladigan bo'lsa qarzdorga qulaylik yaratiladi va u yuqori foizga ham rozi bo'ladi, Chunki pulni uzoq davrda ishlatib yaxshi foyda topilsa, foizni to'lash engil kechadi. Qarz qisqa muddatga berilsayu, uni bir yo'la to'lash kerak bo'lsa, foiz pasayadi Chunki pulni ishlatib daromad olish va foizni to'lash qiyin bo'ladi.

4) Qarzning qanday pul bilan berilishi. Agar kredit qadri baland, ya'ni erkin muomaladagi valyutada berilsa, foiz yuqori, oddiy boshqa valyutalarga erkin almashtirmaydigan valyutada berilsa past bo'ladi. Ya'ni qadri baland valyutani ishlatish yaxshi foyda keltiradi va foizni to'lash og'irlik qilmaydi.

5) Inflatsiya darajasi. Inflatsiya sur'atlari yuqori bo'lsa, foiz katta, aks holda kamroq.

6) Pulni muqobil ishlatish imkoniyati. Agar pulni qarzga berish o'rniga boshqacha ishlatish nafli bo'lsa, kreditning qisqartirib foiz ortadi.

7) Qarz berishning xatar darajasi. Qarzni qaytarib olishning xatari qanchalik ko'proq bo'lsa, foiz ham shunchalik ortadi, yoki aksincha.

Pul bozorda kreditning qancha turishi foiz darajasiga qarab bo'lishi mumkin. Masalan, bir million so'm kredit berilsa, unga 100 ming so'm foiz olinadi. Demak

foiz kreditning undan bir qismiga teng. Bank to'laydigan foiz bilan undan oladigan foiz orasidagi farq marja deyiladi.

Masalan, bank depozit uchun 10 foiz haq to'lasa, kredit uchun 14 foiz haq undiriladi. Har ikkala foiz orasidagi farq (14-10=4) marja va bank foydasi uchun manbaa hisoblanadi. Marja qancha ko'p bo'lsa va bank xarajatlari qancha kam bo'lsa, bank foydasi shunchalik ortadi.

Marja bankning asosiy daromadi. Bank kredit berish, xizmat ko'rsatish, valyuta va qimmatli qog'ozlar operatsiyasidan daromad ko'radi.

4. Bank turlari va ularni tartiblash siyosati. Bank tizimida davlatga qarashli bo'lgan Markaziy banklar alohida o'rin tutadilar.

E'TIBOR QILING

Tijorat banklarini ochish, ro'yxatga olish va faoliyat tartibi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini ochish, ro'yxatdan o'tkazish va tugatish «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida», «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoyalashi to'g'risida» va «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi qonunlar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 1996 yil 2 martdagi qarori bilan (6-sonli qayd etma) tasdiqlangan.

7-sonli «Banklarni tashkil etish va faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi Qizilma bilan tartibga solindi».

Markaziy bank banklarning banki deb ataladi va bank o'zagini tashkil qiladi.

Markaziy banklar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradilar:

1. Pul emissiyasi vazifasini o'taydi, ya'ni muomalaga qog'oz va tanga pullarni chiqaradi, pul muomalasini nazorat qiladi.
2. Davlat xazinasini, valyuta boyligini saqlayci. Davlatning xazinasiboni hisoblanadi.
3. Zahirasini o'z qo'lida tutib turadi, bu zaharani kredit talabiga qarab, banklar o'rtasida taqsimlaydi.
4. Davlatning monetar (pul) siyosatini amalga oshiradi, bank ishi umuman kredit munosabatlariga oid qoida tartiblarni belgilab, ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Mamlakatimizda milliy bank, tarmoq banklar, ijarat va tadbirkor banklar bo'ladi. Banklar orasida tadbirkor banklari muhim o'rin tutadi.

Tijorat banklari likvidlikni ta'minlash va foyda olib ishlash qoidalariga asoslangan holda faoliyat olib boradi. Likvidlik bank mablag'larini naqd pulga tezda aylantira bilishini ifoda etadi. Bank qo'lidagi naqd pullar mijozlarga qisqa muddat uchun beriladigan kreditlar, xazina veksellari yuksak likvidlikni ta'minlovchi mablag' hisoblanadi.

Bankning qo'lidagi binolar, har xil mashina va uskunalar, asori-antiqu buyumlari, san'at asarlari va uzoq muddatli kreditlar nolikvid vositalar hisoblanadi. Chunki ular tezda naqd pulga aylanmaydi.

Likvidli mablag'lardan foyda kam bo'ladi. Daromad keltirmaydi. Nolikvidli mablag'lar, aksincha daromadni ko'proq beradi. Kommyertsiya banklari o'z ishi uchun javobgar, o'z xarajatlarini to'la qoplab foyda ham olishi kerak. Chunki u biznes bilan shug'ullanadi, buning uddasidan chiqmagan bank bankrot bo'lib yopilib ketadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini oldini olish maqsadida O'zbekistonda pul-kredit siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan 2009-2012 yillarga mo'jallangan inqirozga qarshi choralar dasturida pul-kredit tizimini yumshatish va keyingi rivojlanishni amalga oshirilmoqda. 2009 yilda Markaziy bank inflatsiyaga qarshi qayta moliyalash stavkasini o'zgartirmagan hisobiga 14 foiz ushlab turdi. Real tarmoqlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 2 barobarga ko'payib 3 trln. so'mga etdi. Bu xalqaro me'yordan 3 barovar ko'pdir. Bank aktivlari 30 foizdan ortib, 15,7 trln so'mdan oshdi. Banklarning investitsiya maqsadiga yo'naltirilgan kreditlari 70 %ga oshib, 2000 yilga nisbatan 14 barobarga oshdi. Xorijiy investitsiyalarning miqdori 5,6 mlrd dol.ni tashkil etib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya 70 foizni tashkil qildi. Kichik biznesga 1,85 trln. so'm kredit berildi.

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston bank tizimining tashkiliy strukturasida qanday?
2. Bank depozitlari va ularning turlari?
3. Maqd pulsiz operatsiyalar va uning mohiyati?
4. Kimlar bank menedjyerlari hisoblanadi?
5. Kliring operatsiyalari va uning mohiyati?
6. Kredit va uni olish tartibini tushuntirib bering?
7. Kredit shartnomasi tuzish tartibi qanday?
8. Lizing operatsiyalari va uning respublikamizdagi tashkiliy tuzilishi?
9. Markaziy bank va tijorat banklari faoliyati va turlari.
10. Likvidlik darajasi va uni hisoblashni tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqbol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lina.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi 2010 yil 30 iyul. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 31 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. 2002y. 1-bob. 8-33 betlar.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: T. 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.

20-Mavzu. Qimmatli qog'ozlar, ularning o'rni va roli

Reja:

1. Qimmatbaho qog'ozlarning mohiyati va turlari.
2. Qimmatbaho qog'ozlarning birlamchi ro'yxatdan o'tish va aylanishi.
3. Qimmatbaho qog'ozlarni ikkilamchi ro'yxatdan o'tkazish va fond birjalari.

Mavzuning maqsadi: Talabafarni bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelgan qimmatli qog'ozlar bozori bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlari bilan tanishtirish.

Tayanch iboralar

Qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho qog'ozlar bozori, qimmatbaho qog'ozlar turlari, qimmatbaho qog'ozlari bozori, birlamchi va ikkilamchi ro'yxatdan o'tish, aylanishi, fond birjalari, broker, dilor, aktyor, obliqatsiya, aksiyalar, qimmatli boshqariladigan bozor.

1. Qimmatbaho qog'ozlarning mohiyati va turlari. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning 2-bosqichi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Chunki endilikda qimmatli qog'ozlar bozoriga jiddiy e'tibor berila boshladi. Shundan, uning ikkilamchi bozorini tashkil qilinishiga erishildi.

Ma'lumot uchun!

Qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorini yanada rivojlantirish

chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining Qarori

MUAMMO:

O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozorida ikkilamchi bozorini rivojlantirish muammolari.

1. Belgilab qo'yilsinki, ikkilamchi bozorda ochiq aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining oldi-sottisiga doir birlashuvlar faqat qimmatli qog'ozlarning birja bozorlarida hamda uyushgan birlashgan tashqari bozorlarida amalga oshirilsin. Ikkilamchi bozorda ochiq aksiyadorlik jamiyatlar aksiyalarining oldi-sottisiga doir fond birjalarining hamda tegishli litsenziyalarga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarning birlashgan tashqari savdolari tashkilotchilari savdo tizimlaridan tashqarida tuzilgan birlashuvlar haqiqiy emas deb hisoblansin.

Respublikamizda tashkil etilgan «Toshkent» Respublika fond birjasi faoliyati juda ko'p vaqt bo'lganicha yo'q. Shunday bo'lsada, hozirgi kunda u qimmatli qog'ozlar aksiyalarini amalga oshirish Respublikada qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etish va rivojlantirish borasida muhim rol o'ynaydi. Lekin shuni aytish kerakki, Respublikamiz qimmatli qog'ozlar bozorida ikkilamchi bozor tashkil etishida bir qator muammolar mavjud.

2. Belgilansinki, aksiyalari «Toshkent» Respublika fond birjasi listingining yuqori toifalariga («A» toifasiga) kirgan aksiyadorlik jamiyatlar uchun 2005 yil 1 yanvargacha daromad (foyda) solig'i stavkalari amaldagiga nisbatan 10%ga kamaytiriladi, bo'shah qolgan mablag'lar ishlab chiqarishni texnika bilan qayta jihozlashga va zamonaviylashtirishga yo'naltiriladi.

3. «Toshkent» Respublika fond birjasi istisno tariqasida uch yil muddatga qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod etilsin, bo'shab qoladigan mablag'lar uning savdo va ahborot tizimlarini rivojlantirishga va asbob-uskunalar xarid-qilishga maqsadli yo'naltiriladi;
4. Quyidagilar: Qimmatli qog'ozlar bozorida hisob-kitob kliring palatalari to'g'risidagi Nizom; O'zbekiston Respublikasi depozitariy tizimida deponeentlarning yagona tizimi to'g'risidagi Nizom tasdiqlansin.

Fond birjasi infrastrukturasi jadal sur'atlari bilan tashkil qilish maqsadida investitsiya kompaniyalari va fondlari, kliring palatalari va fond do'konlari, reklama firmalari va XIF (xususiy investitsiya fond)lari shakllantirildi.

Zyero, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi natijasida:

- pulning aylanishi tezlashadi va qadrsizlanish jarayoni sekinlashadi;
- qimmatli qog'ozlar egalarini daromadli qilishga va ularning mulkdorga aylanishiga zamin yaratiladi;
- investorlar va aholining vaqtinchalik bo'sh pul, mablag'laridan samarali foydalanishga erishildi;
- daromad olishning yangi vositalari yaratishga imkon tug'iladi;
- iqtisodiyotning pul mablag'lariga ehtiyojmand sohalarni mablag' bilan ta'minlashga erishiladi.

Muomalada pul mablag'larini qayta sarmoyalash uchun uning samarali ishlatilishiga imkoniyat tug'iladi. Shu boisdan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab nafaqat korxona va tashkilotlar, balki fuqarolarimiz o'rtasida ham qiziqish oshib bormoqda.

Qimmatli qog'ozlar - bu ularning chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir.

O'zbekiston Respublikasi hududida qimmatli qog'ozlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Aksiyalar - aksiyadorlik jamiyatning nizom fondiga yuridik yoki jismoniy shaxs muayyan hissa qo'shganidan guvohlik beruvchi, aksiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi hamda qatnashish huquqini beruvchi, amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'ozlardir.
2. Obligatsiyalar - ufarning egasi pul mablag'lari berganligini tasdiq etuvchi va qimmatli qog'ozlarning belgilangan qiymati ularda ko'rsatilgan muddatda, qayd etilgan foiz to'langan holda, bashorati obligatsiyalarini chiqarish shartlarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli hujjat qog'ozlardir.

Quyidagi turlarda obligatsiyalar chiqariladi:

- respublika ichki zayomlarning va mahalliy zayomlarning obligatsiyalari;
- korxonalar obligatsiyalari.

Obligatsiyalar oddiy va yutuqli, foizli va foizsiz (maqsadli), erkin muomala doirasida cheklangan qilib chiqarilishi mumkin, maqsadli obligatsiyalarning

rekviziti obligatsiyalar qaysi mollar uchun chiqarilgan bo'lsa, shu mollarini (xizmatlarini) aks ettirishi shart.

3. Veksellar - ularda ko'rsatilgan muddat kelganda veksel beruvchi muayyan pul summasini veksel egasiga (veksel oluvchiga) so'zsiz to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlardan guvohlik beruvchi qimmatli qog'ozlardir.

Veksellar xazina va tijorat vositalariga, oldiy va yuboriladigan veksellarga bo'linadi. Veksellarni chiqarish hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Moliya Vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.

4. Chek - maxsus pul hujjati; chekni imzolaganing joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o'tkazish haqida banka yozma farmoyishni ifoda etadi.

5. Aksept - to'lov hujjatiga rozilik bildirib chekilgan imzo va yozuv.

6. Kafolat - agar kafolat muddati etgunga qadar kafolat holati ro'y bersa, kafolatlangan summani to'lash, lekin bu asosiy shartnomani to'ldiradigan akt hisoblanmaydi.

7. Pul - umumiy ekvivalent hisoblangan maxsus to'vardir, bank banknoti deb yuritiladi.

8. Garov qog'oz - qimmatbaho qog'oz bo'lib garov muddati kelganda o'z majburiyatlarini bajarib qarzini to'lamasa, qarz bergan kreditorga ko'chmas mulkni sotib yuborish huquqini beradi.

9. Mulk-garovi - ko'chmas va ko'chuvi mulkka kreditorning ashyoviy davosi bo'lib yoki agar qarzdor o'z vaqtida majburiyatini bajarmasa, garovga qo'yilgan mulkni sotishdan badal undirishga huquq beradi.

10. Auktsion - shartnoma bo'lib, auktsionga ega bo'lgan shaxsga ma'lum muddatga belgilangan bahoda ma'lum miqdordagi aksiyani auktsion sotgan shaxsdan sotib olish huquqini beradi yoki unga sotish ta'min.

11. Kafillik - bir tomonlama majburiyat asosida tuzilgan shartnoma bo'lib, kafolat beruvchi olgan qarzini kreditorga zarur bo'lganda qaytarib berish majburiyatini oladi.

12. Sertifikat - bank elementi mablag'ni egaligi to'g'risida yozma guvohnoma bo'lib, mablag' qo'yg'an odamga belgilangan muddatda qo'yilgan mablag'ni protsenti bilan olish huquqini beradi. Sertifikat banklarga bo'sh turgan pullarni jalb qilish imkoniyatini beradi. U ikkinchi bozorda qayta sotilishi mumkin.

13. Tilxat - o'zga kishidan (mol-mulk) pul olganligi uchun berilgan yozma hujjat.

14. Vasiyatnoma - otasi, onasi, qarindosh-urug'i o'zining vorislarga mol-mulkin qoldirganligi to'g'risidagi yozma hujjat.

15. Sadaqanoma - biror kishining yaqin qarindoshi va boshqa shaxslarga mol-mulkin, boyligini qoldirganligi va sovg'a qilganligi to'g'risidagi hujjat.

16. Depozitlar - pul qo'yilganligi, bironi qarzdor qilib qo'yg'anligi to'g'risidagi hujjat.

17. Paylar - ishtirokchilarning har biri tomonidan shirkat ishiga to'lanadigan barcha summasi, hissa, qism, a'zolik va boshqarishda ishtirok etish (masalan, ko'pyeratsiya pay, aksionyer pay) guvohnomasi hisoblanadi.

2. Qimmatbaho qog'ozlarning birlamchi ro'yxatdan o'tish va aylanishi

Qimmatli qog'ozlar bozori - deganda jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli

qog'ozlar chiqarishi, ularning muomalada bo'lishi va haqni to'lash bilan bog'liq amallarning bajarishini ta'minlovchi bozor (tizim) tushuniladi.

Qimmatli qog'ozlar bozor ikki o'zaro bog'langan - birlamchi ikkilamchi qismlardan iborat. Birlamchi bozorda qimmatli qog'ozlar bosib chiqariladi (emissiya) va birlamchi shaxslarga egalikka beriladi va sotiladi.

E'tibor qiling!

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi qimmatli qog'ozlarga soliq solish to'g'risidagi (1996 yil 23 fevral) xatiga binoan qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish prospektini qayd qilish uchun emissiya nominal qiymatining 0,1 foiz miqdorida soliq solinadi.

To'lanmagan soliq uch kun ichida Respublika budgetiga tushishi lozim. Mijozlarning topshirig'a binoan va ular hisobidan vo'jtachilik operatsiyalarini bajarayotgan va birinchi marta qimmatli qog'ozlarni emissiya qilganlar soliq to'lashdan ozod etiladilar.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi - ularni dastlabki egalari (investorlar) yuridik va jismoniy shaxslarga sotish yo'li bilan qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishdir. Emissiya risolasini chiqarish uni ro'yxatga olish tartibini, shuningdek emissiya risolasida e'lon qilinishi shart bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Markaziy Bank bilan birgalikda kelishilgan holda belgilaydi.

3. Qimmatbaho qog'ozlarni ikkilamchi ro'yhatdan o'tkazish va fond birjalari. Ikkilamchi bozorda esa ularni, oshirilgan narxda sotish imkoniyati muhim omil bo'lib hisoblanadi. Uning funksiyasi - qimmatli qog'ozlarni oldi-sottisini tezkorlik bilan ta'minlashdir. Bunda sotuvchi va xaridorni uchrashtirish, bo'sh kapitalni iqtisodiyotning eng unumli sohasiga zudlik bilan safarbar qilish, tomonlarning o'zaro manfaatlarini ta'minlash ikkilamchi bozorning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Ikkilamchi bozor ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Nobirjaviy bozor

2. Birjaviy bozor.

Nobirjaviy qimmatli qog'ozlar bozori - bu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishini ta'minlovchi muhit bo'lib, unda fond birjalariga sotuvga qo'yilmagan qimmatli qog'ozlarning erkin savdosi dillerlar tomonidan maxsus telekommunikatsiya tarmoqlar (telefon, telefaks, komputer vositalari) yordamida amalga oshiriladi.

Nobirjaviy qimmatli qog'ozlar bozori bizning respublikamizda ham shakllana boshlayapti. Hozirgi kunda ular brokerlik idoralari, investitsiya kompaniyalari va xususiy lashtirish investitsiya fondlari qoshidagi fond birjalari do'konlari shaklida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Birjaviy qimmatli qog'ozlar bozori - bu fond birjasi bo'lib, u belgilangan tartibda qimmatli qog'ozlarning erkin savdosini brokerlar (vositachilar), maklyerlar (dalolalar), dillerlar (savdogarlar) tomonidan amalga oshirilishini ta'minlab beruvchi bozordir.

Birja - bu bozorni uyushtirishning tashkiliy shakli. U turli ko'rinishlarda bo'ladi.

1. Tovarlar birjasi (tovarlar bozori).

2. Fond birjasi (qimmatli qog'ozlar bozori).
3. Valyuta birjasi (valyuta bozori).
4. Mehnat birjasi (ishchi kuchi oldi-sotdi bozori).

Fond birjasi - bu qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi muomalasini qo'llab-quvvatlaydigan maxsus tashkiliy joy. Uning oldida quyidagi vazifalar turadi:

A) qimmatli qog'ozlar bir maromda muomalada bo'lishining zarur sharoitini ta'minlash;

B) qimmatli qog'ozlar talab va taklifi o'arasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni, ya'ni bozor bahosini belgilash;

V) qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada saqlab borish;

G) muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) narx-navo aniqlanishiga indeksatsiyasi o'zgarishiga, savdo-sotiq vaqti, qimmatli qog'ozlar, b'lim hajmlari, kontraktlarning miqdoriga va boshqa ko'rsatkichlarga doir axborotlarni, birjaning holati va uning rivojlanishiga doir ta'miniy shartlarni kelishilgan holda e'lon qilish.

Dunyoda birinchi fond birjasi 1773 yilda Londonda brokerlar tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish uchun tashkil etilgan. Hozirgi davrda dunyoning 60dan ziyod mamlakatlarida 200ga yaqin fond birjalari mavjud. Shu jumladan, O'zbekistonda ham 1996 yildan ishlab turibdi.

Fond birjasi faoliyatini faollashtirishda banklarning ahamiyati kattadi. Chunki banklar moliyaviy vositachilik rolini o'ynovchi yagona muassasa hisoblanadi. Banklarning fond birjasi faoliyatida faol ishtirok etishi bir qancha vaziyatlar bilan taqozo etiladi.

1. Tegishli tashkiliy imkoniyatga ega bo'lgan banklar dastlabki chiqarilgan qog'ozlarni samarali joylashtira oladi.
2. Xaridorlarga kompleks moliyaviy xizmat qilishga aylangan univversal banklar keng ko'lamda tejamkorlikka erishish imkoniyatiga ega.
3. Hamkorlikda moliyaviy mablag'larni saqlash tizimi va hisob-kitob kliring markazlari orqali banklar hisob-kitoblarni maksimal tezlashtirish va qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega.
4. Fond birjasida banklarning faoliyatini ularning moliyaviy imkoniyatlarini manyovrlashni kengaytiradi va daromad hosil qiluvchi operatsiyalar spektrini kuchaytiradi.
5. Hozirgi vaqtda makroiqtisodiyotning yo'nalishi unumliqtisodiy siyosatni ko'zdan tashlab belgilab beruvchi moliya kapitali strukturasi takomillashtirish chora-tadbirlari ko'rilmogda.

Bularning hammasi fond birjasi bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekistondagi qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etishning o'ziga xos va mos keladigan xususiyatlari, boshqa davlatlardan farqi nimada ekanligi ko'rsatilishi lozim.

Takrorlash uchun muammoli savollar

1. Qimmatli qog'ozlarning sotish va sotib olishdagi muammolar nimalarda iborat, ularni yechish usullari-chi?

2. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi «o'yin»lar va fond birjalaridagi sotish va sotib olish «o'yin»lar deganda nimani tushunasiz?
3. Qimmatli qog'ozlarni iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri va zarari nimadan iborat?
4. Qimmatli qog'ozlar bozorining unsurlari.
5. Fond birjalari va ularning turlari.
6. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning roli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqlof yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz -jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyul. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 31 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 y.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 b.
8. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi, Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. T.: 1999g. Gl-1.
11. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1.

21-Mavzu. Marketing va menejment asoslari.

Reja:

1. Marketingning mohiyati, vujudga kelishi va tamoyillari.
2. Marketingning maqsadi va ishlanish usullari.
3. Marketing turlari, ularni O'zbekistonda qo'llash muammolari.

Tayanch iboralar

Marketing, marketing tadqiqoti, marketing yo'nalishlari, xom-ashyo marketingi, tayyor mahsulot marketingi, marketing, izlanishlar, marketing turlari, konversion marketing, rag'batlantirish marketingi, remarketing, demarketing, saloharo marketinge

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti o'z taraqqiyoti darajasiga erishguncha uzoq

tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bir tomonda, bozor iqtisodiyotiga davlat yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning juda xilma-xil shakllari va usullari yuzaga keladi. Ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini tartibga solish va boshqarish imkoniyatini beruvchi me'yorlar va qoidalar tarkib topib keladi. Ana shunday usullardan biri marketing bo'lib oldi-sotdini o'rganish, tashkil qilish va tartibga solish shaklidir. Shuning uchun, uning (marketingning) g'oyalari, qarashlari har bir mustaqil fikr yurituvchi inson yoki firma, korxona va barcha muassasalar faoliyatida keng qo'llanadigan iqtisodiy tahlil vositasi bo'lib qo'llandi. Aslida, marketing asoslari tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, ayirboshlash hamda oldi-sotdisi vujudga kelganidan beri kishilik jamiyatida shakllanib rivojlanib va takomillashib bormoqda.

Ayniqsa, tovar - pul munosabatlari rivojlangan XIX asrning oxiri XX asr boshlarida tovar ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish taraqqiyoti bozor iqtisodiyotining munosabalarini shakllanishida yangi bosqichiga o'tishini qonuniy ravishda taqozo etadi. Shuning uchun asr boshida tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish keng yo'lga qo'yilgan va tartiblangan, AQShda marketing qoidalariga amal qila boshlanganligi yozma manbaalarda yoritiladi.

Marketing hozirgacha rivojlanishning uch bosqichni kechirdi:

- 1) tovarlar sifati va xaridorni qoniqtiradigan bahoda ishlab chiqildi va xaridorni qoniqtiradigan bo'ldi.
- 2) XX asrning 20-30 yillarida tovarni sotish, qaerga va qanchadan sotish, uni tashkil etish amalga oshirildi;
- 3) XX asrning 50-60 yillarda marketing to'la bozor kontsepsiyasi bo'lib, bozorda faqat iste'molchi manfaat asosiy o'rin egallaydi.

1. Marketingning mohiyati, vujudga kelishi va tamoyillari. «Marketing» tushunchasi bizning iqtisodiy hayotimizda nisbatan yangi hisoblanib, bozor, bozorni o'rganish, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. («Marketing» - inglizcha so'z bo'lib, bozor yoki oldi-sotdi ma'nosini bildiradi). Bu tushuncha sobiq ittifoq davrida ilk bor XX asrning 70-yillarda iqtisodiy axborot sifatida maqola va izlanishlarda paydo bo'ldi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy holatning bunday faoliyat yurgizishiga rejali iqtisodiyot tizimi tayyor emasligi marketingni joriy etish, rivojlantirish va uning yordamida samaraga erishish imkoniyatlardan mahrum qildi. Vaholanki, marketing mazmunan bozor munosabatlariga xos mexanizm hisoblanib, u xalq xo'jaligining barcha jabhalariga tovar - pul munosabatlari va qiymat qonuniga amal qilib, xo'jalik yuritishiga asoslangan, fen ekanligi aniq yaqqol ifodalangan edi. Shu asosda marketing o'z ichiga mahsulot ishlab chiqarish va uni tashkil qilish bo'yicha omillarni o'rganish, xususan yaratilgan tovarlar harakatini boshqarish, ularni sotish, hamda shu sotishni rag'batlantirish, reklamani tashkil qilish tovar bilan bog'liq servisni yo'lga qo'yish jarayonlarini kompleks holda oladi. Shuningdek, bozorni kompleks ilmiy o'rganish, marketing strategiyasi va taktikasini to'g'ri belgilash, tovar ishlab chiqarish uslublarini keng ma'noda baholash va shu kabi iqtisodiy holat va rivojlanish yo'llarini o'rganish kabi masalalar ham marketing faoliyatining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, marketing faoliyati insonning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bu bog'liqlik marketing qamrab

olgan jarayonlarda namoyon bo'ladi. Demak, marketing bevosita inson faoliyati mahsuli hisoblanib, shu faoliyatning samarali bo'lishini ta'minlovchi xo'jalik mexanizmidir. Shu bois marketing ta'rifi ham shu bog'liqlik asosida bo'lib, bozorda faoliyat yurguzayotgan har qanday bozor ishtirokchisi uchun o'z xususiyatini belgilashni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda marketing faoliyati (tizimi - barcha bajarilishi va hal qilinishi kerak bo'lgan ishlar majmuasi) rivojlangan mamlakatlarda nihoyatda keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu faoliyat hamdo'stlik davlatlarida ham keng e'tiborga molik mexanizm ekanligi tan olindi va joriy etilmoqda. Marketing tizimi har bir alohida olingan iqtisodiy va siyosiy sharoitda va faoliyatda o'z xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga, uning asoslari butun dunyodagi mamlakatlarda yagona hisoblanadi. Shunga ko'ra, marketing tizimini qo'llash har bir davlat, korxona faoliyati uchun bir maqsadga qaratilgandir, ya'ni yuqori daromad va naf ko'rinishni o'zining maqsadi, tamoyillari va yo'nalishlarini ilmiy ifodalab beradi.

Fan sifatidagi asosiy tamoyili. Har bir fanning predmeti va uning uslublari bo'lgani kabi, marketing ham alohida fan sifatida har bir oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida o'rganilmoqda. Bu fanning o'ziga xosligi shundan iboratki, u fan sifatida ham, iqtisodiy mexanizm sifatida ham belgilangan bir maqsadga erishishni asosiy vazifa qilib qo'yadi. Shu bois ham, bizning davlatimizda marketing mutaxassisligi oliy iqtisodiy ta'lim tizimida asosiy kasb etib joriy etildi.

Marketing tamoyillaridan bozorga kirish har bir faoliyat yurgizuvchi uchun eng oliy vazifadir. Bozor munosabatlariga kirish nihoyatda katta harakatni talab qiladi. Bu harakatda marketing dasturini ishlab chiqish, tuzish bosh vazifadir. Ushbu hujjat (barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan) bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirish yo'llarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqur o'rganish asosida unga kirib olish yo'llari belgilanadi. Shunga ko'ra bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirib olishning ko'plab yo'llari mavjud: bozorga davlatning iqtisodiy siyosati asosida, raqobat kurashi asosida, raqobatsiz, yangi mahsulot yaratish bilan mavjud tovarlarning iqtisodiy va tashkiliy turlarini o'zgartirish evaziga hamda boshqa ko'plab yo'llar bilan kirish mumkin. Bular har yo'lning o'ziga xos xususiyati bo'lgani kabi, ularning yagona iqtisodiy-tashkiliy asosi ham mavjud. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirish barcha faoliyatning iqtisodiy barkamolligi, raqobat kurashiga shu faoliyatning bardosh bera olishi, ishlab chiqarish jarayonining zamonaviy texnologiya va ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalariga tayanganligi, ishchi xodimlarning malakasi mahorat va tajriba darajasi, xom-ashyo va materiallar sifati va boshqa ko'plab omillarga bog'liqdir. Shuning bilan birga marketing faoliyatining qanchalik darajada muxtasarligi ham bozor iqtisodiyotiga kirishni ta'minlovchi omillarning asosiyalaridan hisoblanadi.

Marketing vazifasini belgilovchi asosiy tamoyillardan yana biri, bozor iqtisodiyoti sharoitida mustahkam o'rtnashish va mustahkamlanishdir. Bu tamoyil, avvalam bor, bozor iqtisodiyoti talablari, narx-navo, tovar sifati va qo'shimcha xizmatning mavjudligidir. Demak, narx-navo yaratilgan va sotilayotgan tovarning yuqori sifatiga to'laqonli bog'liqdir. Tovarning yuqori sifati har bir ishlab chiqaruvchining eng dolzarb vazifalaridan hisoblansa, bozordagi talab va taklif

orasidagi muqobillik narx-navoning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bozor iqtisodiyotida o'rnatish, eng avvalo, bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlardagi shart-sharoitlarini chuqur o'rganish va vazifalarining bajarish imkoniyati katta ahamiyatga egadir. Bozor iqtisodiyoti talablarining barqarorligi va shu vaqtning o'zida tovarlar raqobati asosida iqtisodiy imkoniyatlarning belgilash bozordan har bir sub'yektlarning asosiy niyatlaridan hisoblanadi.

O'z maqsadiga erishishdan iborat bu tamoyil mazmunan hukmron darajada ta'sir ko'satuvchi darajasigacha etishish ma'nosini ham anglatishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati cheksiz bo'lmaydi, balki talab va taklif qoruni negizida yaratilayotgan tovarni ishlab chiqarish, sotish, aholining sotib olish qobiliyati, tovarning hozirgi paytdagi va istiqboldagi iste'mol qobiliyati va boshqa omillar uning bozordagi narxini muntazam ravishda beto'xtov izlanishlar olib borishga undaydi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarini uzluksiz o'rganib borish evasiga, shu jarayonning o'zida mavkeini mustahkamlab hani boradi. Bunday mavqe dunyo ovozasiga ega bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishga erishish, ularning sifatiga va narx-navosiga to'la kafolat berish hamda mustahkam moddiy-texnika bazasiga suyangan faoliyatni kengaytirish demakdir.

Marketing maqsadlari har bir darajadagi faoliyatning biron manfaatli natijaga erishishga yo'naltirilgan sa'yi-harakatlar majmuasidir. Marketing faoliyatidagi serqirralik, aynan shu mazmundagi asosiy maqsadlar to'rini belgilaydi. Maqsadlar esa marketing jarayonining har bir bosqichi uchun belgilangan bo'lib, marketing tamoyillariga kirishda va unda mustahkam o'rnatishda quyiladigan asosiy maqsadlar turkumiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot turlarini bozor talabiga mos holda rivojlantirib borish, eng kam moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari xarajatiga erishishga, zamonaviy va mustahkam moddiy-texnika, texnologiya taraqqiyoti natijalari bilan muntazam rivojlantirib borish va boshqalardir.

Marketing maqsadlari marketingni har bir faoliyatining har bir jarayonida ham mavjud bo'ladi. Agar ishlab chiqarish jarayonida sifatli, arzon, ishlatilishi va iste'moli bo'yicha qulay mahsulot yaratish asosiy maqsad hisoblanse, shu mahsulotni tashish va iste'molchilarga etkazish sharoitlarining mahsulot tanaarxiga (bahosiga) qo'shiladigan xarajatlar turkumida eng kam sarf qilish asosida bo'lishini ta'minlash, uning sotilishini tezlashtirish asoslarini belgilash ham katta ahamiyatga molik maqsadlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir maqsad o'z navbatida zaruriy usullar yig'indisi asosida hisob-kitob ishlarini bajarishni nazarda tutadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida sarf xarajatlarni hisoblash, xom-ashyo ta'minotida me'yorlar turkumi mehnatni tashkil qilishda mehnat turlari bo'yicha haq to'lashni harpo etish va hokazolar ishlab chiqarishning iqtisodiy-tashkiliy usullari hisoblanadi. Savdo jarayonida esa bir kunlik sotish tashkil qilishga qaratilgan qator me'yoriy hujjatlar (hisob-kitoblar) bilan bog'liq ishlarning tashkiliy asosiy belgilashni nazarda tutadi.

Marketing maqsadlari bevosita (mahalliy, milliy, iste'mol kabi) bozor turlariga qarab ham belgilanadi. Agar mahalliy bozorni egalash ishlab chiqaruvchi uchun eng asosiy maqsad hisoblanse uni kengaytirish hududiy va milliy bozorlarga

olib borish, jahon bozoriga chiqish, ma'lum turdagi tovar bilan mustahkamlanib olish ishlab chiqaruvchi (korxona, firma) uchun oliy maqsadlardan hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotga oid qonunlari majmui dolzarb masalalardan chetga eksport tovar chiqarishni yo'lga qo'yish har bir ishlab chiqaruvchi uchun eng asosiy vazifa qilib belgilab qo'yilgan. Shu bois jahon bozorida savdo qilish sharaflari ko'rsatkich hisoblanishi ham davlatimiz ravnaqi uchun hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda.

Marketing vazifalari yuqoridan kelib chiqadi va ular bajarilishi lozim bo'lgan joriy va kelajakdagi barcha turdagi ishlarni nazarda tutadi. Vazifalarni shartli ravishda ikki yo'nalishga ajratish mumkin: birinchi holda marketingni o'z vazifalariga va ikkinchi holda marketing dasturini bajarish bilan bog'liq vazifalarga bo'lish mumkin. Marketing tizimida har bir jarayon uchun aniq vazifalar belgilangan bo'lishi shart va bu vazifalar, aytib o'tilganidek, marketing tamoyillari va maqsadlaridan kelib chiqadi. Qabul qilingan qoidaga binoan vazifalar tuzilgan marketing dasturi asosida belgilanadi.

Birinchiidan, ishlab chiqarish marketingni mahsulot yaratish, uni ishlab chiqarishga qo'yish, ishlab chiqarilishini tashkil qilish, sotish va uni rivojlantirish, reklamaga keng e'tibor berish, servis xizmatini tashkil qilish kabi jarayonlarda ajralishi lozim bo'lgan ishlar turkumini belgilash bilan bog'liq vazifalarni belgilasa, ikkinchiidan, tovar marketingi shu tovarni bozorda sotish bilan bog'liq jarayonlarning har birida konkret vazifalar belgilashni taqozo etadi. Demak, marketing vazifalari amaldagi tamoyillarni nazarda tutib qabul qilingan (qo'yilgan) maqsadlarga erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan ishlar to'plamidan tarkib topadi. Vazifalarning bir birini to'ldirish xususiyati va bog'liqligi har birining bajarilishini nazarda tutadi. Ular bajarilishining nazorat ostida bo'lishi esa umuman marketing dasturining bajarilishiga garov bo'lib xizmat qiladi.

Vazifalarning marketing dasturining bajarilishi bilan bog'liq turlari esa aynan shu marketingni qo'llash (joriy etish) bilan bevosita bog'liqdir. Bu jarayon o'z navbatida, asosiy maqsadlarga erishishga imkon yaratadi. Masalan, ishlab chiqarish marketingida, shu dasturni tuzish bilan birga tashkiliy ishlar, jumladan shartnomalarning huquqiy asoslarini, kadrlar malakasini belgilovchi mezonlar turkumini, olingan hududda siyosiy holatni hisobga olgan, xom-ashyo va materiallar zahirasi belgilash kabi vazifalar pirovard natijada marketing dasturining bajarilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, marketing vazifalari umumiy holda quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ilmiy izlanishlarda bozor talabiga mos tovar yaratish va shu ishlab chiqarishning zamonaviy asoslarda bo'lishini ta'minlovchi imkoniyatlardan to'la foydalanish;

- tovarning bozordagi ahamiyati va mavqei yanada mustahkamlash uchun zamonaviyligini mustahkam va muntazam ushlab turish;

- ishlab chiqarishning zamonaviy texnika vositalari bilan qurollanib borishni ta'minlash;

- ishchi xodimlar malakasining zamon talablari darajasida bo'lishga erishish;

ahamiyatli bosqichi bu talabning zaruriy mablag'lar bilan ta'minlanishidir. Aholining sotib olish qobiliyati bozorda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois talabning bu turi bozordagi har bir sotuvchi uchun iqtisodiy hisob-kitobga moliqdir. Bozorda bunday talab tovar ishlat chiqarishga asos bo'ladi. Ishlab chiqarilgan tovar xaridor ehtiyojini qondirish xususiyatiga ega bo'lishi bilan birga oldi-sotdi kelishuvini barpo etadi. Kelishuv esa o'z navbatida iqtisodiy aloqalarning shakllanishiga va rivojlanishiga asosan bo'ladi. Demak, talab bozorda amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar asosini tashkil etib, shu munosabatlar shakllarini belgilab boradi.

Talab o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi. Uning hayotiylik davri mavjud bo'lib, bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Bu jarayon bozordagi xom-ashyo mahsuloti turiga bog'liq bo'ladi. Agur yangi tovar yaratilishi bilan unga talablarning yuqori bo'lish tabiiy hol va shakllanishi davri hisoblanadi. Shu tovarga talabning ortib borishi o'sish davri deb baholanadi. Tovarning bozordagi holatiga qarab, bu davr uzoq davom etishi mumkin va aksincha. Shu bois tovar yaratishda ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalaridan to'liq foydalanish va bozorni mukammal o'rganish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Bunday holatni ushlab turish esa tovarga bo'lgan talabning barqarorlik davri deb yuritiladi. Talabning susayib borish davri esa su'nish davri deyiladi. Bozorda talabning shunday jarayonlarni bosib o'tishi muqarrardir. Buning asosiy sababi yangi tovarlar yaratishning tabiiyligidir.

Talabning hayotiylik (tovar ham mavjud) davrlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilash, qisman yangiliklar kiritish va umuman yangi mahsulot o'xshashlarini ham yaratish kabi jarayonlar shu talabning o'sishi va boshqa davrlar bilan bog'liq. Talab qanchalik yuqori bo'lsa va u kelajakda ham mavjud bo'lsa, ishlab chiqarish shunga mos holda o'sib boradi.

3. Marketing turlari, ularni O'zbekistonda qo'llash muammolari. Bozor iqtisodiyoti talablari asosida marketing turlari quyidagilardan iborat: 1) konvyersion marketing; 2) rag'batlantiruvchi marketing; 3) rivojlantiruvchi marketing; 4) remarketing; 5) qo'llab-quvvatlovchi marketing; 6) demarketing; 7) qarshi ta'sir ko'rsatuvchi marketing va hokazo.

Marketing nazariyasi bu fikrlash obrazi, ishchan fikrlash falsafasi yoki yo'naltirishdir. Bu vaqtning o'zida marketing biznes sohasida harakat qilish usulidir. Tabiiyki, fikrlash tarzi ishlab chiqarishning bozordagi harakati yo'nalishini ham belgilaydi. Qator cheklik marketingshunoslar va etakchi korporatsiyalarning marketing bo'limlari odatda quyidagi vazifalarni bajarishlarini juda ham qonuniy deb hisoblaydilar:

- bozorni tahlil qilish;
- tayinlangan tovarning shakli va tashqi ko'rinishini yaxshilash;
- tovar markasini tanlash;
- sotish va etkazib berishni tashkil qilish;
- reklama ishlarini olib borish;
- xaridorlarning to'lay olish qobiliyatlari ostidan nazoratni amalga oshirish;

- tovarni sotish chog'ida va uni sotganidan keyin ko'rsatiladigan turli servis xizmatlarini taklif etish;

- kim uchun ishlab chiqish kerak va qayerda, qachon sotilishini tahlil qilish.

Xalqaro marketing alohida mamlakatning milliy yoki ichki marketingdan farq qilmaydi. Xalqaro marketing firma yoki korxonaning tashki bozorga chiqishi uchun qaror qabul qilgan davridan boshlanadi. Marketingning bu ko'rinishi asosan 50 yillardan keyin paydo bo'ldi. Xalqaro marketing taqsimotining chuqurlashuvi, kengayishi va xo'jalik hayotining baynalminallashuvi; tovarlar, xizmatlar va g'oyalarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish sharoitlari ularning o'zgarishi bilan kuzatiladigan xalqaro aloqalar intensivlashtirish, raqobatchilik kurashining keskin o'tkirlashuvi va jahon sahnasida siyosiy va iqtisodiy kuchlar nisbatining jiddiy o'zgarishi, xalqaro marketing nazariyasining paydo bo'lishi va rivojlanishining ob'yektiv asosi hisoblanadi.

Xalqaro marketing, bu xalqaro miqyosda bozor faoliyatining mavhum usullari va vositalarining bir yig'indisi emas, balki foyda (monopol foyda) olish maqsadida jahon bozorlariga kirish, egallab olish va nazorat o'rnatishga kompleks, yaxshi muvofiqlashtirilgan va bir maqsadga yo'naltirilgan o'rinishdir. Marketingning bu ko'rinishi u yoki bu mamlakatlar bozorlarining xususiyatlarini, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy muhitini o'rganish bilan bog'liqdir. Shuningdek, xalqaro savdoning xususiyatlari, boj harakatlari va tarif to'siqlari, valyutani tahlil qilishni taqozo etadi. Bu vaziyatlarining firma faoliyatiga «ta'sir samarasi» marketing rejasini ishlab chiqishda, albatta, hisobga olinishi kerak. Ma'lumki, marketing ichki bozorda, ya'ni ayrim mamlakatlarning o'zini bozorida xalqaro marketingga nisbatan afzalroq, chunki bu holda o'zga tilni o'rganmaslik mumkin. CHet el valyutasi bilan ish ko'rmaslik, o'zga madaniyat va urf-odatlar, mamlakatlarning siyosiy yoki iqtisodiy barqarorsizligi bilan ish ko'rmaslik mumkin.

Shunday qilib, jahon bozorlarini kompleks o'rganish va ularga izchilik bilan kirib borish yo'lida xalqaro marketing bo'yicha mutaxassisning dastlabki qadami bo'lib, bu bozorlarni izchil tahlil qilish bo'lib qolmog'i kerak.

Ilg'or texnologiyalar harakati sohasidagi xalqaro marketingning roli ham iqtisodiyotga beqiyosdir. Yetakchi firmalarning tajribasi shundan dalolat berib turibdiki, ular faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan innovatsion faollik yoki «bozor yangiligi» tovarini yaratish bilan belgilanadi. Bunday tovar an'anaviysiga nisbatan foydaning o'rtacha 28-30 foiz yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Bunday sharoitlarda firma muvaffaqiyatga imkoniyati eng yangi texnologiya sohasiga kuchaydiki, bu xalqaro marketing tamoyillari shakllanishiga va judayam samarali shakllari quyidagilar kiradi:

- litsenziyalarni sotib olish (savdo markasi, yangi texnologiya nomi, patentlar);

- yuqori malakali chet elik olimlar savdo qilish va ob'ektlar qurishning yangi shakllari;

- kompleks asbob-uskunalar bilan savdo qilish va ob'ektlar qurishning yangi shakllari;

- lizing (lizing firmasi biror boshqa firmadan asosiy ishlab chiqarish vositalarini olib ijaraga beradi).

Shunday qilib, eng qulay qarorni izlash va topish, muvaffaqiyatli marketingchilik boshqaruv strategiyasi, tovarlarni hayot sikli bo'yicha bozor klassifikatsiya, reklama siyosatini to'g'ri olib borish, xaridorlarni aniq tabaqalash bu xalqaro miqyosida marketingchilik faoliyatini boshqarish san'atidir. O'zbekiston xalqaro marketing izlanish yo'llarini va tadbirlarini ishlab chiqarmoqda. Uning natijasida «UzDEUlavto» va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari va boshqa eksportbop tovarlarni ishlab chiqarmoqda.

Takrorlash uchun muammoli savollar.

1. O'zbekistonda marketingni tashkillashtirishning qanday muammolari mavjud va echish usullari nimalardan iborat?
2. O'zbekistonda menejmentni rivojlanishiga nimalar to'sqinlik qilmoqda?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va iqtisodiy yo'l» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz -jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyul. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 31 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
6. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 yil.
7. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob, 8-33 b.
8. O'Imasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kiril va lotin hyozuvlarida). T.: 2006.
9. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
10. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. T.: 1999g. Gl-1.
11. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992y. Gl-1

22- mavzu: Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli. Aholi daromadlari va ijtimoiy himoya.

Reja:

1. *Davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli, maqsadi va vazifalari, uning ta'sir qilish usullari va vositalari.*
2. *Aholi daromadlarining tarkibi va turmush darajasi ko'rsatkichlari.*
3. *Davlatning ijtimoiy himoyalash siyosati va uning yo'nalishlari.*

1. Davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli, maqsadi va vazifalari, uning ta'sir qilish usullari va vositalari. Davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli, maqsadi va vazifalari, uning ta'sir qilish usullari va vositalari. Milliy iqtisodiyotning bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikka erishilgan darajasi ko'p jihatdan davlatning iqtisodiyotga aralashuv darajasidagi roliga bog'liq: a) bozorni tartibga solish usullari (qaror, farmon, qonun va me'yoriy jihatlari; b) iqtisodiy jarayonda davlatning aralashuvi va bozor mexanizmlarining uyg'unlashtirish orqali; v) iqtisodiyotni bir markazdan ongli ravishda istiqbolni ko'zlab markazdan boshqarish orqali.

Iqtisodiyot ta'limotlar tarixida iqtisodiyotni boshqarishda A.Smit bozor mexanizmini cheksiz va tartibga solishda bozor mexanizmidan foydalanishni asoslab bergan edi. Bu nazariya jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida o'zini oqlamadi. Davlatni iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi Djon Keynsning nazariyasida asoslangan. U o'zini "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" kitobida davlat fiskal (xaznaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, iqtisodiyotni yalpi tartibini rag'batlantirishni va aholini ish bilan bandligini oshirishni ta'minlash zarurligini isbotladi. Bu nazariyani joriy qilgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlik va aholi farovonligini oshirib borish o'z tasdig'ini topdi. Bu 1929-1933 va 2007-2009 yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ijobiy tomoni namoyon bo'ldi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini bajarishdagi vazifalari: a) mudofaani, ichki tartibni saqlash, aholining kam ta'minlangan toifalarini ijtimoiy himoyalash; b) bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy tadbirkorlarni, kichik biznesni va boshqa korxonalarni ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari bilan ijobiy hamda salbiy ta'minlashning tartibga soladi; v) ishlab chiqarish, tashish xarajatlarini va mahsulot tannarxini kamaytirish, foydali, ekologik va atrof muhitni muhofazalashga e'tibor qaratadi; g) davlat iste'molchilar manfaatini himoyalash, iste'molining hajmini kengaytirish, aholi salomatligini saqlash, daromadlarni oshirish; d) milliy iqtisodiyotni barqaror o'sishini, real tarmoqlarni jadal rivojlantirishni va moliya-bank, kredit tizimi takomillashtirishga katta e'tibor beradi.

Davlatning tartibga solish maqsadi: a) iqtisodiyotni barqaror taqqiy ettirish, ziddiyatli muomimalarning yechimini hal etish, iqtisodiy rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalarni ijobiy siljishni qo'llab-quvvatlash hamda eksport, importni, tashqi iqtisodiy aloqalarni himoya qilishni tartibga solish; v) aholini mutassil farovonligini oshirish, ish haqi, penya va nafaqalar miqdorini oshirish, inflasiyani jilovlash, raqobatni rivojlantirish; g)

markazlashgan daromadni budjet orqali qayta tacsimlash, resurslarni qayta taqsimlash, YalMning hajmini oshirishdan iboratdir.

Davlatni iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari shundan iboratki, davlat iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sirida vositali (bevosita) aralashuvi orqali korxonalarni, tashkilotlarni moliyalashtiradi, kredit beradi, taqiqlash, ruxsat berish, majbur qilish va ma'suliyatini oshiradi.

2. Aholi daromadlarining tarkibi va turmush darajasi ko'rsatkichlari. Aholi daromadlari deb, ularning muayyan vaqt oralig'ida (bir yilda) pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori tushuniladi. Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan, tushadigan daromadlar nafaqa, pensiya, stipendiya, imtiyozlar shaklida, kapitaldan foizlar, dividend, renta, ijara, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan, har xil xizmatlar ko'rsatishdan kelib tushgan daromadlarni tashkil etadi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaligining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlardan borat. Shuningdek, aholini dam olish, bilim olish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy imtiyozlari ham daromadga kiradi.

Daromadlar-minimal daromadga-ma'lum vaqt oralig'ida olingan pul daromadi miqdori (ish haqi, pensiya, nafaqa kabi) va real daromad - aholi real daromadlarining bir qismiga tovar xizmatlar sotib olishga, layoqatligini bildiradi. Bunga narx-navo darajasi, soliqlar, xizmat ko'rsatish narxlari hisoblanadi. Aholining pul daromadlari tarkibi quydagicha ko'paygan. 2007 yildagi aholining jami pul daromadi 100 foiz bo'lsa, shundan ish haqi-32,1, ijtimoiy transfertlar-15,8, mol-mulkdan tadbirkorlik daromadlari-52,1 foizni tashkil etgan. o'rtacha ish haqi 470 ming so'm pensiyalar-67784 so'm. Yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri kelgan hissasi 1997 yildagi 41294 so'mdan 2007 yilda-1045509 so'mga yoki 2,6 barobarga ko'paydi. AQShda bu ko'rsatkich 10 mln dollarni tashkil etgan. Daromadlar hamma vaqt teng bo'layvermaydi, u doimo tengsiz holatda bo'ladi. Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida Lorents egri chizig'idan foydalaniladi.

Aholi daromadlari nominal ish haqi va real ish haqi ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Daromadlarning tengsizligi kamayishining 80 %ni asosan transferi to'lovlari taqozo etadi. Eng past daromad oluvchi (70-75 foiz)ni tashkil etadi.

3. Davlatning ijtimoiy himoyalash siyosati va uning yo'nalishlari. Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadini tabaqalashgan soliq olish yo'li bilan shakllantirish va uni davlat budjeti orqali aholi turli guruhlari (toifalari) o'rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarini qayta taqsimlashda ijtimoiy to'lovlar bilan birla bozor narxlarini o'zgartirish va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalaniladi.

Ijtimoiy to'lovlar - kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo'lib, bu usullarning iqtisodiy faoliyatida qatnashish bilan bog'liq bo'lmaydi. Ijtimoiy to'lovlarning maqsadi jamiyatlardagi munosabatlarni insonparvarlashtirish hamda ichki tartibini ushlab turish hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat-bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va barqaror iqtisodiyotni qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan adolatli siyosatdir.

Aholining ijtimoiy himoyalash tadbirlar tizimidagi eng muhim yo'nalishlar: a) narxlarning erkinlashtirish va pulni qadsizlanishini ortib borishi bilan eng kam va o'rta darajasini uzuluksiz oshirib borish; b) ish haqi, pensiya, stipendiya va imtiyozlarning oshib borishi, banklardagi aholi omonat-jamg'armalari stavkalarini kamaytirmaslik; v) daromadlar nisbatini o'zgartirishda 1993 yillardan joriy etilgan yangi yagona tarif stavkasini qayta ko'rib chiqish; g) ichki iste'mol bozorini himoya qilish, uni muayyan darajada ushlab turish; d) aholini kam ta'minlangan toifalarini (yoshlar, pensionerlar, bolali onalar, ishsizlarni) turli yo'llar bilan himoyalash; s) ijtimoiy himoyani aniq maqsadli yo'naltirilgan, ya'ni kam ta'minlangan oilalarni, yolg'izlarni moddiy yordam bilan ta'minlash. Shu maqsadda budjetdan, korxonalar va tashkilotlar, tadbirkorlik tizimlari hamda ayrim fuqorolarning ixtiyoriy homiylik jamg'armalaridan to'lab turish; bu tadbirlar natijasida so'nggi 10 yilda ko'plab yangi usullar va shakllarda homiylik miqdori va davlatning qo'llab-quvvatlash tizimi ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 12.Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqloq yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
- 13.Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T.: 1997y. 188-210 betlar.
- 14.Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalash, yangi lash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va isloh qilishdir.
- 15.Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyul. «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 31 iyul.
- 16.Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 yil.
- 17.Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2003 yil.
- 18.Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi, T.: 2002y. 1-bob. 8-33 b.
- 19.O'inasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: T. 2006.
- 20.G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma, Farg'ona -2007.
- 21.Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Gulyamova S.S., Sharifxujayeva M., Abduraxmanova K. T.: 1999g. Gl-1.
- 22.Samuelson P. Ekonomika. M. 1992y. Gl-1.

III-BO'LIM. JAHON XO'JALIGI, UNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

23-mavzu: Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar

Reja:

1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi. Xalqaro mehnat taqsimoti.
3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'ektiv asoslari.
4. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.

Tayanch iboralar

Jahon	xo'jaligi	jahon
iqtisodiyoti	xalqaro	mehnat
taqsimoti	byaynalminallashuv	
xalqaro	hamkorlik	xalqaro
hamjamiyat	xalqaro	valyuta
xalqaro	savdo	xalqaro
	bozor	xalqaro
	bank	

1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi. Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar hozirgi davrda tarixiy taraqqiyot jarayonida tadrijiy asosda bosqichma-bosqich vujudga keldi. Jahon iqtisodiyoti ikki xil yo'nalishda yopiq va ochiq iqtisodiyot shaklida rivojlandi.

Yopiq iqtisodiyot tabiatan an'anaviy iqtisodiyot bo'lib, bu bozor iqtisodiyotining o'tmishdoshi bo'lib, unda u o'z qobig'ida o'ralgan bo'lib, o'zidan tashqari dunyo mamlakatlari xalqlari bilan aloqaga kirishmaydi, o'zini o'zi ta'minlash qoidasiga asoslanadi. Bunday iqtisodiyot konservativ, eskiltni ushlab saqlab qoladi, yangilikka intilmaydi. Jahon hamjamiyatidan ajralib qoladi. Ochiq iqtisodiyot - bu tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqaga kirishgan, ularning afzalliklariga tayanib o'zini taraqqiyotini yangi tomonga boruvchi iqtisodiyotdir.

Jahon iqtisodiy rivojlanishning hozirgi zamon eng muhim xarakter xususiyatlaridan biri - turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi ko'p tomonlar o'zaro bog'liqlarning va birligining o'sib borishi bilan alohidaligi saqlanib qolmoqda.

Jahon xo'jaligidagi har bir tarkibiy o'zgarishlar dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o'ziga tortadi. Mamlakatning ishlab chiqarish, savdo, valyuta, moliya sohalaridagi xalqaro jahon tamoyillariga bog'liqlik ob'ektiv reallik hisoblanadi. Har qanday mamlakatni uning iqtisodi qanday rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar, jahon xo'jaligi aloqalariga jalb qilmasdan, uning to'liq konli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Jahon xalqaro xo'jaligi bir-biridan maqsadlari amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlariga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlari amalda har xil turkumlarga bo'lingan. Ya'ni vaqtlargacha adabiyotlarda sotsializm dunyosi, kapitalizm dunyosi va uchinchil dunyo mamlakatlari degan tushunchalarni singdirib keldi.

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini umumiy asosda xo'jalik tizimlarini

xususiyatlariga qarab, uchta guruhni ajratib ko'rsatish mumkin: yuqori rivojlangan, bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti mavjud bo'lmagan mamlakatlar. Rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruh farqlanadi: kam, o'rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Janubiy Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YalM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Quvayt va boshqalar) eng kam rivojlangan davlatlar (EKVI), shu jumladan eng kambag'al mamlakatlar (CHad, Bangladesh, Efiopiya) har xil regional ittifoqlar va xalqaro mintaqaviy guruhlariga ajratiladi.

Bu barcha turli xillik bir butun yaxlitlikka o'zaro iqtisodiy bog'liqlikni har xil jihatlari orqali tutiladi. Hozirgi xo'jalik aloqalarining chuqurlashib borayotganligi baynalminallashuvining kuchayishi hamda fan - texnika revolyutsiyasining keng qamrovli xarakteri, aloqa va axborot kommunikatsiya vositalarining butunlay yangi roli sharoitida milliy iqtisodiyot o'z-o'zini samarali ta'minlay olmaydi.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlanadi, kapital milliy chegaradan o'sib chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi. Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi jarayoni tezlashadi.

Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarning baynalminallashuvini ko'p jihatdan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi mantiqiy taqozo qiladi.

Milliy xo'jaliklar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlar tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Ayrim mamlakatlarning ixtisoslashuvi mahsulotlari eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

Dastlabki vaqtlarda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslangan edi. Lekin, industriya rivoji bilan ishlab chiqaruvchi kuchlar baynalminal xususiyat kasb etib, milliy xo'jaliklar doirasidan tashqariga o'sib chiqa boshlagach, ularning negizidan barqaror xalqaro mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi.

Hozirgi xalqaro mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tuzumlarni o'z ichiga oluvchi - umumjahon xo'jaligi doirasida rivojlanmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti va ayirboshlashda qatnashayotgan mamlakatlar bir xil sharoitda bo'lmaydi turli jug'rofiy, tabiiy resurslarning tarkibi va miqdori, rivojlanish ko'lami, darajasi va iqtisodiyotini tuzilishi, ichki bozorning hajmi bilan belgilanadi.

Ana shu farqlar sababli, ayrim mamlakatlarda bir xil tovarlarni ishlab chiqarishdagi xarajalar darajasi ham turlicha bo'ladi.

Shuning uchun har bir mamlakat o'ziga nisbatan qulayroq, kamroq, xarajat bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotishga va aksincha jahon bozoridan o'zida ishlab chiqarish uchun xarajati ko'proq bo'ladigan tovarlarni sotib olishga intiladi.

Tovar mamlakatlar o'rtasida jahon narxlari asosida ayirboshlanadi. Ular

baynalminal qiymatga asoslanadi. Buning mehnat sarflari jahon bozorida e'tirof qilinadi.

Umuman o'lganda, jahon narxlarining tashkil topishi odatda, sof holda amalga oshmaydi. Baynalminal qiymatning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi maxsus omillar jahon narxlariga ta'sir qiladi. Tashqi savdo va valyuta cheklashlari, valyutalar qiymatining o'zgarib turishi, xalqaro monopoliya siyosati, birjadagi chayqovchiliklar va hokazolar shular jumlasidandir. Shu sababli, ayrim mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatlashuv qobiliyatidagi farqlar, pirovard natijada mehnat unumdorligining milliy darajasidagi farqlarini aks ettiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda yangi texnologik asoslarga o'tish jahon xo'jaligi aloqalarining tez o'sishi bilan birga boradi. Takror ishlab chiqarish jaryonlarining baynalminallashuv o'zining har ikki shaklida: integratsion (milliy xo'jaliklarining yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va transmilliy (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarda kuchayadi. Jumladan, butun dunyoda regional davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning qaror topish tamoyili kuzatiladi.

Jumladan, rivojlangan Yevropa integratsion hamjamiyati (YeI) doirasida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin harakati amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika umumiy iqtisodiy hamkorlik-AQSh, Kanada va Meksika iqtisodiyotining integratsiyasini ko'zda tutadi. Davlatlararo integratsiyaning kuchayishi Janubiy-Sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, arab dunyosi, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlari uchun ham xarakterli bo'lmokda.

2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi. Xalqaro mehnat taqsimoti. Turli mamlakatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari negizida xalqaro mehnat taqsimoti yotadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi.

- Tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo
- Kapital va chet el investitsiyalarining harakati
- Ishchi kuchining migratsiyasi
- Ishlab chiqarishning davlatlararo ko'pyeratsiyasi
- Fan-texnika sohasidagi ayirboshlash
- Valyuta-kredit munosabatlari.

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlantirishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro harakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida, bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilishining ma'lum darajasi bilan xarakterlanadi.

Kapitalning xalqaro harakati - bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va faoliyat qilishidir. U chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- xususiy yoki davlat kapitali shaklida. Kapitalning xalqaro tashkilotlar yo'li bilan harakati ko'pincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi;
 - pul va tovar shaklida, jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalar, patentlar, nou-xau hamda tovar kreditlari shaklida bo'lishi mumkin.
 - qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida.
 - ssuda va tadbirkorlik kapitali shaklida.
- Ssuda shaklidagi kapital qo'yilmalar bo'yicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi

kapital esa foyda keltiradi.

Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri va portfelli (maqsadli-buyurtma) investitsiyalardan iborat bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shu kapital hisobidan qurilish ob'ekti (korxonalar) ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Portfelli investitsiyalar esa bunday huquqni bermaydi. U odatda aksiya paketlari hamda obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar shaklida beriladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi, resuslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakattan boshqasiga ko'chirib o'tishda topadi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismini o'z ichiga oladi. Emigratsiya va imigratsiya, emigratsiya mamlakattan doimiy yashash joyiga chiqib ketishining, immigratsiya - mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklari litsenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilishini, umuman fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarishi bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ichiga oladi.

Ilmiy-texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri, injiniring hisoblanadi. Xalqaro injiniringning bir davlat tomonidan boshqasiga ob'ektlarni loyihalashtirish va qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish hamda injenerlik-qurilish xizmat ko'rsatishdan iborat.

Jahon infratuzilmasi - tovarlar ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy chegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi harakati butun jahon infratuzilmasining rivojlanishini va takomillashuvini tezlashtiradi. Juda muhim transport tizimi (dengiz, daryo, havo, temir yo'l transport) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotning rivojlanishida axborot kommunikatsiyalar tarmog'i tobora ko'proq, ahamiyat kasb etib boradi. Mutanosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozircha ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalmillashuvini rivojlantirib bo'lmaydi. Bunday infratuzilmaning ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'ladi.

Hozirgi jahondagi birjalar, moliya markazlari, yirik sanoat va savdo birlashmalari misli ko'rilmagan tezlik bilan operativ ma'lumotlar olishga va ularni ishlab chiqarishga imkon beruvchi eng yangi texnik vositalar bilan jihozlanganligidadir. Rivojlangan mamlakatlarda keng tarmoqli internet axborot majmuasi tashkil topmoqda, uning ta'siri amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga yoyilmoqda.

Hozirgi jahon sharoitida ilmiy va tijorat axborotlari ayniqsa, qimmatlidir. Shu sababli turli xalqaro darajalarda maxsus "Ma'lumotlar banklari" tashkil topmokda, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishi ancha yengillashtiradi. Jahon infratuzilmasi turli ziddiyatlarni bartaraf qilish orqali rivojlanadi.

Xalqaro ayirboshlash tovarlarda materiallashgan shakllardan nomaterial aloqalarga tobora ko'proq o'tin bo'shatadi, ya'ni fan-texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va boshqarish tajribasi, xizmatning boshqa turlari bilan ayirboshlash

o'sib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, hozirgi kunda xizmatlar jahon yalpi milliy mahsuloti (YaMM)ning 46 foizini tashkil qilmoqda.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'yektiv asoslari. Xalqaro iqtisodiy integratsiya - bu mamlakatlarning chuqur, barqaror o'zaro aloqalarining rivojlanishi va xo'jalik sub'yektlari o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida, ular xo'jalik-siyosiy aloqalarning birlashish jarayonidir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon-xo'jaligi rivojining tarixiy jihatdan uzoq davr davom etgan natijasi hisoblanadi. Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi kunda ham mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonlari hal etilmagan ko'pdan-ko'p muammolar mavjudki, bizning Respublikamiz uchun bu tashqi iqtisodiyotni va valyuta siyosatini erkinlashtirishdan iborat.

Hozir iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari quyidagilar:

Erkin savdo zonalar. Bu iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida qatnashgan mamlakatlar o'rtasidagi savdo cheklashlari bekor qilinadi. Bunga Yevropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bitim misol bo'la oladi.

Boj ittifoqi. Iqtisodiy integratsiyaning bu shakli erkin savdo ta'riflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi. Yevropa Ittifoqi (YEI) boj ittifoqiga yorqin misoldir.

To'lov ittifoqi. Bu milliy valyutalarning o'zaro erkin almashuvini va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilinishini ta'minlaydi. "Yevropa hamjamiyati, janubiy-sharqiy, Osiyo va MDH mamlakatlari uchun to'lov ittifoqi pirovard maqsadlardir.

Umumiy bozor. Bu iqtisodiy integratsiyaning ancha murakkab shakli bo'lib, uning qatnashchilariga erkin o'zaro va yagona tashqi savdo ta'rifi bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosatni ta'minlaydi. Bunga Yevropa iqtisodiy ittifoqi yoki Yevropa umumiy bozorini misol doirasida barcha boj to'lovlari va import me'yori (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Yevropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartibga solinadi. Pul mablag'lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o'tishi ta'minlanadi hamda umumiy ma'lumotlarni hal etishda yagona siyosat o'tkaziladi.

Iqtisodiy valyuta ittifoqi. Davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli hisoblanadi. Bu iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari bilan umumiy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayoni ob'yektiv xarakterdagi bir qator omillarni taqozo qiladiki, ularning ichidan quyidagilar asosiy o'rin egallaydi:

- xo'jalik aloqalarining bayналminallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umumjahon fan-texnika revolyutsiyasi;
- milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahon andozasiga o'tish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi, milliy iqtisodiy

manfaatlarga qanday darajada javob beradi degan savolni kuchaytiradi. Bu savolga javob topishga iqtisod fani ilgari qiziqib kelgan. Jumladan, A. Smit xalqaro mehnat taqsimoti masalasini tahlil qilib qanday tovarlarni eksport qilish va qaysilarini import qilish qulayligi to'g'risidagi o'z qarashlarini bayon qilish asosida "mutlaq ustunlik" nazariyasini ilgari suradi. D. Rikardo o'zaro foydali savdo va xalqaro ixtisoslashuvining ancha umumiy printsiplarini shakllantirib "qiyosiy ustunlik" nazariyasini ishlab chiqqan. U nafaqat milliy xo'jaliklar o'rtasidagi, balki milliy xo'jalik ichidagi mintaqalar, korxonalar o'rtasidagi har qanday mehnat taqsimotining ustunliklarini asoslab beradi.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo munosabatlari o'rnatilganda, ayirboshlash qanday nisbatlar asosida ro'y beradi, degan savol tug'iladi. Rikardoning xalqaro ixtisoslashuv ustunliklari haqidagi xulosalari bu muammoni chuqurroq tadqiq qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi. Jumladan, Dj. Mille ishlab chiqarish xarajatlarining turli nisbatlari o'rtasida o'rnatilgan almashuv mutanosibligi tovarning har biriga jahon taklifi va talabi hajmiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy nazariyada xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardoning klassik sxemasi bilan cheklangan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini ko'plab iqtisodchilar, jumladan S. Xekshyer, B. Olin, Dj. Keyns, V. Leontev va boshqalar tomonidan tadqiq qilindi. Xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish qiyosiy xarajatlar tahlili asosida ko'p omilli andoza tuzishga olib keladiki, unda tovar harakati bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin harakati imkoniyatlari hisobga olinadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarda nafaqat tarmoqlararo, balki tarmoqlar ichida va mintaqalar o'rtasidagi ixtisoslashuvning qonuniyatlari mamlakatning material, kapital, mehnat va fan sig'imli tovarlarga ixtisoslashuv sabablari ochib beriladi. Ixtisoslashuvda fan-texnika taraqqiyoti hamda texnologik o'zgarishlar sur'ati va xarakteri tasvirlanuvchi xususiyatlari aniqlanadi.

4. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari. Hozirgi jahon rivojining xarakterli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo Jahon savdosining tez o'sishi hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan jahon savdosi, tashqi savdo oboiroti, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi.

Eksport - tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Ko'plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo'lib, o'zlarining ichki iste'moli uchun zarur muhtoj barcha tovarlarni yetarli samaradorligi bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun eksport kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Jahon savdosida tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika revolyutsiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda jahon savdosining eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari yetakchi o'rinda ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayirboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xom-ashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik

iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi (masalan: chet el kompaniyasi vakillariga pochta; telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va h.k.)

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga kirib bormoqda, uning jahon hamjamiyatidagi ulushi va o'rnini tabori mustahkamlashib bormoqda, ayniqsa, tashqi savdo, eksport va import sohasida xorijiy davlatning salmog'i quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston tashqi savdosida Xorijiy va MDH mamlakatlarning salmog'ini o'sish dinamikasi (AQSh dollarida (mln))¹

Ko'rsatkichlar	2000	2004	2007	2009
Tashqi savdo aylanmasi	6212,1	8669,0	15719,6	21,2 mlrd dollar
MDH mamlakatlari	2297,8	3002,8	7679,1	-
Xorijiy mamlakatlar	3914,3	5666,4	8040,5	-
Eksport	3264,7	4853,0	8991,5	18091,1
MDH mamlakatlari	1172,2	1528,4	4273,0	-
Xorijiy mamlakatlar	2092,3	3324,6	4718,5	-
Import	2947,4	3816,0	6728,1	9401,5
MDH mamlakatlari	1125,6	1474,2	3402,1	-
Xorijiy mamlakatlar	1821,8	2341,8	3322,0	-
Tashqi savdo saldosi	29,5	1037,0	3755,8	2309,1

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalar aksiyalarini maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatlardan mablag'lar olishi taqozo etadi va shu orqali tasarrufida muhtoj resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan muhtoj qarzlarni ko'paytiradi. U Jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun sharoit yaratadi, chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga keltirilishini bildiradi. Tovar eksporti va importi summasi tashqi savdo obrovi yoki tovar obrovi, deb yuritiladi. Qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda reeksport ro'y beradi. Reeksport bilan reimport uzviy bog'liq. Reimport iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi. O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarni harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida, mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan ishchilar mamlakat ichida viloyatdan-viloyatga, hududdan-hududga erkin o'tishi mumkin, mamlakatlar

¹ O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami T-2009 y. 339 bet va 2013y. 340 bet.

o'rtasidagi til va madaniy to'siqlar haqida gapirmaganda ham immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi immigratsiyasiga katta cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligi, davlat tomonidan tartibga solinishining boshqa tadbirlardagi farqlar va boshqa qator institutsional to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan talablardan xarakteri va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Qiyosiy xarajatlar nazariyasiga ko'ra, erkin savdo tufayli, jahon xo'jaligiga resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin. Proteksionizm, ya'ni erkin savdo yo'lidagi to'siqlar xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo'qqa chiqaradi.

Erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar mavjud bo'ladi. Ularning asosiyfari quyidagilar:

Boj to'lovlari import tovarlarga aktsiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin.

Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin muhtoj tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi.

Ta'rifsiz to'siqlar deyilganda, litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo'yish yoki oddiy ma'muriy ta'qiqashlar tushuniladi.

Eksportni ixtiyoriy cheklashlar savdo to'siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o'zlarining ma'lum mamlakatga eksportini "ixtiyoriy" cheklaydi.

Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o'zlarining mamlakatlararo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, o'zlarining resurslari unumdorligini oshirish va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko'paytirilishi mumkin. Alohida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin muhtoj tovarlarga xusoslashuvni va ularning o'zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutishi mumkin.

Bu yerda mamlakatlar iima uchun savdo-sotiq qiladi - degan savol tug'iladi. Birinchidan, ijtimoiy resurslar dunyo mamlakatlari o'rtasida juda notekis taqsimlanadi: mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishi bilan keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu ikki holatning xalqaro savdoga ta'sirini oson tushuntirish mumkin. Masalan, Yaponiya ko'p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega, malakali mehnat ortiqcha muhtojligi sababli arzon turadi. Shu sababli, Yaponiya ko'p miqdorda malakali mehnat talab qiladigan turli-tuman raehtnat sig'imi tovarlarni samarali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Avstraliya esa, aksincha, juda keng maydonlarga ega muhtoj xatarli bo'lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega.

5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari. Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi, kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalarni oqimi, fan-

texnika, yutoqlarini ayirboshlash, turizm va x. k.) xizmat qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar xalqaro valyuta - kredit munosabatlari deb ataladi. pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga kelayotgan Valyuta - bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, funt sterling h.k.).

Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi. Bunda milliy va xalqaro valyuta tizimini farqlash zarur.

Milliy valyuta tizimi valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi. Xalqaro valyuta tizimi xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli. Uning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat: asosan xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari, SDR, Yevro) valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi, xalqaro to'lovlarni balanslashtirish tartibi, valyutaning qaytaruvchanlik sharoiti, xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tarkibi, valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida uchta bosqichdan o'tdi va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning o'z tiplari mos keladi. **Birinchi bosqich**, 1879-1934 yillar davri o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega muhtoj. **Ikkinchi bosqich**, jahon urushining oxiri Breton - Vuds tizimi deb nomlanuvchi tizim ustunlikka ega muhtoj. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. Hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971 yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqaradigan suzib yuruvchi valyuta tizimi nomini oladi. Chunki davlatlar ko'pincha o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi.

Oltin standart tizimi qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarni oltiniga almashirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritishga xizmat qilgan. Mamlakat, uchta shartni bajarsa, oltin standart qabul qilingan deb hisoblangan;

- a) o'z pul birligining ma'lum oltin mazmuni o'rnatiladi.
 - b) o'zining oltin zaxirasi va pulning ichki taklifi o'rtasidagi qattiq nisbatini ushlab turadi.
 - v) Oltinning erkin eksport va importiga to'siqsizlik qilmaydi.
- Oltin standart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. O'zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilgan, ularning huquqiy negizlari ikki tomonlama shartnomalar va bitimlar munosabatida o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligi aloqalarida ishtirok etishining asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdan iborat. Mustaqillikka erishgandan keyin 87 tadan ortiq mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi, 45 ta davlatda O'zbekiston elchixonalari ochildi, ko'pgina

xalqaro tashkilotlar bilan: BMT, XVF, Jahon banki, xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa taraqqiyoti va rivojlanish banki, Osiyo rivojlanish va Islom taraqqiyot banklari, MDH banki, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Jahon sug'urta tashkiloti, YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi va ishtirokchisi sifatida faoliyat olib boradi. Shu sababli O'zbekiston tashqi aloqalar va investitsiyalar vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bojxonalar xizmati kabilar qaytadan tashkil etildi. Dunyoning barcha mamlakatlarida O'zbekiston savdo uylari va savdo-sanoat palatasi harpo etildi, O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni 2008 yilda 3821 taga yetdi yoki 1995 yilga nisbatan 3,8 barabarga ko'paydi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham iqtisodiyotning real sektorini yanada rivojlantirishda xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning O'zbekistonga qiziqish oshib bormoqda. 2009 yilda Respublika iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 8,2 mlrd dollarni tashkil etdi, bu esa 2008 yilga nisbatan 24,2 foiz ko'pdir. Jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 68 foizga o'sdi, uning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investitsiyalar hajmi esa 1,8 barabarga ko'paydi. Bu – boradagi muammolardan biri- "rivojlanayotgan mamlakatlarda jahon amaliyotida davom etayotgan prokteksionizm siyosati oqibatidir" (Karimov I. Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar). Ma'lumki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi yuqori texnologiyalarning mamlakat ichiga kirib kelishiga qulay imkon yarat beradi, bu esa mavjud resurslardan yanada samarali foydalanishga olib keladi.

2010 yilning ikkinchi yarmidan jahon rivojlangan mamlakatlarida global moliyaviy-iqtisodiy inqirozni bartaraf etish bo'yicha hali qator muammolar mavjud. Ular, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, huquqiy me'yorlarni takomillashtirish, tashqi iqtisodiy munosabatlarni o'zaro kelishib olishdan iboratdir.

Takrorlash uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyotida jahon xo'jaligining qanday roli bor?
2. Jahon xo'jaligining vazifalari tizimi nimadan iborat?
3. Inson kapitalini shakllantirish bo'yicha xalqaro mehnat taqsimoti vazifasining mohiyati va xususiyati nimada?
4. Jahon valyutasin tashkil topishi
5. Jahon savdosining tarkibiy qismlari qanaqa bo'ladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekiston: o'z taraqqiyoti va istiqbol yo'li» T.: 1992y. 1-2 bo'lim.
2. Karimov I. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, hamkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: 1997y. 188-210 b.
3. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratiyalash, yangilash va mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va istoh qilishdir.

4. Karimov I. «O'zbekiston Respublikasi 19 yil mustaqillik yo'nalishlari». Prezident apparati, Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis deputatlari yig'ilishida so'zlagan nutqi. 2010 yil 30 iyul «Xalq so'zi» gazetasi, 2010 yil 31 iyul.
5. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. - T.: «O'zbekiston», 2009 y.
6. Karimov I. Asosiy vazifamiz-vatanimizni taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish T.: 2010 y.
7. Shodmonov Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (lotin yozuvida). T.: 2005 y.
8. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2002y. 1-bob. 8-33 b.
9. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi (kirill va lotin yozuvlarida). T.: T. 2006.
10. G'ofurov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Qo'llanma. Farg'ona -2007.
11. Ekonomicheskaya teoriya. Pod red. akademika Guiyamova S.S., Sharifxujueva M., Abduraxmanova K. T.:1999g. Gl-1.
12. Samuelson P. Ekonomiks. M. 1992